

U. T. Safarov, A. H. Yusupov

# CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI SAQLASHDA SOVUTISH USKUNA VA JIHOZLARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

**U.T.Safarov, A.H.Yusupov**

**CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI  
SAQLASHDA SOVUTISH USKUNA  
VA JIHOZLARI**

**O'QUV QO'LLANMA**

60811600 – Chorvachilik mahsulotlarini qayta  
ishlash texnologiyasi bakalavriat ta'lif yo'nalishlari  
talabalari va shu sohaga qiziquvchi kehg jamoatchilik  
uchun mo'ljallangan

**Toshkent - 2023  
“Fan ziyosi” nashriyoti**

UO'K: 324.438.235.10

KBK: 36.95(5O'zb)

637:641

S-34

**CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI SAQLASHDA SOVUTISH  
USKUNA VA JIHOZLARI:** Safarov U.T. , Yusupov A.H. O'quv  
qo'llanma / – Toshkent, "Fan ziyozi" nashriyoti, 2023, 236 bet.


O'quv qo'llanmasi "Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi" bakalavriat ta'lif yo'naliishi o'quv rejasining maxsus fanlar bloki o'quv adabiyotlari turkumiga kiradi hamda davlat ta'lif standartlari va o'quv dasturi mazmuniga mos. Unda fanning texnikaviy yo'naliishi ta'lifoti sifatida rivojlanishi, fanning maxsus bilimlar beruvchi muayyan yo'naliishi sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari aks ettirilgan. O'quv qo'llanmasida chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarinisovutish hamda sovuqlik bilan ishlov berish uskuna va jihozlarining nazariy asoslari, sovuqlik tashuvchi moddalar va sovutish agentlarining tavsifnomalari, sovutish mashinalarining ishchi sikllari va hisoblash asoslari, sovutish qurilmalarining tuzilishi va ishlashi, sovutgichlarning loyihalanishida hisoblash metodikasi asoslari, sohada keng tarqalgan sovutish uskuna, qurılma va jihozlarining turlari izchil yoritib berilgan. Zero, iqtisodiyotning hozirgi kundagi rivojlanishida va global ekologik muammolar yechimi izlanayotgan davrda mahsulotlarni sifatli hamda xavfsiz saqlash, shuningdek ishlov berish uchun ilmiy tahlilga asoslanib, zamonaviy sovutgich qurilmalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Taqrizchilar :**

**R.Normahmatov – SamISI professori, t.f.d.**

**A.Yu.Xudoyberdiyev – SamDVMCHBU dotsenti, t.f.n.**

**ISBN: 978-9910-743-6-5-8**



## **ANNOTATSIYA**

O'quv qo'llanmasi "Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining maxsus fanlar bloki o'quv adabiyotlari turkumiga kiradi hamda davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi mazmuniga mos. Unda fanning texnikaviy yo'nalishi ta'limoti sifatida rivojlanishi, fanning maxsus bilimlar beruvchi muayyan yo'nalishi sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari aks ettirilgan. O'quv qo'llanmasida chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini sovutish hamda sovuqlik bilan ishlov berish uskuna va jihozlarining nazariy asoslari, sovuqlik tashuvchi moddalar va sovutish agentlarining tavsiyfnomalari, sovutish mashinalarining ishchi sikllari va hisoblash asoslari, sovutish qurilmalarining tuzilishi va ishlashi, sovutgichlarning loyihalanishida hisoblash metodikasi asoslari, sohada keng tarqalgan sovutish uskuna, qurilma va jihozlarining turlari izchil yoritib berilgan. Zero, iqtisodiyotning hozirgi kundagi rivojlanishida va global ekologik muammolar yechimi izlanayotgan davrda mahsulotlarni sifatli hamda xavfsiz saqlash, shuningdek ishlov berish uchun ilmiy tahlilga asoslanib, zamonaviy sovutgich qurilmalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv qo'llanmasi "Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi" ta'lim yo'nalishi, shuningdek barcha oziq-ovqat texnologiyasi yo'nalishi talabalari, o'qituvchilar va mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib, shu bilan birgalikda shu sohaga qiziquvchi keng jamoatchilikka mo'ljallangan.

## **АННОТАЦИЯ**

Учебное пособие входит в состав учебной литературы блока специальных дисциплин учебного плана направления бакалавриата «Технология переработки продукции животноводства», и соответствует государственным образовательным стандартам и учебной программе дисциплины. В ней отражены развитие предмета в качестве научно – технического направления, а также его особенности как определенного направления специальных дисциплин. В учебном пособии последовательно рассмотрены теоретические основы холодильной техники для хранения и обработки продукции животноводства и пищевых продуктов, характеристики хладоносителей и холодильных агентов, рабочие циклы холодильных машин и основы их расчета, устройство и работа холодильных установок, основы методики расчета при

проектировании холодильников, широко распространенные в отрасли холодильные установки и оборудование. Ибо, в нынешнем уровне развития экономики и в период, когда ведется поиск решений глобальных экологических проблем, важное значение приобретает основанная на научном анализе разработка современной холодильной техники для качественного и безопасного хранения и обработки продуктов.

Учебное пособие предназначено для студентов направления образования «Технология переработки продукции животноводства», также оно является полезным пособием для всех студентов, преподавателей и специалистов направлений пищевой технологии. Кроме того, пособие предназначается для широкого круга лиц, интересующихся данной отраслью.

## ABSTRACT

The textbook is part of the educational literature of the block of special disciplines of the undergraduate curriculum “Technology for processing livestock products”, and corresponds to state educational standards and the curriculum of the discipline. It reflects the development of the subject as a scientific and technical direction, as well as its features as a certain direction of special disciplines. The textbook consistently examines the theoretical foundations of refrigeration equipment for storing and processing livestock products and food products, the characteristics of coolants and refrigerants, operating cycles of refrigeration machines and the basics of their calculation, the design and operation of refrigeration units, the basics of calculation methods for designing refrigerators, which are widespread in refrigeration and equipment industries. Because, at the current level of economic development and at a time when solutions to global ecological problems are being sought, the development of modern refrigeration technology based on scientific analysis for high – quality and safe storage and processing of products becomes important.

The textbook is intended for students in the field of education “Technology for processing livestock products”; it is also a useful tool for all students, teachers and specialists in food technology. In addition, the textbook is intended for a wide range of people interested in this industry.

## SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasida hozirgi vaqtida iqtisodiy sohadagi muhim vazifalardan biri chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish va xalqning shu soha mahsulotlariga bo‘lgan talabini maksimal qondirishdan iborat. Bu vazifa yechimining topilishida chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlashni tubdan yaxshilash va aynan bu mahsulotlarni sovuqlik ta’sirida saqlash hamda ishlov berishni takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli ushbu soha uchun o‘qitilayotgan bo‘lajak mutaxassislarga chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashda, shuningdek ularni qayta ishlashda sovutish texnologiyasini, shu bilan bir qatorda zamonaviy sovutish uskuna va jihozlarini qo‘llashni o‘rgatish oliv ta’lim tizimidagi muhim masalalardan biridir.

Taqdim qilinayotgan o‘quv qo‘llanmasi 60811600 – “Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi” va “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari talabalari hamda qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, “Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashda sovutish uskuna va jihozlari” fanining o‘quv dasturlari asosida tayyorlandi.

O‘quv qo‘llanmadagi mavzularida sovutish jarayonlarining nazariy, termodinamik asoslari; oziq-ovqat va chorvachilik mahsulotlarining sovutish texnologiyasi nuqtai-nazaridan o‘ziga xos xususiyatlari; sovutish texnikasini hisoblashning nazariy asoslari; chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun sovutish uskuna hamda jihozlarining tuzilishi va ishlash prinsipi; shuningdek ushbu guruh mahsulotlarini sovutish texnologiyasining amaliy asoslari o‘rganilgan. Shu bilan birga, oziq-ovqat va chorvachilik mahsulotlarini saqlash uchun mo‘ljallangan sovutgichli omborxonalarining texnologik asosdagi hisoblashlari ham ko‘rib chiqilgan. O‘quv qo‘llanmasi sovutish texnikasi va texnologiyasining nazariyasi, sovutish uskuna va jihozlari, shuningdek ularni hisoblash uslublari xususida bakalavr kompetentsiyasi darajasida va keng jamoaga bilim olishga mo‘ljallangan .

## **Kirish. Mahsulotlarga sovuqlik bilan ishlov berish texnologiyasining ahamiyati va paydo bo‘lishining tarixiy asoslari**

Mamlakatimiz aholisining turmush farovonligini orttirish O‘zbekiston Respublikasi hukumati, jumladan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan belgilangan respublika rivojlanishi iqtisodiy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bunda aholining yuqori sifatlari va yetarli miqdordagi iste’mol tovarlari, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab va ehtiyojini qondirish eng asosiy vazifalardan bo‘lib hisoblanadi. Oziq-ovqat mahsulotlarining katta guruhini tashkil etuvchi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tubdan yaxshilash, ularning sifat ko‘rsatkichlarini orttirish, shu bilan birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yo‘qotilishlarini kamaytirish chorvachilik sohasi oldiga qo‘ylgan asosiy vazifalardan biri deb aytsak to‘g‘ri bo‘ladi.

Ma‘lumki chorvachilik mahsulotlarining katta qismi va oziq-ovqat mahsulotlarining anchagina ulushini tashkil etuvchi meva, sabzavotlar, ko‘katlar kabi mahsulotlar odatdagи sharoitlarda uzoq saqlanmaydigan tez buziluvchi mahsulotlar hisoblanadi. Bu qatorga baliq va baliqchilik mahsulotlarini hamda yuqori iste’mol qiymatiga ega bo‘lgan asal kabi mahsulotlarni ham kiritish o‘rinlidir. Mana shunday tez buziluvchi chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini uzoq muddat sifati pasaymagan holda saqlash vazifasining bajarilishida ularning sovuqlik bilan ishlov berilishi juda katta va muhim ahamiyatga egadir.

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishslash sohasining rivojlanishini sun’iy sovuqliksiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Xususan hozirgi paytda sovuqlik yetarli darajada ishlatilmayotganligi sababli butun dunyo bo‘yicha ishlab chiqarilgan tez buziluvchan oziq-ovqat mahsulotlarining 25% ga yaqin qismi yaroqsiz holga kelmoqda. Buning katta qismini chorvachilik mahsulotlari tashkil etadi.

Bundan tashqari sun’iy sovuqlik ishlab chiqarish, ya’ni atrof-muhit haroratidan pastroq harorat olish xalq xo‘jaligining ko‘p tarmoqlarida har xil texnologik jarayonlarni amalga oshirishda keng ko‘lamda qo‘llaniladi. Sovutish texnikasi inson faoliyatining aksariyat sohalaridagi zaruriy muhitga aylanib bo‘ldi.

Shu o‘rinda sovitish uskunalarini va jihozlarini paydo bo‘lishi hamda rivojlanishining tarixidan qisqacha ma’lumotlarni ko‘rib chiqish o‘rinlidir. Chorvachilik mahsulotlarini saqlashda sovitish uskunalarini va

jihozlari hamda sovutish texnologiyasining mustaqil bilim sohasi sifatida rivojlanishi sovuqlikning oziq-ovqat sanoati va savdo tarmog‘ida qo‘llanilishidan boshlandi. Sun’iy sovuqlikning oziq-ovqat mahsulotlarini konservalash uchun qo‘llanilishi 100 yildan ortiqroq tarixga ega.

Dunyoda birinchi sovutish mashinasini 1834 yil Londonda Djekob Parkinsning loyihasi asosida qurilgan. Bu mashina etil efiri asosida ishlardi. 1871 yil fransuz olimi Sharl Gel’ye esa metil efirida ishlovchi, 1878 yilda esa angliyalik Boyl ammiak asosidagi sovutish mashinalarini yaratdilar. Mashina yordamida sovutishga asoslangan birinchi yirik sovutgich AQShning Boston shahrida 1881 yilda bunyod etildi. O‘zbekistonga yaqin bo‘lgan mamlakatlardan Rossiyada birinchi sovutgichlar 1877 yil Murmansk qirg‘og‘idagi baliq ovi bilan shug‘ullanuvchi kichik xo‘jaliklarda qurilgan edi. Keyinchalik bunday sovutgichlar 1888 yilda Astraxan qirg‘og‘idagi shu turdagisi xo‘jaliklarda, undan keyinroq esa Maxachkala va boshqa shaharlarda ham tarqaldi. Sanoat miqyosidagi birinchi sovutgich esa 1895 yilda Belgorodda bunyod etildi, uning sig‘imi 250 tonnani tashkil etardi.

XIX asr o‘rtalarida absorbsion jarayonli sovutish mashinalari paydo bo‘ldi. Lekin ularning qo‘llanilish chegaralari uncha katta emas edi.

Xorijiy mamlakatlarda sovutish mashinalarining keng qo‘llanilish davrining boshlanishi XIX asrning 80 yillari, ya’ni doktor Karl Linde tomonidan ammiak asosida ishlovchi kompression sovutish mashinasini modeling yaratilish vaqtida deb hisoblanadi. Ular asosan go‘shtni sovutish va muzlatish uchun keng qo‘llanila boshlangan. Go‘shtlarni muzlatish esa ularni uzoq yurtlarga jo‘natish, masalan: Avstraliya, Argentina va Yangi Zelandiyadan Yevropaga olib kelinadigan go‘shtlarni refrijeratorli kemalarda sovutish va muzlatish yo‘li bilan tashish imkoniyatini berardi. Bundan tashqari sovutish mashinalari pivo tayyorlash sanoatida, konditer fabrikalarida, sut zavodlarida va boshqa oziq-ovqat korxonalarida ishlatiladigan bo‘ldi. Sun’iy sovutish mashinalaridan oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tayyorlashda, ishlab chiqarishda va tashishda foydalilaniladigan bo‘lindi.

Yuqorida zikr etilgan yo‘nalishlar bilan bir qatorda sun’iy sovutish mashinalaridan kimyo, metallurgiya, tog‘ jinslari, tekstil, qurilish, neftni qayta ishlash va boshqa sanoat tarmoqlarida foydalilaniladigan bo‘lindi. Undan qishloq xo‘jaligida, chovchachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashda, refrijeratorli transportlarda, tibbiyotda, sportda,

maishiy xizmatlarda aynan sun'iy muz olishda va havoni kondensatsiyalashda keng foydalanila boshlandi. Hozirgi vaqtida sun'iy sovutish uskunalarisiz xalq xo'jaligining biror bir tarmog'ini tasavvur qilish qiyin.

Sovutish uskuna va jihozlari, shuningdek oziq-ovqat texnologiyasida sun'iy sovutishdan foydalanish sohasidagi ilmiy izlanishlar hamda ilmiy-texnik ishlanmalarning boshlanishiga Rossiya da 1918 yilda F.S.Kasatkin asos qo'ydi. Shundan keyin amaliy fanning yangi sohasi – oziq-ovqat mahsulotlarining sovutish texnologiyasi va shu asosda ularni saqlashning asosiy yo'nalishlari belgilangan edi. 1926 yildan boshlab G.V.Plexanov nomli Rossiya iqtisodiy akademiyasi (sobiq Moskva xalq xo'jaligi instituti) da oziq-ovqat mahsulotlarining sovutish uskunalarini va sovutish texnologiyasi bo'yicha muntazam ravishda olyi malakali mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Sovutish uskunalarini va texnologiyasi fanining rivojlanishiga, shu fan sohasidagi ilmiy izlanishlarni hamda sovutgich korxonalarining ish tajribasini umumlashtirishga sobiq Sovet mamlakati olimlaridan M.V.Tuxshnayd, D.A.Xristodulo, Ya.Ya.Nikitinskiy, D.G.Ryutov, F.V.Tserevitinov, N.A.Golovkin, G.B.Chijov, E.I.Kauxchevili va boshqalar yirik hissa qo'shishdi.

Shu qatorda O'zbekiston Respublikasida ham o'tgan davr, hozirgi kunda hamda kelajakda sovutgichlardan foydalanish keng qo'llanilganligi sababli hududlarda sovutgich ishlab chiqaruvchi korxonalar qurildi va qurilmoqda. Masalan, shular jumlasidan Samarcanddag'i "Sino" va "Xolod" qo'shma korxonalarini (ishlab chiqarish hissadorlik jamiyat) so'zlarimizning isboti bo'lishi mumkin.

**I BO'LIM. CHORVACHILIK VA OZIQ-OVQAT  
MAHSULOTLARINI SOVUTISH HAMDA ULARGA  
SOVUQLIK BILAN ISHLOV BERISH USKUNA  
VA JIHOZLARINING NAZARIY ASOSLARI**

**1. Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini sovutish  
uskuna va jihozlari hamda sovuqlik bilan ishlov berish  
texnologiyasi fan sifatida**

***Tayanch iboralar:***

*Jismlarni sovutish, tabiiy sovutish, sun'iy sovutish, texnologik jarayon, konservalash, konservalash usullari, sovuqlik bilan ishlov berish, sovutish jarayoni, sovutish uskunasi, sovutish jihizi.*

**Chorvachilik mahsulotlarini saqlashda sovutish uskuna va jihozlari fanining maqsadi hamda vazifalari.** Oziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning muhim o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu ishlab chiqarilgan mahsulotlar bizlarning har birimizga har kuni kerakdir. Aholini ovqatlanish mahsulotlari bilan ta'minlashdagi uzilishlar jamiyat hayotining barcha jabhalarida salbiy tomondan o'z aksini ko'rsatadi. Shu sababli oziq-ovqat sanoatining to'xtovsiz, talabdagidek ishlashini xom ashyo va yarim tayyor, tayyor mahsulotlarning yetarli zahiralarisiz tasavvur etish mumkin emas. So'nggi omil esa sovutish vositasidagi konservalashsiz mavjud bo'la olmaydi.

*Sovutish uskuna va jihozlari fanining maqsadi sun'iy sovuqlik olishning turli usullarini, shuningdek sovuqlik olish hamda uni qo'llashning texnikavini vositalarini tadqiq etish va shu asosda yangi usullar, vositalarni ishlab chiqishdan iborat.*

*Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini sovutish texnologiyasi fanining maqsadi oziq-ovqat sanoatida sovuqlikni qo'llashning ratsional hamda ilmiy asoslangan uslublarini o'rganish va shuning asosida xom ashyo hamda mahsulotlarni sovuqlik vositasida saqlash, shuningdek yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishda sovuqlikni qo'llash masalalarining yechimini izlashdan iborat.*

***Sovutish texnologiyasining fan sifatidagi vazifalari :***

chorvachilik, oziq-ovqat mahsulotlarining o'ziga xos xususiyatlari va ularga xos o'zgarishlarni hisobga olgan holda sovuqlik bilan ishlov berish hamda saqlashning shu mahsulotlarga ta'sirini o'rganib, texnologik jarayonlarni (sovutish, muzlatish, saqlash va boshq.) o'tkazish-

ning eng qulay (optimal) sharoitlarini aniqlash;

sovuqlik bilan ishlov berish va saqlashda mahsulotlar massasi yo'qotilishini kamaytirishning ilmiy asoslangan uslublarini ishlab chiqish;

sovuqlik bilan ishlov berish va saqlashning mavjud texnologiyalarini mukammallashtirish hamda mahsulotlar xossalari o'zgarishlarini, shuningdek ularning massa yo'qotilishini minimallashtirish imkonini beruvchi boshqa konservalash usullari bilan uyg'unlashtirilgan yangi innovatsion sovutish texnologiyalarini yaratishdan iborat.

**Sovuqlik bilan ishlov berish uskunalari, jihozlari va texnologiyasining yaqin kelajakdagi umumiyo rivojlanish yo'naliishlari.** Sovuqlik bilan ishlov berish uskunalari, jihozlari va texnologiyasining yaqin kelajakdagi umumiyo rivojlanish yo'naliishlari hozirgi asrga xos bo'lgan ekologik muammolarning hal etilishi bilan bog'langan. Atmosferada himoya qatlaming mavjudligi tufayli ming yillar davomida Yerdag'i hayot saqlanib kelinmoqda. Bu qatlam ozon moddasidan tashkil topgan bo'lib, Yerni quyoshning zararli ul'trabinafsha nurlaridan saqlaydi. Bu bizning sayyoramizning ajoyib xususiyati ekanligini bilamiz. Agar himoya qatlami buziladigan bo'lsa, quyoshning ul'trabinafsha nurlari Yer yuzasiga ta'sir qilib, tirik organizmlarning katta qismini nobud qilishi mumkin.

O'tgan yuz yillikning 80-yillarda Xlorftoruglerod (XFU) va Gidroxlorftoruglerod (GXFU) larning Yer atmosferasi ozon qatlamiga salbiy ta'siri borligi isbotlandi, holbuki stratosferaning ozon qatlami quyoshning zararli ul'trabinafsha nurlaridan Yerining flora va fauna dunyosini himoya qiladi. 1985 yilda tashkil topgan "Ozon qatlamini himoya qilish" bo'yicha Vena konvensiyasi va 1987 yilda tuzilgan ozonni yemiruvchi moddalar (OEM) ga qarshi kurashish bo'yicha Montreal bayonnomasi (protokoli) ga muvofiq XFUni ishlatishga rivojlangan mamlakatlar uchun 1996 yilgacha, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun esa 2010 yilgacha, GXFUni ishlatishga esa rivojlangan mamlakatlar uchun 2020 yilgacha va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun 2030 yilgacha ruxsat berildi.

Sovutish agentlarining Yer atmosferasiga bo'lган ikkinchi salbiy ta'sir faktori bu issiqxona ta'siridir (parnikovi effekt). Bu faktor hamma sovutish agentlariga tegishli, bu qatorga hatto ozonga xavfsiz bo'lgan GFU (Gidroftoruglerod) lar guruhi kiruvchi sovutish agentlari ham

kiradi. Bu jarayon, ya’ni “issiqxona effekti” ma’lum gazlarning infraqizil nurlarni o’ziga yutib, Yer atmosferasida saqlab qolishi natijasida hosil bo’ladi. Buning natijasida Yer yuzasida hayotning bunyod bo‘lishi va rivojlanishi uchun yaroqli bo‘lgan harorat saqlanib qoladi. Bunday yutish (gigroskoplik) qobiliyatiga suv bug‘i, uglerod dioksidi va boshqa gazlar qodir. Ularning mo’tadil konsentratsiyasi Yer yuzasidagi normal haroratni ta’minlaydi. Atmosferada issiqxona gazlarining, chunonchi sovutish agentlari miqdorining ortishi bilan “issiqxona effekti” kuchayadi va buning oqibatida Yer yuzasining harorati haddan ziyod ortib boradi. Natijada planetamiz uchun jiddiy bo‘lgan o‘zgarishlar : tabiiy falokatlar, hayvonot dunyosining qirilib ketishi, ocharchilik va boshqa og‘ir oqibatlarga olib keluvchi o‘zgarishlarga zamin yaratiladi.

O‘tgan asrning 90 – yillaridan boshlab xalqaro tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari stratosferadagi ozon qatlami yemirilishining oldini olish va issiqxona ta’siriga qarshi kurashish maqsadida havoni konditsionerlash va sun’iy sovuqlik olish texnologiyalarini tubdan o‘zgartirish bo‘yicha qarorlar qabul qildilar.

Shunday qilib, sovutish uskuna va jihozlarining yaqin kelajakdagi rivojlanishi, bиринчи navbatda ushbu qurilmalarning ekologik nuqtai – nazardan xavfsiz bo‘lishini ta’minlashga qaratilishi, Yer atmosferasi, inson va o‘simlik hamda hayvonot dunyosiga zarar yetkazmasligini ta’minlashi talabi asosida amalga oshirilmog‘i lozim.

**Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash hamda konservalashning umumiy prinsiplari.** *Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini ularning sisati buzilmagan holda uzoq muddat saqlash uchun maxsus ishlov berish konservalashdan iborat.* Bunda ishlov berish oziq-ovqat mahsulotlarida fermentlar ta’sirida sodir bo‘luvchi biokimyoiy jarayonlarning sekinlashuvi va to‘xtatilishini ta’minlaydi. Konservalash tez buziluvchi oziq-ovqat mahsulotlarining iste’mol qilinishida mavsumiylikni yo‘qotish, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar assortimentini kengaytirish, hamda ularning iste’molga yaroqlilik darajasini orttirish imkonini beradi. Bundan tashqari konservalashning ayrim usullari boshqacha xossalarga ega bo‘lgan mahsulotlarni olish, ya’ni mohiyatiga ko‘ra boshqa tovarlar ishlab chiqarish uchun ham qo’llaniladi.

Konservalashning fizikaviy, fizik-kimyoiy, biokimyoiy va kimyoiy usullari mavjud. Fizikaviy usullar ichida keng tarqalgan usullardan biri past haroratlar ta’sirida konservalashdan iborat. Past

haroratlar oziq-ovqat va chorvachilik mahsulotlarini sovutish va muzlatish uchun qo'llaniladi.

Tovarshunoslik nuqtai nazaridan, saqlash – bu tovarlarning minimal yo'qotishlar bilan miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari saqlanishini ta'minlaydigan xizmatdan iborat. Tovarlarni samarali saqlashning yakuniy natijasi – bu ularni oldindan belgilangan muddat mobaynida yo'qotishlarsiz yoki minimal yo'qotishlar bilan saqlashdir. Saqlash ko'rsatkichlari deyilganda – standart mahsulotlarning chiqishi, yo'qotishlar miqdori va saqlash muddati tushuniladi. Standart mahsulotlarning chiqishi va yo'qotishlar miqdori o'zaro teskari proportsionallik bilan bog'langan. Yo'qotishlar miqdori qanchalik yuqori bo'lsa, standart mahsulotlarning chiqishi shunchalik past bo'ladi. Saqlanuvchanlikning ikkala ko'rsatkichi saqlash sharoitlari va muddatlariga bog'liq bo'ladi.

Saqlash vaqtida mahsulotlarda sifatning pasayishiga va shu sababli ular tannarxining pasayishiga olib kelishi mumkin bo'lgan turli jarayonlar sodir bo'ladi. Mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazib berish jarayoni mobaynida ishlab chiqariladigan va sotiladigan mahsulotlarning sifatini pasaytiruvchi ko'plab omillarning ta'siri mavjud bo'lishi mumkin. Bu omillarning ta'siri ba'zi hollarda ularning bir-biri bilan o'zaro munosabati xarakterida bo'ladi , ba'zi hollarda esa ular alohida – alohida ta'sir ko'rsatadi.

Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarining sifati hamda miqdorining saqlanishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi. 1. Mahsulotlarning asl (boshlang'ich) sifati; 2. qadoqlash; 3. belgilash (markirovka); 4. tashish sharoitlari; 5. saqlash sharoitlari ; 6. sotish va foydalanish (ekspluatatsiya) sharoitlari.

Sifatning saqlanishiga birinchi navbatda chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarining asl sifati ta'sir qiladi. Mahsulotlarni saqlash sharoitlari va muddatlari, sotilish navbatni avvalambor mahsulotlarning asl sifati bilan aniqlanadi. Asl sifati deyilganda, birinchi navbatda, ishlatiladigan xom ashyo sifatining ta'siri tushuniladi. Barcha turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun faqat sifatli xom ashyolardan foydalanish kerak (masalan, agar sariyog' ishlab chiqarishda past sifatli xom ashyo – sut ishlatilsa, saqlash vaqtida sariyog'da oksidlanish jarayonlari kuchayadi). O'z navbatida , xom ashyoning sifati va xavfsizligiga atrof-muhit hamda inson omili ham ta'sir ko'rsatadi.

Xom ashyo omilidan tashqari, mahsulotlarning asl sifati texnologik ishlab chiqarish jarayonida shakllanadi. Mahsulotlarning sifati ko'p

jihatdan texnologik ishlab chiqarishga bog'liq. Bunda retsepturaning to'g'riliqi, ayrim texnologik operatsiyalarning rejimi, mexanizatsiyalanganlik darajasi, ishlovchilari kadrler malakasi, ishlab chiqarish madaniyati kabilalar ko'zda tutiladi. Ishlab chiqarish jarayonlari noto'g'ri tashkil qilingan yoki buzilgan taqdirda yaxshi xom ashyodan past sifatli mahsulotlar ishlab chiqarilishi mumkin. Masalan, kefir ishlab chiqarishda achitqi dozasining oshirilishi kefirning saqlanishi paytida kislotaviylikni oshiradi.

Saqlash texnologiyasining to'g'ri tashkil etilishi va yo'qotishlarni kamaytirishda qadoqlash jarayoning hamda qadoqlash vositalarining turi va sifati muhim ahamiyatga ega. Qadoqlash mahsulotlarning sifatini saqlab qolish, ularni tashish, saqlash va sotish qulayligini ta'minlash uchun zarur. To'g'ri qadoqlash nafaqat mahsulotlar massasi yo'qotilishining oldini oladi, balki ularni ifloslanishdan, shikastlanishdan himoya qiladi.

Qadoqlash vositasi – bu mahsulotni shikastlanish va yo'qotilishdan himoya qiladigan, shuningdek savdo va texnologik jarayonlarni osonlashtiradigan vosita yoki vositalar majmuasidir. Qadoqlash elementlari – bu mahsulotlarni joylashtirish uchun mo'ljallangan idishlar (idish, konteynerlar) dan iborat.

Belgilash (markirovka) – bu mahsulot bilan bog'liq bo'lgan va qadoqdagi har qanday so'zlar, belgilar, savdo belgilari, firma belgilari, tovarga tegishli bo'lgan va qadoqda, hujjalarda, xabarnomalarda, teglar (etiketka) da va shu kabilarda tasvirlangan har xil materiallardan iboratdir. Oziq-ovqat mahsulotlarini belgilash (markalash) dagi majburiy talab umumiy talablarga qo'shimcha ravishda sotiladigan mahsulotning saqlanish sharoitlari va muddatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatishdan iboratdir.

Tashish – bu mahsulotlarni saqlashning o'ziga xos bir turi bo'lib, u keyinchalik saqlash paytida ham mahsulotlar sifatining saqlanishiga ta'sir qiladi. Bu yerda ko'plab omillar rol o'ynaydi, ularga transport vositalini to'g'ri tanlash va shu vositalarda mahsulotlarni joylashtirish, tashish tartibi va muddatlari, transportdan mahsulotlarni tushirish muddatlari, mahsulotlarning doimiy saqlanish omborlarida o'z vaqtida joylashtirilishi kiradi.

Saqlash sharoitlari ko'plab omillar bilan belgilanadi. Eng muhim omillarga saqlash rejimlari, omborda (saqlash joyida) joylashtirish qoidalari va saqlash uchun mo'ljallangan xonalarning sanitariya holati kiritilishi kerak.

Sotish va foydalanish (ekspluatatsiya) sharoitlari mahsulotlarni saqlash va ulardan foydalanish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Sotish sharoitlari oziq-ovqat mahsulotlariga xosdir, foydalanish (ekspluatatsiya) muddati esa – nooziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish muddatiga xosdir, bunda u iste'mol xususiyatlarini sezilarli darajada yo'qotmaslik maqsadiga muvofiq kelishi zarur. Mahsulotni sifatli saqlashda sotuvchi sotiladigan tovarlar sifatining turli jihatlari buzilmasligi uchun talab etilgan shart–sharoitlarni yaratishi kerak. Bu tez buziladigan chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash hamda sotishda o'ta muhim ahamiyatga ega.

Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarining saqlanish nuqtai-nazaridan o'ziga xos xususiyatlari ko'p jihatdan ularning kimyoviy tarkibi bilan belgilanadi.

Organizmga zarur va oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida mavjud bo'lgan barcha moddalarni shartli ravishda 3 guruhga (odamning energiyaga bo'lgan ehtiyojini qondiradigan energetik moddarlar; hujayralar va to'qimalar tuzilishiga sarflanadigan plastik moddarlar; almashinuv jarayonlarida qatnashadigan idora etuvchi moddarlar) bo'linadigan bo'lsa, u holda sutda shu moddalarning birinchi toifasi (uglevodlar va qisman yog') ham, ikkinchi toifasi (oqsil va mineral moddarlar) ham, uchinchi toifasi (mikroelementlar, vitaminlar, fermentlar) ham bor deb xulosa chiqarish mumkin.

Go'sht va sut sanoatida asosiy xom ashyni qoramol, cho'chqa, qo'y va echki go'shtlari, sigir va echki suti tashkil etadi. Ba'zi bir viloyatlarda esa ot go'shti va tuya go'shtidan ham go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati, asosan unga ishlatilayotgan xom ashyo sifatiga bog'liq bo'lgan holda, shuningdek u qanday hayvon go'shtidan, zotidan, jinsidan, yoshidan tayyorlanganligi ham muhim rol' o'ynaydi.



Meva va sabzavotlarning tarkibi uglevod, organik kislotalar, xushbo'y komponentlarga boy. Ularning ko'pchiligi mikro va makroelementlar, vitamin va boshqa qimmatli komponentlarga boy bo'ladi.

Quyida har xil chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini sovutgich va muzlatgichlarda saqlashning an'anaviy rejimlari hamda muddatları to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan (1 – jadval).

*I – jadval*

*Sovutgich va muzlatgichda oziq-ovqat mahsulotlarining saqlanish muddatlari*

| Oziq-ovqat mahsuloti turi va uning<br>ayrim tavsifi                                 | Tuxum                                    | Sovutgichda<br>40°F, 4.5°C da | Muzlatgichda 0°F,<br>– 18°C da       |
|---|--|-------------------------------|--------------------------------------|
|    | Yangi, qobig‘ida                         | 4 – 5 hafta                   | Muzlatmang                           |
|   | qattiq qaynatilgan                       | 1 hafta                       | Qattiq muzlatmang                    |
|   | Tuxum bir–birini<br>bosuvchi, ochiq      | 3 kun                         | Muzlatmang                           |
|    | Ochilmagan                               | 10 kun                        | 1 yil                                |
|   | <b>Sut mahsulotlari</b>                  |                               |                                      |
|    | Sut                                      | 1 hafta                       | 3 oy                                 |
|   | Uy pishlog‘i<br>(suzma)                  | 1 hafta                       | Qattiq<br>muzlatmang                 |
|   | Yogurt                                   | 1 – 2 hafta                   | 1 – 2 oy                             |
|   | sanoatda ishlab<br>chiqarilgan mayonez   | 2 hafta                       | Muzlatmang                           |
|   | (ochiq holda<br>muzlatgichda<br>saqlang) |                               |                                      |
|  | <b>Sabzavotlar</b>                       | <b>Xom (Ho‘l)</b>             | <b>So‘litilgan /<br/>qaynatilgan</b> |

|   |   |             |                       |
|---|---|-------------|-----------------------|
|    | Loviya, yashil yoki mumlangan                             | 3 – 4 kun   | 8 oy                  |
|    | Sabzi   | 2 hafta     | 10 – 12 oy            |
|   | Selderey  | 1 – 2 hafta | 10 – 12 oy            |
|   | Salat, barglar  | 3 – 7 kun   | Muzlatmang            |
|   | Salat, bosh   | 1 – 2 hafta | Muzlatmang            |
|   | Ismaloq   | 1 – 2 kun   | 10 – 12 oy            |
|    | <b>Gastronomiya mahsulotlari</b>                          |             |                       |
|    | Gazaklar, sovuq yoki issiq                                | 3 – 4 kun   | 2 – 3 oy              |
|   | Tayyor va uyda tayyorlangan salatlar                      | 3 – 5 kun   | Muzlatmang            |
|  | Paketdagi kolbasa va go'shtli ikkinchi taom – nonushtalar |             |                       |
|   | Kolbasa, ochiq paketda                                    | 1 hafta     |                       |
|   | Ochilmagan qadoqda  | 2 hafta     | Muzlatgichda 1 – 2 oy |

|   |   |           |           |
|---|---|-----------|-----------|
|    | Go'shtli ikkinchi taom – nonushtalar , ochiq      | 3 – 5 kun | 1 – 2 oy  |
|    | ochilmagan  | 2 hafta   | 1 – 2 oy  |
|    | Muzlatilgan ovqatlar va muzlatilgan pishiriqlar   |           |           |
|  | Muzlatgichda saqlang va pishirishdan oldin oching |           | 3 – 4 oy  |
|   | Yangi go'sht                                      |           |           |
|   | Bifshteks , qovurilgan go'sht                     | 3 – 5 kun | 6 – 12 oy |

SDVU

resurs markazi

Inv № 373285 17

|   |   |           |          |
|---|---|-----------|----------|
|  | Maydalangan va<br>urilgan go'sht<br>(otbivnoye)           | 3 – 5 kun | 4 – 6 oy |
|   | Qo'zining urilgan<br>(otbivnoye) va<br>qovurilgan go'shti | 3 – 5 kun | 6 – 9 oy |
|   | Qovurilgan tana<br>go'shti                                | 3 – 5 kun | 4 – 6 oy |
|  | <b>yangi parranda<br/>go'shti</b>                         |           |          |
|   | Tovuq yoki kurka ,<br>butun tana go'shti                  | 1 – 2 kun | 1 yil    |
|   | Tovuq yoki kurka ,<br>bo'laklar                           | 1 – 2 kun | 9 oy     |
|  | <b>Yangi baliq</b>  |           |          |
|   | Yupqa baliq (treska<br>, kambala va<br>boshqalar)         | 1 – 2 kun | 6 oy     |
|   | Yog'li baliq (losos<br>va boshqalar)                      | 1 – 2 kun | 2 – 3 oy |

|   |   |           |            |
|---|---|-----------|------------|
|    |   |           |            |
|    | <b>Dudlangan<br/>cho'chqa go'shti</b><br><br>Konservalangan<br>cho'chqa go'shti<br>(paketda<br>“Sovutgichda<br>saqlang” –<br>“Muzlatgichda<br>saqlang” deb<br>yozilgan) | 6 – 9 oy  | Muzlatmang |
|    | cho'chqa go'shti,<br>pishirilgan (butun<br>va bo'laklangan)   | 3 – 5 kun | 1 – 2 oy   |
|    | <b>Bekon va kolbasa</b>   |           |            |
|   | Bekon   | 1 hafta   | 1 oy       |
|   | Kolbasa , xom<br>(cho'chqa go'shti ,<br>mol go'shti yoki<br>kurka go'shti)  | 1 – 2 kun | 1 – 2 oy   |
|   | Oldindan pishirilgan<br>dudlangan kolbasa /<br>kotletlar  | 1 hafta   | 1 – 2 oy   |
|  | <b>Oziq-ovqat<br/>goldiglari</b>  |           |            |
|   | Pishirilgan go'sht ,<br>go'shtli ovqatlar ,<br>tuxumli ovqatlar ,<br>sho'rvalar ,<br>pishiriqlar va<br>sabzavotlar  | 3 – 4 kun | 2 – 3 oy   |
|   | Souslar va go'shtli<br>bul'yonlar (qayllalar)   | 1 – 2 kun | 2 – 3 oy   |

|   |  |           |          |  |  |
|---|--|-----------|----------|--|--|
|  | Pishirilgan parranda va baliq  | 3 – 4 kun | 4 – 6 oy |  |  |
|  | Yangi meva va sabzavotlar  |           |          |  |  |
|  | <p>Xom mevalarni xona haroratida saqlash mumkin, ammo pishganidan keyin ular mog'orlanadi va tezda buziladi . Eng yaxshi sifatni ta'minlash uchun pishgan mevalarni sovutgichda yoki quritilgan va muzlatilgan holda saqlash yaxshiroqdir .</p> <p>Issiqlik bilan ishlov berishdan keyin ikki soatdan kechiktirmasdan mevalar sovutgichga yoki muzlatgichga joylashtirilishi kerak .</p> |           |          |  |  |
|  | <p>Ba'zi qattiq , xom sabzavotlar , masalan , kartoshka yoki piyoz , past xona haroratida saqlanishi mumkin . Boshqa xom sabzavotlarni uzoqroq saqlash uchun muzlatgichda saqlash kerak . Issiqlik bilan ishlov berishdan keyin ikki soatdan kechiktirmasdan sabzavotlar sovutgich yoki muzlatgichga joylashtirilishi kerak .</p>  |           |          |  |  |

*Izoh: 1 – jadvalda keltirilgan ma'lumotlarning bir qismi “Funding provided by FDA's Center for Food Safety & Applied Nutrition in conjunction with the Seattle District Office. Text – Food and Drug Administration (FDA) www.fda.gov Brochure “To Your Health! Food Safety for Seniors” dan olindi.*

### **Nazorat savollari**

1. Tabiiy sovutish nima va u qanday amalga oshadi ?
2. Sun'iy sovutish nima va u qanday amalga oshadi ?
3. Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini sovuqlik bilan ishlov berishning xalq xo'jaligi uchun ahamiyatini tushuntirib bering .
4. Sovutish uskunalarini va jihozlari paydo bo'lishi hamda rivojlanishining tarixini aytib bering .
5. Sun'iy sovutish mashinalaridan qanday sohalarda foydalilanadi ?
6. Sovutish uskuna va jihozlari fanning qanday sohasidan iborat ?

7. Sovutish texnologiyasining fan sifatidagi vazifalarini aytib bering.
8. Sovuqlik bilan ishlov berish uskunalar , jihozlari va texnologiyasi yaqin kelajakda qanday yo‘nalishlarda rivojlanadi ?
9. Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini konservalash deyilganda nimani tushunasiz , undan ko‘zlangan maqsad nima ?
10. Konservalashning qanday usullarini bilasiz ?
11. Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarining sifati hamda miqdorining saqlanishiga qanday omillar ta’sir qiladi ?
12. Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarining saqlanish nuqtai nazaridan o‘ziga xos xususiyatlari deyilganda nimani tushunasiz ?

## **2. Sovutish va mahsulotlarga sovuqlik bilan ishlov berish uskuna va jihozlarining nazariy asoslari**

### **Tayanch iboralar:**

*Issiqlik, sovuqlik, harorat, tabiiy sovutish, sun’iy sovutish, muz yoki qor bilan sovutish, drossellanish, entropiya, izoentropik kengayish, batareyali sovutish, havo sovutgichli masina, sovuqlik tashuvchi, freon, ammiak, uyurma effekti, uyurmaviy quvur, sikl (aylanma davr), kompressor, kondensator, TRV.*

**Sovutish (sovutqlik olish) usullari, ularning fizik mohiyati va turlanishi.** *Issiqlik va sovuqlikning fizikaviy tabiatи bir xil bo‘lib , farqi molekula va atomlarning harakat tezligidadir.* Issiqroq jism zarrachalarining harakat tezligi sovuqroqnikiga nisbatan kattaroq bo‘ladi. Jismga issiqlik uzatilishi natijasida zarrachalarning harakat jadalligi ortib boradi va aksincha, issiqlik jismdan olib ketilsa harakat jadalligi pasayadi. Shunday qilib, issiqlik energiyasi bu molekula va atomlar harakatining ichki energiyasi hisoblanadi.

*Jismni sovutish* – bu undan issiqlikn ni olish va shu bilan uning haroratini pasaytirishdan iborat. Sovutishning eng oddiy usuli – sovutilayotgan jism bilan atrof-muhit – tashqi havo, daryo yoki dengiz suvlari orasida issiqlik almashinishidir. Lekin bu usulda, issiqlik almashinish yuqori darajada bo‘lsa ham, sovutilayotgan jismning haroratini atrof-muhit haroratidan pasaytirish mumkin emas. Bunday sovutish *tabiiy sovutish* deb ataladi. *Jismni atrof-muhit haroratidan past haroratgacha sovutish sun’iy sovutish* deb ataladi. Buning uchun,

amaliyotda asosan issiqlik tashuvchining agregat holati o‘zgarishi bilan kechadigan yashirin issiqlik ishlataladi.

Sun’iy sovuqlik olishning bir necha usullari mavjud. Bularning ichida eng oddisi *muz yoki qor bilan sovutish*. Muz yoki qorning erishi natijasida ko‘p miqdorda issiqlik olib ketiladi. Agar tashqaridan kiruvchi issiqlik oqimlari kam bo‘lib, qor yoki muz bilan issiqlik almashinish yuzasi katta bo‘lsa, sovutilayotgan muhit haroratini 0°C gacha pasaytirish mumkin. Lekin amaliyotda qor yoki muz bilan sovutilayotgan xonalardagi havo haroratini 5 – 8°C darajada ushlab turish mumkin. Muz bilan sovutishda suv muzi yoki qattiq karbonat kislotasi (quruq muz) ishlatalishi mumkin. Lekin ta’kidlab o‘tish lozimki, chovachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini muz yoki qor bilan sovutish usulini O‘zbekistonning iqlimiylarida qo‘llash katta qiyinchiliklar bilan bog‘langandir. Shu sababli bu sohada asosan sun’iy sovutishning mashina yordamida amalga oshiriladigan usuli qo‘llaniladi.


Shuningdek sun’iy sovuqlik olish uchun, bug‘-kompressorli sovutish mashinalarida drossellash, gazli sovutish mashinalarida esa izoentropik kengayish orqali tashqi ish olish, hamda girdob (uyurma) effekti (Rank–Xilsh effekti) kabi usullar ishlataladi. *Drossellanish* (suyuqlik oqimining ezilishi) jarayoni deyilganida, tashqi foydali ishni amalga oshirmsandan va atrof–muhit bilan issiqlik almashinmasdan gaz yoki suyuqlikning yuqoriroq bosimdan pastroq bosimga o‘tishi tushuniladi. Drossellanish quyidagicha amalga oshadi: gaz yoki suyuqlik oqimi yo‘liga diafragma, ventil yoki biror qarshilik qo‘yiladi. Bu qarshiliklarni yengish uchun oqim birdaniga torayib, so‘ng yana kengayadi va harakatini davom ettradi. Moddaning bosimi drossellanish vaqtida pasayadi, hajmi esa ortadi. Drossellanish effekti Joul–Tomson effekti deb ham ataladi.

Gazli sovutish mashinalarida foydali ish oluvchi *izoentropik kengayish* amalga oshiriladi. Bunda ishchi modda oqimi yuqori bosim sohasidan past bosim sohasiga o‘tganda, foydali tashqi ish bajarishi mumkin. Drossellanishda bu ishni amalga oshiruvchi omil yo‘q. Bunday foydali ishni turbodetander (tashqi foydali ishni olishda ishchi moddani kengaytiruvchi mashina) yordamida amalga oshirish mumkin. Turbodetanderda oqimning kinetik energiyasi drossellanish jarayonidagi singari issiqlikka aylanmay, foydali ish sifatida tashqariga olinishi mumkin. Shunday qilib, izoentropik kengayishda, nafaqat foydali ish olish imkonи mavjud, balki yuqoriroq sovutish samaradorligiga ham

erishish mumkin. Bu jarayonni faqat turbodetanderlarda emas, balki detanderlarning boshqa turlarida ham amalga oshirish mumkin.

*Uyurma effekti* (Rank–Xilsh effekti) uyurma quvuri orqali amalga oshiriladi va jarayonda foydali tashqi ish bajarilmaydi (1-rasm). Gazning uyurmaviy (girdobli) harakati bilan sovutishni Fransiyalik injener Rank 1931 yilda taklif qilgan. Buning uchun u 1-rasmdagidek maxsus uryurmaviy quvur qurilmasidan foydalandi. Kompressorda siqilgan havo atrof-muhit haroratigacha sovitilib, soploga (2) keladi va kengaytirilib, katta tezlik bilan erkin uyurmaviy harakat hosil qilib chiqadi. Bunda aylanma burchak tezligi quvur chetida kam, markazga yaqinlashgan sari ortib boradi. Drossel' ventiliga (1) qarab harakatlanayotgan havo oqimi, gaz qatlamlari orasida ishqalanish kuchi borligi uchun o'zgarmas aylanma burchak tezligiga ega bo'ladi, bunda ichki qatlamlarda tezlik kamayadi, tashqarida ortadi.

Boshlang'ich vaqtida gazning aylanma burchak tezligi quvur o'qi atrofida katta bo'lganligi tufayli ortiqcha kinetik energiya hosil bo'ladi. Bu energiya tashqi qatlamlarga uzatilib gazning haroratini oshiradi; gazning ichki qatlamlari bu vaqtida soviydi. Natijada gazning tashqi qatlamlari drossel ventil (1) orqali qizigan  $t_i$  holda chiqadi, ichki qatlamlar [diafragmadagi teshik (3) orqali] esa sovib  $t_s$  haroratda chiqadi. Tajribalar bunday qurilma yordamida sovuq oqim harorati  $t_s = -10 \div -50^\circ\text{C}$ , issiq oqim harorati  $t_i = 100 \div 130^\circ\text{C}$  olish mumkinligini ko'rsatadi. Uyurmaviy quvurda sovutish jarayoni juda katta elektr quvvati sarflashni talab qiladi, va bu uning kamchiligi hisoblanadi. Afzalligi esa konstruktiv jihatdan sodda, ishslash qobiliyatini esa yuqori.



1 rasm. Uyurmaviy quvur

Sovutish mashinalarining yana bir guruhini ishchi moddasi sifatida ikki yoki bir necha moddalarning aralashmalari qo'llaniladigan mashinalar tashkil etadi. Aralashmalarda ishlaydigan mashinalarda, aralashmalarning kontsentratsiyasi davr mobaynida o'zgarib turadi, bu esa issiqlik ta'sirining o'zgarishiga olib keladi.

Sovutish mashinasining ishini, tashqi energiya sifatida mexanik, issiqlik yoki elektr energiyasi qo'llash orqali amalga oshirish mumkin. Oxirgi ikkita turda ishlaydigan mashinalar, ya'ni issiqlik energiyasini qo'llovchi mashinalar – issiqlik ishlatuvchi va elektr energiyasini qo'llovchi mashinalar – termoelektrik deb ataladi.

Sovutish mashinasining siklik ishi jarayonida mexanik yoki issiqlik energiyasining sarfi, asosan, ishchi moddani siqishga sarflanadi. Bu jarayonni amalga oshirishda mexanik agregatlar, kompressorlardan foydalanilsa *kompressorli* mashinalar deb ataladi. Agar siqish jarayonida ejektor ishlatilsa *ejektorli*; agar kimyoviy absorbtsiya printsiplari bo'yicha ishlovchi termokimyoviy kompressorlar ishlatilsa, *absorbsiyaviy* mashinalar deb ataladi.

Absorbsiyaviy sovutish mashinalari sun'iy sovuqlik talab etiladigan turli sohalarda qo'llaniladi. Bu mashinalarning samaradorligi ko'p jihatdan uni ishlatishga sarflanayotgan issiqlik miqdoriga bog'liq. Shuning uchun absorbsiyaviy mashinalarni arzon issiqlik manbai bor bo'lgan hollarda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu manbalar issiq suv, suv bug'i, gaz tutuni, (suyuq, gaz yoki qattiq holdagi yoqilg'i yonishida hosil bo'lgan) yoki kimyoviy reaktsiyalar issiqligi va boshqalardir. Agar bu mashinalar bir vaqtda sovuqlik olish va korxona tashlamalari issiqligi hisobiga issiqlik olish uchun ham foydalanilsa, bu mashina samaradorligi sezilarli darajada ortadi. Absorbsiyaviy sovutish mashinalarida bug'-ejektor mashinalaridek to'g'ri va teskari sikllarning birgalikdagi ishlashi natijasida sun'iy sovuqlik olinadi. Ularning sikl va jarayonlarini amalga oshirish uchun ikki va uchta komponentdan iborat bo'lgan eritmalardan foydalaniladi. Hozirgi vaqtda absorbsiyaviy sovutish mashinalarida eritma sifatida keng ko'lamda ammiakning suvdagi eritmasi, bromli litiy qo'llanilmoqda. Birinchi eritmada ammiak, ikkinchi aralashmada esa suv – sovutish agenti hisoblanadi.

**Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlariga tabiiy sovutish usullarining qo'llanilishi.** Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishslash korxonalarida ushbu mahsulotlarni tabiiy sovutishning ham, sun'iy sovutishning ham turli usullari qo'llaniladi. Hozirgi vaqtda chorvachilik mahsulotlarini tabiiy sovutish ko'pincha ularni ayrim texnologik operatsiyalardan keyingi sovutish, qisqa muddatli saqlash va ba'zi mahsulotlar ishlab chiqarish texnologik zanjirining tarkibiy qismi sifatida qo'llaniladi. Chorvachilik mahsulotlarini tabiiy sovutishning ayrim texnologik operatsiyalardan keyingi sovutish sifatida qo'llani-


lishiga yirik shoxli va mayda shoxli mollar tanasining, yilqi va tuya tanasining, parrandalar tanachasining so‘ylganidan keyingisovutilishi misol bo‘la oladi. Bunda tana, nimta (yarim tana, chorak tana), tanacha ko‘rinishidagi go‘sht mahsulotlari atrof–muhit (tashqi havo) bilan bevosita kontakti hisobiga odatda o‘sha atrof–muhitning haroratigacha (~ 20°C)sovutiladi.

Tabiiysovutishning *qisqa muddatli saqlash* sifatida qo‘llanilishiga yangi sog‘ib olingan sutning idishda tashqi atrof–muhit haroratidasovutilishini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Bunda shuni e‘tiborga olish lozimki, yangi sog‘ilgan sutda ba‘zi biokimyoviy jarayonlar davom etayotgan bo‘ladi, va shu sababli yangi sutni darholsovutgich uskunasi yoki jihози ichiga joylashtiribsovutish, tugallanayotgan bu jarayonlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, buning oqibatida esa sutning sifati buzilishi mumkin.

Chorvachilik mahsulotlarini tabiiysovutishning ushbu mahsulotlar *ishlab chiqarish texnologik zanjirining tarkibiy qismi sifatida* qo‘llanilishi yetarlicha keng tarqalgan bo‘lib, unga misol sifatida kolbasa mahsulotlari ishlab chiqarishda, issiqlik ishlovi berish yo‘li bilan tayyorlangan mahsulotlarnisovutishni ko‘rsatish mumkin. Bundasovutish jarayoni texnologik zanjirning tarkibiy qismi bo‘lib, u standart talablariga javob beruvchi tayyor mahsulot olinishini ta’minlaydi. Bunday hollardasovutuvchi muhit sifatida faqatgina tashqi muhit havosi qo‘llanilib qolmay, balki boshqacha muhitlar (suv, muzli suv va sh.k.) ham qo‘llaniladi.

Ushbu usulning qo‘llanilishiga misol tariqasida qaynatilgan kolbasa mahsulotlarinisovutish uchun ishlab chiqilgan tajribaviy–sanoat modulini (2–rasm) ko‘rsatish mumkin. Ushbu qurilmadasovutish uchun faqat havoning o‘zi emas, balki havo va suv birgalikda qo‘llaniladi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, bunda go‘shtni qayta ishlash korxonasida qo‘llaniladigan samaralisovutgich texnologiyalari yaratish mumkin. Sovutuvchi muhit sifatida sovuqtashqi havo ishlatalganida suv tomchilariningbir qismi havoning qisman isishi hisobiga kristallananadi va bunda kristall aerozol’ oqimini hosil qiladi. Shu tariqa havo, suv va muzdan iborat bo‘lgansovutuvchi aralashmasovutiladigan mahsulotlar bilan kontaktga kirishadi. Bunday kontakt oqibatida muz kristallariningbir qismisovutilayotgan mahsulotsirtida eriydi, bir qismiesa aralashma oqimida eriydi, bu o‘z navbatida issiqlik almashinuvining intensivlashishini ta’minlaydi.

Qaynatilgan kolbasa mahsulotlarini sovutish uchun ishlab chiqilgan modul (2-rasm) quyidagicha ishlaydi. Sovuqlik bilan ta'minlash tizimining (1) yoqilgan holatida suv va havo aralashmasi bug'latgich (2) ni yuvib o'tib, soviyi va tegishli ravishda forsunkalar (4) hamda halqasimon yoriq teshiklar (5) orqali kamera (3) ga beriladi. Forsunkalar (4) va halqasimon yoriq teshiklar (5) havo taqsimlovchi panel (6) da joylashtirilgan. Havo, suv va muzdan iborat bo'lgan sovituvchi aralashma rama (7) da joylashtirilgan sovutiladigan mahsulotlar bilan kontaktga kirishadi. Bu kontakt natijasida muz kristallari qisman sovutilayotgan mahsulot sirtida eriydi, qolgan qismi esa aralashma oqimida eriydi, buning evaziga issiqlik almashinuvining intensivlashishi ta'milanadi. Kameradan ventilyator (8) yordamida olib ketilayotgan havo burilma zaslонка (11) orqali qisman atmosferaga chiqarib yuboriladi, qisman esa atmosferadan (9) zaslонка orqali kirib kelayotgan toza havo portsiyasi bilan aralashib, ventilyatorga kiradi (9) va (11) zaslонkalar mexanizmi (10) bilan bog'langan. Aylanma suvning tozalanishi va uning forsunkalarga berilishi suv tayyorlash bloki (12) yordamida amalgalashiriladi.



2-rasm.  
Qaynatilgan  
kolbasa  
mahsulotlarini  
sovutishni tadqiq  
etish uchun  
tajribaviy-sanoat moduli

Yilning sovuq paytida ushbu modul past haroratli tashqaridagi havoni qaynatilgan kolbasalarni sovutish uchun qo'llash imkonini beradi.


**Batareyali sovutishda jihozlarning turlari va ularni joylashtirish.** Iqtisodiyotda chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini sun'iy sovutish ularni tabiiy sovutishga qaraganda o'nlab martalab kengroq ko'lamma qo'llaniladi. Bunda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, mahsulotlarni sun'iy sovutish eng avvalo ularni sovuqlik bilan ishlov berishdan bo'lgan asosiy maqsad – tez buziluvchi mahsulotlarni uzoq muddat saqlash vazifasini bajarish uchun yo'naltirilgan. O'zbekistonning iqlimi sharoitlarida bu sohada asosan sun'iy sovutishning mashina yordamida amalga oshiriladigan usuli qo'llaniladi.

*Mashinali sovutish.* Eng ko'p tarqalgan va ekspluatatsiya nuqtai-nazaridan qulay bo'lgan sovutish usuli – mashinali sovutish usuli hisoblanadi. 1930 yillarda xlorftoruglerodlar, gidroxlorftoruglerodlar va kichik o'lchamli elektrovdvigatellar o'ylab topilganidan so'ng, texnikada hamda turmushda mexanik sovutish mashinalari ishlatila boshlandi. Mashinali sovutishda sovuqlik olish sovutish agentining agregat holati o'zgartirilishi bilan amalga oshiriladi. U past haroratda qaynaydi, nati-jada sovutilayotgan jism yoki muhitdan issiqlik olib ketiladi. Sovutish agentining bug'i kondensatsiyalanishi uchun uming harorati va bosimini ko'tarish zarur bo'ladi. Mashinali sovutishda chorvachilik mahsulotlarini sovutish jarayonining aynan o'zi bu mahsulotlar saqlanadigan kamerada (xonada) amalga oshiriladi. Bunda sovutish jarayoni sovutish batareyalari (radiatorlari) vositasida amalga oshiriladi. Shu sababli mashinali sovutish ayrim hollarda batareyali sovutish deb ham ataladi.

*Bug' – kompressorli sovutish sxemasining sikli (aylanma davri).* Bug' – kompressorli sovutish mashinasining ishlash prinsipini sodda qilib 4 ta jarayonga ajratish mumkin: *qaynash, siqish, kondensatsiyalanish* va *drossellanish*. Mashinada sovutish jarayoni sovutish agentining yopiq tizimda qaynashi va kondensatsiyalanishi bilan amalga oshiriladi. Sovutish agentining qaynashi past harorat va bosimda, kondensatsiyalanishi esa yuqori harorat va bosimda amalga oshiriladi. Bug' – kompressorli sovutish sikli 4 ta asosiy elementdan tashkil topgan mashinani ko'zda tutadi: kompressor, kondensator, drossel–ventil, bug'latgich (3–rasm). Bu elementlar yopiq tizimda quvurlar orqali bir-biri bilan ulanadi va ularda sovutish agenti aylanma harakat – sirkulyatsiya qiladi. Kompressor sirkulyatsiyani amalga oshiradi, bug'latgichda past, kondensatorda esa yuqori bosim (20 – 23 atm) bo'lishini ta'minlaydi.

Bug'latgichdan chiqayotgan bug' holatidagi sovutish agenti past bosim va haroratda bo'ladi. Kompressor bug'ni so'rib oladi va taxminan 20 atm bosimgacha siqadi, harorati esa 70 – 90°C gacha ko'tariladi. Shundan so'ng qizigan bug' kondensatorga haydaladi, u yerda soviydi va kondensatsiyalanadi. Kondensatorda sovutish uchun havo yoki suv ishlataladi. Kondensatordan chiqishda suyuq sovutish agenti yuqori bosim va kondensatsiya haroratiga ega bo'ladi. Kondensator ichida bug' to'liq suyuq holatga o'tishi kerak. Shundan keyin sovutish agenti termorostlovchi ventil' (TRV) ga boradi. TRV dan o'tishda sovutish agenti bosimi keskin tushadi va qisman bug'lanish amalga oshadi.

Bug'latgichga kirish vaqtida sovutish agenti suyuq va bug' aralashmali holatda bo'ladi. Bug'latgichda sovutish agenti to'liq bug' holatiga (3-rasm) o'tishi zarur. Shuning uchun bug'latgichdan chiqisha sovutish agenti berilgan bosimdag'i qaynash haroratidan yuqoriroq (5 – 8°C) harorat (o'ta qizigan holat) da bo'ladi. Bu kompressorga suyuq sovutish agenti tomchilari tushmasligi uchun zarur, aks holda kompressor ishdan chiqishi mumkin. Bug'latgichda hosil bo'lgan sovutish agenti bug'lar kompressor tomonidan so'rildi va jarayon takrorlanadi.



3 – rasm.  
Bug' –  
kompressorli  
sovutish  
mashinasining  
sxemasi

Shunday qilib, sovutish agenti sovutish mashinasida davriy ravishda bosimi va haroratini o'zgartirgan holda aylanma siklik harakatda bo'ladi. Bug' – kompressorli sovutish mashinasi siklini tushunish uchun unga kiradigan har bir jarayonlarni alohida o'rganish kerak bo'ladi. Bu jarayonlarni o'rganishda siklining diagramma yoki grafik chizmalaridan

foydalaniш maqsadga muvofiqdir. Sovutish sikllarini grafik chizmalarda o'рганиш jarayon davomida kechayotgan o'зgarishlarni ko'rish imkonini beradi va bunda siklga bog'liq bo'lgan har bir kattaliklarning son jihatidan o'зgarishini qayd qilish mumkin bo'ladi.

**Hozirgi zamonda mahsulotlarni sun'iy sovutishda keng qo'llanilayotgan sovutish mashinalarining ishchi va termodinamik jarayonlari.**


Sovutish mashinalarining ishchi siklini tahlil qilishda eng muhim diagrammalardan biri  $i - \lg P$  (solishtirma ental'piya – bosim) bo'lib, u keyingi hisoblarni amalga oshirish imkonini beradi. Har qanday termodinamik holatda bo'lgan sovutish agentining holatini diagrammada nuqta orqali ko'rsatish mumkin. Buni aniqlash uchun yuqoridagi holatga to'g'ri keladigan 2 ta parametr yetarli bo'ladi. Buning uchun oddiy o'лchanuvchi parametrlar ishlatalishi mumkin: harorat ( $^{\circ}\text{C}$  yoki K), bosim (Pa); solishtirma hajm ( $\text{m}^3/\text{kg}$ ) yoki zichlik ( $\text{kg}/\text{m}^3$ ). Oddiy o'лchash parametrlaridan tashqari murakkab hisob parametrlari ham ishlataladi.  $i - \lg P$  diagrammada bunday parametrlardan biri solishtirma ental'piya –  $i$  ( $\text{kJ}/\text{kg}$ ) hisoblanadi. Solishtirma ental'piya sovutish agentining birlik massasiga to'g'ri keluvchi umumiy energiya (ental' – piya) dir. Termodinamikada solishtirma ental'piya  $i$  ichki energiya  $u$  bilan absolyut bosim  $P$  va solishtirma hajm  $v$  ko'paytmasining yig'indisiga teng:  $i = u + Pv$ . Bu formuladagi  $Pv$  ko'paytma ish bajarish uchun sarflanadigan bosim  $P$  ning potentsial energiyasi hisoblanadi.

Hisobiy parametrlardan yana biri entropiyadir –  $S$ . Hisoblashlarda va diagrammada solishtirma entropiya  $s$  ( $\text{Kj}/\text{kg} \cdot \text{K}$ ) ishlataladi. Ental'piyadagi kabi, hisob-kitob ishlari uchun entropiyaning "nuqtadagi" qiymati emas, balki biror-bir jarayondagi o'зgarishi ahamiyatlidir.

Diagramma (4-rasm) bilan ishslashda uning 3 ta sohaga bo'linishini inobatga olish zarur: 1. o'ta sovigan suyuqlik sohasi – to'yingan suyuqlik egri chizig'iidan chap tomonda, bu yerda bug'ning quruqlilik darajasi  $x = 0$  bo'ladi; 2. suyuqlik-bug' aralashmasi sohasi –  $x = 0$  va  $x = 1$  – to'yingan bug' egri chiziqlari orasida joylashadi; 3. o'ta qizigan bug' sohasi –  $x = 1$  dan o'ng tomonda. To'yingan suyuqlik chizig'i ( $x = 0$ ) chap, yoki quyи chegaraviy chiziq, quruq to'yingan bug' chizig'i ( $x = 1$ ) esa o'ng, yoki yuqori chegaraviy chiziq deb ataladi. O'zarmas bosim – izobara chiziqlari diagrammada gorizontal

qilib, o'zgarmas ental'piya – izoental'piya chiziqlari esa vertikal qilib berilgan. Bir jinsli sovutish agentlarining qaynash va kondensatsiya – lanish jarayonlari o'zgarmas bosimda, to'inish haroratiga to'g'ri keladigan o'zgarmas haroratda chegaraviy egri chiziqlar orasida kechadi.

Sovutish mashinasining barcha kompressiyaviy sikllari ikkita bosim oralig'ini o'z ichiga oladi. Ular orasidagi chegara bir tomondan kompressorning haydash klapani, ikkinchi tomondan TRV (yoki kapillyar naycha) dan chiqishda yotadi. Kompressorning haydash klapani va TRV dan chiqish nuqtalari sovutish mashinasida yuqori va past bosimlarni ajratuvchi nuqtalar hisoblanadi. Yuqori bosim tomonida sovutish mashinasining kondensatsiya bosimida ishlovchi elementlari joylashgan. Past bosim tomonidagi elementlar esa qaynash bosimida ishlaydi. Kompressorli sovutish mashinalarining har xil turлari mavjud bo'lishiga qaramay, ulardagi prinsipial sikel sxemasi bir xilda bo'ladi.



4 - rasm. Sovutish agentining ental'piya (issiqlik saqlami) -- bosim diagrammasi


**Sovutish sikli.** Diagrammada (4-rasm) sovutish agentining quruq to'yingan bug' va to'yingan suyuqlik holatlarini tasvirlovchi egri chiziqlari "Kritik nuqta" deb ataladigan joyda kesishadi. Bu yerda sovutish agenti ham suyuq, ham bug' holatida bo'lishi mumkin. Egri chiziqlarning chap va o'ng tomonlarida mos ravishda o'ta sovigan suyuqliq hamda o'ta qizigan bug' yotadi. Egri chiziqlar ichida esa suyuqlik va bug' aralashmasi bo'ladi.

Sovutishning nazariy (ideal) siklini ko'rib chiqamiz (5-rasm). Bunday sikldagi asosiy jarayonlar quyidagilardan iborat.

*Kompressorda bug'ning siqilishi.* Sovutish agentining sovuq to'yingan bug'i kompressorga C' nuqtada so'rildi. Siqish jarayonida uning bosim va harorati ortadi (D nuqta). Sovutish agenti ental'piyasi (issiqlik saqlami) HD – HC' kesmaga teng miqdorda ortadi, ya'ni C' – D chiziqning gorizontal' o'qdagi proyektsiyasiga teng bo'ladi.

*Kondensatsiyalanish.* Siqish so'ngida (D nuqta) issiq bug' kondensatorga uzatiladi. Bu yerda u gaz holatdan suyuq holatga o'tadi, ya'ni kondensatsiyalanadi. Bu jarayon o'zgarmas bosim va haroratda kechadi. Sovutish agenti ental'piyasi jarayon davomida kamayadi. Kondensatsiya jarayoni uch bosqichda amalga oshadi: o'ta qizishning yo'qolishi (D – E), kondensatsiyalanish (E – A) va suyuqlikning o'ta sovishi (A – A'). Ularning har birini qisqacha ko'rib chiqamiz.

O'ta qizishning yo'qolishi (D – E). Bu bosqichda bug' harorati o'ta qiziganlik haroratidan to'yinish yoki kondensatsiya haroratigacha pasayadi. Bu jarayonda olib ketilgan issiqlik umumiy kondensatsiya issiqligining 10 – 20% ni tashkil etadi.



5-rasm. Sovutish nazariy tsiklining i [ental'piya (issiqlik saqlami)] -- lg P (bosim) diagrammasidagi tasviri

Kondensatsiyalanish (E – A). Jarayon davomida kondensatsiya harorati o'zgarmas holatda saqlanib turadi (bir nechta moddalardan tashkil topgansovutish agentlari kondensatsiyalanganda ularning harorati pasayadi). To'yingan bug' to'yingan suyuqlikka aylanadi. E –

A qismdan olingan issiqlik umumiy kondensatsiya issiqligining 60 – 80% ni tashkil etadi.

Suyuqlikning o‘ta sovishi (A – A’). Bu jarayonda to‘yingan suyuqlik o‘ta sovigan holatga o‘tadi, ya’ni harorati kondensatsiya haroratidan pasayadi.

Suyuqlikning o‘ta sovutilishi energetik samaradorlik beradi. Bir xil elektr energiyasi sarflangan holda sovutish agenti haroratining bir gradusga pasayishi sovuqlik unumdorligining 1% ga ortishiga olib keladi.

Kondensatorda ajralgan issiqlik miqdori (D – A’) kesma, kondensatorda sovutish agenti ental’piyasining o‘zgarishini xarakterlaydi. Kondensatorda ajralgan issiqlik miqdorini aniqlash uchun ushbu ental’piya o‘zgarishini sovutish agentining massaviy sarfiga ko‘paytirish kerak.

Sovutish agenti oqimining TRV (kapillyar naycha) da *drossellani* (A’ – B). O‘ta sovitilgan suyuq sovutish agenti A’ nuqtadagi holatda oqim rostlagich (kapillyar naycha yoki TRV) ga kiradi. U yerda sovutish agenti bosimi keskin pasayadi. Jarayonning borishida ental’piya o‘zgarmaydi, ichki ishqalanish hisobiga bir qism suyuqlik bug‘ga aylanadi.

Suyuq sovutish agentining bug‘latkichda *gaynashi* (B – C). Suyuqlik-bug‘ aralashmasi (B nuqtada) bug‘latkichga kiradi, sovutilayotgan muhitdan issiqlikni yutishi hisobiga to‘liq bug‘ga aylanadi (C nuqta). Bir jinsli sovutish agentlari uchun jarayon o‘zgarmas haroratda boradi, hamda sovutish agentining issiqlik saqlami ortadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, bug‘latgichdan chiqishda sovutish agenti bir muncha isiydi, ya’ni o‘ta qizigan holatga o‘tadi. O‘ta qizish jarayoni (C – C’) ni amalga oshirishdan maqsad – kompressorga bug‘simon sovutish agentining so‘rilishini ta’minlashdan iborat. O‘ta qizish haroratini 0,5°C ga orttirish bug‘latgichning issiqlik almashinish yuzasini 2 – 3% ga orttirishga teng samara beradi. Odatdagi o‘ta qizish 5 – 8°C ni tashkil etgani uchun bug‘latgichning issiqlik almashinish yuzasi 20% gacha orttirilgandagi kabi natijaga erishish mumkin. Sovutish unumdorligining ortishi tufayli bunday ortiqcha xarajat o‘zini oqlaydi.

Bug‘latgichda yutiladigan issiqlik HB – HC’ kesmaga teng bo‘lib, u bug‘latgichda sovutish agenti issiqlik saqlamining o‘zgarishini xarakterlaydi. Ushbu ental’piya o‘zgarishi sovutish agenti massaviy

sarfiga ko'paytirilsa, bug'latgichda yutilgan issiqlikning qiymatini beradi.

**Izotermik, izobarik va adiabatik jarayonlar.** Bug'-kompressorli sovutish uskunasining ishchi siklida termodinamik jarayonlar guruhiga kiruvchi izotermik, izobarik va adiabatik jarayonlar asosiy o'rinn egal-laydi. Shuning uchun ushbu termodinamik jarayonlarning mohiyatini qisqacha ko'rib chiqamiz.

Izotermik jarayon yunoncha *izo* – bir xil, teng va *termos* issiqlik so'zlaridan olingan bo'lib, o'zgarmas haroratda fizik sistemada ro'y beradigan fizik yoki kimyoviy jarayondan iborat, ya'ni  $t = \text{const}$  sharoitida. Masalan, o'zgarmas bosimda suyuqlikning qaynashi, qattiq jismning erishi va sh.k. Qaytar va qaytmash izotermik jarayonlar mavjud. Izotermik jarayonda ideal gaz bosimi bilan uning hajmi o'zaro teskari proprotsional holda o'zgaradi. Izotermik jarayon issiqlik mashinalarida ham ro'y beradi, xuddi shuningdek izotermik jarayonlar tarkibiy qism sifatida to'g'ri va teskari Karko sikli tarkibiga ham kiradi. Uning grafigi izoterma deyiladi.

Sovutish mashinasining ishchi siklida suyuq sovutish agentining bug'latgichda qaynashi va sovutish agentining yuqori haroratli quruq to'yingan bug'inining kondensatorda kondensatsiyalanishi jarayonlari izotermik jarayonlardan iborat.

Izobarik jarayon *izo* va *baros* (yunoncha og'irlilik) so'zlaridan olingan bo'lib, bosim o'zgarmas bo'lган sharoitda sistemada sodir bo'ladigan fizik jarayondan iborat, ya'ni  $p = \text{const}$  sharoitida. Izobarik jarayon sistemaning termodinamik holat diagrammasida izobara deb ataluvchi chiziq bilan tasvirlanadi. Atmosfera bosimida sodir bo'ladigan fizik jarayonlar, jumladan, suvning isishi, ochiq idishdagi gazning qizishi yoki sovishi, moddaning ikki fazali holatidagi izotermik jarayonlar va ko'pgina kimyoviy reaksiyalar izobarik jarayonlarga misol bo'la oladi. Yuqori va past bosimlarda moddalarning xossalarni tadqiq qilishda, issiqlik mashinalarida (masalan Joul', Dizel' sikllari) izobarik jarayonдан foydalaniladi.

Sovutish mashinasining ishchi siklidagi moddaning ikki fazali holatidagi izotermik jarayonlar, ya'ni suyuq sovutish agentining bug'latgichda qaynashi va sovutish agentining yuqori haroratli o'ta qizigan va quruq to'yingan bug'inining kondensatorda kondensatsiyalanishi jarayonlari bir vaqtning o'zida izobarik jarayonlardan ham


iborat. Bu jarayonlarda modda – sovutish agenti tomonidan olinayotgan yoki berilayotgan issiqlik hisobiga uning agregat holati o‘zgaradi.

Adiabatik jarayon yunoncha *adiabatos* – o‘tib bo‘lmas so‘zidan olingen bo‘lib, tashqi muhit bilan issiqlik almashinuviz o‘tadigan termodinamik jarayondan iborat, ya’ni  $s = \text{const}$  sharoitida. Adiabatik jarayon sodir bo‘ishi uchun jism butunlay issiqlik o‘tkazmaydigan qatlam (chevara) bilan ajratilgan bo‘lishi kerak. Tashqi muhit bilan sezilarli miqdorda issiqlik almashinib ulgura olmaydigan darajada tez o‘tadigan jarayonlar ham adiabatik jarayonga juda yaqin bo‘ladi. Tovushning gazlar va boshqa jismlarda tarqalishi bunga misol bo‘la oladi. Jism adiabatik jarayon davomida ish bajarganda uning ichki energiyasi kamayadi. Ideal gaz adiabatik jarayon davomida ish bajarganda (kengayganda) uning harorati pasayadi. Aynan shu hodisadan gazlarni suyultirishda foydalaniлади. To‘yingan bug‘ adiabatik kengayganida ho‘llanadi. Atmosferada sodir bo‘ladigan ko‘pgina jarayonlarni adiabatik jarayon deb qarash mumkin.

Sovutish mashinasining ishchi siklida kompressorda past haroratli sovutish agenti to‘yingan bug‘ining siqlishi jarayoni adiabatik jarayondan iboratdir. Bunda jism – sovutish agenti ustida ish bajariishi hisobiga uning ichki energiyasi ortadi (harorati ko‘tariladi). Havoli sovutish mashinasida issiq havoning detanderda adiabatik kengayishi uning bosimi va haroratining pasayishiga olib keladi (ichki energiyasi kamayadi).

**Havo sovutgichli sovutishda jihozlarni joylashtirish.** Havoli sovutish qurilmasi amalda ishlaydigan gazli sovutish qurilmasi turlaridan eng birinchisi bo‘lgan. Bunday qurilmani amerikalik muhandis Garri 1845 yili ixtiro qilgan. Havoli sovutish qurilmasining sxemasi 6-rasmda ko‘rsatilgan. Havo detander 1 da  $p_1$  bosimdan  $p_2$  bosimgacha kengayib ish bajaradi; bu ishni detander tashqi iste’molchiga (masalan, elektr generatoriga) beradi. Detanderda adiabatik kengayish natijasida  $T_3$  haroratdan  $T_4$  haroratgacha ( $\approx - 60^{\circ}\text{C}$ ) sovutilgan havo sovutish xonasi 2 ga kirib, unda issiqlik berish jarayoni o‘zgarmas havo bosimida ( $p_2=\text{const}$ ) sodir bo‘ladi. Havo sovutiladigan xonadan chiqqanidan keyin kompressor 3 ga yuboriladi, bu yerda havo bosimi  $p_2$  dan  $p_1$  gacha oshiriladi (bunda havo harorati  $T_1$  dan  $T_2$  gacha ortadi). Kompressorda siqlgan havo sovutgich 4 ga kiradi. Sovutgich issiqlik almashtirgich bo‘lib, unda sovituvchi suvgaga issiqlik berilishi natijasida havoning harorati pasayadi. Sovutgichda jarayon o‘zgarmas havo


bosimida ( $p_1 = \text{const}$ ) sodir bo‘ladi. Sovutgichda  $T_3 < T_2$  haroratgacha izobarik sovutilgan havo yana detanderga keladi va yuqoridagi sikl qaytariladi.




6 - rasm. Havoli sovutish qurilmasining sxemasi

Havoli sovutish qurilmasi siklining  $p - v$  va  $T - s$  diagrammasidagi tasviri 7 - va 8 - rasmlarda keltirilgan. Bu yerda 1-2 - kompressorda siqish jarayoni; 2-3 - havoni sovutgichda izobarik sovutish jarayoni; 3-4 - havoning detanderda adiabatik kengayishi; 4-1 - sovutiladigan xonadan izobarik issiqlik olish jarayoni. Bu diagram-

malarda 1-2-3 - siqish chizig‘i, 3-4-1 - kengayish chizig‘idan iborat. 8 - rasmdagi  $T - s$  - diagrammada siklda sarflangan  $I$  ish 1-2-3-4-1 - yuza bilan tasvirlanadi. Siklni amalga oshirish uchun sarflangan ish  $q_1$  va  $q_2$  issiqliklar farqiga teng.



7 - rasm



8 - rasm

**Sovuqlik tashuvchilar , ularning xususiyatlari va qo‘llanilish sohasi.** Sovutish mashinalarida sovuqlik olish ishchi modda – sovutish agentlari yordamida amalga oshiriladi. Sovutish agentlari sifatida bug‘, gaz, suvli yoki metalli aralashmalar ishlatalishi mumkin. Gazli yoki havoli sovutish mashinalarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularda ishchi modda o‘zining agregat holatini o‘zgartirmaydi. Bug‘-kompressorli sovutish mashinalarida esa ishchi moddalar agregat holatini o‘zgartiradi. Aralashmalarda ishlaydigan mashinalarda, aralashmalarning kontsentratsiyasi davr mobaynida o‘zgarib turadi, bu esa issiqlik ta’sirining o‘zgarishiga olib keladi.

Sovutish mashinasining ishini, tashqi energiya sifatida mexanik, issiqlik yoki elektr energiyasini qo'llash orqali amalga oshirish mumkin. Oxirgi ikki turda ishlaydigan mashinalar, ya'ni issiqlik energiyasini qo'llovchi mashinalar – issiqlik ishlatuvchi va elektr energiyasini qo'llovchi mashinalar – termoelektrik deb ataladi.

Sovutish mashinalarining ishchi moddalari – sovutish agenti, sovutish konturining har xil qismida o'z holatini o'zgartiradi. Birinchilardan bo'lib 1755 yilda sovutish agenti sifatida suv ishlatilgan. U Villyam Gulen (William Gullen) yaratgan laboratoriya uskunalarida "manfiy" kaloriya (sovuoqlik) olish uchun xizmat qilgan. Keyinchalik amerikalik Yakov Perkins (Jacob Perkins) dietil esfirda ishlaydigan kompression mashinani yaratdi. 1844 yilda Jon Gorri (John Gorrie) havoning siqilishi va kengayishi bilan ishlaydigan mashinani o'ylab topdi. 1859 yilda fransuz olimi Ferdinand Garri (Ferdinand Garre) ammiakda ishlaydigan absorbsiyaviy sovutish mashinasini barpo qildi. To'rt yil o'tib Charliz (Sharles) metil spirti efiri bilan ishlaydigan kompressorni ishga tushirdi. XIX asrning oxirigacha yana ikki yangi sovutish agenti : karbonat angidrid gazi ( $\text{CO}_2$ ) va oltingugurt angidridi ( $\text{SO}_2$ ) ishlatildi.

Sovutish agenti belgilanishi uchun organik kimyoda qo'llaniladigan umumiy nomlar va maxsus nomlar ishlatiladi. Xalqaro ISO-817 standartlari asosida "Organik sovutish agentlariga bir qancha belgilar: savdo–sanoatga oid, kimyoziy va kimyoziy formulalar" kiritilgan. Sovutish agentlarining maxsus belgilanishi tasdiqlangan bo'lib, u «R» (Refrigerant) va sonlardan tashkil topgan. Sonlar sovutish agenti molekulalari tuzilishi bilan bog'liq bo'lib, quyidagi tartibdagi mazmunni belgilaydi. Oxirgi son molekuladagi fтор atomlari soniga teng, undan bitta oldingi son – vodorod atomlari soniga 1 raqamining qo'shilgalligi, o'ngdan uchinchi son esa – uglerod atomlari sonidan 1 raqamining ayrliganligiga teng. Metan asosidagi sovutish agentlari uchun bu son nol'ga teng, shu sababli metan ( $\text{CH}_4$ ) asosidagi sovutish agentlari ikkita raqam bilan belgilanadi (masalan, R-12 –  $\text{CCl}_2\text{F}_2$ ; R-22 –  $\text{CHClF}_2$ ). Etan, propan, butan asosidagi sovutish agentlari esa uchta raqam bilan belgilanadi (masalan, R-134 –  $\text{C}_2\text{H}_2\text{F}_4$ ). Brom tarkibli sovutish agentlarida son belgilariiga B harfi va molekuladagi brom atomlari soni qo'shiladi. Masalan, R-13B1 –  $\text{CF}_3\text{Br}$ . Etandan boshlab galogen hosilali izomerlar hosil bo'ladi. Simmetrik izomerlar faqat sonlar kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Sonlar kombinatsiyasiga taalluqli bo'lgan izomerda asimmetriyaning ortishi bilan, unga «a» harfi qo'shiladi,

yanada ko'proq asimmetriya uchun «b» harfi bilan almashtiriladi. Masalan , R-134 – (CHF<sub>2</sub>–CHF<sub>2</sub>), R-134a – (CF<sub>3</sub>–CH<sub>2</sub>F).

Anorganik kelib chiqishli sovutish agentlarida molekulyar masasiga 700 soni qo'shilgan raqamlar ishlataladi. Masalan, ammiak (NH<sub>3</sub>) R-717, suv (H<sub>2</sub>O) R-718, uglerod oksidi (CO<sub>2</sub>) R-744 deb belgilanadi. Organik kelib chiqishli sovutish agentlariga 600 chi seriyasi berilgan. Masalan, izobutan R-600a, bunda har bir sovutish agenti raqami ushbu seriya ichida ixtiyoriy belgilanadi.

**Sovutish qurilmalarining ishchi jismi: ammiak, freonlar, karbonat angidrid, sulfat angidrid va boshqalar to'g'risida.** Hozirgi vaqtida bug' – kompressorli sovutish mashinalarining sovutish agenti sifatida borgan sari ko'proq R-134a qo'llanilmoqda. **R-134a** – birinchi xlorsiz gidroftoruglerod, har taraflama tekshirilgan sovutish agentidir (9-rasm). Hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab ko'pchilik sovutish mashinalarida va havoni konditsionerlash tizimida yaxshi natijalar bilan ishlatalib kelinmoqda. Toza ko'rinishda ishlatalishdan tashqari, R-134a ko'pgina aralashmali sovutish agentlarida komponent sifatida ham ishlatalimoqda. R-134a ning kimyoviy tuzilish formulasi CF<sub>3</sub>–CH<sub>2</sub>F dan iborat.



9 - rasm. R-134a  
sovutish agenti

R-134a sovutish agenti ilgarigi vaqtlardan sovutish mashinalarida keng qo'llanilib kelinayotgan freon-12, ya'ni R-12 ga mos termodinamik xususiyatlarga ega. O'rtacha haroratlari sovutish qurilmalari va havoni konditsionerlash tizimi uchun R-134a ning solishtirma sovuqlik unumidorligi va sarflanadigan quvvati, shuningdek termodinamik xossalari va bosim darajasi R-12 bilan bir xil. Shuning uchun ko'p hollarda R-134a, R-12 ning o'mniga ishlatalishi mumkin. Ayrim qurilmalarda hattoki R-22 (freon-22) R-134a ga almashtirilganligi ma'qul. Chunki R-22 ni yangi qurilmalarda ishlatalish cheklangan. Lekin R-134a ning R-22 ga qaraganda solishtirma sovuqlik unumidorligi ko'rsatkichining pastligi yuqori unumidorlikli kompressor ishlatalishni talab qildi, shuningdek qurilmadagi past bug'lanish haroratlarini ham hisobga olish kerak. Tajribalar R-134a ning unumidorligi kompressorlarning keng ish diapazonida ko'pgina amaliy bashorat ma'lumotlaridan ortiq ekanligini ko'rsatdi. Moy va haydash haroratlari qiymati R-12 ga

qaraganda ancha past, demak R-22 dan ham past. Shunday qilib, o'rtacha haroratli uskunalar va havoni konditsionerlash tizimida uning ishlatalishi bir qancha afzallikka olib keladi.

*R-152a* va *R-134a* ning solishtirma sovuqlik unumidorligi (farq ~5%), bosim darajasi (10%) va energiya sarfi bir-biriga juda yaqin. Massaviy sarfi, bug'lar zichligi va bosim o'zgarishi hatto yaxshiroq (40% atrofida). Hozir *R-152a* aralashma sifatida ishlatalib kelinmoqda. Asosan global isish qobiliyati past bo'lgani uchun ishlatalishi maqsadga muvofiqdir. Yuqori siqish darajasidagi kamchiligi kompressordagi haydash haroratining balandligi hisoblanadi. Bu konturdagi kimyoviy talablar va moylovchi materiallardagi ekstremal talablarga qo'shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. *R-152a* ning kimyoviy tuzilish formulasi  $\text{CH}_3 - \text{CHF}_2$  dan iborat.

*R-125*, *R-143a* va *R-32* lar ham tarkibida xlorsiz, oxirgi ikki agentning tez yonuvchanligiga qaramasdan, ular al'ternativ sovutish agentlari hisoblanadi. Shuning uchun xlorli sovutish agentlariga to'g'-ridan-to'g'ri almashtirib bo'lmaydi. Shuningdek, *R-32* yuqori bosim va yuqori haydash haroratiga egadir. *R-125* – yonmaydigan, qaynash harorati – 48,5°C, adiabatik ko'rsatkichi past sovutish agentidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda u avvaldan ishlatalgan *R-502* bilan o'x-shashdir. *R-125* ning kamchiligi baland siqish darajasini talab qiluvchi va past kritik haroratli (66°C) bo'lishi hisoblanadi. Shu sababli u havo bilan sovutiladigan kondensatorlarda ishlatilmaydi, baland kondensatsiya haroratida ishlashi lozimligidan energiya sarfining samaradorligi past bo'ladi. Shuning uchun yuqorida ko'rsatilgan sovutish agentlari toza ko'rinishda faqatgina ayrim hollarda ishlatalidi. Boshqa tomonidan qaraganda, ular *R-134a* bilan aralashma sifatida yaxshi natijalar beradi. Ularning kimyoviy formulalari: *R-125* –  $\text{CF}_3 - \text{CHF}_2$ ; *R-143a* –  $\text{CH}_3 - \text{CF}_3$ ; *R-32* –  $\text{CH}_2\text{F}_2$ .

*SUVA MP 39* va *SUVA MP 66* (*R-401a* va *R-401b*) – al'ternativ sovutish agentlari, o'rtacha harorat rejimida ishlovchi tizimlarda R-12 ni almashtirish uchun ishlab chiqarilgan, kichik ozon qatlamini yemirish qobiliyatiga ega. *SUVA MP* servis aralashmalarining seriyasi R-12 da ishlaydigan sovutish tizimlarida retrofitni o'tkazish uchun kam xarajat talab etadi. Bu aralashmalarning yechimi shunday tanlanganki, aralashmaning har xil ishchi xossalariiga aniq amal qiladi. Servis aralashmasining tanlanishi R-12 ning bug'latgichdagi qaynash haroratiga bog'liq.

SUVA MP 39 va SUVA MP 66 (R-401a va R-401b) sovutish agentlari qaynash harorati  $-20^{\circ}\text{C}$  va undan baland bo‘lgan tizimlarda yaxshi samara beradi. Bunday tizimlarda solishtirma sovuqlik unum-dorligi xuddi R-12 dagidek bo‘ladi, ba’zi hollarda hatto 10% gacha oshadi. Tizimning foydali ish koefitsiyenti SUVA MP 39 va SUVA MP 66 ga o‘tish jarayonida bir qancha ko‘tariladi. SUVA MP 39 va SUVA MP 66 larni kichik sovutish kameralarida, oziq-ovqat do‘konlari vitrinalarida, maishiy sovutgichlarda ishlatish mumkin. Ular kimyoiy tuzilishiga ko‘ra azeotrop aralashmalardan iborat bo‘lib, MP 39 ning tarkibi 53 % R-22, 13 % R-152a va 34 % R-124 dan iborat; MP 66 esa 61 % R-22, 11 % R-152a va 28 % R-124 dan tuzilgan.

*Ammiak R-717* ( $\text{NH}_3$ ) 100 yildan oshiq vaqt mobaynida, sanoat va boshqa yirik sovutish qurilmalarida ishlatib kelinmoqda. Uning ozon qatlamiga va global isish qobiliyatiga ta’siri nolga teng. Uning samaradorligi R-22 ga qaraganda kam emas, ba’zi hollarda hatto yuqori. Shuning uchun global isib ketishga bilvosita ta’siri ham kam. Bunday tashqari uning narxi ancha past.  $\text{NH}_3$  ning kamchiligi – baland adiabatik ko‘rsatkichi bo‘lib, ( $\text{NH}_3 = 1,31$ ;  $\text{R}-22=1,18$ ;  $\text{R}-12=1,14$ ) R-22 dan ham baland bo‘lgan haydash haroratida ko‘rinadi. Shuning uchun  $10^{\circ}\text{C}$  dan past bo‘lgan bug‘lanish haroratida bir bosqichli siqish jarayonida ishlatilmaydi, ikki bosqichli siqish jarayonini qo‘llash kerak bo‘ladi. Moylarni tanlashda hosil bo‘ladigan muammolar ham mavjud bo‘lib, bu kichik uskunalarda moyning sovutish agenti bilan juda yomon aralashishidir. Ilgari qo‘llanilgan moylar sovutish agentida erimasdi. Ularning ajratilishi alohida qo‘shimcha texnologiya talab qiladi va issiqlik uzatishda sifat o‘zgarishi tufayli to‘g‘ridan-to‘g‘ri kengayuvchi bug‘latkichlarning ishlatilishini chegaralaydi. Yuqori haydash harorati bo‘lgani uchun termostabil moylashni talab qiladi. Bu, ayniqsa, moy o‘z xususiyatini yillar davomida o‘zgartirmasdan konturda saqlanishi kerak bo‘lgan, avtomat tarzda ishlash uchun kerak. Ammiak fazalari-ning o‘zgarishi paytida juda katta ental’piyalar farqiga ega bo‘ladi va tsirkulyatsiya vaqtidagi solishtirma hajm sarfi kam ( $\text{R}-22$  bilan solishtirilganda 13 dan 15 % gacha). Bu xususiyat katta uskunalar uchun afzal hisoblanadi. Lekin kichik uskunalardagi sovutish agentining harakatini boshqarishni qiyinlashtiradi.

*R-290 (propan)* – bu organik modda bo‘lgani uchun, ozon qatlamiga ta’sir potentsialiga ega emas, shuningdek global isib ketishga ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’siri mavjud emas. Siqish darajasi va solishtirma sovuqlik unum-dorligi R-22 va R-502 ga o‘xshashdir, harorat

ko'rsatkichlari esa, R-12 va R-502 larniki kabi juda qulaydir. Materiallar bilan hech qanday muammolar mavjud emas. Ammiakdan farqli ravishda mis materiallarini qo'llash mumkin. Shuning uchun uni germetik va yarim germetik kompressorli mashinalarda ishlatish mumkin. Uglevodorodlarning kamchiligi tez yonuvchanligidir. Tijorat uskunalarida ishlatiladigan sovutish agentining ishlatish darajasi shuni ko'rsatadi, tizimlar portlash va yong'in xavfsizligi qoidalariga asosan loyihalanishi kerak.

*R-744 (karbonat angidrid – CO<sub>2</sub>)* – uning ozon qatlamiga ta'sir qiluvchi potentsiali yo'q, shuningdek global isib ketishga qobiliyati ham juda kichik. U kimyoviy inert, yonmaydigan va zaharsiz gazdir. Shuni ham hisobga olish kerakki, uning havodagi ruxsat etilgan miqdori gidroforuglerodlarga nisbatan kam. Yopiq joylar uchun bu holat maxsus xavfsizlik choralarini talab qiladi. R-744 (CO<sub>2</sub>) arzon va foydalanishda qayta tiklashga ehtiyoji yo'q. Undan tashqari, karbonat angidrid juda yuqori solishtirma sovuqlik unumidorligiga ega, taxminan R-22 va R-717 (NH<sub>3</sub>) ga qaraganda 5–8 marta ko'proq. Uning birinchi galda keng tarqalishiga asosiy sabab, xavfsizlik xossalariidir. «Xavfsiz sovutish agentlari» tushunchasi kiritilgandan keyin CO<sub>2</sub> ning mashhurlik darajasi tushdi va 50–yillardan keyin deyarli bozordan chiqib ketdi. Bunga asosiy sabab sovutish va konditsionerlash qurilmalarining termodinamik xossalariiga salbiy ta'sir qiladigan xususiyatlariidir. Karbonat angidridning haydash bosimi juda baland, kritik harorati esa juda past (74 bar da 31°C ga teng). Kondensator tomondagи haroratdan kelib chiqib, 100 bar bosimdan yuqori, kritik nuqtadan yuqori rejimda ishlash talab qilinadi. Bundan tashqari energiyaviy samaradorlik an'anaviy sxemalarda past. CO<sub>2</sub> ning solishtirma massaviy sovuqlik unumidorligi juda yuqori bo'lgani uchun talab qilingan massaviy sarfi kichik bo'ladi. Bu holat kichik diametrli quvurlarni ishlatish imkonini beradi hamda sirkulyatsiyalovchi nasoslarga sarflanadigan quvvatni kamaytiradi.

**Sovuqlik tashuvchilarga qo'yiladigan talablar.** Hozirgi paytda sovutish agentlariga qo'yilayotgan talablar quyidagilardan iborat:

- atrof–muhitga zarar yetkazmaslik;
- zaharsizligi, yong'in va portlashga xavfsizligi;
- atrof–muhit bosimi ostida past qaynash haroratiga ega bo'lishi;
- yuqori bo'lмагan kondensatsiya bosimi;
- gaz holatidagi yuqori bo'lмагan solishtirma hajmi;

- moylarining yonib ketishining oldini olish uchun kompressorming siqish oxiridagi haroratining yuqori bo‘lmasligi;
- suyuq holda solishtirma issiqlik sig‘imining past ko‘rsatkichli bo‘lishi;
- arzon bo‘lishi.

Monreal bayonnomasi (protokoli) imzolanganligiga qadar sovutish agenti xususiyatlarning talab qilingan parametrлари soni kam edi. Shundan keyin birinchi o‘ringa surilgan, atrof–muhitga ta’sirini hisobga oluvchi xususiyatlari parametrлари qo‘sildi, shuningdek zeotrop va azeotrop aralashmalar hamda transkritik jarayonlar qo‘sildi.

**Sovutish uskuna , jihozlari va texnologiyasida keng ko‘lamda ishlataladigan terminlar** mavjud bo‘lib , ular quyidagilardan iborat : *Sovutish*. Jism yoki mahsulotning haroratini pasaytirish.

**Bosim.** Yuza birligiga tik ta’sir etuvchi kuch. O‘lchov birliklari:  $1 \text{ N/m}^2 = 1 \text{ Pa}$  ,  $1 \text{ bar} = 10^5 \text{ Pa}$  , (mm.sm.ust.).

**Absolyut bosim.** Absolyut, ya’ni to‘la vakuumdan yuqori bo‘lgan bosim. Manometrik va barometrik bosimlarning yig‘indisi.

**Partsial bosim.** Gaz aralashmasining umumiy bosimidagi bitta komponentga tegishli bo‘lgan bosim.

**Absolyut harorat.** Issiqlik energiyasi yo‘q bo‘ladigan termodinamik nol’ “ $-273,15^\circ\text{C}$ ” haroratdan yuqori bo‘lgan haroratga aytildi. Absolyut harorat Kelvin (K) da o‘lchanadi. 0 Kelvin shkalasida =  $-273,15^\circ\text{C}$ .

**To‘yinish harorati.** Suyuq fazaning ma’lum bir bosimga to‘g‘ri keluvchi harorati. Moddaning suyuq va bug‘ komponentlarning termodinamik muvozanat holatidagi harorati.

**Bug‘.** Bu termin to‘yinish nuqtasiga yaqin bo‘lgan qiymatdagi harorat va bosimga ega bo‘lgan gazga nisbatan qo‘llaniladi. Odatta, harorati kritik nuqtadan past bo‘lgan gazlarga qo‘llaniladi.

**Absorbsiya.** Gaz va suyuqlikning to‘qnashishi natijasida gaz aralashmasidan bir yoki bir nechta komponentlarning suyuqlikka yutilishiga aytildi. Jarayon komponentlarning fizik va kimyoviy holati o‘zgarishi bilan kechadi.

**Absorbsiyaviy sovutish tizimlari.** Sovutish agentini siqish jarayoni termik amalga oshiriladigan tizimlardan iborat. Bu jarayon bug‘lana-yotgan sovutish agentining absorbsiyaviy suyuqlik bilan yutilishi va sovutish agenti hajmining kamayishi orqali amalga oshiriladi.

*Zichlik.* Birlik hajmga to‘g‘ri keladigan modda massasi. O‘lchov birligi : kg/m<sup>3</sup>.

*Energiya.* Qandaydir bir jarayon yoki ishni amalga oshira olish qobiliyati. Energiya Joulda o‘lchanadi, J.

*Ichki energiya.* Moddani tashkil etgan zarrachalarning kinetik va potentsial energiyalarining yig‘indisi.

*Issiqlik.* Aniq bir haroratga ega bo‘lgan jismdan undan harorati pastroq bo‘lgan boshqa jismga o‘z-o‘zidan o‘tish qobiliyatini xarakterlaydigan energiyaning asosiy formasiga aytildi. Odatda his qilinadigan va yashirin issiqlik turlari sifatida namoyon bo‘ladi , Joul (J) da ifodalanadi.

*Yashirin issiqlik.* O‘zgarish harorat va bosimda moddaning agregat holati o‘zgarishi tufayli uzatilgan yoki yutilgan issiqlik energiyasi. Bu harorat inson tomonidan his qilinmagani uchun yashirin issiqlik deb ataladi.

*His qilinadigan issiqlik.* Harorat o‘zgarishi bilan bog‘liq va inson tomonidan qabul qilinadigan issiqlik energiyasi.

*Kondensatsiya issiqligi.* Kondensatsiya jarayonida sovutish agenti tomonidan beriladigan issiqlik energiyasi.

*Issiqlik o‘tkazuvchanlik.* Har xil haroratga ega bo‘lgan bir muhitda issiqlik energiyasining issiqliq sohadan sovuqroq sohaga haroratlar tenglashguniga qadar o‘tishi. *Solishtirma issiqlik o‘tkazuvchanlik* koefitsiyenti bilan tavsiflanadi va u λ harfi bilan belgilanadi, o‘lchov birligi :  $Vt/m^*K$ . Odatda λ oddiyroq tarzda issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti deb yuritiladi. Masalan: issiqlik izolyatsiyasi materiali – poliuretanning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti 0,017 – 0,027  $Vt/m^*K$  ga teng.

*Konvektsiya.* Isitilgan gaz, bug‘ va suyuqliklarning harakati tufayli issiqlik berish jarayoniga aytildi.

*Issiqlik sig‘imi.* Materialning haroratini bir gradusga o‘zgartirish uchun kerak bo‘ladigan issiqlik miqdoriga aytildi.

*Ental’piya.* Issiqlik saqlami deb ham ataladi. Bosim va hajmning ko‘paytmasi bilan ichki energiyaning yig‘indisiga aytildi. Ental’piyining o‘zgarishi sovutish uskunasidan o‘tayotgan suyuq ishchi modda yo‘qotgan yoki qabul qilgan energiyani o‘lchaydi. Solishtirma ental’piya  $kj/kg$  da o‘lchanadi va  $i$  harfi bilan belgilanadi.

*Absolyut namlik.* Birlik hajmga ega bo‘lgan bug‘-havo aralashmasidagi suv bug‘ining og‘irligi. O‘lchov birligi  $kg/m^3$  (zichlik singari).

*Nisbiy namlik.* Havodagi suv bug‘i partsial bosimining shu haroratdagi to‘yingan suv bug‘ining partsial bosimiga bo‘lgan nisbatiga aytildi. Bu nisbat atmosfera bosimiga bog‘liq emas.

*Azeotrop aralashma.* Azeotrop aralashma deb, aniq tarkibga ega bo‘lgan ikkita, uchta yoki undan ko‘p individual moddalardan tashkil topgan, fazalar almashinishi jarayonida o‘zining tarkibini o‘zgartirmaydigan aralashmaga aytildi. Aralashma faqat bitta haroratda azeotrop bo‘lishi mumkin. Amaliy maqsadlarda (sovutishda), azeotrop aralashma tarkibining biror bir haroratda o‘zgarishi uncha katta bo‘lmasa, uni bir jinsli suyuqlik deb qabul qilish mumkin.

*Zeotrop / noazeotrop aralashma.* Har xil haroratda bug‘ va suyuq holatda o‘z tarkibining o‘zgarishi bilan xarakterlanadigan aralashma. Bug‘lanish va kondensatsiyalanish haroratlari o‘zgaruvchan bo‘ladi. Bu holat qurilma hisoblanayotganda va loyihalanishida inobatga olinishi kerak. Bundan tashqari bunday aralashma “ko‘p qaynovli aralashma” deb ham ataladi.

*Eritma.* Biror bir moddaning suyuqlikda erishidan hosil bo‘lgan modda. Toza svuning muzlash haroratidan past haroratda muzlaydigan suv esa tuz eritmasidir. Undan tashqari sovutish tizimida issiqlikni tashish uchun ishlataladigan har qanday suyuqliklar eritmadir.

*Evtektik eritma.* Past haroratda muzlaydigan, bir yoki bir nechta moddalarning suvdagi eritmasidan tashkil topgan modda. Evtektik tuz eritmasi tarkibida 23,3%  $NaCl$  tuzi bo‘lib, u  $-25^{\circ}C$  da muzlaydi. Kaltsiy xlоридли evtektik eritma tarkibida esa 29,6%  $CaCl_2$  bo‘lib, u  $-51^{\circ}C$  haroratda muzlaydi.

*CH birliklar tizimi.* Metrik birliklar tizimi o‘rnini bosgan xalqaro birliklar tizimi hisoblanadi.

*Holat o‘zgarishi.* Bir agregat holatdan boshqasiga o‘tish jarayoni. Misol uchun, qattiq holatdan suyuq holatga o‘tish yoki suyuq holatdan gaz yoki bug‘ holatiga o‘tish jarayonlari.

*Sovutish unumidorligi.* Sovutish tizimining unumidorligi. Vaqt birligi ichida sovutilayotgan ob‘yektdan olib ketilayotgan issiqlik miqdori. Vatt (Vt) yoki kilovatt (kVt) larda o‘lchanadi.

*Bug‘ – kompressorli sovutish tizimi.* Bug‘ holatidagi sovutish agenti kompressor yordamida bug‘latgichdan so‘riladigan, siqiladigan, so‘ng kondensatorga uzatiladigan tizim.

*Kompressor.* Gaz holatidagi moddalarni, xususan, sovutish agentlarini so‘rish, siqish va haydash uchun mo‘ljallangan mexanik mashina.

*Issiqlik almashtirgich.* Harorati yuqoriroq suyuqlik (gaz) dan harorati pastroq bo‘lgan boshqa suyuqlik (gaz) ga issiqliknii o‘tkazish uchun mo‘ljallangan apparat.

*Kondensator.* Sovutish agenti issiqligini atrof–muhitga berishi natijasida uning bug‘ holatidan suyuq holatga o‘tishi jarayonini ta’minlovchi issiqlik almashinish apparati.

*Bug‘latkichli kondensator.* Kondensatsiyalanayotgan yuzadan suvni uzluksiz bug‘latish natijasida sovutiluvchi kondensator.

*Bug‘latgich.* Sovutilayotgan muhitdan suyuq sovutish agenti tomonidan issiqliknинг olib ketilishini ta’minlovchi issiqlik almashinish apparati.

*Cho‘ktirilgan bug‘latgich.* Issiqlik almashinish yuzasi doim suyuq sovutish agenti bilan yuvilib turuvchi bug‘latgich.

*Issiqlik uzatish koeffitsiyenti.* Bo‘ylama yoki ko‘ndalang birlik yuzadan birlik vaqt davomida o‘tayotgan issiqlik miqdori, bunda harorat gradienti (farqi) ko‘ndalang kesim yuzasi bo‘yicha bir birlikka teng, odatda  $Vt/m^2 \cdot K$  da o‘lchanadi va *k* harfi bilan belgilanadi.

*Kritik nuqta.* Suyuqlik va bug‘ bir xil xususiyatga ega bo‘lgan holat.

*Kritik bosim.* Moddaning kritik nuqtadagi bosimi.

*Kritik harorat.* Moddaning kritik nuqtadagi harorati.

*Dal‘ton qonuni.* Yopiq idishdagi gaz aralashmasining umumiy bosimi har bir gazning potentsial bosimlari yig‘indisiga teng.

*O‘ta qizish harorati.* Biror bir bosimdagи bug‘ harorati bilan shu bosimga to‘g‘ri keladigan to‘yingan bug‘ haroratlari orasidagi farq.

*Erish harorati.* Berilgan bosimda qattiq moddaning suyuq holatga o‘tish harorati.

*Faza.* Moddaning fizik holatini belgilaydi. Misol uchun qattiq, suyuq yoki gaz fazasi.

*Qurvvat.* Vaqt birligi ichida bajarilgan ish. O‘lchov birligi : Vatt (Vt), kilovatt (kVt), ot kuchi (HP – inglizcha, л.с. – ruscha).

*Ot kuchi.* Bir ot kuchi 745,7 Vt ga teng.

*Quruqlilik darajasi.* Suyuqlik va bug‘ aralashmasidagi bug‘ning birlik qiymatlarida yoki foizda ifodalangan massa bo‘yicha ulushi.

*To‘yingan bug‘.* Bug‘ning berilgan harorat va bosimda suyuq fazasi bilan muvozanatda bo‘lishi.

*O‘ta sovutish.* Suyuqliknii kondensatsiya va to‘yinish haroratidan past haroratgacha sovutish jarayoni.

*Sublimatsiya.* Qattiq holatdan (suyuq holatni chetlab) bug‘ holatiga o‘tish jarayoni.

*O'ta qizigan bug'. Ma'lum bosimda to'yinish haroratidan yuqori haroratga ega bo'lgan bug'.*

*Termodinamik xususiyat.* Turli sharoitlarda moddalarning harorati, bosimi, solishtirma hajmi, ental'piyasi va entropiyasi orasidagi o'zaro bog'liqlik.

*TRV.* Termorostlovchi ventil' yuqori bosimdagи sovutish agentini past bosimga o'tkazuvchi, sarfni rostlovchi sovutish mashinasining drosselllovchi elementi.

*Sovutish koeffitsiyenti.* Sarflangan birlik quvvatga to'g'ri kelgan sovutish unumdorligi. Sovutish unumdorligining kompressor iste'mol qilgan quvvatga nisbatidan iborat.

### ***Nazorat savollari***

1. Issiqlik va sovuqlikning fizikaviy tabiatini qanday ?
2. Sun'iy sovuqlik olishning qanday usullari mavjud ?
3. Drossellanish (suyuqlik oqimining ezilish) jarayoni tushunchasini yoritib bering .
4. Izoentropik kengayish nima va u qanday sovutgich mashinalarida qo'llanilishini aytib bering .
5. Uyurma effekti (Rank-Xilsh effekti) nima va uning qanday xususiyatlarini bilasiz ?
6. Mashinali sovutish tushunchasini yoritib bering .
7. Bug'-kompressorli sovutish sikli qanday asosiy elementlardan tashkil topgan? Sxemasini chizing va tushuntirib bering .
8. Havoli sovutish qurilmasining tuzilishi va ishlash prinsipini aytib bering .
9. Havoli sovutish qurilmasi siklining p – v va T – s diagrammasidagi tasvirini chizing va tushuntirib bering .
10. Sovutish agentlari nima va ularning qanday turlarini bilasiz ?
11. Xalqaro ISO-817 standartlari asosida sovutish agentlari qanday belgilanadi?
12. Turli xildagi sovutish agentlarining afzallikkleri va kamchiliklari nimalardan iborat ?
13. Hozirgi paytda sovutish agentlariga qanday talablar qo'yilmoqda?
14. Sovutish uskuna, jihozlari va texnologiyasida keng ko'lamda ishlataladigan terminlarni o'rganing va aytib bering.

### **3. Sovuqlik bilan ishlov berishning haroratga bog‘liqligi**

#### **Tayanch iboralar:**

*Krioscopik harorat, krioscopik nuqta, suv va quruq moddalar, ularning o‘zaro bog‘lanishi, mexanik bog‘lanish, fizik–kimyoviy bog‘lanish, kimyoviy bog‘lanish, ktitik harorat, kritik nuqta, muzlatish, sovutish usullari, muzlatish usullari.*

**Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarining haroratga hamda sovuqlik bilan ishlov berishning xarakteriga qarab turlanishi.** Sovuqlik bilan ishlov berishni belgilovchi faktorlar to‘g‘risida fikr yuritganda avvalambor chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarining buzilish sabablarini aniqlab olishimiz lozim.

Barra (yangi) o‘simlik va hayvonot mahsulotlarining *ta’mi* va *ozuqaviy xususiyatlari* yuqori. Ularning kundalik iste’moli har xil sabablarga ko‘ra har doim ham mumkin emas, bundan tashqari, ularning ba‘zilari mavsumiy yig‘im–terim mahsulotlari hisoblanadi. Ko‘plab mahsulotlar normal sharoitda uzoq muddatli saqlash vaqtida yomonlashmaydi, lekin ko‘pchilik chorvachilik va ayrim oziq–ovqat mahsulotlarining sifati yomonlashadi: rangi, tuzilishi, hidi va *ta’mi* o‘zgaradi. Bunday mahsulotlar tez buziladi va ularni saqlash uchun maxsus sharoitlar talab qilinadi. Ularda ko‘p miqdordagi suv, organik birikmalarning mavjudligi turli mikroorganizmlarning rivojlanishi hamda hayoti va fermentlarning ta’siri uchun qulay sharoit yaratadi.

Ma’lumki oziq–ovqat mahsulotlari, shu jumladan o‘rganiladigan chorvachilik mahsulotlari (*go‘sht, sut, tuxum, baliq va sh.k.*) kimyoviy nuqtai–nazardan “sof, toza” moddalaridan iborat emas, balki ular ko‘plab organik hamda anorganik moddalarining tabiiy birlashuvidan iborat bo‘ladi. Bunda shu moddalar orasida kuchli fizik–kimyoviy bog‘lanishlar mavjud bo‘lib, bu bog‘lanishlarning tashqi ta’sirlar, shu jumladan biz uchun ahamiyatga ega bo‘lgan – oziq–ovqat mahsulotlarini qayta ishlash jarayonlari ta’sirida o‘zgarishi ushbu mahsulotlarning qayta ishlash jarayonida qay darajada o‘zgarishini belgilaydi. Ikkinchi muhim belgi shundan iboratki, barcha oziq–ovqat mahsulotlari tarkibida eng asosiy tarkibiy qismlardan biri suv ( $H_2O$ ) dan iborat. Suvning materialning boshqa tarkibiy qismlari bilan bog‘lanishi ham oziq–ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, shu jumladan sovutish jarayonlari vaqtida katta o‘zgarishlarga uchraydi, shuningdek bu o‘zgarishlar ko‘pchilik hollarda mahsulotlarning pirovard iste’mol sifatini hamda

mol-tovarlik xususiyatlarini belgilaydi. Shu sababli oziq-ovqat mahsulotlarini sovutish jarayonida ularning tarkibidagi suvning o'zgarishlarini, shuningdek suvning materialning boshqa tarkibiy qismlari (ya'ni quruq moddalari) bilan bog'lanishini o'rganish asosida ushbu mahsulotlarni sovutish jarayonining eng qulay, optimal bo'lgan rejimlari, boshqacha aytganda sharoitlari ishlab chiqiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini sovuqlik bilan ishlov berish va sovutgichlarda saqlash rejimlari deyilganda biz ishlov berish hamda saqlash sharoitlarini tavsiflovchi parametrlarning muayyan to'plamini, majmuuni tushunamiz. Bular sovutgichdagi havoning harorati, nisbiy namligi, uning aylanish (sirkulyasiya) intensivligi va ventilyatsiya intensivligidir. Bu parametrlar ichida eng asosiysi, shu bilan birgalikda nisbatan oson sozlanadigan, ya'ni boshqariladigan parametr, bu sovituvchi havoning haroratidan iborat.

*Mahsulotlarning buzilishiga* olib keladigan faktorlar quyidagi lardan iborat:

- havo kislороди va quyosh nurining ta'siri;
- havoning juda past yoki juda yuqori namligi ta'siri;
- biokimyoiy faktorlar;
- mikrobiologik faktorlar.

*Oziq-ovqat mahsulotlariga* mikroorganizmlar va to'qima fermentlarining ta'sirida, ularda : • oqsillarning parchalanishi; • yog'larning gidrolizlanishi; • uglevodlarning chuqr o'zgarishi; • va boshqa o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqaviy qiymati hamda yuqori sifatini uzoq vaqt saqlab qolish *turli konservalash usullari* yordamida amalga oshiriladi. Bunda konservalash, mahsulotlarga mikroorganizmlarning shu mahsulotlar sifatini buzuvchi ta'sirini cheklash yoki yo'q qilishga va to'qima fermentlari faolligining pasayishiga olib keladi. Konservalash usullari ichida *fizikaviy usullar* keng tarqalgan bo'lib, ulardan biri, ya'ni *mahsulotlarni past haroratlar ta'sirida ishlov berish* eng muhim usullardan hisoblanadi.

Konservalashning u yoki bu usulini tanlash, mahsulotni konservalash jarayonining oxirida uning sifati hamda ozuqaviy qiymati va konservalash uchun sarflanadigan energiya bilan belgilanadi. Eng yaxshi usullar iqtisodiy jihatdan tejamli va oziq-ovqat mahsulotining asl xususiyatlarini maksimal darajada saqlaydigan usullardir. Tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlarini sovuqlik ta'sirida ishlov berish eng samarali usullardan hisoblanadi.

Sovutish texnikasining rivojlanishi bilan oziq-ovqat mahsulotlariini qayta ishlash va saqlash uchun sovuqlikdan foydalanish usullari va rejimlari o'rganildi. Natijada, oziq-ovqat texnologiyasining bir tarmog'i – oziq-ovqat mahsulotlarini sovutish texnologiyasi paydo bo'ldi. Bu texnologiyaning vazifalari:

- mahsulotlarda sodir bo'ladigan jarayonlarni o'rganish va haroratning hamda boshqa tashqi omillarning ta'sirini o'zgartirish hisobiga bu jarayonlarning to'g'ri yo'nalishda borishini ta'minlashni o'rganish;

- mahsulotning ma'lum bir turining xususiyatlarini va saqlash vaqtida unga xos bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda shu mahsulotlarni sovuqlik bilan ishlov berish hamda saqlashning oqilona (ratsional) usullarini ishlab chiqish, shuningdek bunday jarayonlarni amalga oshirishning eng samarali rejimlarini ishlab chiqish;

- ishlab chiqilgan usullarni amalga oshirish uchun texnik vositalarni yaratish, hamda bu vositalarning ko'rsatilgan jarayonlarni amalga oshirish uchun yaroqli ekanligini tahlil qilish va baholashdan iborat.

*Sovutish texnologiyasining mohiyati* sun'iy sovuqlik yordamida chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini saqlash uchun sharoit yaratishdir.

Sovuqlik ta'sirida oziq-ovqat mahsulotlarida sodir bo'ladigan hodisalarining dastlabki izlanishlari, sovutish texnologiyasi rejimlarining ishlab chiqilishi o'tgan asrning oxirlariga, sovutish mashinalari paydo bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Sovutish texnologiyasi rivojlanishi bilan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash uchun sovuqlikdan foydalanish usullari hamda rejimlari o'rganildi va takomillashtirildi. Natijada oziq-ovqat texnologiyasining alohida tarmog'i – oziq-ovqat mahsulotlarini sovutish texnologiyasi paydo bo'ldi.

*Sovutish texnologiyasining vazifalari* quyidagilardan iborat:

1. Oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibini, xususiyatlarini, tuzilishi o'rganish; mahsulotlarda sodir bo'ladigan jarayonlarni o'rganish; harorat va boshqa omillarning o'zgartirilishi hisobiga bu jarayonlarning kerakli yo'nalishda sodir bo'lishini samarali tartibga solish.

2. Mahsulotlarga sovuqlik bilan ishlov berish va saqlashning oqilona usullarini ishlab chiqish; shuningdek, mahsulotning har bir turining o'ziga xos xususiyatlarini va saqlash vaqtida unda boradigan o'ziga xos o'zgarishlarni e'tiborga olgan holda bunday jarayonlarni amalga oshirishning eng qulay rejimlarini ishlab chiqish.

3. Ishlab chiqilgan usullarni amalga oshirish uchun texnik vositalarni yaratish; bu vositalarning ko'rsatilgan jarayonlarni amalga oshirish uchun yaroqli ekanligini tahlil qilish va baholash.

*Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibi hamda tuzilish xususiyatlari* to'g'risida. O'simlik va hayvonot mahsulotlaridan olingan oziq-ovqat mahsulotlari – bu oddiy yoki murakkab birikmalar, dispersiyalar yoki turli xil organik va mineral moddalarning aralashmlari bo'lib, ular inson salomatligiga zararsizdir va organizm tomonidan so'riladi. Oziq-ovqat mahsuloti suv va quruq moddadan iborat. Quruq moddalar deyilganida asosiy moddalar (oqsillar, yog'lar, uglevodlar, makro- va mikroelementlar, ta'm beruvchi va rang beruvchi moddalar) va biokatalizatorlar (vitaminlar, fermentlar) ko'zda tutiladi.

Xom ashyo va tayyor oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy tarkibiy qismi suvdir. Oziq-ovqat mahsulotlarida suv eritmalar shaklida bo'ladi. Uning holati va mahsulotning erigan tarkibiy qismlari (dispers faza) bilan bog'lanish kuchi mahsulotning mustahkamligi hamda tuzilishini belgilaydi, bu esa o'z navbatida mahsulotni sovuqlik bilan ishlov berish va keyingi saqlash sharoitlariga ta'sir qiladi.

So'nggi fizik nazariyalarga ko'ra, bitta kislород atomi va ikkita vodorod atomidan iborat suv zarralari tetraedr hosil qiladi, bunda bir zarrachaning uchlaridagi ikkita musbat zaryadlangan atomlari (vodorod) boshqa zarrachadagi manfiy zaryadlangan kislородning ikkita elektronidan birini tortib turadi.

Oziq-ovqat mahsulotidagi suv miqdori uning turiga va agregat holatiga bog'liq. Oziq-ovqat mahsulotlaridagi suv miqdori har xil: o'simlik mahsulotlarida – 80 dan 95% gacha; har xil turdag'i go'shtlarda: buzoq go'shtida – 53 dan 75% gacha, parranda go'shtida – g'oz go'shti uchun 53 dan tovuq go'shti uchun 75% gacha ; baliqda – 55 dan 80% gacha bo'ladi.

Suv – erituvchi bo'lib, diffuziyaviy jarayonlarning, shuningdek kimyoviy va biokimyoviy reaksiyalarning borishini belgilaydi. Suvning fazaviy holatining o'zgarishi bu jarayonlarni sekinlashtirishning asosiy omilidir.

To'qimadagi namlik mahsulotning tarkibiy qismlari bilan bog'liq. Mahsulotning tarkibiy qismlari bilan to'qima namligining orasidagi bog'lanish quyidagi shakllarda mavjud bo'ladi: kimyoviy, fizik-kimyoviy va mexanik.

*Kimyoviy bog'langan namlik* – aniq miqdoriy nisbatlarda baholangan namlikdir. Bunday bog'langan namlik mahsulotning tarkibiy

qismlari bilan mustahkam bog‘langan bo‘ladi va uni kimyoviy ta’sir natijasida yoki juda qattiq issiqlik bilan ishlov berish jarayonida mahsulotdan chiqarib yuborish mumkin. *Fizik-kimyoviy bog‘lanish* – namlikni aniqlanmagan miqdorlarda saqlab turishdir. Bu shaklga quyidagi turdag'i bog‘lanishlar mos keladi: adsorbsiyaviy bog‘langan namlik, osmotik tutib turiladigan namlik. *Fizik-mexanik bog‘lalanish* – bu ham namlikni noaniq miqdorlarda saqlab turishdir, u makrokapil-lyarlardagi namlik va mikrokapillyarlardagi namlikdan iborat.

Amalda ko‘pincha bog‘langan va erkin namlik (suv) tushunchalari qo‘llaniladi. *Bog‘langan suv* – oqsillar va polisaxaridlar tuzilmasida kolloidlar bilan bog‘langan suvdir. Mahsulotlardagi bog‘langan suvning miqdori mahsulot tarkibidagi namlikning 10% ni tashkil qiladi. U tashqi ta’sirlarga tobe emas, masalan fazaviy o‘zgarishlarda qatnashmaydi. Oziq-ovqat mahsulotlarini (ayniqsa go‘shtni) muzlatganda, kolloidlar va ular bilan bog‘langan suv konsistensiyaning buzilmasligini ta’millaydi, muzdan tushirish paytida esa ular sharbat va oziqaviy moddalarning yo‘qolishini kamaytirishga yordam beradi. *Erkin suv* hujayralararo va tolalararo bo‘shliqda joylashgan bo‘lib, umumiy biologik, fizik-kimyoviy almashinuv jarayonlarida bevosita ishtirot etadi. Bunday suv tashqi omillar ta’sirida mahsulotdan osongina ajralib chiqadi.

*Oziq-ovqat mahsulotlarining tuzilish xususiyatlari* xususida. Hayvonot mahsulotlarining gistologik xususiyatlari quyidagilardan iborat: to‘qima tizimiga epiteliy, bog‘lovchi, asab, mushak (muskul) to‘qimalari kiradi. Bunda mushak to‘qimalari bog‘lamlar ko‘rinishidagi mushak tolalaridan iborat bo‘ladi.

O‘simlik hujayrasida esa quyidagilar mavjud bo‘ladi : hujayra membranasi , yadro , vakuol va tsitoplazma.

*Mikroblar hujayralarining past haroratlar ta’siriga chidamli – ligi* to‘g‘risida. Past haroratlar ta’sirida, ayniqsa muzlatishda, mikroorganizmlarning soni va faolligi kamayadi, lekin ularning to‘liq yo‘q qilinishiga erishish mumkin emas. Ularning yo‘q qilinish darajasi quyidagilarga bog‘liq bo‘ladi:

- mikroorganizmlarning turi,
- ularning rivojlanish bosqichlari,
- yashash muhiti,
- mahsulotni muzlatish (sovutish) tezligi va harorati.

**Krioskopik harorat va krioskopik nuqta, kritik harorat va kritik nuqta tushunchalari.** Yuqorida keltirilgan mulohazalarga

asoslanib, chovrachilik va oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibi hamda tuzilish xususiyatlarining izlanishlari shuni ko'rsatadi, ulardagi suvning mahsulotning boshqa tarkibiy qismlari bilan bog'lanishi shu mahsulotlarni ishlov berish, saqlash va qayta ishlash jarayonlarida, shu jumladan sovutish jarayonlarida katta o'zgarishlarga uchraydi. Bu o'z-garishlar barcha hollarda shu mahsulotlarning pirovard iste'mol sifatini hamda tovar xususiyatlarini belgilovchi eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli oziq-ovqat mahsulotlarini sovutish jarayonida ularning tarkibidagi suvning miqdoriy va sifat o'zgarishlarini, shuning-dek suvning mahsulotning boshqa tarkibiy qismlari bilan bog'lanishi-ning o'zgarishlarini o'rganish asosida shu mahsulotlarni sovutish jarayonining eng qulay, optimal bo'lgan rejimlari, boshqacha aytganda sharoitlari ishlab chiqiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini sovuqlik bilan ishlov berish va sovutgichlarda saqlash rejimlari deyilganda biz ishlov berish hamda saqlash sharoitlarini tafsiflovchi parametrlarning muayyan to'plamini, majmuuni tushunamiz. Bular sovutgichdagi havoning harorati, nisbiy namligi, uning aylanish (sirkulyatsiya) intensivligi va ventilyatsiya intensivligidir. Bu parametrlar ichida eng asosiysi (shu bilan birligda nisbatan oson boshqariladigan parametr) – bu sovituvchi muhitning (havoning) haroratidan iborat.

Oziq-ovqat mahsulotlarini sovuqlik bilan ishlov berish va sovutgichlarda saqlash rejimlarining harorati krioskopik harorat va kritik haroratlar qiymatlari bilan chegaralanadi.


*Krioskopik harorat* deb oziq-ovqat mahsulotlarida muz hosil bo'lishi boshlanadigan haroratga aytildi. Qiymati  $0^{\circ}\text{C}$  dan krioskopikcha bo'lgan haroratlar krioskopikka yaqin haroratlar deb ataladi. Krioskopikdan past haroratlar esa subkrioskopik haroratlar deb ataladi. Tabiiyki krioskopik harorat manfiy qiymatga egadir.

Oziq-ovqat mahsulotlarini sovuqlik bilan ishlov berish va sovutgichlarda saqlashda muhim nisbiy chekllovchi omil krioskopik nuqtadan iborat. *Krioskopik nuqta* bu mahsulotdagi suvning nukleatsiya (kristallashuv) haroratidan iborat. Krioskopik harorat va krioskopik nuqta qiymatlari orasidagi farqni 10–rasmdagi grafik yaqqol ko'rsatadi.

10–rasmdan ko'rinish turibdiki, krioskopik nuqta harorati krioskopik haroratdan past bo'ladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini sovuqlik bilan ishlov berish va sovutgichlarda saqlash haroratining krioskopik darajadan past nuqtagacha pasaytirilishi ularning muzlab qolishiga sababchi bo'ladi. Natijada

bunday holatdagi oziq-ovqat mahsulotlari o'zining iste'mol sifatini va yangi barra mahsulotlarga xos bo'lgan tovar xususiyatlarini yo'qotadi.



10 - rasm. Treska balig'i filesi haroratining muzlatish jarayonida o'zgarishi grafigi

Lekin boshqa tomondan qaraydigan bo'lsak, barcha oziq-ovqat mahsulotlari va ayniqsa chorvachilik mahsulotlari odatda juda ko'p miqdorda mikroorganizmlar bilan zararlangan bo'ladi. Bu mikroorganizmlarning ichida anchagina patogen (kasallik tarqatuvchi) mikroblar ham bo'ladi. Chunki oziq-ovqat mahsulotlari ularni zararlangan mikroorganizmlar uchun yashash (hayot kechirish) muhitidan iborat. Shu sababli sovutgichdagagi haroratning pasayishi bilan bu mikroorganizmlarning hayot faoliyati sekinlashladi va to'xtatib qo'yiladi, ba'zi hollarda hattoki mikroorganizmlar halok bo'ladi ham. Bu esa sovutgichdagagi havoning harorati pasaytirilishi bilan oziq-ovqat mahsulotlarining saqlanish muddatini orttirish imkonini beradi.

2-jadvaldagi ma'lumotlarni o'rganib chiqish asosida har xil oziq-ovqat mahsulotlarining, shu jumladan baliq mahsulotlarining krioscopik harorati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Shunday qilib, biz sovutgichdagagi havoning haroratini pasaytirish zaruratiga ega bo'lgan holda, bu haroratning shunday qiymatini belgilashimiz lozimki, unda oziq-ovqat mahsuloti ichidagi harorat krioscopik harorat darajasidan past bo'lmasligi kerak. Bu qaramaqarshilik, ya'ni dilemmaning to'g'ri hal etilishi ilmiy yondashuvga asoslanib bajarilishi lozim, shunda biz oziq-ovqat mahsulotlarini sovitiladigan muhitda, xususan sovutish xonasida saqlashning optimal haroratini aniqlash imkoniga ega bo'lamiz.

## 2 – jadval

Ayrim oziq-ovqat mahsulotlarining krioskopik harorati qiymatlari

| T / r | Mahsulot turi                                  | $t_{kr}$ , °C |
|-------|--|---------------|
| 1     | Brokkoli karami                                | - 2.1         |
| 2     | Rangli karam                                   | - 1.5         |
| 3     | Sarimsoq piyozi                                | - 2.7         |
| 4     | Porey piyozi                                   | - 1.9         |
| 5     | Sel'd' balig'i (<<herring>>)                   | - 3.6         |
| 6     | Atlantika sel'd' balig'i (Clupea harengus)     | - 1.6         |
| 7     | Treska balig'i (<<cod>>)                       | - 1.4         |
| 8     | Atlantika treska balig'i (Gadus morhua)        | - 1.1         |
| 9     | Skumbriya balig'i (<<Mackerel>>)               | - 2.2         |
| 10    | Atlantika skumbriya balig'i (Scomber scombrus) | - 1.6         |
| 11    | Losos' balig'i (<<Salmon>>)                    | - 2.2         |
| 12    | Atlantika losos' balig'i (Salmo salar)         | - 1.5         |

**Kritik nuqta** tushunchasiga keladigan bo'lsak, shuni ta'kidlash lozimki, bu tushuncha termodinamikaga tegishli bo'lib, moddalarning holat diagrammasidagi muayyan bir nuqtani bildiradi. Bizning fanimiz nuqtai-nazaridan bu moddalar sovutish agentlari va sovuqlik tashuvchi moddalardan iborat. Termodinamikada *kritik nuqta* (aniqrog'i fazalar muvozanatining kritik nuqtasi) holat diagrammasidagi *kritik holatga* to'g'ri keluvchi nuqta bo'lib, ikki (yoki undan ortiq) fazalarning birgalikda mavjud bo'lishi va muvozanati egrи chizig'inинг oxirgi nuqtasidir. Bunga eng yorqin misol *suyuqlik – bug'ning kritik nuqtasi* bo'lib, unda bosim – harorat egrи chizig'inинг oxirgi nuqta suyuqlik va uning bug'i birgalikda bir idishda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan sharoitlarni aniqlaydi. Bosim va harorat ortib borgani sari termodinamik muvozanatda bo'lgan suyuqlik va bug' fazalari bir-biriga o'xshash bo'lib boradi, kritik nuqtada (yoki kritik holat) da esa fazaviy chegaralar yo'qoladi. Kritik nuqtadagi holat (kritik holat) *kritik harorat Tk* va *kritik bosim pk* bilan aniqlanadi. Shuningdek kritik nuqta uchun *kritik solishtirma hajm vk* va *kritik zichlik pk* qiymatlari ham xosdir.


11– va 12-rasmarda *sof moddadan* iborat bo'lgan sovutish agentlarining  $p - v$  (bosim – solishtirma hajm) va  $T - s$  (harorat – solishtirma entropiya) holat diagrammalari, hamda ulardagi kritik nuqta sxematik tarzda ko'rsatilgan. Bu diagrammalarda kritik nuqta **K** harfi bilan belgilangan. 12-rasmdan ko'rinish turibdiki, suyuqlik – bug' chegarasi oxirgi nuqta bo'lgan kritik nuqtada (**K**), ya'ni *kritik harorat Tk* va

*kritik bosim*  $p_k$  da tugaydi. Kritik nuqtaga yaqin joyda suyuqlik va bug'ning fizik xossalari keskin o'zgaradi, ikkala faza ham o'xshash bo'ladi. Masalan, normal sharoitda suyuq suv deyarli siqilmaydi, past issiqlik kengayish koeffitsiyentiga ega, yuqori dielektrik o'tkazuvchilikka ega va elektrolitlar uchun ajoyib erituvchidir. Kritik nuqtaga yaqin joyda bu xususiyatlarning barchasi teskarisiga o'zgaradi: suv siqiladigan, kengayadigan, yomon dielektrik, elektrolitlar uchun yomon erituvchi bo'lib, qutbsiz gazlar va organik molekulalar bilan aralashtirishni afzal ko'radi.


11-rasmida  $T=const$  izotermalari ko'rsatilgan bo'lib, tabiiyki ulardan faqat birida, ya'ni  $T_k = const$  izotermasida kritik holat nuqtasi **K** mavjud bo'ladi. Bu izoterma rasmida qizil rangda chizilgan. Shunga ko'ra ko'k rangli izotermalari kritik haroratdan past haroratlarga tegishli izotermalardan, havorang izotermalari esa kritik haroratdan yuqori haroratlarga tegishli izotermalardan iborat. **F** nuqta suyuqlikning qaynash nuqtasi bo'lib, **F** nuqtadan chapda normal suyuqlik sohasi joylashgan, **FG** to'g'ri chiziq esa ikki fazali soha ichidagi suyuqlik va bug' fazarining muvozanati izotermasi (12-rasmdagi BC izoterma) dan iborat. **G** nuqta shudring nuqtasi bo'lib, **G** nuqtadan o'ngda normal gaz (bug') sohasi joylashgan.

3-jadvalda ayrim moddalarning va sovutish agentlarining kritik nuqtasi uchun holat parametrlari keltirilgan.

Shunday qilib, kritik nuqta va kritik harorat tushunchalarining fizik mohiyati, shuningdek sovutish agentlarining 11-rasmdagi  $p - v$  va 12-rasmdagi  $T - s$  holat diagrammalarini tahlil qilish shuni ko'r-



11 – rasm.  $p - v$  diagrammada  $T = const$  izotermalari va kritik nuqta



12 – rasm.  $T$  –  $s$  holat diagrammasida kritik nuqta

3 – jadval

Ayrim moddalar uchun suyuqlik – bug'ning kritik harorati va bosimi

| Modda                      | Kritik harorat            | Kritik bosim (absolyut qiymat) |
|----------------------------|---------------------------|--------------------------------|
| Suv ( $H_2O$ )             | 373.946 °C<br>(647.096 K) | 217.7 atm (22,060 kPa)         |
| Ammiak ( $NH_3$ )          | 132.4 °C (405.5 K)        | 111.3 atm (11,280 kPa)         |
| R-134a                     | 101.06 °C (374.21 K)      | 40.06 atm (4,059 kPa)          |
| R-410a                     | 72.8 °C (345.9 K)         | 47.08 atm (4,770 kPa)          |
| Brom                       | 310.8 °C (584.0 K)        | 102 atm (10,300 kPa)           |
| Xlor                       | 143.8 °C (416.9 K)        | 76.0 atm (7,700 kPa)           |
| Ftor                       | -128.85 °C (144.30 K)     | 51.5 atm (5,220 kPa)           |
| Vodorod                    | -239.95 °C (33.20 K)      | 12.8 atm (1,300 kPa)           |
| Metan ( $CH_4$ )           | -82.3 °C (190.8 K)        | 45.79 atm (4,640 kPa)          |
| Azot                       | -146.9 °C (126.2 K)       | 33.5 atm (3,390 kPa)           |
| Kislorod                   | -118.6 °C (154.6 K)       | 49.8 atm (5,050 kPa)           |
| Uglerod dioksid ( $CO_2$ ) | 31.04 °C (304.19 K)       | 72.8 atm (7,380 kPa)           |

satadiki, 3-rasmida tasvirlangan bug' – kompressorli sovutish mashinasining 5-rasmdagi termodinamik siklini amalga oshirish uchun, sovutish agentining eng yuqori ishchi harorati, xususan uning kondensatoridagi harorati kritik haroratdan ancha past darajada bo'lishi lozim ekan. Sovutish mashinasining loyihamanishi va ishlashida ushbu shartdan kelib chiqqan holda sovutish agentining ishchi parametrlari: harorati hamda bosimining qiymatlari tanlanadi. Bu shartning bajarilishi ham ilmiy yondashuvga asoslanib yechiladi.

**Sovutish va muzlatish to‘g‘risidagi asosiy tushunchalar.** Mahsulotlar turli muhitlarda sovutiladi: havoda, suvuq suvda yoki tuzli eritma (namakob) da, eriyotgan muzda yoki qorda.

Ko‘pincha sovituvchi muhit havo hisoblanadi. Lekin, havoda sovutish, suyuq muhitda sovutishdan sekinroq o‘tadi. Bundan tashqari havoda sovutishda havoning namligi past bo‘lsa, mahsulot yuzasidan namlik bug‘lanadi va natijada mahsulot qurib, uning vazni kamayadi. Shunga qaramasdan barcha mahsulotlarni sovutishda havo bilan sovutish keng tarqalgan va universal hisoblanadi. Havo hidsiz va havo tarkibidagi kislorodning mahsulotlar tarkibidagi yog‘larga oksidlantiruvchi ta’sirini hisobga olmaganda, u ko‘pchilik mahsulotlarga kimyoviy ta’sir etmaydi.

Havoda sovutishni tezlashtirish maqsadida turli usullar qo‘llaniladi. Birinchi navbatda havoning harakat tezligini oshiradilar va havo bilan sovutiladigan mahsulot o‘rtasidagi haroratlar farqini oshiradilar.

Go‘sht va go‘sht mahsulotlari, parranda go‘shti, tuxum, yog‘ va sut mahsulotlari, mevalar, sabzavotlar, rezavor mevalar, qandolat mahsulotlari, pazandalik mahsulotlari va boshqa mahsulotlar havoda sovutiladi.

Mahsulotlar tuzli eritmada (namakobda) sovutilganda ular eritma ichiga solinadi. Ko‘pincha sovutishdan oldin mahsulotni namlik o‘tkazmaydigan qobiqlar bilan o‘raydilar. Bunday sovutish kontaktli usul deyiladi. Suyuq muhitlarda sovutish, havoda sovutishga nisbatan tezroq bo‘radi. Chunki suyuq muhitda issiqlik uzatish koeffitsiyenti yuqori bo‘lganligi sababli texnologik jarayon tezlashadi, lekin bunda jarayonni amalga oshirish oz bo‘lsada murakkablashadi.

Amaliyotda suyuq muhitda sovutishni qo‘llash chegaralangan. Keyingi yillarda parranda go‘shtlarini sovutish uchun sovuq (muzli) suv ishlatilmayapti. Eriyotgan muz suvi baliq, ba’zi sabzavot va ko‘katlarni sovutishda ishlatilmoqda.

Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlarining haroratini krioskopik haroratdan past darajagacha tushirish natijasida mahsulot tarkibidagi suvning muzga aylanish jarayoni muzlatish jarayoni deb ataladi. Mahsulotlarni muzlatishdan maqsad ularning tarkibidagi foydali sifat xususiyatlarini va miqdoriy ko‘rsatkichlarini saqlashdir. Mahsulotlarni muzlatish jarayoni natijasida ularda boradigan fizikaviy, biokimyoviy va mikrobiologik o‘zgarishlar minimal darajaga tushadi. Bu esa mahsulot tarkibidagi suvning asosiy qismining muzga aylanishi tufayli ro‘yobga chiqadi. Mahsulot to‘qimasidagi suv va suyuqlik

haroratining pasayishi, undagi mikroorganizmlarning hayot faoliyati rivojlanishini ancha susaytiradi.

Haroratning pasayishi mahsulotlar tarkibida bo‘ladigan kimyoviy reaksiyalarni ham sekinlashtiradi, ammo ularning ba’zilari shunda ham sekinlashmaydi. Muzlatish jarayonini tavsiflovchi asosiy belgilardan biri – to‘qima tarkibidagi suvning muzga aylanishi bo‘lib, bu esa uning normal holatini o‘zgartirishidir.

Ma’lumki toza suv  $0^{\circ}\text{C}$  haroratda muzlaydi. Oziq–ovqat va chorvachilik mahsulotlarining to‘qima suyuqliklari esa toza suvdan iborat emas. Ularning tarkibida erigan tuzlar, shakar va kislotalar bo‘ladi. Shuning uchun bu suyuqliklarning muzlash harorati toza suvnikiga nisbatan past bo‘ladi. Eritmadan qattiq fazaning ajralib chiqishidagi harorati *muzlash nuqtasi* deyiladi.

To‘qima suyuqligi tarkibida erigan moddalar miqdori qancha ko‘p bo‘lsa, uning muzlashi ham shunchalik past haroratda sodir bo‘ladi. Masalan, tarkibida shirinlik miqdori yuqori bo‘lgan ba’zi uzumlarning muzlash nuqtasi  $-5^{\circ}\text{C}$  gacha yetadi. Mahsulotning suvsizlanishidan uning tarkibidagi moddalarining hammasi qotishi tufayli hosil bo‘lgan massa *evtektik massa*, bu jarayon sodir bo‘luvchi harorat *evtektik harorat*, eritmalarning bunday kontsentratsiyasi esa *evtektik kontsentratsiya* deyiladi. Mahsulotlarning evtektik harorati eng past harorat bo‘lib hisoblanadi, bu harorat krioskopik nuqta haroratidan ham past bo‘ladi ( $10$ –rasmga qarang). Lekin, har xil moddalar uchun bu harorat bir xil emas, masalan: osh tuzi uchun  $-21^{\circ}\text{C}$ , kalsiy xlorid uchun esa  $-55^{\circ}\text{C}$ . Oziq–ovqat to‘qima suyuqliklarining evtektik harorati  $-60^{\circ}\text{C}$  atrofida bo‘ladi. Mahsulot tarkibidagi suvning muzga aylangan qismi *muzlastilgan suv* deb ataladi. Uning miqdori muayyan haroratdagi suvning muzga aylangan qismining to‘liq suyuqlik miqdoriga bo‘lgan nisbati kabi aniqlanadi.

Go‘sht, parranda, baliq va tuxum tarkibidagi suvning to‘rtdan uch qismining qotish harorati  $-4^{\circ}\text{C}$  dan boshlanadi. Sabzavotlar va kartoshkada esa bu haroratda suv miqdorining yarmi qota boshlaydi. Haroratning yanada pasaya borishi natijasida muzlashi kerak bo‘lgan suv miqdori tezda kamayadi.

Mahsulotlarni muzlatishda fazaviy o‘zgarishlar sodir bo‘lishi natijasida ularning issiqlik fizikaviy xususiyatlari ham o‘zgaradi, chunki suv va muzning xususiyatlari bir–biridan farq qiladi. Mahsulotlar tarkibidagi quruq moddalarining muzlash jarayonidagi o‘zgarishlari sezilarsiz bo‘lgani uchun uni o‘zgarmas deb hisoblash mumkin. Shuning

uchun mahsulotlarning issiqlik-fizikaviy xususiyatlarining o‘zgarishiga asosiy va yagona sabab, ularning tarkibidagi suvning muzga aylanishi.

### **Nazorat savollari**

1. Oziq-ovqat va chorvachilik mahsulotlarining sovutish uskunalarini va texnologiyasi nuqtai-nazaridan o‘ziga xos xususiyatlari nimadan iborat ?
2. Qanday faktorlar mahsulotlarning buzilishiga olib keladi ?
3. Oziq-ovqat mahsulotlariga mikroorganizmlar va to‘qima fermentlarining ta’sirida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ladi ?
4. Sovutish texnologiyasining mohiyati nimada ?
5. Xom ashyo va tayyor oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy tarkibiy qismi nima va uning qanday xususiyatlarini bilasiz ?
6. Mahsulotning tarkibiy qismlari bilan to‘qima namligining orasidagi bog‘lanishning qanday shakllarini bilasiz ?
7. Krioskopik harorat tushunchasi to‘g‘risida nimalarni bilasiz ?
8. Krioskopik nuqta nima va krioskopik haroratdan farq qiladimi ?
9. Kritik harorat va kritik nuqta tushunchalarini yoritib bering .
10. Kritik nuqta (holat) parametrlari (kritik harorat, kritik bosim) bizga amalda qanday maqsadlarda kerak ?
11. Mahsulotlar qanday muhitlarda sovutiladi ?
12. Oziq-ovqat mahsulotlarini sovuqlik bilan ishlov berish va sovutgichlarda saqlash haroratining qiymatlarini tanlashda qanday omillarni hisobga olish lozim ?
13. Muzlash nuqtasi, evtektik massa, evtektik harorat va evtektik kontsentratsiya tushunchalarini yoritib bering.

### **4. Sovutish qurilmalarining ishchi sikllari va ularning tahlili**

#### **Tayanch iboralar:**

*Havoli sovutish, bug‘-kompressorli sovutish, absorbsiyali sovutish qurilmasi, bug‘-ejektorli sovutish, issiqlik nasoslari, issiqlik almashinushi, issiqlik o‘tkazuvchanlik, konvektsiya, nurlanish, ischi sikli, Karno sikli, sovutish sikli, holat diagrammasi, sovutish koeffitsiyenti, P – V, T – S, i – lgP diagrammalarini.*

**Sovutish qurilmalarining turlari va tuzilishi.** Jismlarni atrof-muhit haroratidan past haroratgacha sovutish issiqlik qurilmalari sikliga teskari bo‘lgan sikl bo‘yicha ishlaydigan sovutish qurilmalari yordamida amalga oshiriladi. Siqish ishi kengayish ishidan ortiq bo‘lgan va keltirilgan ish hisobiga issiqlik past haroratli manbadan yuqori haroratli manbaga uzatiladigan sikl *teskari sikl* deb ataladi.

Past haroratlar turli usullar bilan hosil qilinadi. Ba’zi moddalarda fazaviy o’tish (erish, bug‘lanish, sublimatsiya) paytida past haroratlarda ham ko‘p miqdorda issiqlik o’tadi. Bu esa ulardan sovuqlik olish uchun foydalanish imkonini beradi.

*Muzli eritma* usulidan  $t > 0^{\circ}\text{C}$  haroratda sovutishda foydalaniladi. Yana ham pastroq haroratlar olish uchun muz yoki qorga tuz qo’shiladi. Masalan, muz bilan natriy xlor aralashmasi ( $-21,2^{\circ}\text{C}$  gacha) va muz bilan kaltsiy xlor aralashmasi ( $-55^{\circ}\text{C}$  gacha) sovutish uchun keng qo’llanilmoqda. Ma’lumki, bug‘ hosil bo‘lishi jarayoni suyuqlikka issiqlik keltirilganda ro‘y beradi. Sovutish uchun atmosfera bosimida *qaynash harorati past*, qaynash va bug‘ hosil qilish issiqligi esa yuqori bo‘lgan suyuqliklardan foydalaniladi. Suyuqlikning bug‘lanish jarayoni bug‘li sovutish mashinalarida keng qo’llaniladi.

Moddalarning qattiq holatdan suyuq holatga o’tmasdan gaz holatiga o’tishi *sublimatsiya* deyiladi. Sovutish uchun sublimatsiya-lanadigan qattiq  $\text{CO}_2$ , ya’ni «quruq muz» qo’llaniladi. Quruq muzning sublimatsiya harorati  $p_{\text{atm}}$  da  $-78,9^{\circ}\text{C}$  ga teng.

Ma’lumki, siqilgan gaz *adiabatik kengayganda* uning harorati pasayadi, chunki tashqi ish ichki energiyaning kamayishi hisobiga bajariladi. Bunday past haroratlar olish usuli havoli sovutish mashinalarida qo’llaniladi. Real gazlar *drossellanganda* harorati pasayadi (Joul – Tomson effekti). Ushbu usul ham past haroratlar olishda keng qo’llanilib kelmoqda.

Yuqorida keltirilgan usullardan tashqari frantsuz muhandisi ixtiro qilgan «uyurmali ta’sir» va Palptole ixtiro qilgan termoelektrik sovutish usullari ham sovutish texnikasida qo’llanilib kelinmoqda.

**Havoli sovutish qurilmasining ishchi sikli va uning  $p - v$  hamda  $T - S$  diagrammalari asosidagi tahlili.** Havoli sovutish qurilmasi amalda ishlaydigan gazli sovutish qurilmasi turlaridan eng birinchisi bo‘lgan. Bunday qurilmani amerikalik muhandis Garri 1845 yili ixtiro qilgan. Havoli sovutish qurilmasining sxemasi 13-rasmida ko‘rsatilgan. Havo detander 1 da  $p_1$  bosimdan  $p_2$  bosimgacha kengayib


ish bajaradi; bu ishni detander tashqi iste'molchiga (masalan, elektr generatoriga) beradi. Detanderda adiabatik kengayish natijasida  $T_3$  harorati  $T_4$  haroratgacha ( $\approx -60^\circ\text{C}$ )sovutilgan havo sovutish xonasi 2 ga kirib, unda issiqlik berish jarayoni o'zgarmas havo bosimida ( $p_2 = \text{const}$ ) sodir bo'ladi. Havo sovutiladigan xonadan chiqqanidan keyin kompressor 3 ga yuboriladi, bu yerda havo bosimi  $p_2$  dan  $p_1$  gacha oshiriladi (bunda havo harorati  $T_1$  dan  $T_2$  gacha ortadi). Kompressorda siqilgan havo sovutgich 4 ga kiradi. Sovutgich issiqlik almashtirgich bo'lib, unda sovituvchi suvga issiqlik berilishi natijasida havoning harorati pasayadi. Sovutgichda jarayon o'zgarmas havo bosimida ( $p_1 = \text{const}$ ) sodir bo'ladi.

Havoli sovutish qurilmasi siklining p-v va T-s diagnostika-ridagi tasviri 14- va 15-rasmarda keltirilgan. Bu yerda 1-2 – kompressorda siqish jarayoni; 2-3 – havoning sovutgichda izobarik sovutilish jarayoni; 3-4 – havoning detanderda adiabatik kengayishi; 4-1 – sovutiladigan xonadan (masalan mahsulotlardan) izobarik issiqlik olinishi jarayoni. Bu diagrammada 1-2-3 – siqish chizig'i, 3-4-1 – kengayish chizig'i. 15-rasmidagi T-s diagrammada siklda sarflangan  $l$  ish 1-2-3-4-1 – yuza bilan tasvirlanadi. Siklni amalga oshirish uchun sarflangan ish  $q_1$  va  $q_2$  issiqliklar farqiga teng.


Issiqlik sig'imini o'zgarmas deb hisoblab, quyidagiga ega bo'lamiz.

$$q_1 = C_p(T_2 - T_3), \quad q_2 = C_p(T_1 - T_4), \quad (4.1)$$

$$l = q_1 - q_2 = C_p(T_2 - T_3) - C_p(T_1 - T_4) \quad (4.2)$$




13- rasm. Havoli sovutish qurilmasining sxemasi



14 - rasm. p - v diagramma

U holda siklining sovutish koeffitsiyenti quyidagiga teng bo'ladi :



15-rasm. T-s diagramma

$$\begin{aligned}\varepsilon &= \frac{q}{l} = \frac{T_1 - T_4}{(T_2 - T_3) - (T_1 - T_4)} = \\ &= \frac{1}{[(T_2 - T_3)/(T_1 - T_4)] - 1} \quad (4.3)\end{aligned}$$

1 – 2 va 3 – 4 adiabatik jarayonlardan

$$T_2/T_1 = (P_2/P_1)^{(X-1/X)} \quad \text{va} \quad T_3/T_4 = (P_3/P_4)^{(X-1/X)} \quad (4.4)$$

$$\text{biroq } P_2 = P_3 \text{ va } P_1 = P_4, \text{ shuning uchun } T_2/T_1 = T_3/T_4 \quad (4.5)$$

$$\text{yoki } (T_2 - T_3)/(T_1 - T_4) = T_2/T_1 = T_3/T_4 \quad (4.6)$$


$$\text{bo'jadi. Shunday qilib } \varepsilon = \frac{1}{(T_2/T_1)-1} = \frac{T_1}{T_2-T_1} \quad (4.7)$$

bunda  $T_1$  – sovutiladigan xona harorati yoki kompressorga so'rileyotgan havo harorati, K ;  $T_2$  – siqilgan havo harorati, K .

**Bug'-kompressorli sovutish qurilmalari nazariy ishchi siklining negizi . Karnoning teskari (sovutish) sikli .**

Sovituvchi modda sifatida biror suyuqliknинг, ya'ni atmosfera bosimida qaynash harorati  $t \leq 0^{\circ}\text{C}$  bo'lgan suyuqliknинг nam bug'idan foydalansila, sovutish qurilmasida issiqlik berish va olishni izotermalar bo'yicha amalga oshirish mumkin. Bu ma'noda mazkur sikl **Karno sikliga** yaqinlashadi va shu sababli bunday qurilmaning samaradorligi eng yuqori va ular eng ko'p tarqalgandir.

Karno sikli mantiqan ustuvor va mazmunan sodda bo'lib, u ikkita izoterma va ikkita adiabatadan tashkil topgan (16– va 19-rasmlar).



16 – rasm . Teskari Kano siklining paydo bo'lishi asoslari

Amaliy hisoblashlarning mantiqan oddiydan murakkabga o'tishi tushunib olish uchun avvalambor bug'-kompressorli sovutish uskusasida teskari nazariy Kano siklining qo'llanilishi imkoniyatini ko'rib chiqamiz. Bunday qurilmaning tuzilish sxemasi 17-rasmda,


unga tegishli sovutish agentining  $T - s$  koordinatalardagi grafigida yasalgan ishchi siklning holat diagrammasi 18-rasmida ko'rsatilgan.

Ishchi jism – sovutish agenti (yoki boshqacha aytganda sovuqlik tashuvchi modda) bug'latgich ichiga (4) holatda keladi. Bug'latgichda sovutish agentining bir qismi bug'lanadi (1-nuqta). Keyin sovutish agenti kompressorda adiabatik jarayonda quruq to'yingan bug' holati-gacha siqiladi (2-nuqta). Bunda uning harorati  $T_{im}$  dan  $T_{tm}$  gacha ko'tariladi. Diagrammaning 2 – 3 uchastkasida sovutish agenti izobariк-izotermik jarayonda kondensatsiyalanadi. Shundan so'ng sovutish agenti turbina orqali o'tadi va unda adiabatik tarzda kengayadi. Shu bilan ishchi sikl tutashadi (4-nuqta).


Sistemada, undagi  $T_2$  harorat isitgich (issiqlik manbai, bizning holda sovutiladigan mahsulotlar, kamera havosi) dan  $q_1$  (17-rasmida  $Q_{in}$ ) issiqlik miqdori uzlusiz keltirilib turishi hisobiga o'zgarmas saqlanadi. Sistemadagi kechadigan jarayon o'zgarmas ( $T_2=\text{const}$ ) haroratda sodir bo'ladi. Qoldiq (ish bajarmagan) issiqlik miqdori  $q_2$  (17-rasmida  $Q_{out}$ ) sistemadan uzlusiz ravishda tashqi muhit – sovitgichga (bizning holda kondensatorni sovituvchi suv yoki havoga) chiqariladi.  $q_2$  issiqlik miqdori ham  $T_1=\text{const}$  haroratda uzatiladi. Shuning uchun  $q_1$  ning ishorasi musbat,  $q_2$  niki esa manfiy deb qabul qilinadi.

Sistema holati keskin o'zgorganida (gaz kengayganida yoki siqilganida), u tashqi muhitdan mutlaqo izolyatsiyalangan, ya'ni  $dq = 0$  bo'lishi shart. Shu shart bajarilsa, sistemada kechadigan jarayon adiabatik bo'ladi.

Karno siklining diagrammasi 19-rasmida tasvirlangan. Fransuz injeneri Karno Nikola Leonar Sadi 1824 yilda "Olovning harakatlan-



17 - rasm. Teskari nazariy Karno tsikliga asoslanib ishlovchi sovutish qurilmasining sxemasi




18 – rasm. 17-rasmdagi qurilma siklining  $T - s$  diagrammasi

tiruvchi kuchi haqida mulohazalar” asarida issiqlik va ishning o‘zaro bir-biriga o‘zgarishi to‘g‘risidagi masala yechimini to‘g‘ri topgan. Hozirgi kunda ham bu yechim natijasi o‘z kuchini yo‘qotgan emas.

Termodinamika fani qonuniyatlariga ko‘ra , 19-rasmdagi diag – rammadan ma’lumki , 1 va 2 nuqtalar oralig‘ida sistemaga keltirilgan

$$q_1 = \int_1^2 dq = \int_1^2 dU + \int_1^2 P \cdot dV = RT_2 \ln \frac{V_2}{V_1} \quad (4.8)$$

issiqlik miqdori bo‘lsada , sistema sifatida ideal gaz olinganda , uning izotermik jara-



19 - rasm. Teskari Karko tsikli

yonda ichki energiyasining o‘zgarishi  $du = u1 - u2 = 0$  bo‘ladi. Shuni e’tiborga olib , gazning bajargan ishi

$$\mathbf{A}_1 = \int_1^2 P \cdot dV = RT_2 \ln \frac{\int_1^2 dV}{V} = RT_2 \ln \frac{V_2}{V_1} \quad (4.9)$$

sistemaga kiritilgan q+ issiqlik miqdoriga teng bo‘ladi. Sikl diagrammasining 3 va 4 nuqtalari oraliq‘ida sistemadan q- issiqlik miqdori tashqi muhit (sovituvchi muhit) ga o‘zgarmas  $T_1$  haroratda chiqariladi. Bu holatda sistemaning q- issiqligi ish bajarishga sarflanadi. Bu ishning kattaligi sarflangan q- issiqlik miqdoriga teng bo‘ladi.

$$q_2 = \int_3^4 \Delta q = RT_1 \ln \frac{V_4}{V_3} = A_2 \quad (4.10)$$

Bajarilgan ish ishoralarini aniqlash maqsadida siklning 4, 1 va 2, 3 nuqtalari oraliq‘ida kechadigan adiabatik  $\Delta q = 0$  jarayonlarni ham qarab chiqamiz. Adiabatik jarayonda sistema tashqi muhit bilan issiqlik almashmaydi. Bu holat uchun termodinamikaning birinchi qonuni ifodasini quyidagicha yozish mumkin :

$$C_V \cdot dT + P \cdot dV = 0 \quad (4.11)$$

Ishchi modda sifatida ideal gaz olinib, shu gaz adiabatik siqilsa ( $2 - 3$  nuqta), uning ichki energiyasi va absolyut harorati ortadi.

Ideal gazning holat tenglamasidan  $T$  ni topamiz :

$$T = \frac{PV}{R} = \frac{PV}{C_P - C_V} \quad (4.12)$$

Soddallashtirish uchun (4.11) tenglikni hadma-had  $C_V * T$  ga

$$\frac{dT}{T} + \frac{P}{C_V T} dV = 0 \quad (4.13)$$

bo‘lamiz :

$$\frac{dT}{T} + (k - 1) \frac{dV}{V} = 0 \quad (4.14)$$

miz :

Oxirgi tenglamani integrallab, adiabatik jarayon tenglamasini hoslil qilamiz :  $T \cdot V^{k-1} = \text{const}$  (4.15)

Bu tenglamani sikl uchun quyidagicha yozish mumkin :

$$T_2 V_2^{k-1} = T_1 V_3^{k-1}; \quad T_2 V_1^{k-1} = T_1 V_4^{k-1} \quad (4.16)$$

(4.16) tenglamani hadma-had bo‘lib, quyidagi tengliklarni olamiz :

$$\frac{V_2}{V_1} = \frac{V_3}{V_4} \quad (4.17) \quad \ln \frac{V_2}{V_1} = \ln \frac{V_3}{V_4} \quad (4.18)$$

Demak, siklning f.i.k. ni yuqoridagi tenglamalardan foydalaniib,

$$\eta_* = \frac{q_1^* - q_2^-}{q_1} = 1 - \frac{q_2}{q_1} \quad (4.19)$$

quyidagicha yozish mumkin :

Termik f.i.k. formulasini hozirgi (4.19) ko‘rinishdan oddiyroq shaklga keltirish uchun, (4.8), (4.12) va (4.18) tenglamalarga asoslanib, uni o‘zgartiramiz. Shunda termik f.i.k. ni sistemaning absolyut harorati

$$\eta_* = 1 - \frac{T_2}{T_1} \quad (4.20)$$

orqali quyidagicha ifodalash mumkin bo‘ladi :

(4.20) ifoda faqat qaytar sikllar uchun to‘gri.

Demak, Karno siklining termodinamik f.i.k. ishlatalayotgan issiqlikning xossasiga bog‘liq bo‘lmasdan, faqat issiqlik manbalari absolyut haroratlarining quyi va yuqori qiymatlariga bog‘liqdir.

Bu yerda qo‘srimcha qilib shuni aytib o‘tish lozimki, termodinamika fani ta’limotiga ko‘ra sovuqlik manbaining sovug‘isiz ishlovchi issiqlik dvigateli, ya‘ni issiqlik manbadan olingan hamma issiqlikni ishga aylantiruvchi dvigatel’ ikkinchi turdag'i abadiy dvigatel’ deb ataladi.

Shunday qilib, yuqoridagi tenglamalarga asoslanib, *termodinamikaning 2 – qonuni quyidagicha ta’riflanadi*: “*ikkinchi turdag'i abadiy dvigatel’ yaratish mumkin emas*”.

**Sovutish mashinalarining sovutish koeffitsiyenti va sovuqlik unumdoorligi.** Sovutish mashinasini issiqlik mashinasidan farqli ravishda teskari sikl bo‘yicha ishlaydi. Bu sikl (20-rasm) quyidagi jarayonlardan iborat: 2–3 – bug‘simon sovutish agentini adiabatik siqish; 3–4 – sovutish agenti bug‘larining izotermik kondensatsiyalanishi. Bu jarayon  $T$  haroratda tashqi muhitga  $Q$  kondensatsiya issiqligini berish bilan boradi; 4–1 – suyuq sovutish agentining adiabatik kengayishi (kengayishining yakuniy harorati  $T_0$ ); 1–2 – suyuq sovutish agentining  $T_0$  haroratidagi bug‘lanishi. Bunda sovutilayotgan muhitdan  $Q_0$  bug‘lanish issiqligi olib ketiladi.

Bunday siklni sistemaning entropiyasi o‘zgarishsiz qolganida amalga oshirish mumkin. Shuning uchun sovutish agentining bug‘lanishida sovutilayotgan muhit entropiyasi siqishda  $Q_0 / T_0$  miqdorga kamaysa, issiqligi hamda sovutish agentini siqishda sarflangan  $L_k$  ishga ekvivalent issiqligini o‘ziga olayotgan issiqliq muhit (masalan, suv) ning entropiyasi ham shunday darajada ortishi kerak. Natijada issiqliq muhit entropiyasining ortishi quyidagicha bo‘ladi :


$$(Q_0 + L_k) / T \quad (4.21)$$

$$\frac{Q_0}{T_0} = \frac{Q_0 + L_k}{T}$$

Energetik balansga muvofiq :  $\frac{Q_0}{T_0} = \frac{Q_0 + L_k}{T}$  (4.22)  
 bundan , Karko teskari sikli bo'yicha ishlayotgan sovutish qurilmasida  
 sarflangan ish

$$L_k = Q_0 \left( \frac{T - T_0}{T_0} \right)$$

(4.23)



20-rasm . Karnoning teskari (sovutish) tsikli

Sovutish agenti tomonidan  $T_0 < T$  haroratda sovutilayotgan muhitdan olib ketilayotgan  $Q_0$  issiqligi siklning yoki sovutish qurilmasining **sovuqlik unumdarligini** belgilaydi.  $T$ - $S$  diagrammada (20-rasmga qarang) sovuqlik unumdarligi 1-2-6-5 yuza orqali ko'rsatilgan, 3-4-5-6 yuza esa issiqroq muhitga berilayotgan issiqlikka ekvivalent. 3-4-5-6 va 1-2-6-5 yuzalarning ayirmasi sarf etilgan ish  $L_k$  ni beradi (1-2-3-4 yuza).

Shunday qilib , Karko teskari sikli misolida har qanday sovutish mashinasining energetik balansini ko'rsatish mumkin :

$$Q_0 + L = Q \quad (4.24)$$

bunda  $L$  – haqiqiy siklning ishi.

Sovutish sikllarining termodinamik samaradorligini **sovutish koeffitsiyenti**  $\varepsilon$  ifodalaydi. Sovutish koeffitsiyenti sovuqlik unumdarligi  $Q_0$  ning sarflangan ish  $L$  ga nisbati orqali topiladi :

$$\varepsilon = \frac{Q_0}{L} = \frac{Q_0}{Q - Q_0} \quad (4.25)$$

Bu koeffitsiyent sarflangan birlik ishga nisbatan sovutish agenti olgan sovuqlik unumdarligini ko'rsatadi.

**T-S** diagrammaga ko'ra,  $Q_0 = T_0 (S_2 - S_1)$  va  $Q = T (S_2 - S_1)$ .  $Q_0$  va  $Q$  larni (4.25) formulaga qo'yib, Karko sikli uchun quyidagini olamiz :

$$\varepsilon_* = \frac{Q_0}{Q - Q_0} = \frac{T_0(S_2 - S_1)}{T(S_2 - S_1) - T_0(S_2 - S_1)} = \frac{T_0}{T - T_0} \quad (4.26)$$

Sovutish koeffitsiyenti sun'iy sovuqlik olish uchun mexanik ish-dan foydalanish darajasini ko'rsatadi va (4.26) formuladan ko'rinish turganidek, sovutish agentining xususiyatlari hamda sovutish qurilmasing ishslash sxemasiga bog'liq emas, balki  $T_0$  va  $T$  haroratlarning funktsiyasidir. Bunda  $T$  va  $T_0$  haroratlar farqi qanchalik kichik bo'lsa, sovutish koeffitsiyenti shunchalik katta bo'ladi.

Sovutish koeffitsiyentini sovutish mashinasining foydali ish koeffitsiyenti sifatida qabul qilib bo'lmaydi. Foydali ish koeffitsiyenti issiqlikning ishga aylanishi mumkin bo'lgan qismini tavsiflaydi, shuning uchun u doim birdan kichik bo'ladi. Yuqoridaq holatda esa sarflanayotgan ish issiqlikka aylanmaydi, balki past haroratli muhitdan yuqori haroratli muhitga issiqliknii o'tkazish (ko'tarish) da vositachi vazifasini bajaradi. Shuning uchun ko'pincha  $Q_0$  miqdor ish  $L$  dan katta, natijada  $\varepsilon > 1$ . (4.23) va (4.26) formulalarga muvofiq,  $T_0$  haroratning pasayishi sarflanayotgan ishning keskin ortishiga olib keladi, natijada olinayotgan sovuqlikning ham narxi ortadi. Boshqa tomonidan qaralganda, bu haroratning pasayishi (4.20) ga ko'ra termodinamik foydali ish koeffitsiyentining ham kamayishiga olib keladi. Bu koeffitsiyent  $\eta$  haqiqiy siklining sovutish koeffitsiyenti  $\varepsilon$  ning Karko sikli

$$\eta = \frac{\varepsilon}{\varepsilon_*}$$

sovutish koeffitsiyenti  $\varepsilon_*$  ga nisbati bilan aniqlanadi : (4.27)

$\eta$  ning pasayishi haqiqiy jarayonlarda  $T_0$  harorat kamayganda sovuqlikning qaytmas yo'qotilishlarining ortishi bilan tushuntiriladi.

Sovutish mashinalarining sovutish koeffitsiyenti va sovuqlik unumidorligidan iborat bo'lgan parametrlarining tahlili bizga havoli sovutish qurilmasi va bug'-kompressorli sovutish qurilmasini o'zaro taqqoslash imkonini beradi. Demak, tashqi ko'rinishidan (4.7) tenglama Karko qaytar siklining sovutish koeffitsiyenti tenglamasi (4.26) ga mos keladi. Lekin bu o'xshashlik faqat chetdan shunday ko'rindi.

Haroratning havoli sovutish mashinasida amalda bo'ladigan bir xil oralig'ining o'zida amalga oshiriladigan qaytar Karko sikli uchun (bu sikl 15-rasmga ko'ra 1-5-3-6-1 nuqtalari bilan belgilanadi) sovutish koeffitsiyentini aniqlaymiz.

$$\varepsilon_K = \frac{Q_o}{L} = \frac{Q_o}{Q - Q_o} = \frac{T_o}{T - T_o}, \quad (4.28)$$

lekin 15-rasmga ko‘ra  $T_o = T_1$  va  $T = T_3$  bo‘lishini e’tiborga olsak, Kärno sikli uchun  $\varepsilon_K = \frac{T_1}{T_3 - T_1}$ , havoli sovutish mashinasi sikli uchun esa  $\varepsilon_H = \frac{T_1}{T_2 - T_1}$  ni hosil qilamiz. Bunda  $T_3 < T_2$  bo‘lganligi sababli,  $T_3 - T_1 < T_2 - T_1$  va natijada  $\varepsilon_K > \varepsilon_H$  bo‘lib chiqadi.

Bu esa bir xil sharoitlarda havoli sovutish qurilmasining samaradorligi bug‘-kompressorli mashinanikidan past ekanligini isbotlaydi.

**Bug‘-kompressorli sovutish qurilmasining haqiqiy ishchi sikllari, ularning T – S diagrammada ko‘rinishi.** Sovituvchi modda sifatida biror suyuqlikning, ya’ni atmosfera bosimida qaynash harorati  $t < 0^{\circ}\text{C}$  bo‘lgan suyuqlikning nam bug‘idan foydalanilsa, sovutish qurilmasida issiqlik berish va olishni izotermalar bo‘yicha amalga oshirish mumkin. Bu ma’noda mazkur sikl Kärno sikliga yaqinlashadi va shu sababli bunday qurilmaning samaradorligi eng yuqori bo‘lib, ular eng ko‘p tarqalgan.

Efir bug‘lari bilan ishlaydigan bug‘-kompressorli sovutish qurilmalari dastavval 1834 yildayoq yaratilgan edi. So‘ngra bu xil qurilmalarda sovituvchi modda sifatida metil efiri va sul’fat angidrididan foydalaniladigan bo‘ldi. Nemis muhandisi K.Linda 1874 yilda ammaki, 1881 yilda karbonat angidridli bug‘-kompressorli qurilma yaratdi. XX asrning 30-yillarda bunday qurilmalarda freonlar sovituvchi modda sifatida ishlatila boshlandi. Shu vaqtlargacha bunday qurilmalarda porshenli kompressorlar ishlatishdi, so‘ngra rotatsion, vintli va turbokompressorlarni ishlatish boshlandi.

*Nazariy siklda barcha jarayonlar qaytar jarayonlar deb hisoblanganligi uchun T – s diagrammadagi shakllarning yuzasini uzatilgan issiqlik miqdoridan iborat deb hisoblash mumkin. Xususan, 18-rasmdagi siklda 1-a-b-4-1 shaklning yuzasi ishchi jismning birlik massasiga to‘g‘ri keluvchi sovutiladigan hajmdan sovutish agentiga berilgan issiqlik miqdorini xarakterlaydi. 2-a-b-3-2 shaklning yuzasi esa sovutish agentidan tashqi muhitga olib ketilayotgan issiqlik miqdorini xarakterlaydi. O‘z navbatida 1-2-3-4-1 shakl yuzasi siklda bajarilgan ishni xarakterlaydi, bu ish kompressorda bajarilgan tashqi ish  $L_k$  va turbinada bajarilgan ichki ish  $L_t$  ning ayirmasiga teng.*

*Ideal Kärno siklida sovutish koeffitsiyentining qiymati maksimal bo‘ladi va u quyidagiga teng (17- va 18-rasmlar)*

$$\epsilon_{\max} = \frac{Q_{in}/m}{L_k/m - L_t/m} = \frac{Yuzal-a-b-4-1}{Yuzal-2-3-4-1} = \frac{T_{im}(s_a - s_b)}{(T_{tm} - T_{im})(s_a - s_b)} = \frac{T_{im}}{T_{tm} - T_{im}}$$

bu yerda  $m$  – ishchi jism – sovutish agentining massasi, kg.

18-rasmdagi sikl nazariy sikl bo‘lib, haqiqatda hattoki Karno siklidan foydalanilganda ham haroratlar 2 xil bo‘lmaydi, ya’ni 4 xil bo‘ladi. Bunda bug‘latgichdagи harorat sovuq muhit haroratidan past bo‘ladi, ya’ni  $T_{im}' < T_{im}$ , kondensatordagi harorat esa issiq muhit haroratidan yuqori bo‘ladi, ya’ni  $T_{tm}' > T_{tm}$  bo‘ladi (21-rasm).

Haqiqatdan ham, sovutish agenti o‘z issiqligini atrof-muhitga be-ra olishi uchun uning harorati atrof-muhit haroratidan biroz bo‘lsada yuqori bo‘lishi kerak, va xuddi shunday sovutiladigan mahsulotlar joylashtirilgan xona havosi o‘z issiqligini sovutish agentiga bera olishi uchun uning harorati ham sovutish agenti haroratidan biroz bo‘lsada yuqori bo‘lishi kerak. Bunda haroratlar farqi bir necha gradusni tashkil etishi mumkin. Shunga ko‘ra, *haqiqiy Karno siklining sovutish*


$$\epsilon = \frac{Yuzal'-a-b-4'-1'}{Yuzal'-2'-3'-4'-1'} = \frac{T_{im}'}{T_{tm}' - T_{im}'} < \epsilon_{\max};$$

koeffitsiyenti

(4.29)

ya’ni bu holda ushbu koeffitsiyent nazariy holdagi koeffitsiyentdan kichikroq bo‘lib chiqadi.

18- va 21-rasmlardan ko‘rinib turibdiki, Karno sikli asosida sovutish qurilmasi ishlataliganida kompressorga sovutish agentining nam to‘yingan bug‘i so‘rib olinadi ( $X < 1$ , mos ravishda 1 va 1’ nuqtalar).



21 - rasm. Haqiqiy Karno tsiklida haroratlar orasidagi farqlar


Siqilayotgan aralashmada suyuqlik tomchilarining mavjud bo‘lishi kompressoring ishlash sharoitlarini yomonlashtiradi, chunki bu hol

metallning tez korroziyaga uchrashiga sababchi bo‘ladi. Shu sababli haqiqiy sovutish qurilmalarida kompressorga quruq to‘yingan bug‘-larning yoki hatto o‘ta qizdirilgan bug‘larning so‘rib olinishi amalga oshiriladi. Shu bilan birgalikda 17-rasmdagi qurilmada turbinada sovutish agenti bajaradigan kengayish ishi Lt ancha kichik bo‘lib (21-rasmdagi 3‘-4‘ uchastkasi), bu hol haqiqiy sovutgich qurilmalarida *turbinaning drossel klapani bilan almashtirilishiga* sababchi bo‘ldi. Oxirgi kelti-rilgan ikki sabab tufayli konstruktsiyasi o‘zgartirilgan bug‘-kom-pressorli sovutish qurilmasining tuzilish sxemasi 22-rasmda (a), shu mashinaning ishchi sikli 22-rasm (b) da ko‘rsatilgan. 22-rasm (d) da esa bug‘-kompressorli sovutish qurilmasi sovutish koeffitsiyentining o‘zgarishi ko‘rsatilgan.

Sovutish agentining to‘yingan bug‘i kompressor 1 da siqiladi (22-rasm, a) va kondensator 2 ga uzatiladi, u yerda *q<sub>1</sub>* issiqlikni atrof-muhitga berib, to‘liq (real sharoitda qisman) kondensatsiyalanadi. Ushbu real sharoitdagi suyuqlik-bug‘ aralashmasi yoki ideal sharoit-dagi bug‘, rostlovchi (drosselli) ventil 3 ga yuboriladi, u yerda uning bosimi va harorati pasayadi. Quruqlik darajasi yuqori bo‘lmagan past haroratli nam bug‘ sovutish xonasi 5 da joylashgan bug‘latgich 4 ga keladi va xonanining *q<sub>2</sub>* issiqligi hisobidan bug‘lanadi.

Kompressorda sovutish agenti, masalan ammiakning quruq to‘-yingan bug‘i yoki quruqlik darajasi yuqori bo‘lgan nam bug‘i 1-2 adiabata bo‘yicha o‘ta qizigan bug‘ holati 2 gacha siqiladi (22-rasm, b). Kompressordan bug‘ kondensatorga haydaladi, u yerda bug‘ to‘liq suyuq holga keladi (izobara 2-3-4). Suyuq ammiak kondensatorдан chiqqach, drossel ventili orqali o‘tib drossellanadi, ya’ni haroratining va bosimining pasayishi kuzatiladi. So‘ngra suyuq ammiak past haro-ratda bug‘latgichga keladi va u yerda issiqlik olib bug‘lanadi (izotermik-izobarik jarayon 5-1), sovutiladigan xona (kamera) da aylanib, mahsulotlarni yoki rassol (namakob) ni sovutadi. Drossellash jarayoni qaytmash jarayon sifatida diagrammada 4-5 shartli egri chiziqi bilan tasvirlangan.

Bug‘-kompressorli qurilmada kengaytiruvchi tsilindr ishlatil-maydi, ishchi jism esa rostlovchi ventilda drossellanadi. Kengaytirish tsilindrini drossel‘ bilan almashtirishda entropiyaning ko‘tarilishi ku-zatiladi, bu sovutish sikli unumdorligining birmuncha yo‘qotilishiga olib keladi, biroq qurilmani soddalashtiradi, bosimni oson sozlashga va bug‘latgichda past haroratni olishga imkon beradi.



22 – rasm. Bug‘ – kompressorli sovutish qurilmasining sxemasi, sikli va sovutish koeffitsiyentining o‘zgarishi: a - qurilma sxemasi; b - siklning T – s diagrammasi; d – bir bosqichli ammiakli qurilmada  $\epsilon_x$  ning  $t_1$  va  $t_2$  ga bog‘liq ravishda o‘zgarishi

Kengaytirish tsilindri bo‘lganda jarayon adiabata 4–5’ bo‘yicha kechar edi. Kengaytirish tsilindrini drossel’ ventili bilan almashtirishdagi sovutish unumdorligining yo‘qotilishi  $a55'4'a$  yuza bilan o‘lchanadi, shuning uchun sovutiladigan jismdan 1 kg ammiak oladigan  $q_2$  issiqlik miqdori kamayadi va  $ab15a$  yuza bilan tasvirlanadi ( $i_1 - i_5$ ) = ( $i_1 - i_4$ ). Kondensatordagi sovituvchi suvgaga berilgan issiqlik miqdori  $q_1$   $ab12345a$  yuza bilan tasvirlanadi. Siklni bajarish uchun sarflanganish  $I' = q_1 - q_2 = 123451$  yuza =  $i_2 - i_1$ . Ammiakni drossellash natijasida 5 nuqtadagi ental’piya 4 nuqtadagi ental’piyaga teng bo‘lishi shartini hisobga oladigan bo‘lsak va shu bilan birgalikda drossellanish jarayoni ma’lum ma’noda (taqriban) adiabatik, ya’ni  $s \approx \text{const}$  ekanligini e’tiborga olib,  $123451$  yuza amalda  $12345'51$  yuzaga teng bo‘ladi deyishimiz mumkin. Ushbu mulohazalar bug‘ – kompressorli sovutish qurilmasining sikli havoli sovutish qurilmasining siklidan farqli ravishda Karnoning teskari sikliga ancha yaqin ekanligini ko‘rsatadi. Shuning uchun bug‘-kompressorli sovutish qurilmasining sovutish koeffitsiyenti havoli sovutish qurilmasini katta va shunga mos ravishda uning samaradorligi ham yuqoridir.

Ammiakli kompressor qurilmasining sovutish koeffitsiyenti quydagiga teng  $\epsilon = q_2 / I' = (ab15a \text{ yuza}) / (123451 \text{ yuza})$ . Bundan qurilmaning sovutish koeffitsiyenti  $\epsilon = (i_1 - i_4) / (i_2 - i_1)$ . (4.30)

Biz ko‘rib chiqqan bug‘-kompressorli sovutish mashinasining ishchi sikli (22-rasm, b), ushbu turdagidan mashinalarning amaliyotda ishlatalishida keng o‘rin egallagan asosiy sikli bo‘lib, u bug‘-kompressorli sovutish mashinasining *nazariy ishchi sikli* deb nomlanadi.


Lekin shu bilan birgalikda bu siklning boshqa ko‘rinishlari ham mavjud. Nazariy ishchi siklning 1–variantdagi boshqa ko‘rinishi kondensatordan keyin suyuq *sovutish agentining o‘ta sovutilishi* bilan tavsiflanadi. Bu holda ishchi sikl diagrammasida (22–rasm, b) dan farq qilib, 4 nuqtadan keyin termodinamik holat chizig‘i  $x=0$  chap chegaraviy chiziq bo‘ylab biroz pastga tushadi va bunda o‘ta sovish holatini ifodalovchi 4” nuqtasini  $[T(4'') < T(4) = T_1]$  hosil qiladi. Keyin shu nuqtadan izoental’piya  $i=const$  chizig‘i bo‘ylab termodinamik holat chizig‘i  $T_o$  izotermasi bilan kesishguncha davom etadi. Kesishish nuqtasi 5” nuqtasini beradi, bu nuqta o‘ta sovigan sovutish agentining bug‘latgichga kirish holatini  $[x(5') < x(5)]$  ifodalaydi. Odatta sovutish agentining o‘ta sovutilishi jarayonini amalga oshirish uchun sovutish mashinasi qo‘srimcha issiqlik almashtirgich bilan jihozlanadi. Kondensatordan chiqqan sovutish agentining o‘ta sovutilishi sovutish koefitsiyenti  $\epsilon$  ni orttirish imkonini beradi.

Nazariy ishchi siklning yana bir boshqa variantdagi ko‘rinishi *kompressorning quruq yurishi* bilan tavsiflanadi. Ushbu holda diagrammada termodinamik holat chizig‘i 1 nuqtadan keyin  $p_1$  izobara bo‘ylab o‘ta qizdirilgan bug‘ sohasida yuqoriga biroz ko‘tariladi va hosil qilingan 1’ nuqtadan  $[T(1') > T(1)]$  kompressorda siqish chizig‘i 1’–2 adiabatasi  $[s(1') = s(2) = const]$  bo‘ylab davom etadi. Kompressorning quruq yurishi uning ishlash sharoitini yaxshilaydi.

23–rasmda bug‘–kompressorli sovutish qurilmasining *ishchi sikli* sovutish agenti – freon (ammiak) ning  $p - v$  koordinatali holat diagrammasida keltirilgan. Bunda 22–rasm, b va 23–rasmlardagi tugun nuqtalarining bir xil belgilanishi ko‘zda tutilgan.

Hozirgi vaqtida bug‘–kompressorli sovutish qurilmalari mo‘tadil sovutish haroratlari sohasidagi ko‘pchilik hollarda, boshqa sovutish qurilmalariga qaraganda eng samarali qurilmalar bo‘lib qoldi, shu sababli ulardan sanoat va turmushda keng foydalilanadi.

**Bug‘–kompressorli sovutish mashinasining ishchi siklini  $T - s$  diagrammada yasash.** Shunday qilib, biz oldingi bo‘limda bug‘–kompressorli sovutish qurilmasining ishchi siklini o‘rganib chiqib, unda 5 ta asosiy tugun nuqtalar mavjudligini ko‘rdik. Bu *tugun nuqtalar 1, 2, 3, 4, 5* raqamlari bilan belgilangan bo‘lib, bu nuqtalar ishchi siklning ham  $T - s$  koordinatalardagi, ham  $p - v$  koordinatalardagi holat diagrammasida mavjud bo‘ladi (22–rasm, b va 23–rasm).



23-rasm. Bug'-kompressorli sovutish qurilmasi  
tsiklining  $p - v$  diagrammasi


V

Bug'-kompressorli sovutish mashinasining ishchi siklini  $p - v$  hamda  $T - s$  diagrammalarda yasash uchun shu tugun nuqtalarga tegishli termodynamik kattaliklarni aniqlash va ishchi siklda sodir bo'-luvchi : izotermik-izobarik qaynash, adiabatik siqish, o'ta qizdirilgan bug'ning izobarik sovishi, izotermik-izobarik kondensatsiyalanish, o'z-garmas ental'piya sharoitida o'tuvchi drossellanish jarayonlarining chiziqlarini  $p - v$  hamda  $T - s$  diagrammalarda o'tkazish talab etiladi. Shu asosda bug'-kompressorli sovutish mashinasining ishchi tsiklini  $p - v$  hamda  $T - s$  diagrammalarda yasashimiz mumkin. Bug'-kompressorli sovutish mashinasining ishchi siklini  $T - s$  diagrammada yasashni quyidagi misolda ko'rib chiqamiz.

**Misol (namuna).** Bug'-kompressorli sovutish mashinasida sovutish tsiklida ishchi jism, ya'ni sovuqlik tashuvchi modda sifatida Freon-134a ishlataladi. Sovutish kamerasida havoning harorati  $0^{\circ}\text{C}$  darajasida saqlab turiladi, sovutgich mashinasi joylashgan, ya'ni kondensator sovutiladigan xonadagi harorat  $+26^{\circ}\text{C}$ . Sovutish agentining to'yigan bug'lari kompressorga  $-10^{\circ}\text{C}$  haroratda kirib keladi, freoning to'yigan suyuqligi esa kondensatordan 9 bar bosimda oqib chiqib ketadi. Sovutish agentining massaviy tezligi 70 g/sek ga teng.

Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra bug'-kompressorli sovutish mashinasining  $T - s$  diagrammada yasalgan ishchi sikli 24-rasmda ko'r-satilgan. Bunda ishchi siklning ideal variantdagi ko'rinishi va real, ya'ni haqiqiy sharotlarda qanday o'zgarishlarga uchrashi bir-biridan farq qiluvchi ko'rinishlarda berilgan.

Siklni yasashda dastavval  $T - s$  diagrammada chap  $x = 0$  va o'ng  $x = 1$  chegaraviy egri chiziqlarni hamda kritik nuqta K ni chizamiz. Bunda diagrammani chizish uchun kerakli barcha fizik ma'lumotlar sovuqlik tashuvchi modda bo'lgan Freon-134a ning termodinamik holat jadvallaridan olinadi. Bunday jadvallar texnikaviy adabiyotlarda keltirilgan.



24 - rasm. Bug'-kompressorli sovutish mashinasining  $T - s$  diagrammadagi ishlchi tsikli :ideal holatda (1-2-3-4-5-1) va real holatda (1-1'-2''-2'-2-3-4-4'-5-1)

Shundan keyin chap  $x=0$  va o'ng  $x=1$  chegaraviy egri chiziqlar orasida bug'latgichdagi to'yangan bug'-suyuqlik aralashmasi harorati –  $10^{\circ}\text{C}$  ga to'g'ri keluvchi izotermanni (abssissalar o'qiga parallel to'g'ri chiziq) o'tkazamiz. Bu to'g'ri chiziqnинг  $x=1$  chegaraviy egri chiziq bilan kesishish nuqtasi izlanayotgan bug'-kompressorli sovutish mashinasining  $T - s$  diagrammadagi ishlchi siklining 1 nuqtasidan iborat bo'ladi.

Keyingi bosqichda chap  $x=0$  va o'ng  $x=1$  chegaraviy egri chiziqlar orasida kondensatordagi to'yangan bug'-suyuqlik aralashmasi bosimi 9 bar ga to'g'ri keluvchi izobaranini o'tkazamiz. Bunda shuni e'tiborga olish lozimki, to'yangan bug'-suyuqlik aralashmasi sohasida izobarik jarayonlar bir vaqtning o'zida izotermik jarayonlardan iborat bo'ladi. Shu sababli chap  $x=0$  va o'ng  $x=1$  chegaraviy egri chiziqlar orasida bosim 9 bar ga to'g'ri keluvchi izobara ham abssissalar o'qiga parallel to'g'ri chiziqdan iborat bo'ladi. Sovuqlik tashuvchi modda bo'lgan Freon-134a ning termodinamik holat jadvallaridan 9 bar bosimda to'yangan bug'-suyuqlik aralashmasining harorati  $+35,5^{\circ}\text{C}$  bo'lishini aniqlab olamiz (24-rasm).

$x=1$  chegaraviy egri chiziqdan o'ng tomonda, ya'ni o'ta qizdirilgan bug' sohasida izobaralar abstsissa o'qiga nisbatan o'tkir burchak ostida yuqoriga qarab yo'nalgan deyarli to'g'ri chiziqqa o'xshash egri chiziqlar ko'rinishida bo'ladi. Shunga asoslanib  $x=1$  chegaraviy egri chiziqdan o'ng tomonga bosim 9 bar ga to'g'ri keluvchi izobarani davom ettiramiz (24-rasmida 3-2-2'-2" davom etuvchi chiziq).

Endi 1 nuqtadan yuqoriga qarab izoentropiya (o'zgarmas entropiya) chizig'ini tortamiz, chunkisovutish agenti bug'larining kompressorda siqilishi adiabatik jarayon bo'lib, unda ishchi jismning entropiyasi o'zgarmay qoladi, ya'ni  $s = \text{const}$  bo'ladi. Tushunarlik, izoentropiya to'g'ri chizig'i grafikning ordinata o'qiga parallel to'g'ri chiziq sifatida chiziladi. Ushbu izoentropiya chizig'ining  $x=1$  chegaraviy egri chiziqdan o'ng tomondagi bosim 9 bar ga to'g'ri keluvchi izobara bilan kesishish nuqtasi sovutish mashinasi ishchi siklining 2 nuqtasidan iborat bo'ladi.  $x=0$  va  $x=1$  chegaraviy egri chiziqlar orasidagi bosim 9 bar ga to'g'ri keluvchi izobaraning  $x=1$  egri chiziq bilan kesishish nuqtasi sovutish mashinasi ishchi siklining 3 nuqtasidan iborat bo'ladi.

4 nuqtani aniqlash.  $x=0$  va  $x=1$  chegaraviy egri chiziqlar orasidagi bosim 9 bar ga to'g'ri keluvchi izobaraning  $x=0$  egri chiziq bilan kesishish nuqtasi sovutish mashinasi ishchi siklining 4 nuqtasidan iborat bo'ladi. Buning sababi shundaki, ideal variantdagi ishchi siklda sovutish agentining nam to'yingan bug'lari kondensatorda to'liq kondensatsiyalanib, to'yingan suyuqlik holatiga o'tadi, ya'ni kondensatsiyalangach, suyuqlik qo'shimcha ravishda sovimapaydi va shu holatida drossel ventilga (yoki TRV ga) o'tadi.

Oxirgi bosqichda 4 nuqtadan pastga qarab izoental'piya (o'zgarmas ental'piya) chizig'ini tortamiz, chunki suyuq sovutish agentining drossellanish jarayoni ideal variantda tashqi muhit bilan issiqlik almashinuvizsodir bo'ladi, unda ishchi jismning ental'piyasi o'zgarmay qoladi, ya'ni  $i = \text{const}$  bo'ladi. Bu izoental'piya chizig'i abssissa o'qiga nisbatan o'tmas burchak ostida pastga qarab yo'nalgan deyarli to'g'ri chiziqqa o'xshash egri chiziq ko'rinishida bo'ladi. Izental'piya egri chizig'ining chap  $x=0$  va o'ng  $x=1$  chegaraviy egri chiziqlar orasidagi to'yingan bug'-suyuqlik aralashmasi harorati  $-10^{\circ}\text{C}$  ga to'g'ri keluvchi izoterma bilan kesishish nuqtasi sovutish mashinasi ishchi siklining 5 nuqtasidan iborat bo'ladi. Shunday qilib, biz bug'-kompressorli sovutish mashinasining ishchi siklini  $T - s$  diagrammada ideal variant uchun yasadik (24-rasmdagi 1-2-3-4-5-1 yopiq sikl).

**Absorbtsiyali va bug‘-ejektorli sovutish qurilmalari, ularning ishchi sikllari.** Bug‘-ejektorli sovutish qurilmasi sikli, bug‘-kompressorli qurilma sikliga o‘xshash, nam bug‘ tarzidagi sovutish agenti vositasida amalga oshiriladi. Ular orasidagi asosiy farq quyidagilardan iborat: agar bug‘-kompressorli qurilma siklida sovutilayotgan hajmdan chiqqan sovutish agenti bug‘ kompressori yordamida siqilsa, bug‘-ejektorli qurilmada bu maqsadda bug‘ ejektoridan foydalaniladi.


Ejektor – gaz, bug‘ va suyuqliklarni siquvchi va harakatlantiruvchi qurilmadir. Bug‘ni ejektor yordamida siqish uchun qozonda hosil bo‘ladigan bug‘ning kinetik energiyasidan foydalaniladi.

Kompressor o‘rniga bug‘ ejektori ishlatalishining sababi nimada? Sovutish qurilmalarida uncha past bo‘lmagan, taxminan  $3^{\circ}\text{C}$  dan  $10^{\circ}\text{C}$  gacha bo‘lgan haroratlar olish uchun sovituvchi modda sifatida suv bug‘idan foydalanish mumkin. Lekin  $0^{\circ}\text{C}$  ga yaqin haroratlarda bug‘-ning solishtirma hajmi juda katta bo‘ladi (masalan,  $t = 5^{\circ}\text{C}$  da  $v = 147,2 \text{ m}^3/\text{kg}$ ). Zichligi bunchalik kichik bug‘ni siquvchi porshenli kompressor juda katta mashina bo‘ladi. Xuddi shuning uchun suv bug‘i bilan ishlaydigan sovutish qurilmasi siklida, uncha takomillashgan bo‘lmasada, ancha ixcham apparat – bug‘ ejektori ishlataladi va unda parametrlari past, arzon bug‘dan foydalaniladi. Bug‘-ejektorli qurilma sovutish mashinalarining eng eski turlaridan biridir.


Bug‘-ejektorli sovutish qurilmasining sxemasi va sikli mos ravishda 25– va 26–rasmlarda tasvirlangan. To‘yingan suv drossellash ventili 1 da  $p_1$  bosimdan  $p_2$  bosimgacha kengayganda hosil bo‘lgan suv bug‘i sovutiladigan hajmda joylashgan bug‘latgich 2 ga kiradi. Sovutiladigan hajmdagi ob‘yektlardan (masalan mahsulotlardan) issiqlikning olinishi hisobiga suv bug‘ining quruqlik darajasi  $x$  ortadi. Quruqlik darajasi yuqori bo‘lgan bug‘  $p_2$  bosimda bug‘latgichdan bug‘ ejektorining aralashtirish kamerasi 3 ga yuboriladi. Ejektor soplosiga qozon 4 dan  $p_k$  bosimli bug‘ beriladi. Bug‘latgichdan ejektorning aralashtiruvchi kamerasiga beriladigan bug‘ va qozondan ejektor soplosiga keladigan bug‘ sarflari shunday tanlanadiki, bug‘ning ejektor diffuzoridagi chiqishdagi bosimi  $p_1$  ga teng bo‘ladi. To‘yingan quruq bug‘ ejektordan kondensator 5 ga yuboriladi. Bu yerda u o‘z issiqligini sovituvchi suvgaga berib kondensatsiyalanadi. Bosim  $p_1$  da kondensatordan chiqayotgan kondensat oqimi ikki qismga bo‘linadi. Suvning ko‘proq qismi sovutish konturiga, ya’ni drossellash ventili 1 ga, oz qismi esa nasos 6 ga yuboriladi. Nasosda suv bosimi  $p_k$

gacha ortadi. Nasos 6 suvni qozonga yuboradi. Qozonga beriladigan issiqlik hisobiga yana bug' hosil bo'ladi.

Bug' - ejektorli qurilma sikli 26-rasmda  $T-s$  diagrammada tasvirlangan. Bu diagrammada 1-2 chiziq to'yigan suvning drossel-lash ventilida adiabatik drossellanish jarayonini, 2-3 chiziq esa bug'latgichdagi izotermik - izobarik jarayonni ifodalaydi (aniqlik uchun bug'latgichdan quruq to'yigan bug' chiqadi deb hisoblaymiz).



25-rasm. Bug' - ejektorli sovutish qurilmasining sxemasi



26-rasm. Bug' - ejektorli sovutish qurilmasining ishchi tsikli

Shu diagrammaning o'zida bug'ning «qozon - ejektor - kondensator - qozon» konturida aylanayotgan qismi bajaradigan sikl ham tasvirlangan. Bu siklning tasvirlanishi shartli ekanligini esdan chiqarmaslik kerak. Shartli deyilganda shuni e'tiborga olishimiz lozimki, qurilmaning ikkala konturining har birida bug' sarfi turlich bo'ladi.  $T-s$  diagrammada esa ikkala sikl 1 kg bug' hisobidan tasvirlangan. Bu diagrammada (26-rasm): I - II nasosda suv bosimining ortishi jarayoni; II - III - IV  $p_k = \text{const}$  izobara bo'yicha qozonda issiqlik berish jarayoni ( $II - III$  qaynashga yetguncha qizdirish,  $III - IV$  bug' hosil bo'lish jarayoni); IV - V ejektor soplosida bug'ning kengayish jarayoni. Soploda bug'  $p_2$  bosimgacha ( $V$  nuqta) kengayadida, keyin bug'latkichdan ejektorga aynan shu bosimning o'zida keladigan ( $3 - nuqta$ ) bug' bilan aralashadi.  $V$  holatdagi nam bug'ning 3 holatdagi to'yigan quruq bug' bilan aralashuvi natijasida quruqlik darajasi  $V$  va 3 orasida bo'lgan bug' hosil bo'ladi, bu diagrammada  $A$  nuqtadan iborat.  $A - 4$  chizig'i ikkala bug' oqimlari bosimining ejektor diffuzorida  $p_2$  dan  $p_1$  gacha ko'tarilishi jarayoniga mos keladi,  $4 - 1$  chizig'i esa shu miqdordagi bug'ning sovutish qurilmasining kondensatorida kondensatsiyalanish jarayoniga mos keladi.

Sovutish qurilmasi sikkida chetdan ish kiritilmaganligi (bunda suvni qozonga yetkazib beruvchi nasosning ishini, u juda ham oz bo‘lganligi sababli e’tiborga olmaymiz, ya’ni  $i_1 = i_H$  deb olamiz) va uning o‘rniga esa qozonda issiqlik berilishi tufayli, bunday qurilma sikkining samaradorligi quyidagi formuladan aniqlanadigan issiqlikdan foydalanish koeffitsiyenti bilan baholanadi:

$$\xi = q_2 / q_1 \quad (4.31)$$

bu yerda  $q_2$  – sovutilayotgan hajmdan olinayotgan issiqlik;

$q_1$  – qozonga berilayotgan issiqlik.

(4.31) formulani ishchi moddaning ental’piyalari orqali (26-rasm) quyidagicha yozishimiz mumkin :

$$\xi = \frac{i_3 - i_2}{(i_w - i_1) \cdot g} \quad (4.32)$$

bu yerda  $g$  – qozondan ejektor soplosiga  $p_k$  bosim ostida beriladigan bug‘ miqdorining bug‘latgichdan ejektorming aralashtirish kamerasiga kirib keluvchi bug‘ miqdoriga nisbati.

*Sovutish qurilmalarining yana bir turi absorbsiyaviy sovutish qurilmalaridir.* Bunday sovutish qurilmalarida ham mexanik kompressoarning ishi o‘rniga issiqlik energiyasidan foydalilanadi. Bir jism – gaz yoki bug‘ning ikkinchi jism – suyuqlikda yutilishi *absorbsiya* deb ataladi. Bunday sovutish qurilmalari boshqa qurilmalardan konstruktsiyasining soddaligi bilan ajralib turadi. Absorbsiyaviy sovutish qurilmalari 14-mavzuda batafsil o‘rganib chiqiladi.

### *Nazorat savollari*

1. Teskari termodinamik sikl deb nimaga aytildi?
2. Muzli eritma usuli nima va undan qanday sovutishda foydalilanadi?
3. Sublimatsiya jarayonini tavsiflab bering. Mahsulotlarni sovuqlik bilan ishlov berishda sublimatsiyaning ahamiyati nimada?
4. Sinqilgan gazning adiabatik kengayishida va drossellanishida haroratining pasayishi, bu jarayonlarning sovutish texnikasida qo‘llanilishidagi farqi nimada?
5. Teskari Karko sikkining paydo bo‘lishi asoslarini tushuntirib bering.
6. Teskari Karko sikkining  $T-s$  diagrammasini chizing va uning mohiyatini tushuntirib bering.
7. Teskari Karko sikkining  $T-s$  diagramma asosidagi differentials tenglamalar bo‘yicha tahlilini ko‘rsatib bering.

8. Karko siklining termodinamik f.i.k. formulalarini yozing va ularning mohiyatini tushuntirib bering.
9. Sovutish mashinalarining sovutish koeffitsiyenti tushunchasini yoritib bering.
10. Karko teskari sikli bo'yicha ishlayotgan sovutish qurilmasida sarflangan ish formulasini yozing va tushuntirib bering.
11. Har qanday sovutish mashinasining energetik balansi tenglamasini yozing va tushuntirib bering.
12. Sovutish koeffitsiyenti va termodinamik foydali ish koeffitsiyenti orasida qanday bog'lanish bor, hamda ularning bir-biridan farqi nimada?
13. Bug'-ejektorli sovutish qurilmasining tuzilish sxemasini chizing va uning ishlash prinsipini tushuntirib bering.
14. Bug'-ejektorli sovutish qurilmasining ishchi siklini  $T - s$  diagrammada tushuntirib bering.

## II BO'LIM. BUG' – KOMPRESSORLI SOVUTISH MASHINALARIDA ASOSIY JARAYONLAR VA QURILMALAR HAMDA ULARNI HISOBBLASH ASOSLARI

### 5. Sovutish mashinalarida gazlarni siqish jarayonlari va qurilmalari

*Tayanch iboralar:*

*Gaz va bug', siqish jarayoni, izotermik siqish, adiabatik siqish, kompressor, solishtirma ish, kompressorlar : porshenli, rotatsion, spiral', vintli ; haydash, so'rish, klapanlar, tirsakli val, silindr, porshen', germetik , yarim germetik , plastina rotorli , dumalovchi rotorli.*

Hozirgi zamondasovutish texnologiyasi vasovutish uskuna hamda jihozlari xalq xo'jaligining judako'p sohalarida qo'llaniladi. Barcha sohalarada mavjud bo'lgansovutish uskuna va jihozlarining ko'pchilik qismini (90% dan ortiq qismini desak xato bo'lmaydi) bug'–kompressorlisovutish mashinalari asosida ishlab chiqilgan uskuna va jihozlar tashkil etadi. Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sohasi bundan mustasno emas. Binobarin, hozirda chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarinisovutish hamda sovuqlik bilan ishlov berish uskuna va jihozlarining deyarli barchasi bug'–kompressorli mashinalardaniborat ekan, bug'–kompressorlisovutish mashinalarining asosiy fizik va termodinamik jarayonlarini bilish, bu jarayonlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan qurilmalarni tahlil qilish, ularni hisoblash va loyihalash asoslarini o'rganish imkonini beradi. Ushbu bo'limda aynan shu masalalar qarab chiqiladi.

**Gazlarni siqish jarayonlari, izotermik va adiabatik siqish.** Gazlarni (ya'nisovutish agentining to'yingan yoki to'yinmagan bug'–larini) siqish natijasida uning hajmi va bosimi o'zgarishi bilan harorati ko'tarilib, issiqlik ajralib chiqadi. Nazariy jihatdan gaz ikki xil jarayonda siqiladi. Siqish vaqtida ajralib chiqqan issiqlik tashqi muhitga tortib olinsa *izotermik*, agar faqat gazni isitish uchunsarflansa *adiabatik siqish jarayoni* deyiladi. *Izotermik jarayonda* issiqlik ajratib olinib turilgani uchun, gazning va jarayonning harorati o'zgarmas bo'ladi. *Adiabatik jarayonda* tashqi muhit bilan issiqlik almashinmaydi. Haqiqatda esa siqish vaqtida ajralgan issiqlikning bir qismi tashqi muhitga tarqaladi va qolgan qismi gazni isitishga sarflanadi. Bunda gaz *politropik jarayonda* siqiladi. Gazlarni kompressorlarda siqish

jarayonlarida bajarilgan solishtirma ishning miqdori  $T - s$  diagramma orqali aniqlanadi.


Gazlar va bug'larning siqish jarayonlarining  $p-v$  va  $T-s$  diagrammalari 27-rasmida ko'rsatilgan. Bu diagrammalarda gazlarning  $p_1$  bosimdan  $p_2$  bosimgacha siqilishi tasvirlangan. Bunda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, siqish ishi  $p - v$  diagrammada shtrixlangan yuzaning kattaligi bilan o'chanadi. 27a-rasmdan ko'rinish turibdiki, siqish ishi izotermik jarayonda eng kichik (minimal), adiabatik jarayonda esa eng katta (maksimal) qiymatga ega bo'ladi. Buning sababi shundaki, izotermik jarayonda siqishda ajralayotgan issiqlik olib ketilganligi tufayli gazning harorati o'zgarmaydi va uni siqishga kamroq ish sarflanadi (bu holda siqishga qarshilik ko'rsatuvchi gazning ichki energiyasi, ya'ni molekulalarning jamlangan kinetik energiyasi nisbatan ozligicha qolaveradi). Siqishdagi jarayonlarni tahlil qilish uchun qulay bo'lgan  $T-s$  diagramma 27b-rasmda ko'rsatilgan.

**Gazlarni kompressorda siqish jarayonlarida bajarilgan solishtirma ishning miqdorini aniqlash.** Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ko'pchilik hollarda siqish vaqtida ajralgan issiqlikning bir qismi tashqi muhitga tarqaladi va qolgan qismi gazni isitishga sarflanadi, ya'ni gaz *politropik jarayonda* siqiladi (27-rasmdagi oraliq siqish chiziqlari).  $T-s$  diagrammada o'zgarmas haroratga to'g'ri kelgan qiymatlar gorizontal chiziqlar bilan tasvirlangan bo'ladi (27b-rasm). Agar diagrammada izotermik jarayonni ko'radigan bo'lsak, siqish davomida gazning harorati o'zgarmas bo'lib, bosimning  $p_1$  dan  $p_2$  gacha o'zgarishi 1 va 2 nuqtalarini tutashtiruvchi gorizontal chiziq orqali ifodalanadi. Agar diagrammada adiabatik jarayonni qaraydigan bo'lsak, siqish davomida gazning entropiyasi o'zgarmas ( $s = \text{const}$ ) bo'lib, bosimning  $p_1$  dan  $p_2$  gacha o'zgarishi 1 va 2 nuqtalarini tutashtiruvchi vertikal chiziq orqali ifodalanadi.


Bug'-kompressorli sovutish mashinasining ishchi siklida izotermik siqish sovutish agenti to'yingan bug'larining kondensatorda kondensatsiyalanishi jarayonida o'rin tutadi (28-rasm). Bunda to'yingan bug' holatiga tegishli sohada ( $0 < x < 1$ ) o'zgarmas bosim va haroratda sovutish agenti bug'lari kondensatsiyalanib siqiladi, ya'ni bug' holatidan suyuqlik holatiga o'tadi (28-rasmdagi 3 – 4 gorizontal to'g'ri chizig'i).

Bug'-kompressorli sovutish mashinasining ishchi siklida adiabatik siqish muhim o'rin egallaydi. Bu jarayon sovutish agenti bug' –





27 - rasm. Gazlarni va bug'larni siqish jarayonlari : a)  $p$ - $v$  diagnostikada ; b)  $T$ - $s$  diagnostikada ; iz - izotermik , ad - adiabatik , pol - politropik siqish



28 - rasm. Bug' - kompressorli mashinalarning ishchi tsikli diagrammasi

larini kompressorda siqish jarayoni bo'lib, unda sovutish agentining nam yoki quruq to'yingan bug'lari yoxud ozroq darajadagi o'ta qizdirilgan bug'lari yuqori darajadagi o'ta qizdirilgan bug'lar holatiga o'tadi (28-rasmdagi 1 – 2 vertikal to'g'ri chizig'i).

Sovutish agenti bug'larini kompressorda siqish jarayonida bajarilgan solishtirma ishning miqdori quyidagicha aniqlanadi (28-rasm) :

$$l' = q_1 - q_2 = 123451 \text{ yuza} = i_2 - i_1 \quad (5.1)$$

**Sovutgichlar kompressorlarining asosiy turlari va ularning klassifikatsiyasi.** Kompressor – sovutish agentlarini bug'latgichdan so'rib olish, siqish va o'ta qizdirilgan holda kondensatorga haydab berish uchun mo'ljallangan mexanizmdir. Sovutish mashinalari tizimida porshenli, spiralli, vintli, rotorli kompressorlar hamda dinamik prinsipda ishlovchi turbokompressorlar qo'llaniladi.


Hozirgi vaqtida oziq-ovqat mahsulotlarini, jumladan chorvachilik mahsulotlarini sovutish va saqlash sohasida eng ko'p qo'llanilayotgan sovutish mashinalari – bug' – kompressorli mashinalarning ko'pchiligi – da porshenli kompressorlar tarqalgan bo'lib, porshenli kompressorlar o'z navbatida quyidagi belgilarga ko'ra turlanadi:

- 1) sovuqlik tashuvchi modda (sovqlik agenti) turiga ko'ra – ammiakli, freonli va sh.k.;
  - 2) sovuqlik unumidorligi qiymatiga ko'ra – kichik kompressorlar (sovqlik unumidorligi 12 kVt gacha), o'rtacha kompressorlar (sovqlik unumidorligi 12 dan 120 kVt gacha) va yirik kompressorlar (sovqlik unumidorligi 120 kVt dan ortiq);
  - 3) kompressor korpusining germetiklik (zich berkitilganlik) dajrasiga ko'ra – germetik (zich berkitilgan), yarim germetik (qisman berkitilgan) va germetik bo'lмаган (ochiq) kompressorlar;
  - 4) siqish bosqichlari soniga ko'ra – bir bosqichli, ikki bosqichli va uch bosqichli kompressorlar;
  - 5) kompressor silindrining ishchi hajmlariga ko'ra – oddiy ishlovchi kompressorlar (bunda bug'larni siqish jarayoni porshenning faqat bir tomonida amalga oshiriladi) va ikki tomonlama ishlovchi kompressorlar (bunda bug'larni siqish jarayoni navbat bilan porshen – ning har ikkala tomonida amalga oshiriladi);
  - 6) bug'larning kompressor silindri ichidagi harakatiga ko'ra – to'g'ri oqimli kompressorlar (bunda silindr ichida bug'lar bir yo'nalishda harakatlanadi) va to'g'ri bo'lмаган oqimli kompressorlar (bunda silindr ichida bug'larning harakat yo'nalishi o'zgarib turadi);
  - 7) silindrler o'qlarining joylashishiga ko'ra – gorizontal', vertikal' va V-, W-, V V-simon kompressorlar;
  - 8) silindrler soniga ko'ra – bir silindrli va ko'p silindrli (ularning soni 16 tagacha bo'lishi mumkin) kompressorlar;
  - 9) kompressor tirsakli valining aylanishlar soniga ko'ra sekin yuruvchi kompressorlar (aylanishlar soni  $500 \text{ min}^{-1}$  gacha) va tez yuruvchi kompressorlar (aylanishlar soni  $500 \text{ min}^{-1}$  dan ortiq).
- Porshenli kompressorlar: tuzilishi, ishlash prinsipi va asosiy modifikatsiyalari.** Porshenli kompressorlar asosan kichik va o'rta sovuqlik ishlab chiqarish mashinalarida qo'llaniladi. Ko'p hollarda blok – karterli qilib ishlab chiqariladi.
- Porshenli kompressorning ishlash prinsipini tushuntiruvchi sxema 29-rasmda keltirilgan. Uning ishlash tartibi quyidagicha. Porshen' yuqoriga harakatga kelishi bilan silindr bo'ylab sovutish agenti siqila boshlaydi. Porshen' elektrosvigatel', tirsakli val va shatun yordamida harakatga keltiriladi. Bug' bosimi ta'sirida kompressorning so'rish va haydash klapanlari ochilib yopiladi (29-rasm). "B" va "D" sxemada kompressorga so'rish jarayoni tasvirlangan. Porshen' yuqori

nuqtadan pastga harakat qilganida silindr ichidagi bosim pasayadi va so‘rvuchi klapan ochiladi. Past harorat va bosimga ega sovutish agenti silindrga so‘riladi. “E” va “A” sxemada siqish va haydash jarayoni tasvirlangan. Porshen’ yuqoriga harakatlanadi va bug‘ni siqadi. Shundan so‘ng haydash klapani ochiladi va yuqori harorat hamda bosimga ega bo‘lgan bug‘ kompressordan chiqariladi.

Porshenli kompressorlarning asosiy modifikatsiyalari: germetik, yarim germetik va ochiq kompressorlar (konstruktsiyasi, dvigatel’ turi va qay maqsadda ishlashi bilan farqlanadi). Germetik kompressorlar kichik quvvatli sovutish mashinalari, xususan uy-ro‘zg‘or sovutgichlarida qo‘llaniladi ( $1,5 - 3,5$  kVt). Ularda germetik korpusning ichida elektrodvigatel’ joylashgan. Elektrodvigatel’ so‘rilayotgan sovutish agenti bug‘lari yordamida sovutiladi.

Yarim germetik kompressorlar o‘rtacha quvvatli ( $30 - 300$  kVt) sovutish mashinalarida qo‘llaniladi. Yarim germetik kompressorlarda elektrodvigatel’ va kompressor to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘langan va bitta korpusda joylashgan. Ushbu kompressoarning afzallik tomoni shundaki, ishdan chiqqan holatida elektrodvigateli, klapanlarni, porshen’ va boshqa detallarni qayta ta’mirlash uchun korpusdan chiqarib olish mumkin. Ularda ham elektrodvigatel’ so‘rilayotgan sovutish agenti bug‘lari yordamida sovutiladi.



29 – rasm. Porshenli kompressoarning ishslash prinsipi

Ochiq kompressorlar elektrodvigatel’ bilan ajratilgan holda bo‘ladi va ularning vallari mufta yoki uzatkichlar yordamida bog‘lanadi. Ko‘pchilik sovutish mashinalarining unumdorligi *invertorlar* – kompressor aylanish chastotasini (aylanishlar sonini) o‘zgartiruvchi maxsus uskunalar yordamida o‘zgartiriladi.

Yarim germetik kompressorlarda unum dorlikni o'zgartirishning boshqa yo'li ham mavjud bo'lib, bunda haydalayotgan bug'ning bir qismi qayta so'rildi yoki ba'zi so'rish klapanlarining ishlatalmasligini ta'minlaydi (30-rasm).


Porshenli kompressorlarning asosiy kamchiliklari:

- yuqori darajada shovqinni keltirib chiqaruvchi sovutish agenti bug'lari bosimining pul'satsiyalanishi;
- katta quvvatni talab qiladigan va kompressorning yemirilishiga olib keladigan ishga tushirishdagi katta yuklama.

30-rasmda yarim germetik kompressor qirqimda tasvirlangan. Bunday kompressorlarning konstruktiv asosi cho'yandan quyilgan, fasonli quyilgan cho'yandan yoki alyuminiy qotishmalardan yasalgan bo'ladi. Bloklarning maxsus ajratilgan joylariga cho'yandan quyilgan yupqa devorli silindrлarning vtulka – gil'zalari presslangan. Quyma qopqoqlar silindrni yoki silindr guruhlarining ustini yopadi va klapan plitkalarini qotirib turadi.

Kompressorlarda silindrлarning sovutilishi uchun suv yoki havodan foydalilanadi. Suv bilan sovutish uchun bloklarda sovutish yuzalari qo'llaniladi. Havo bilan sovutish kompressorlarida blok yuzalari tepada joylashgan bo'lib, uning bosh qismi, asosan, tashqi qovurg'ali ko'rinishda bo'ladi.

Kichik va o'rta quvvatlari sovutish kompressorlarida moylashning kombinatsiyalangan turi qo'llaniladi. Yuzaning bir qismidagi ishqalanishni moy nasosi hosil qiladigan bosim ostidagi moylanish bilan amalga oshiriladi. Qolgan qismi moyning har tomonga sachrashidan,




30 – rasm. Yarim germetik kompressor qirqimi

kompressor bitta korpusda joylashgan germetik kompressorlar ishlataladi (31-rasm).

ishqalanish yuzasida qolib ketadigan moylar bilan amalga oshiriladi. Moy nasosga kirishda yirik, chiqishda esa mayin tozalanish filtrida tozalanadi. Ba'zan chiqishda yirik filtrda metall qoldiqlaridan tozalash uchun magnitli filtr o'rnatiladi.

Uy-ro'zg'or va maishiy sovutgichlari hamda muzlatgichlarida elektrodvigatel' va



31 – rasm. Uy –  
ro'zg'or va  
maishiy sovut –  
gichlarining  
kompressori

**Rotatsion kompressorlar: tuzilishi, ishlash prinsipi va asosiy modifikatsiyalari.** Rotatsion kompressorlarning ishlash prinsipi rotorlarning aylanishi natijasida sodir bo‘ladigan gazning so‘rilishi va siqilishidan iborat. Ularning porshenli kompressorlardan afzalligi ishgaga tushirish paytida elektr tokining va bosim pul’satsiyasining kamligidan iborat.


Rotatsion kompressorlarning ikki xil modifikatsiyasi mavjud: plastina rotorli va dumalovchi rotorli. *Dumalovchi rotorli kompresso – sorda* (32–rasm) sovutish agenti rotor dvigatelida o‘rnatilgan ekssentrik yordamida siqiladi. Rotoring aylanish jarayonida eks – sentrik kompressor silindrining ichki yuzasida harakatlanadi va uning oldidagi sovutish agenti bug‘lari siqiladi.

Dumalovchi rotorli kompressoring ishlash prinsipini tushunti – ruvchi sxema 32-rasmda keltirilgan. Dumalovchi rotorli kompressorda plastina (1) kompressor silindri ichidagi sovutish agenti bug‘larini yuqori va past bosim sohalarga ajratadi. Bu kompressoring 4 ta ishlash bosqichlari quyidagilardan iborat: a) bug‘ to‘liq hajmni to‘l – diradi; b) kompressor ichida siqish boshlanadi va sovutish agentining yangi miqdori so‘riladi; d) siqish va so‘rish davom etadi; e) siqish to‘xtaydi, bug‘ kompressor silindri ichidagi butun bo‘shliqni to‘ldiradi.


*Plastina rotorli kompressor.* Plastinali aylanuvchi rotorli kom – pressorlarda sovutish agentlarining siqilishi aylanuvchi rotorlarga o‘rnatilgan plastinalar yordamida amalga oshadi. Rotoring o‘qi kom – pressor silindrining o‘qiga nisbatan siljutilgan bo‘ladi. Plastinalarning chetlari silindr yuzasiga yopishib turadigan bo‘lib, shuning evaziga plastinalar silindr ichida yuqori va past bosim sohalarini ajratib turadi.

33-rasmda plastina rotorli kompressorda bug‘ni so‘rish va hay – dash jarayonlari tasvirlangan. Bunda: A) bug‘ to‘liq hajmni egallaydi; B) kompressor ichida siqish boshlanadi va sovutish agentining yangi

miqdori so‘riladi ; D) siqish va so‘rish tugaydi ; E) yangi siqish va so‘rish sikli boshlanadi.



32 – rasm . Dumalovchi  
rotorli kompressorning  
ishlash prinsipi



33 – rasm. Plastina rotorli kompressorning ishlash prinsipi


Kompressor valida ikkita rotor joylashtirilgan bo‘lsa, bunday kompressorlar ikki rotorli deb ataladi.

**Spiral’ va vintli kompressorlar:** tuzilishi, ishlash prinsipi. Spiral’ kompressorlar – kichik va o‘rtaligani quradigan mashinalarda qo‘llaniladi. Bunday kompressorlar (34-rasm) ikkita po‘lat spiralidan iborat. Ularning biri ikkinchisining ichida joylashgan bo‘lib, kompressor silindri o‘rtasidan chetiga qarab kengayadi. Ichki spiral’ harakatlanmaydigan qilib qotirilgan , tashqisi esa uning atrofida aylanadi.

Spirallar sirdi anmasdan harakatlanish imkoniyatini yaratuvchi maxsus profilga ega. Kompressorning harakatlanuvchi spirali ekssentrilikda o‘rnatilgan bo‘lib, boshqa spiralning ichki yuzasi bo‘ylab harakatlanadi. Bog‘lanish chizig‘i oldidagi sovutish agenti bug‘lari siqliladi va kompressor qopqog‘ining o‘rtaligida teshigidan chiqib ketadi.

Bog'lanish nuqtalari ichki spiralning har bir aylanasida joylashgan. Shuning uchun bug' boshqa kompressorlarga qaraganda kam portsiyalarda va ancha tekis siqiladi. Natijada kompressor elektrodvigatiga tushadigan qo'shimcha yuk , ishga tushirish yuki kamayadi.

Sovutish agentlari bug'lari kirish teshiklari orqali kompressor qoplamasining silindrik qismiga keladi, dvigatelni sovutadi, spirallar orasida siqiladi va kompressorning yuqori qismidagi chiqish teshiklari orqali chiqib ketadi. Bunday tizim gazning bir me'yordagi harakatini ta'minlab beradi. Bunday harakatda tebranish, shovqin darajasi porshenli kompressorlarga nisbatan ancha kam bo'ladi. Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, bunday kompressorlarda porshenli sovutish kompressorlariga o'xshab ortga qaytish harakatlarini amalga oshirdigan elementlar yo'q. Ishqalanuvchi detallar soni kamligi tufayli spiral' kompressorlar ko'proq vaqt xizmat qildi (34—rasm).



34 – rasm. Spiral' kompressorning ishlash prinsipi

Spiral' kompressorlarning kamchiliklari: ishlab chiqarishdagi qiyinchiligi, narxining balandligi, spirallarning aniq hisoblashlarni va chetki qismlarining germetikliligini talab qilishi, hamda ta'mirlanmasligi.

*Vintli kompressorlar.* Bu mashinalarda gaz harakatining yo'naltirilishi to'xtovsiz aylanma harakatli yo'nalish bilan amalga oshiriladi. Bu harakat bo'rtib chiqqan tishlar va egri chuqurlikli rotorlar yordamida vujudga keladi. Vintli kompressorlarda siqish

jarayoni egri chiziqli silindrda bo'ladi, uning ichidan gaz egri chiziqli porshen' yordamida ko'chiriladi. Bunday mashinalarda har bir rotor tishlarining orasidagi chuqurliklar silindr vazifasini, tishlar esa porshen' vazifasini bajaradi (35-rasm).

Bunday kompressorlarning ikki xil modeli mavjud: bir vintli va ikki vintli. Bir vintli modellarda rotor chetlariga ulangan bir yoki ikki shesternya – satellit o'rnatilgan bo'ladi.


Sovutish agenti bug'larining siqilishi har xil tomonga aylanuvchi rotorlar yordamida amalga oshiriladi. Ularning aylanishi vint ko'rinishidagi markaziy rotor tomonidan amalga oshiriladi.

Sovutish agenti bug'lari kompressorning kirish teshiklari orqali kiradi va elektrodvigatelni sovutadi. Keyin aylanuvchi rotor shesteryonkalarining tashqi sektoriga keladi, siqiladi va sirpanuvchi klapan orqali chiqish teshigidan chiqib ketadi. Kompressor vintlari germetik ulangan bo'lishi kerak, shuning uchun moylash materiallari ishlatiladi, keyin esa moy sovutish agentidan kompressorning maxsus separatorida ajratiladi.

Ikki vintli modellar (35-rasm) ikkita rotor ishlatilishi bilan ajralib turadi: asosiy va uzatmali rotorlar. Bunday kompressorlarning yetaklovchi va yetaklanuvchi rotorlari sirpanuvchi tirkak podshipniklariga o'rnatiladi, ulardan biri tirkak vazifasini bajaradi. Konstruktsiyasida o'qqa tushadigan og'irlilikni qabul qilish uchun yetaklovchi rotorda tushurish porsheni o'rnatilgan bo'ladi. Rotor vintlari katta modulli egri tishli (shesternya) ko'rinishida bo'lib, doimiy o'q qadamga ega tishli bo'ladi. Vintlarni tayyorlash uchun maxsus uskuna va anjomlar kerak.

Vintli kompressorlarda so'rish va haydash klapanlari mavjud emas. Sovutish agentining so'riliishi har doim kompressorning bir tomonidan, haydalishi esa boshqa tomonidan amalga oshadi. Bug'lar siqilishining bunday usulida shovqin darajasi porshenli kompressorlarga qaraganda ancha past. Vintli kompressorlarda dvigatel' aylanish tezligining o'zgartirilishi yordamida sovutish mashinasining unumdorligi bir tekisda sozlanadi.

Vintli kompressorlar 3 xil konstruktiv ko'rinishga ega: quruq va nam siqilish, shuningdek moy bilan to'ldirilgan ko'rinishlari. Quruq siqilishli kompressorlarning rotorlari va korpus orasida kafolatlangan tirkish ta'minlanadi. Bunday kompressorlarda sovutish agenti moy bilan ifloslanmaydi. Kamchiligi yuqori siqish darajasini hosil qilib bo'lmasligidan iborat.



35 – rasm. Ikki rotorli vintli kompressor

Nam siqilishli kompressorlarda siqilayotgan sovutish agentining haroratini pasaytirish uchun ishchi bo'shliqqa suyuqlikning bir qismi purkaladi, bu holat siqish darajasini ancha oshiradi va siqish jarayonini izotermik ko'rnishgaga olib keladi.

Moy bilan to'ldirilgan kompressorlarning sovutish texnikasidagi afzallik tomonlari shundaki, yetaklovchi rotor bilan bog'lanib turadigan yetaklanuvchi rotor orasidagi bo'shliqqa nasos bilan moy tizimidan yuqori bosim ostida to'xtamasdan moy berib turiladi. Bu moy rotorlarda kinematik aloqani hosil qilib kontakt yuzasini moylab turadi va sovutish agenti haroratini tushuradi, harakatlanishini yaxshilaydi. Moy bilan to'ldirilgan kompressorlarning birinchi pog'onasida siqish darajasi 12–16 ga chiqishi mumkin. Mashinaning texnologik sxemasiiga moy ajratgich va moy sovutgichlar qo'yildi.

Vintli kompressorlarning porshenli kompressorlardan afzalligi, unda ilgarilanma-qaytarma harakatlanuvchi detallarning yo'qligi. Ushbu omil mashinaning tezligini, og'irlik va gabarit o'lchamlari bo'yicha solishtirma ratsional ko'rsatkichlarini va ko'p vaqt xizmat qilish xususiyatini oshiradi. Vintli kompressorlar yuqori kapital va ekspluatatsion xarakatlardan talab qilmaydi.

Vintli kompressorlarning mavjud kamchiliklari quyidagilardan iborat: 1) o'zgarmas geometrik siqish darajasiga ega bo'lganligi uchun ichki siqish bosimini sozlab bo'lmashligi; 2) kichik unumdorlikdagi mashinalarda orqaga oqib o'tishning va buning natijasida unumdorlik pasayishining mavjudligi.

### **Nazorat savolları**

1. Sovutish mashinalarida gazlarni siqish jarayonlari deganda nimani tushunasiz ?
2. Izotermik va adiabatik siqish nima ekanligini tushuntiring, ularning farqi nimada ?
3. Gazlarning siqish jarayonlarini T-s diagramma orqali tavsiflab bering.
4. Gazlarning siqish jarayonlarini p-v diagramma orqali tavsiflab bering.
5. Gazlarni siqish jarayonlarida, jumladan kompressorda siqishda bajarilgan ish qanday aniqlanadi ?
6. Porshenli kompressorlar: tuzilishi, ishlash prinsipi, turlari, kamchiliklari va afzalliklarini tavsiflab bering.
7. Rotatsion kompressorlar: tuzilishi, ishlash prinsipi, turlari, kamchiliklari va afzalliklarini tavsiflab bering.
8. Plastina rotorli kompressorlar: tuzilishi, ishlash prinsipi, turlari, kamchiliklari va afzalliklarini tavsiflab bering.
9. Spiral' kompressorlar: tuzilishi, ishlash prinsipi, turlari, kamchiliklari va afzalliklarini tavsiflab bering.
10. Dumalovchi rotorli kompressorlar: tuzilishi, ishlash prinsipi, turlari, kamchiliklari va afzalliklarini tavsiflab bering.
11. Vintli kompressorlar: tuzilishi, ishlash prinsipi, turlari, kamchiliklari va afzalliklarini tavsiflab bering.
12. Turli xildagi kompressorlarni qiyoslang va konkret amaliyotdagи sharoitlarda (ya'ni chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash sohasi korxonaları sharoitlarida)sovutish texnikasida qaysi turdagı kompressor qo'llanilishi maqsadga muvofiq ekanligini asoslab bering.

### **6. Sovutish mashinalarida issiqlik almashinuv jarayonlari va qurilmalari**

#### **Tayanch iboralar:**

*Issiqlik almashinuv jarayoni, issiqlik almashinuv qurilmasi, plastinali, qirrali, g'ilofli, maxsus issiqlik almashinuv qurilmalari, bug'latgich, kondensator, sovutgich, havo sovutgich, suyuqlikli sovutgich, truba qobiqli kondensator va bug'latgich, bug'latkichli kondensator, kompressor - kondensator agregati.*

**Issiqlik almashinuv jarayonlari va qurilmalari to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlar.** Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi jarayonlarida issiqlik almashinuvi jarayonlari keng qo‘llaniladi. Ko‘pchilik asosiy hollarda issiqlik almashinuvi jarayonlari qizdirgichlar, sovutgichlar, qozonlar, qaynatgichlar, bug‘-latgichlar, kondensatorlar va shu kabilar vazifasini bajaruvchi apparatlar yordamida amalga oshiriladi. Issiqlik almashinuv jarayonlari rektifikatsiya, sorbtsiya va desorbtsiya, bug‘latish, ekstraktsiya va boshqa qurilmalar ishining asosida yotadi.

Issiqlik almashinuvi deb har xil haroratli jismlar o‘rtasida issiqlikning o‘z-o‘zidan bir jismdan boshqasiga o‘tishiga aytiladi. Issiqlik almashinuvida issiqlik bir jismdan boshqasiga issiqlik o‘tkazuvchilik, konvektsiya va issiqlik nurlanishi bilan uzatilishi mumkin. Issiqlik uzatishning qayd etilgan bu uch turi bir-biridan prinsipial farq qilib, ularning har qaysisi alohida mavjud bo‘lishi, va xuddi shuningdek ularning barchasi bir vaqtning o‘zida sodir bo‘lishi mumkin. Issiqlik almashinuv tushunchasini va unda issiqlik uzatish turlarini yaqqol namoyish qiluvchi chizma 36-rasmda ko‘rsatilgan. Yuqorida ta‘kidlanganidek, issiqlik uzatish turlari bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lishi mumkin va bu hol 36-rasmda o‘z ifodasini topgan.

Issiqlik almashinuv qurilmalarini hisoblashda *issiqlik uzatishning asosiy tenglamasi* deb ataluvchi kinetik tenglama keng qo‘llaniladi.

Ushbu tenglama quyidagi ko‘rinishga ega:  $Q = KF\Delta t_{o,r}\tau$ , (6.1)

bu yerda  $Q$  – issiqlik oqimi, ya’ni bir jismdan ikkinchisiga uzatilgan issiqlik miqdori, J;

$K$  – issiqlik uzatish tezligini xarakterlovchi kinetik koefitsiyent, ya’ni issiqlik uzatish koefitsiyenti,  $Vt/m^2 \cdot \text{grad}$  ( $Vt/m^2 \cdot K$ );

$F$  – issiqlik uzatilayotgan yuza,  $m^2$ ;

$\Delta t_{o,r}$  – issiqlik uzatish yuzasi bo‘ylab o‘rtacha harakatlantiruvchi kuch, ya’ni issiqlik berayotgan va issiqlik o‘tayotgan jism-larning haroratlari orasidagi farq (o‘rtacha harorat napori),  $^{\circ}C$ , K;


$\tau$  – issiqlik uzatish davomiyligi (vaqt), s (soniya).

Uzluksiz kechadigan issiqlik uzatish jarayonlari (statsionar jarayonlar) uchun (6.1) formula oddiyroq ko‘rinishni egallaydi, ya’ni

$$Q = KF\Delta t_{o,r}\tau. \quad (6.2)$$

Bu yerda  $Q$  Vattlarda o‘lchanadi. Ta‘kidlab o‘tish lozimki, fanda o‘rganilayotgan sovutish jihozlari va uskunalarining hisoblashlarida

issiqlik uzatish jarayonlari muayyan shartlashlarga asoslanib, uzlusiz kechadigan – statsionar jarayonlar deb qaraladi. Shunga mos ravishda hisoblashlarda (6.2) formula qo'llaniladi.



*36-rasm. Issiqlik almashtinuvi tushunchasi va issiqlik uzatish turlari tasnifiga doir. Bu yerda: convection – konvektsiya (inglizcha); conduction – konduksiya, ya'ni issiqlik o'tkazuvchanlik (ingl.); radiation – radiatsiya, ya'ni issiqlik nurlanishi (ingl.)*

Issiqlik almashinuvi jarayonlari issiqlik tashuvchilar yordamida amalga oshiriladi, ular manbaning issiqligini o'zida to'playdi va uni issiqlik almashinish apparatlariga beradi. Issiqlik tashuvchi moddalar cheklangan harorat oralig'iga ega, ya'ni ularning har biridan muayyan sharoitlarda, aniq belgilangan harorat diapazonlarida foydalanish mumkin.

Issiqlik tashuvchilarni tanlashda ularning narxi, xavfsiz ishslash imkoniyati, ular ta'minlaydigan issiqlik almashinuvining intensivligi, korroziyaga chidamliligi va boshqa omillar hisobga olinadi. Asosiy issiqlik tashuvchilar bu – suv, bug' va tutun gazlaridan iborat; ba'zi hollarda bu maqsadlar uchun yuqori haroratlarda qaynaydigan suyuqliklar, erigan tuzlar, metallar va boshqa moddalar ishlatiladi. Ba'zi jarayonlar elektr toki bilan qizdirishdan foydalanish hisobiga amalga oshiriladi.

Issiq suv  $100^{\circ}\text{C}$  ga qadar isitish uchun ishlatiladi. O'ta qizdirilgan bug'  $200^{\circ}\text{C}$  va undan yuqori haroratni osongina ta'minlaydi, ammo bu harorat taxminan  $0,2 \text{ MPa}$  bug' bosimida erishiladi, ya'ni bu xavfsizlikka bo'lgan talablarni orttiradi.  $400^{\circ}\text{C}$  ga qadar qizdirish kerak bo'lganda, yuqori qaynovchi suyuqliklardan foydalanish mumkin. Bundan ham ko'proq isitish ( $550^{\circ}\text{C}$  gacha) eritilgan tuzlar bilan ta'minlanadi, ammo ulardan foydalanish uskunaning yuqori zichligini va ikkinchi tomondan uskunani inert gaz bilan himoya qilishni talab

qiladi. Eritilgan metallar va qotishmalar 300 – 800°C haroratlarda ishlatalishi mumkin. Issiqlik tashuvchilar sifatida litiy, natriy, kaliy, simob, qo'rg'oshin va bir qator qotishmalar ishlataladi. Eritilgan metallardan, shuningdek, eritilgan tuzlardan foydalanish maxsus, inert gaz vositasida himoyalangan va sinchkovlik bilan germetik yopilgan uskunalarini talab qiladi. Ular asosan atom elektr stansiyalarida ishlaydigan issiqlik almashtirgichlarda qo'llaniladi.

Issiqlik almashinuv jarayonlarining muhimligi shundaki, qizdirishdan tashqari, ulardan ko'pincha sovutishda foydalanadi. Eng birinchi va oddiy sovutish agentlari suv va havodir. Suv 4°C dan past bo'limgan haroratgacha (artezian suvi) sovutish va muz 0°C gacha sovutish imkonini beradi. Pastroq harorat muz va tuzlarning aralashmalari bilan ta'minlanadi. Biroq, chорvachilik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida past haroratlarni yaratish uchun turli xil freonlardan foydalangan holda ishlaydigan sovutish mashinalari qo'llaniladi. Chuqurroq kriogen sovutish suyuq gazlar yordamida amalga oshiriladi, xususan, suyuq azot –193°C haroratgacha sovutish imkonini beradi.

**Issiqlik almashinuv qurilmalarining vazifasi va konstruktiv xususiyatlariiga ko'ra turlanishi.** *Issiqlik almashinuv apparatlari* deyilganida ikki yoki undan ortiq muhit o'rtasida issiqlik almashinuvi sodir bo'ladigan har qanday qurilmalar tushuniladi. Ular isitgichlar, bug'latgichlar, kondensatorlar, bug' qozonlari, qaynatgichlar, skrubberlar va boshqalardir. Ishlash prinsipiqa ko'ra, sirtli, aralashtirish va regenerativ issiqlik almashinuv apparatlari farqlanadi. Eng keng tarqalgani sirtli issiqlik almashinuv apparatlari bo'lib, ularda issiqlik apparat devori orqali uzatiladi. Bunday apparatlar qatoriga qobiq trubali, sug'oruvchi, botirilgan ilonsimon trubali, plastinali, spiral' ko'rinishdagi, qobirg'ali, blokli, shnekli issiqlik almashinish apparatlari, shuningdek, ko'ylakli issiqlik almashtirgichlar kiradi.

Issiqlik almashinish qurilmalari ishchi muhitining turiga ko'ra gaz, bug'-gaz, gaz-suyuqlik, bug', bug'-suyuqlik, suyuqlik-suyuqlik qurilmalariga bo'linadi. Issiqlik almashinish qurilmalari va muhitlarning yo'nalishiga qarab ham ular klassifikatsiyalanadi. Bunday belgiga ko'ra to'g'ri yo'nalishli, qarama-qarshi va bir-birini kesib o'tuvchi yo'nalishli qurilmalar farqlanadi.

**Issiqlik almashtirgichlar, bug'latgichlar, sovutgichlar va kondensatorlar.** Sovutish mashinasining asosiy issiqlik almashinuv qurilmalari qatoriga kondensatorlar, suyuq muhitlarni sovituvchi bug'-latgichlar va kamera sovitish jihozlari (kamera batareyalari va havo sovutgichlar), shuningdek bug'latgichdan kompressorga yo'naltirilgan sovitish agentini qo'shimcha ravishda isitish uchun mo'ljallangan issiqlik almashtirgichlar kiradi.

Issiqlik almashinuv qurilmalariga quyidagi talablar qo'yiladi: issiqlik uzatishning jadalligi, issiqlik oqimi birligiga to'g'ri keluvchi metall sarfining ozligi, konstruktsiyasining sodda va ixchamligi, ishlatishda xavfsizligi va qulayligi, apparatni iflosliklardan tozalashning osonligi, tashish va o'matishning qulayligi, arzonligi.


**Kondensatorlar, vazifasi va turlari.** Kondensator issiqlik almashinuv qurilmasi bo'lib, unda sovitish agentining bug'laridan atrof-muhit (havo yoki SUV) vositasida issiqlik olinishi natijasida sovish va kondensatsiyalanish jarayonlari amalga oshiriladi. Sovituvchi muhit turiga ko'ra : havo bilan (qovurg'a - zmeyevikli va list trubali, havo erkin va majburiy harakatlanadigan), SUV bilan (gorizontal va vertikal qobiq-trubali, qobiq-zmeevikli) va SUV - havo bilan (sug'orish va bug'latuvchi) kondensatorlar mavjud.

SUV bilan sovitiluvchi kondensatorlarda issiqlik almashinish jadal boradi, ular ixcham konstruktsiyali qilib yasalgan. Havo bilan sovitiluvchi kondensatorlarni o'matish, ishlatish sodda, oson va SUV iqtisod qilinadi.


*Havo bilan sovitish* havo harakatlanishining tavsifiga ko'ra tabiiy va majburiy bo'lishi mumkin. Havoning tabiiy harakatlanish usulidagi kondensator vertikal joylashgan po'lat yoki mis qovurg'ali trubalardan iborat bo'ladi. Bunday kondensatorlar uy-ro'zg'or elektrik-sovitish mashinalarida ishlatiladi (37-rasm). 38-rasmda esa ushu aggregatning sxemasi ko'rsatilgan. Unda bu aggregatning qaysi qismida sovitish agenti jismi qanday fizikaviy holatda bo'lishi ham 1 dan 4 gacha bo'lgan raqamlar vositasida ko'rsatib berilgan. Bu sxemadan ko'rinish turibdiki, bug'latgichdan farqli ravishda kondensator trubalari ichida yuqori bosimli sovitish agenti bug'lari yoki suyuqligi harakatlanadi.

Ko'pgina sovitish mashinalarining havoli kondensatorlarida havoning majburiy harakati amalga oshiriladi. Bunday kondensatorlarning (39-rasm) trubalari to'g'ri yoki ilonsimon (zmeyevik) shaklda bo'lishi

mumkin. Kondensatorning issiqlik almashinish yuzasini tashqi qovurg‘alangan trubalar tashkil etadi. Qovurg‘alar dumaloq yoki spirall , hamda to‘g‘ri burchakli plastinalardan iborat bo‘lishi mumkin. Spiral va tekis plastinali qovurg‘alangan sirt yuzasining trubalar yuzasiga nisbati – qovurg‘alanish darajasi deb atalib, bu ko‘rsatkich 20 ga yetishi mumkin. Truba va qovurg‘a po‘lat, alyuminiy, mis va latundan tayyorlanishi mumkin. Qovurg‘alar nakatka (g‘urralash) yoki kavsharlash yo‘li bilan tayyorlanishi mumkin. Zanglashni kamaytirish maqsadida po‘lat truba va ularning qovurg‘alari rux bilan qoplanadi. Qovurg‘alarni trubalar bilan yaxlit qilib yoki alohida tayyorlab, so‘ngra truba yuzasiga zinch qilib o‘rnatish mumkin. Qovurg‘alar o‘rnatilganda ular bilan truba devori orasida tirkishlar qolmasligi zarur, aks holda ularning tutashuv joyida katta termik qarshilik paydo bo‘ladi.



37-rasm. Uy-ro‘zg‘or sovutish mashinasi kompressor – kondensator aggregatining tashqi ko‘rinishi




- 1 —— Sovutish agentining yuqori bosimli bug‘lari
- 2 —— Yuqori bosimli suyuq sovutish agenti
- 3 —— Past bosimli bug‘ – suyuqlik aralashmasi
- 4 —— Sovutish agentining past bosimli bug‘lari

38-rasm. Sovutish mashinasi kompressor – kondensator aggregatining va unda sovutish agentining harakatlanishi sxemasi

Majburiy havo harakatlanishi bilan sovutiladigan kondensatorlar (39-rasm) 2 asosiy qismdan iborat: issiqlik almashinuv sektsiyasi va ventilyator – diffuzor sektsiyasi . Bunday kondensatorlarda issiqlik al-almashinuvi jadal kechadi , lekin ventilyator shovqinni keltirib

chiqaradi .




*39 – rasm . Majburiy havo harakatli kondensatorlar*

*Suv bilan sovitiluvchi kondensatorlar* qobiq trubali, qobiq zmelevikli va ikki trubali bo‘ladi. Bunday kondensatorlar ancha ixcham, lekin ularda metall sarfi yuqori. Suv bilan sovitiluvchi gorizontal qobiq trubali va qobiq zmeyevikli kondensatorlarning  $1 \text{ m}^2$  issiqlik almashi– nish yuzasiga to‘g‘ri keluvchi massa 40 - 45 kg ni tashkil etadi. Ular– ni barcha unumdorlikdagi sovutish mashinalarida ishlatish mumkin.

*Qobiq trubali kondensator* (40-rasm). Ular tsilindrsimon po‘lat qobiq ichiga o‘rnatilgan trubalardan iborat. Truba ichida sovituvchi suv oqadi. Qobiqning ikki chekka tomoniga trubalar to‘ri payvandlangan. To‘rning teshiklariga trubalar qo‘yilib, uchlari razval’tsovka qilingan. To‘rlar to‘sqli qopqoqlar bilan berkitilgan. Qopqoqlar qobiqqa boltlar yordamida qotirilgan. Suv kondensator qopqog‘ining pastki shtutseridan kirib, trubalar ichidan o‘tadi va qopqoqdagi yuqorigi shtutserdan chi-qadi. Suv trubalardan bir nechta yo‘l orqali o‘tadi. Yo‘llar qopqoqdagi to‘sqliar vositasida hosil qilinadi. Yo‘llar suvning harakat tezligini va issiqlik uzatish koeffitsiyentini oshiradi, sovituvchi suv sarfini esa kamaytiradi.

Trubalararo bo‘shliqqa yuqoridan uzatiluvchi sovutish agenti bug‘lari gorizontal suv trubalarining sovuq yuzasi bilan to‘qnashib kondensatsiyalanadi. Hosil bo‘lgan suyuqlik – kondensat qobiqning quyi qismiga tushadi. Suyuq sovutish agenti kondensatordan resiverga yoki bevosita drossel’ rostlash elementiga uzatiladi. Suyuq sovutish

agentining kondensatordagi sathi sath ko'rsatkich yordamida nazorat qilinadi.




40 – rasm . Qobiq trubali kondensator

*Ammiakli sovutish qurilmalari kondensatorining quyi qismiga moy yig‘gich payvandlangan. Undan moy ventil’ orqali chiqariladi. Qobiqning yuqorisiga tashqi tomondan manometr , himoya klapani resiver bilan bug‘ni tenglash uchun shtutser, bug‘-havo aralashmasini havo ajratgichga chiqarish shtutseri o‘rnatalgan. Bug‘-havo aralashmasini havo ajratgichga chiqarish shtutseri ammiak bug‘i kiritiluvchi shtutserdan uzoqroq joyga o‘rnatalidi. (Bug‘ qobiqning bir uchidan be–rilsa, bug‘-havo aralashmasi boshqa uchidan olinadi.) Qopqoqlardan birining yuqori qismida truba ichidagi havoni chiqarish uchun kran bor. Shu qopqoqning pastida esa suvni chiqarib olish uchun kran mavjud. Horizontal qobiq–trubali ammiakli kondensatorlarda suvning harakat tezligining kattaligi (1,5 – 2 m/s) va issiqlik uzatish yuzasidan kondensatning olib ketilishi issiqlik uzatilishining jadallahuviga sabab bo‘ladi.*

*GXFU va GFU da ishlovchi gorizontal kondensatorlar ammiakli kondensatorlardan ichki trubalarning po‘latdan ham, misdan ham tayyorlanishi va trubalarga sovutish agenti yo‘li tomonidan qovurg‘a o‘rnatalishi bilan farqlanadi.*


*Ikki trubali kondensatorlarda (41–rasm) sovutish agenti bug‘lari trubalar orasidagi bo‘shliqqa kelib tushadi va pastga harakatlanib soviydi. Suv sovutish agentiga qarama–qarshi yo‘nalishda trubalar ichida harakatlanadi.*



41 – rasm .  
Illi trubali  
konden-  
sator

Sovitayotgan suv miqdorini kamaytirishga zarurat tug'iladigan bo'lsa, bug'latkichli kondensatorlar ishlataladi (42-rasm). Bu kondensatorlarda sovutish agenti harakatlanuvchi zmeyeviklar zich holda qobiq ichida joylashgan. Zmeyeviklar (5) suv bilan sug'oriladi. Suv harakatiga qarama-qarshi yo'nalishda havo ventilyator (1) vositasida haydaladi. Havo purkalishi tufayli suv jadal bug'lanib, harorati ko'tarilmaydi, chunki suv o'z issiqligini havoga berishi hisobiga sovib turadi. Shuning uchun qobiqning pastki qismiga (taglikka) to'kiluvchi suv yana nasos vositasida kondensator zmeyeviklarini sug'orish uchun purkash qurilmasiga uzatiladi. Suvning bir qismi kondensatorda bug'lanadi, boshqa qismini havo olib ketadi. Suvning olib ketilishini kamaytirish uchun kondensatorga tomchi tutgich o'rnatilgan . Toza

suv sarfi tsirkulyasiya qili-nuvchi suvning 3% ni tashkil etadi. Sathni saqlash ventili orqali taglik vannaga toza suv kiritilib, undagi suv sathi o'zgartirilmay saqlab turiladi.



42 – rasm . Bug'latkichli kondensator : 1 – ventilyator; 2 – qiya plastinalari; 3 – tashqi issiqlik izolyatsiyasi; 4 – forkondensator; 5 – asosiy kondensator (zmeyeviklar); 6 , 7 – taglik vanna; 8 – to'kish trubasi; 9 – sochuvcchi truba; 10 – suv nasosi; 11 – havo kirishi .



**Bug'latgichlar, vazifasi va turlari .** *Bug'latgichlar* – sovutilayotgan muhitdan issiqlik qabul qilish hisobiga qaynovchi sovutish agentlari uchun mo'ljallangan issiqlik almashinuv apparatlaridir. Sovitiluvchi muhitning tavsifiga ko'ra bug'latgichlar quyidagi turlarga bo'linadi: suyuq sovuqlik tashuvchilarni – suv, namakob yoki boshqa muzlamaydigan suyuqliklarni sovutish uchun mo'ljallangan bug'latgichlar va kamera havosini bevosita sovutish uchun batareyalar (havo erkin harakatlanuvchi) hamda havo sovitgichlari (havo majburiy harakatlanuvchi).

Sovuqlik tashuvchi modda bilan to'ldirilish darajasiga ko'ra bug'latgichlar quyidagi turlarga bo'linadi: sovuqlik tashuvchi moddanning ma'lum bir sathi ushlab turiluvchi "cho'ktirilgan bug'latgichlar" va bunday sath mavjud bo'lmagan "cho'ktirilmagan" yoki "quruq" bug'latgichlar. Bunday bug'latgichlar ko'pchilik hollarda kriogen texnikasi uskuna va jihozlarida qo'llaniladi.

Bug'latgichdagi sovutish agenti sovitiluvchi muhitdan issiqliknini issiqlik almashinuv yuzasi orqali qabul qiladi. Bug'latgichdagi issiqlik uzatish jadalligi issiqlik almashinish jadalligiga, hamda yuzaning termik qarshiligidagi bog'liq. Havo tabiiy aylanuvchi kamera batareyalarining issiqlik uzatish koeffitsiyenti kichik bo'lganligi tufayli, ular borgan sari kam qo'llanilmoqda. Eski modeldagi batareyalar siliq trubalar bilan ta'minlangan. Hozir asosan qovurg'a trubali bug'latgichlar ishlatilmoqda. 43– va 44–rasmlarda havoning tabiiy sirkulyatsiyasiga asoslangan kamera batareyalarining ikki xili misol tariqasida ko'rsatilgan.

Bunda 43–rasmdan ko'rinish turibdiki, bug'latgich batareyalarida ham sovutish agenti harakatlanuvchi trubalar kondensatorlardagi singari misdan yasalgan bo'lishi mumkin.


Ventilyator yordamida havoni majburiy aylantirishga o'tilganida bug'latgichning unumдорлиги keskin ortadi. Havo tezligining ortishi bilan, havo va bug'latgich trubalari o'rtasidagi issiqlik almashinuvini ham jadallahshadi, shu sababli bunday apparat tabiiy havo batareyasiga nisbatan yasalishiga ko'ra kompakt bo'ladi. Jadal havo sovutishni amalga oshiruvchi bunday bug'latgichlar havo sovitgichlari deb ataladi (45–rasm).



44 -- rasm. Devorda o'rnatiladigan  
bulg'atgich batareyasi

43 – rasm. Polda o'rnatiladigan bug'latgich batareyasi


Konstruktiv ko'rinishiga ko'ra havosovutgichlari ularning bajaradigan vazifasiga qarab yasaladi va qo'llaniladi, bundan maqsad mahsulotlarni to'g'ri sovutish va muzlatishdan iboratdir. Sovutish tizimlaridagi havosovutgichlari shipga o'rnatiladigan va polga o'rnatiladigan bo'lishi mumkin. 45-rasmda polga o'rnatiladigan havosovutgichi ko'rsatilgan.



45-rasm. Havosovutgich: 1 – bug' kollektori, 2 – suyuqlik kollektorining trubalari, 3 – suyuqlik kollektori, 4 – issiqlik almashinish sektsiyasi, 5 – bug'latgich trubalari

Shipga o'rnatiladigan havosovutgichlari kub ko'rinishdagi, yassi ko'rinishdagi va ikki oqimli sovutgichlarga bo'linadi. 46-rasmda shipga o'rnatiladigan kub ko'rinishdagi havosovutgichlari ko'rsatilgan. Kub ko'rinishidagi havosovutgichlari polga o'rnatiladigan variantda ham ishlab chiqariladi. 47-rasmida ana shunday havosovutgich ko'rsatilgan. Havosovutgichlarning boshqa variantlari 48-rasmda keltirilgan. Bunda ikki oqimli havosovutgichi 48-rasm (e) da ko'rsatilgan. 48-rasm (f) da esa glikolli havosovutgichi keltirilgan. Hozirgi vaqtida kub ko'rinishidagi havosovutgichlari juda ko'p tarqalgan va keng ishlatilmoqda. Buning sababi ularning yuqori ko'rsatkichlari

va optimal narxlaridir. Bunday havo sovutgichlari har qanday o'l-chamli sovutish kameralarida qo'llanilmoqda va ularda talab etilgan mikroiqlimni yaratmoqda.




46 – rasm. Shipga o'rnatiladigan kub ko'rinishdagi havo sovutgichlari : a – chorvachilik mahsulotlarini saqlash kameralari uchun ; b – meva-sabzavotlar saqlanadigan kameralar uchun

*Suyuq sovuqlik tashuvchi modda (rassol) larni sovituvchi bug'*




47 – rasm . Polga o'rnatiladigan kub ko'rinishdagi havo sovutgichlari : c – shok-frosterlar (mahsulotlarni muzlatish uchun) ; d – past haroratli (- 80 °C gacha) havo sovutgichlar



48 – rasm . Shipga o'rnatiladigan kub ko'rinishdagi : e – ikki oqimli havo sovutgichi ; f – glikolli havo sovutgichlari .


*latgichlar*. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, sovuqlik tashuvchilar deb sovitilayotgan muhit (sovutish kamerasi havosi va mahsulotlar) dan bug'latgichdagi sovutish agentiga issiqlik uzatuvchi suyuqliklar tu-shuniladi. Sovuqlik tashuvchining to'ldirilishiga ko'ra ochiq va yopiq turdagи bug'latgichlar mavjud. Ochiq turdagи bug'latgichlarda namakob havo bilan tutashadi, kontaktda bo'ladi. Ochiq turdagи bug'latgichdan namakob nasos bilan so'rilib, bosim ostida kamera bata-reyalariga (yoki havo sovitgichlarga) uzatiladi, ulardan yana bug'latgichlarga keladi. Bu turdagи bug'latgichlarga panelli apparatlar misol bo'ladi.

Yopiq turdag'i bug'latgichlarda sovuqlik tashuvchi modda havo bilan tutashmaydi, kontaktda bo'lmaydi. Suyuqlik bug'latgichga nasos yordamida uzatiladi. Bug'latgichlardan sovutilgan suyuqlik kameralardagi sovutish jihozlariga boradi. Bu turdag'i bug'latgichlarga *qobiq trubali*, *qobiq-zmeyevikli* va *zmeyevikli* apparatlar kiradi. Sovuqlik tashuvchi moddalar past muzlash haroratiga, katta issiqlik sig'imiga ega bo'lishi, hamda xavfsiz, zararsiz, arzon bo'lishi talab etiladi. Eng keng tarqalgan va arzon sovuqlik tashuvchi modda albatta suvdir. Suv katta issiqlik sig'imiga ega, lekin uning muzlash harorati ancha yuqori. Shuning uchun uni sovutiladigan muhit harorati 0°C dan yuqori bo'lgandagina ishlatish mumkin. Bunday bug'latgichlarda (49-rasm) sovutilayotgan suv trubalar orasidagi bo'shilqqa uzatiladi, sovutish agenti esa trubalar ichida qaynaydi.



49 — rasm. *Suvni*  
*sovutishga mo'jal-*  
*langan bug'latgich*

**Bug'latgichlarning maxsus quvurlari.** Bug'latgichlarda issiqlik almashinishni jadallashtirish uchun trubalar maxsus shakllarda tayyorlanadi. Bunday shakllarda (50–rasm) oqim harakati uyurma holatiga keltirilganligi tufayli issiqlik berish koeffitsiyenti ( $\alpha$ ) ortadi.  $0^{\circ}\text{C}$  dan past haroratlarda sovuqlik tashuvchi modda sifatida tuzlarning suvdagi eritmalari (namakoblar) ishlatalidi. Eng keng tarqalgan namakoblar natriy xlor (osh tuzi)  $\text{NaCl}$  va kal'tsiy xlordin  $\text{CaCl}_2$ .



50 – rasm . Bug'latgichlarning maxsus trubalari

### *Nazorat savollari*

1. Issiqlik almashinuv jarayonlari qanday qurilmalar ishining asosida yotadi ?
2. Issiqlik almashinuv jarayonlari deyilganida nimani tishunasiz ?
3. Issiqlik tashuvchi moddalarga qanday talablar qo'yiladi ?
4. Turli issiqlik tashuvchi va sovuqlik tashuvchi moddalarni tavsiflab bering , ularning qo'llanilish sohalarini aytib bering .
5. Sovutish uskuna va jihozlarining issiqlik almashinuv apparatlariga nimalar kiradi ?
6. Kondensatorlarning vazifasi va turlanishini aytib bering .
7. Havoning tabiiy harakatlanish usulidagi kondensatorlarning tuzilishi , ishlash prinsipi , qo'llanilishi , afzalliklari va kamchiliklari .
8. Majburiy havo harakatlanishi bilan sovutiladigan kondensatorlarning tuzilishi , ishlash prinsipi , qo'llanilishi , afzalliklari va kamchiliklari .
9. Qobiq trubali kondensatorning tuzilishi va ishlash prinsipini tushuntirib bering .
10. Ikki trubali kondensatorning tuzilishi va ishlash prinsipini tushuntirib bering .
11. Bug'latkichli kondensatorlar qanday maqsadda ishlatiladi , ularning tuzilishi va ishlash prinsipi qanday ?
12. Bug'latgichlarning vazifasi va turlanishini aytib bering .
13. Bug'latgich batareyasi nima , qanday tuzilishga ega va uning qo'llanilish sohasi ?
14. Havo sovutgichlarining vazifasi , turlanishi , afzalliklari va kamchiliklarini aytib bering .
15. Suyuq sovuqlik tashuvchi (rassol) larni sovituvchi bug'latgichlarning tuzilishi va ishlash prinsipini tushuntirib bering .

## 7. Sovutish mashinalarida yordamchi jarayonlar va qurilmalar

### Tayanch iboralar :

Drossel'-rostlash elementi, qurilmasi, termorostlovchi ventil (TRV), resiver, filtr, kapillyar naycha, drossellash jarayoni, sovutish agenti kondensati, bug' filtri, moy filtri, filtr – quritkich .

Drossel'-rostlash qurilmalarining vazifasi va xususiyatlari, termorostlovchi ventil (TRV), uning o'rnatilishi. Sovutish uskuna, jihozlari va mashinalarda sovutish agentining qaynashi, bug'lanishi, siqilishi va kondensatsiyalanishi jarayonlari bilan bir qatorda asosiy jarayonlardan biri bu sovutish agenti – sovuqlik tashuvchi moddaning drossellanishi jarayonidir. Bu jarayon kondensatsiyalanish va qaynash jarayonlari o'rtasidagi oraliq holatni egallaydi. Drossellanishda yuqori  $p_k$  bosimli va yuqori  $t_k$  haroratli suyuq sovutish agenti past  $p_\theta$  bosimli va past  $t_\theta$  haroratli qisman bug'–suyuqlik aralashmasi holatidagi modda ko'rinishiga keladi. Drossellanish jarayonida ajralayotgan issiqlik hisobiga sovutish agenti qisman bug'lanadi va quruqlilik dara-jasi  $x = 0,05 \dots 0,1$  bo'lgan bug'–suyuqlik aralashmasi holatiga keladi.


Drossellanish jarayoni termodinamik tavsifiga ko'ra adiabatik jarayonga yaqin bo'lgan holatni egallaydi va bunda sovutish agentining ental'piyasi o'zgarmas bo'lib qoladi, ya'ni  $i = \text{const}$  sharoitida jarayon kechadi. Bu jarayondan chiqqan sovutish agentining bug'–suyuqlik aralashmasi bug'latgichga o'tadi va unda sovutilayotgan muhitdan olinayotgan issiqlik hisobiga qaynab, dastlab nam to'yangan bug' holatiga, keyin quruq to'yangan bug' holatiga va oxirida esa ozgina o'ta qizdirilgan bug' holatiga keladi. Drossellanish jarayonining amalga oshirilishi uchun sovutgich mashinalari drossel'-rostlash qurilmalari bilan ta'minlanadi. Shunday qilib, drossel'-rostlash qurilmalari sovutgich mashinalarining yuqori bosimli va past bosimli sohalarini ajratib turuvchi elementlaridan biri hisoblanadi.

Drossel'-rostlash qurilmalarining asosiy vazifasi sovutish masinasining yuqori va past bosim sohalari orasida yetarlicha bosimlar farqini ta'minlab berishdir. Bunga erishishning eng oddiy usuli – bug'latgich va kondensator orasiga kapillyar naycha (51-rasm) o'rnatishdir. Kapillyar naychaning kondensatorga ulangan uchi orqali uning ichiga kondensatoridan sovutish agentining yuqori bo'simli suyuqligi yoki ozgina bug'li aralashmasi kelib kiradi. Kapillyar naychadan o'tishda sovutish agenti drossellanadi, yoki boshqacha

aytilganda eziladi. Oqibatda sovutish agentining bosimi (va mos ravishda harorati) pasayib, past bosim sohasidagi darajasigacha tushadi. Kapillyar naychadan chiqishda sovutish agentining tezligi va hajmi ortadi. Bunda ajraladigan issiqlik hisobiga sovutish agenti suyuqligining ozgina qismi bug'ga aylanadi, shuning uchun drossellanish jaryonidan sovutish agenti quruqlilik darajasi ozgina ortgan holda chiqadi. Lekin kapillyar naycha katta sovuqlik unumdorligiga ega bo'lgan mashinalarda drossellanish jarayonining normal tarzda kechishini ta'minlay olmaydi. Shu sababli kapillyar naychalar faqat uy-ro'zg'or va kichik savdo-maishiy sovutgich hamda muzlatgichlarida qo'llaniladi, chunki ular katta mashinalarda bug'latgichga yuboriladigan suyuqlik miqdorini rostlay olmaydi.


Bu vazifani faqat termorostlovchi ventil' (TRV) uddalashi mumkin. TRV turli konstruktsiyalarining umumiyo ko'rinishi 52-rasm (a) va (b) larda ko'rsatilgan, 52-rasm (d) da esa TRV ning qirqimdagagi ko'rinishi keltirilgan. 53-rasmida TRV ning tuzilishi sxematik tasvirlangan. TRV maxsus ventil' bo'lib, kapillyar naycha va sovutish agenti bug'lari bilan to'ldirilgan termoballondan tashkil topgan. Ventil' korpusi ichida tor kesimli klapanli qism o'rnatilgan bo'lib, u sistemada aylanayotgan sovutish agentini drossellash va bug'latgichdagi freon hajmini rostlash (sozlash) imkonini beradi. Shuning uchun ventil' shtutser yordamida kondensator tomoniga, ya'ni suyuqlik liniyasiga ulanadi. Shuningdek TRV korpusi ichida elastik metall membrana ham o'rnatilgan bo'lib, u bosimlar farqining o'zgarishiga sezgirligi hisobiga shtokni siljitim vazifasini bajaradi (53-rasm). Shtok vertikal yo'naliishda pastga siljib, unga biriktirilgan klapan vositasida sovutish agentining yo'lini ochadi va kondensatordan (yoki resiverdan) bug'latgichga suyuq freonning oqib o'tishi ta'minlanadi. O'z navbatida membrananing bukilishi bug'latgichning chiqish trubasiga qotirilgan termoballondan kelayotgan sovutish agenti bug'lari ta'sirida sodir bo'ladi. Shtokning siljish chegarasi va mos ravishda bug'latgichga o'tadigan freon hajmi maxsus vint va rostlovchi prujina yordamida nazorat qilinadi hamda sozlab qo'yiladi. TRV ventilining korpusi va termoballon bir-biriga kapillyar naycha vositasida ulangan. Shunday qilib, termorostlovchi ventil' sovutish agentining bug'latgichga bir me'yorda uzatilishini ta'minlaydi, suyuq sovutish agentini purkab, uning bosimini kondensatsiya bosimi darajasidan qaynash bosimi darajasigacha pasaytiradi.

Latun va misdan foydalanib yasalganligi hisobiga [52–rasm (a), (b), 53–rasm] TRV lar xizmat qilish muddatining kattaligi va korroziyaga chidamliligi bilan tavsiflanadi. Kapillyar naycha va termoballon esa vibratsiyaga chidamliligi bilan ajralib turadi.



51 – rasm. Kapillyar naycha

a



b


52 – rasm. Termorostlovchi ventil' (TRV): a va b – tashqi ko'rinishi;  
d – qirqimda ko'rinishi

Sovutish mashinalarining energiya iqtisodi ko'p jihatdan termo-rostlovchi ventillarining to'g'ri rostlanishiga bog'liq. Bug'latgichga suyuq sovutish agentining ortig'i bilan berilishi kompressorning nam yurishini hosil qilib, gidravlik zARBAGA olib kelishi mumkin. Bug'latgichga suyuq sovutish agentining kam berilishi esa bug'latgich

yuzasining to‘liq ishlamasligiga, mashina normal ish rejimining buzilishiga va qaynash haroratining pasayishiga olib keladi.

TRV ning ochilish darajasi (53– va 54–rasmlarga qarang) termoballondagi gaz hosil qilib, membrananing ustki yuzasiga ta’sir qiladigan  $p_1$  bosimga (bu bosim bug‘latgichdan chiqayotgan sovutish agentining harorati  $t_0$  ga proportional bo‘ladi); qaynash  $p_2$  bosimiga (bu bosim bug‘latgichdagi sovutish agentining bosimi  $p_0$  dan iborat); membranaga pastdan ta’sir qiluvchi prujinaning tortish kuchi  $p_3$  ga (bu kuch kattaligi maxsus vint yordamida sozlanadi) bog‘liq.

Normal holda ishlayotgan qurilmalarda, bug‘latgichdan chiqishdan biroz oldin sovutish agentining qaynashi tugaydi. To‘yingan bug‘, bug‘latgichning qolgan qismini bosib o‘tib, o‘ta qizdirilishi boshlanadi. Shunday qilib, bug‘latgichdagi sovutish agentining harorati termoballon harorati bilan bir xil bo‘ladi. Agar bug‘latgichga kam miqdorda sovutish agenti kelib tushayotgan bo‘lsa, bug‘ ko‘proq qiziydi va bug‘latgichning chiqishdagi trubalari harorati oshib ketadi.





53 – rasm . TRV ning tuzilish sxemasi

Shu sababli bu holda, termoballon harorati ham osha boshlaydi, haroratning jadallik bilan oshishi termoballondagi bug‘ bosimining ham oshishiga olib keladi. Bosim oshishi bilan membrana pastga tusha boshlaydi va ventil’ ochilib, bug‘latgichga ko‘proq suyuqlik kira boshlaydi (54–rasm). Natijada bug‘latgichning harorati pasayadi,

va unga mos ravishda termoballon ham soviydi. Shunday qilib, termoballon harorati pasayishi bilan ventilning ochilish darajasi yana qayta kamayib, bug'latgichda sovutish agentining hajmi keraklicha bo'lishi ta'minlanadi.

Termorostlovchi ventillar 52-rasmida ko'rsatilganidan farq— luvchi boshqa konstruktsiyalarda ham ishlab chiqariladi va albatta, klapanlarning ham boshqa rusumlari bor. Lekin ularning chuqur tushunchasi bilan ushbu o'quv qo'llanmasi doirasida tanishib chiqmaymiz.

**Resiver, uning vazifasi va o'rnatilish joyi.** Resiver kondensat (suyuq sovutish agentini) yig'ish va uning zahirasini hosil etishga mo'ljallangan idishdir. U yuqori bosim tomonida kondensatordan keyin o'rnatiladi. Resiver (55-rasm) TRV va bug'latgichga sovutish agentining bir me'yorda borishini ta'minlash, gidravlik napor (bosim) hosil qilish, hamda kichik mashinalarni ta'mirlash ishlari vaqtida sovutish agentini saqlab turish uchun mo'ljallangan.



Xavfsizlik qoidalariga ko'ra resiverning hajmi bug'latish tizimi (barcha batareya va havo sovutgichlar) hajmining 30% ni tashkil etishi zarur. Bu sovutish agenti jihozzlarga yuqoridan beriluvchi tizim-

larga tegishli bo‘lgan talab. Sovutish agenti pastdan beriluvchi tizimlar uchun esa – 60%. Resiver ishslash vaqtida hajmining 50% igacha suyuqlik bilan to‘ldiriladi.


**Filtrlar, vazifasi va turlari, ularning o‘rnatilish joylari.** Sovutish mashinasining ichki bo‘shliqlari zang, qum va boshqalar bilan ifloslanishi mumkin. Ifloslanishga sabab quyma detallarning zavodda yetarli darajada tozalanmaganligi, o‘rnatish va ta’mirlashdan so‘ng yuzalarning yaxshi yuvilmaganligi, ekspluatatsiya talablarining buzilishi (mexanik aralashmali sovutish agentining quyilganligi, iflos moy quyilganligi) bo‘lishi mumkin. Sovutish mashinasi ishlayotganda mexanik iflosliklarni tutib qolish uchun bug‘ va suyuq sovutish agentlari harakatlanadigan trubalarga filtrlar o‘rnatiladi.

*Bug‘ filtri* so‘rish tomonda kompressordan oldin yoki so‘rish kollektorida o‘rnatilib, kompressor silindri va klapanlarini ishdan chiqishdan asraydi. Bug‘ filtri tsilindrik korpusga o‘rnatilgan filtrlovchi to‘rdan iborat. Ifloslik tutgichning ajraluvchi qopqog‘i bo‘lsa, to‘rni tozalab turish imkonи bo‘ladi. Filtrda bug‘ning harakat yo‘nalishi o‘zgaradi, bu uni iflosliklardan yaxshi tozalashga yordam beradi. Bunday filtr 56-rasmda ko‘rsatilgan.

*Suyuqlik filtri* drossel’–rostlash ventili va boshqa avtomatika asboblaridan oldin, ularni ifloslanib to‘lib qolishidan asrash uchun o‘rnatiladi. Unda filtrlovchi to‘r korpusda joylashgan, pastdan prujina bilan siqib qo‘yilgan. Olib qayta qo‘yiluvchi qopqoq to‘rni tozalashga imkon beradi. Filtrlar moyni tozalash uchun ham qo‘yiladi.

Sovutish qurilmasiga mexanik iflosliklardan tashqari namlik (masalan, havo bilan) kirib qolishi mumkin. Agar sovutish agenti suvda erimasa, 0°C dan past haroratlarda TRV da yoki kapillyar naychada muz paydo bo‘ladi.

GXFU va GFU lar suvda deyarli erimaydi, shuning uchun ularda ishlovchi sovutish mashinalarida drossellash qurilmasini muzlab qolishdan saqlash maqsadida qo‘srimcha *filtr-quritkich* o‘rnatiladi. Quritkichlar qattiq modda (adsorbent) bilan to‘ldiriladi hamda mashinaning suyuqlik trubasida rostlash ventilidan oldin o‘rnatiladi. Namlik yutuvchi qattiq modda sifatida silikagel’, alyumogel’ va tseolitlar ham ishlatiladi.



56 – rasm . Bug‘ filtri



va filtr – quritkich

### **Nazorat savollari :**

1. Drossellinish jarayonining mohiyatini ayтиб bering.
2. Yordamchi qurilmalar : maqsadi, tasnifi, sovutish tizimidagi joylashuvi.
3. Termorostlovchi ventilning ishslash prinsipi, TRV ning sovutgich mashinasida o‘rnatilishi.
4. Resiverning vazifasi , tuzilishi va sovutgich mashinasida o‘rnatilish joyini ko‘rsatib bering.
5. Sovutgich mashinasida filtrlar qanday maqsadda ishlatiladi, filtrlarning qanday turlarini bilasiz ?
6. Bug‘ filtri va suyuqlik filtrining tuzilishi hamda ishslash prinsipi bir–biridan qanday farq qiladi ?
7. Filtr – quritkichning vazifasi , tuzilishi va ishslash prinsipini tushuntirib bering .
8. TRV ning rasmini chizing va tuzilishini ayтиб bering.

### **8. Bug‘ – kompressorli sovutish mashinasini hisoblash asoslari**

#### **Tayanch iboralar:**

*Bug‘-kompressorli sovutgich, nazariy sikl, teskari Karko sikli, izoterm, adiabata, T – s , p – v diagrammalari, ichki energiya, bajarilgan ish, termodinamik f. i. k., sovutish koefitsiyenti, kompressor quvvati , issiqlik almashinuv yuzasi .*


**Bug‘ – kompressorli sovutish mashinasining nazariy sikli , teskari Karko sikli. Mo‘tadil (o‘rtacha) haroratli sovuqlik olishda bug‘-kompressorli sovutish mashinalari keng qo‘llaniladi. Bunday**

mashinalarda sovutish agenti – sovuqlik tashuvchi modda sifatida past haroratda qaynaydigan suyuqliklar ishlataladi.


*Ideal mashina sikli (nazariy sikl).* Karning teskari sikli bo‘yicha ishlaydigan ideal kompressorli sovutish mashinasida (57-rasm) kompressor I sovuqlik tashuvchi bug‘larini so‘rib, ularni suv bilan sovitganda suyuqlikka aylanishi mumkin bo‘lgan bosim darajasi-gacha siqadi, va shundan keyin kondensator II ga haydaydi.

Bunday mashinaning  $T - s$  diagrammasi 58-rasmida ko‘rsatilgan.  $T - s$  diagrammada bug‘larni adiabatik siqish jarayoni vertikal adiabatik chiziq 1–2 bilan tasvirlangan. Siqish bug‘ haroratining  $T_0$  (1 nuqta) dan T (nuqta 2) gacha ko‘tarilishiga olib keladi. Kondensator II da suyuqlanish jarayoni o‘zgarmas T haroratda borishi uchun, siqish jarayoni suyuqlik – bug‘ muvozanat chizig‘i bilan chegaralangan sohada amalga oshirilishi kerak, mashinada kompressordan chiqayotgan bug‘ quruq to‘yingan holatda P bosimda bo‘ladi.


Kondensator II dagi suyuqlanish (kondensatsiyalanish) jarayoni T haroratda izotermik ravishda boradi (gorizontal 2–3 chizig‘i). Kondensatordan suyuq sovuqlik tashuvchi modda kengaytiruvchi silindrغا keladi (kengaytiruvchi silindrning qo‘llanilishi ideal yoki nazariy siklga tegishlidur). Real siklda esa kengaytiruvchi silindr o‘rniga drossel ventili III ishlataladi (57-rasm, III element). U yerda sovuqlik tashuvchi adiabatik kengayib, qaynash bosimiga to‘g‘ri keladigan  $T_0$  haroratga ega bo‘ladi (3–4 adiabatik chizig‘i). So‘ng suyuq sovuqlik tashuvchi modda bug‘latgich IV da bug‘lanib (qaynab), sovutilayotgan muhit (sovutish kamerasidagi havo va mahsulotlar) dan issiqlikni oladi.  $T_0$  haroratdagi bug‘lanish jarayoni 4–1 izoterma chizig‘i bilan ifodalanadi.



57 – rasm. Bug‘ – kompressorli sovutish mashinasining sxemasi



58 – rasm. Bug‘-kompressorli sovutish mashinasining  $T$  –  $s$  diagrammasi



59 – rasm.  $i$  –  $\lg p$  diagrammada mashinaning nazariy sikli

Bug‘ – kompressorli sovutish mashinasining ikkinchi variantida sovuqlik tashuvchi bug‘latgich IV da bug‘lanib (qaynab), sovutilayotgan namakobdan issiqlikni oladi. Ko‘pincha bunday bilvosita sovutish sxemasi katta sovuqlik unumdorligiga ega bo‘lgan ammiakli sovutish mashinalarida qo‘llaniladi.

To haroratdagi bug‘larni (nuqta 1) kompressor so‘rib oladi va sikl takrorlanadi. Shunday qilib, butun jarayon 2 ta adiabata (1 – 2 va 3 – 4 kesmalar) hamda ikkita izoterma (2 – 3 va 4 – 1 kesmalar) dan iborat.

59 – rasmida  $i$  –  $\lg p$  diagrammada kompressorli sovutish mashinasining ideal sikli ko‘rsatilgan. Bu diagrammada sovuqlik unumdorligi  $Q_0$  va sarflangan ish  $L$ .  $T$  –  $s$  diagrammadagi kabi yuzalar orqali emas, balki to‘g‘ri chiziq kesmalari orqali aniqlanadi. 1 – 2 kesma kompressor I da sovuqlik tashuvchi modda bug‘larining adiabatik siqilishi; 2 – 3 kesma shu bug‘larning kondensator II da izobarik suyuqlanishi; 3 – 4 kesma suyuq sovuqlik tashuvchining kengaytirish silindrida adiabatik kengayishi; 4 – 1 kesma suyuq sovuqlik tashuvchi moddaning bug‘latgich IV da izotermik – izobarik bug‘lanishi.


**Bug‘ – kompressorli sovutish mashinasining haqiqiy sikli , uning  $T$  –  $s$  va  $p$  –  $v$  diagrammalarini .**

**Haqiqiy mashina sikli.** Ideal sovutish mashinasining konstruktiv yasalishi murakkab bo‘lgani uchun kengaytirish silindri drossel’ – rostlovchi ventil’ bilan almashtirilgan. Shunday o‘zgarish hisobiga biz ideal sovutish mashinasi o‘rniga haqiqiy (real) bug‘-kompressorli sovutish mashinasini hosil qilamiz. Bundan tashqari,  $T$  –  $s$  va  $i$  –  $\lg p$  diagrammalaridagi (60 – rasm) sovutish mashinasining haqiqiy ishchi

sikli ideal ishchi sikldan quyidagi 2 ta o‘zgarish bilan farqlanadi: a) sovuqlik tashuvchi modda bug‘larining kompressor tomonidan siqilishi nam bug‘ sohasida emas, balki o‘ta qizdirilgan bug‘ sohasida amalga oshiriladi va shunga mos ravishda kompressor ba‘zan quruq to‘yingan, ba‘zan esa o‘ta qizdirilgan bug‘larni so‘radi; b) kondensatorda suyuqlikka aylangan sovuqlik tashuvchi modda kondensatsiya haroratidan pastroq haroratgacha o‘ta sovutiladi.

Nazariy tomondan qaralganda, quruq to‘yingan bug‘larni siqish energiya sarfining oshishiga olib kelsada, amaliyotda kompressorning «quruq yurishi» foydaliroqdir. Bug‘ quruq to‘yingan holatda so‘riladi (1-nuqta) va berilgan bosimgacha adiabatik siqiladi (2’-nuqta). Bunda kompressor silindri devorlari bilan nam bug‘ orasidagi intensiv issiqlik almashinishiga asoslangan sovuqlik yo‘qotilishi kamayadi. Bundan tashqari, kompressorning «nam yurishida» sovuqlik tashuvchi modda silindr ichida bug‘lanadi, bu esa kompressorning foydali ish hajmining va massaviy uzatish koeffitsiyentining kamayishiga, oxirgi qayd etilgan sabablar esa o‘z navbatida siklning sovuqlik unumдорligi pasayishiga olib keladi.

Kondensatorga kirayotgan sovuqlik tashuvchi moddaning o‘ta qizdirilgan bug‘lari o‘zgarmas bosimda kondensatsiya haroratigacha soviydi (2’-2 izobara chizig‘i), so‘ng ishchi bosim va o‘zgarmas T haroratda kondensatsiyalanadi (2 – 3’ gorizontall, ya’ni izoterma – izobara chizig‘i).



60 – rasm. Bug‘ – kompressorli sovutish mashinasi haqiqiy siklining  
T – s va i – lg p diogrammalardagi ko‘rinishi

Agar sovuqlik tashuvchi modda o'ta sovutilmasa, drossel' ventilidagi uning kengayishini  $3'-4'$  izoental'piya chizig'i orqali ko'rsatish mumkin bo'ladi. Sovuqlik tashuvchi modda  $T$ ' harorat-gacha o'ta sovutilsa, drossellanish jarayoni  $3-4$  izoental'piya chizig'i bo'yab boradi. Natijada siklning sovuqlik unumdorligi ortadi [ $T-s$  diagrammadagi (60-rasm)  $4-4'-5-6-4$  yuzaga teng miqdorda]. Sikl sovuqlik tashuvchi moddaning bug'latgichda  $T_0 = \text{const}$  haroratda qaynashi va bug'lanishi bilan tugaydi ( $4-4'-1$  izoterma – izobarasi).

**Sistemadagi jarayonlarni hisoblash tenglamalari, siklning foydali ish koeffitsiyenti.**  $T - S$  va  $i - lg p$  diagrammalar orqali haqiqiy sovutish siklini tavsiflovchi asosiy kattaliklarni aniqlash mumkin: kompressordagi siqish ishi, kondensatorning issiqlik yuklamasi va sovutish koeffitsiyenti.  $i - lg p$  diagrammada 1 kg sovuqlik tashuvchi modda bug'larini siqish uchun kompressorda sarflangan solishtirma ish quyidagicha ifodalanadi :

$$l = i_2' - i_1 \quad (8.1)$$

bunda :  $i_2'$ ,  $i_1 = 2'$  va 1 nuqtalardagi ental'piyalar.

Kondensatorga tushayotgan solishtirma issiqlik yuklamasi :

$$q = i_2' - i_3 \quad \text{yoki} \quad q = i_2' - i_3' \quad (8.2)$$

bunda :  $i_3$ ,  $i_3'$  – sovuqlik tashuvchining 3 va 3' nuqtalardagi ental'piyasi.

$q$  ning miqdoriga qarab, kondensatorning issiqlik almashinish yuzasi, hamda sovuqlik tashuvchi modda bug'larini kondensatsiyalash uchun kerak bo'lgan suvning sarflanish miqdori aniqlanadi .

Siklning solishtirma sovuqlik unumdorligi  $q_0$  jarayondagi sovuqlik tashuvchi modda ental'piyasining quyidagi o'zgarishiga teng :

$$q_0 = i_1 - i_4 \quad \text{yoki} \quad q_0 = i_1 - i_4' \quad (8.3)$$

bunda :  $i_4$ ,  $i_4'$  – sovuqlik tashuvchi moddaning 4 va 4' nuqtalardagi ental'piyasi.

Haqiqiy sovutish siklining sovutish koeffitsiyenti quyidagicha bo'ladi:  $\epsilon = \frac{q_0}{l} = \frac{(i_1 - i_4)}{(i_2' - i_1)}$   $(8.4)$

$$\text{yoki} \quad \epsilon = \frac{q_0}{l} = \frac{(i_1 - i_4')}{(i_2' - i_1)} \quad (8.5)$$

Sovutish mashinasi tomonidan ta'minlanayotgan sovuqlik unumdorligi shu mashinaning harorat rejimiga bog'liq bo'ladi.

Kompressorli sovutish mashinalarining nominal sovuqlik unumdorligi muayyan bir harorat darajasiga nisbatan olinadi. Xalqaro amaliyotda shunday «standart» yoki «normal» rejim sifatida (bunda

kompressor quruq to‘yingan bug‘larni so‘radi deb qabul qilinadi): bug‘lanish harorati  $t_0 = -15^\circ\text{C}$ , suyuqlanish (kondensatsiya) harorati  $t_k = +30^\circ\text{C}$ , o‘ta sovish harorati  $t_\pi = +25^\circ\text{C}$  qabul qilingan.

Haqiqiy sovutish mashinalarining ishchi sikl diagrammalari 60-rasmdagi mashina diagrammasiga qaraganda ham bir muncha murakkablashgan bo‘ladi. Masalan, suyuq sovuqlik tashuvchi modda kondensatorda o‘ta soviy olmasa, drossel’-ventildan oldin sxemaga qo‘shimcha issiqlik almashinish qurilmasi – o‘ta sovutgichlar o‘rnatalidi. Kompressorning “quruq yurish”ini ta’minalash uchun bug‘latgich va kompressor orasiga suyuqlik ajratgich (filtr – tomchi tutgich) qo‘yilib, sovuqlik tashuvchi modda bug‘idan ajratilgan suyuqlik bug‘latgichga qaytariladi, quruq bug‘ esa kompressorga yo‘naltiriladi.

Sovutish koefitsiyentini sovutish mashinasining foydali ish koefitsiyenti sifatida qabul qilib bo‘lmaydi. Foydali ish koefitsiyenti issiqliknинг ishga aylanishi mumkin bo‘lgan qismini tavsiflaydi, shuning uchun u doim birdan kichik bo‘ladi. Sovutish mashinasida esa sarflanayotgan ish issiqlikka aylanmaydi, balki past haroratli muhitdan yuqori haroratli muhitga issiqliknki o‘tkazish (ko‘tarish) da vositachi vazifasini bajaradi. Shuning uchun ko‘pincha  $q_0$  miqdor ish  $I$  dan katta, natijada  $\varepsilon > 1$ .  $T-s$  diagrammaga (60-rasm) ko‘ra  $T_0$  haroratning pasayishi sarflanayotgan ishning (1–2–2–3–3–4–4–1 yuza) keskin ortishiga olib keladi, natijada olinayotgan sovuqliknинг ham narxi ortadi. Undan tashqari, bu haroratning pasayishi termodinamik foydali ish koefitsiyentining kamayishiga olib keladi. Shu sababli foydali ish koefitsiyenti  $\eta$  haqiqiy siklning sovutish koefitsiyenti  $\varepsilon$  ning Karno sikli sovutish koefitsiyenti  $\varepsilon_k$  ga nisbati bilan aniqlanadi :

$$\eta = \frac{\varepsilon}{\varepsilon_k} \quad (8.6)$$

$\eta$  ning kamayishi haqiqiy jarayonlarda  $T_0$  harorat pasayganda sovuqliknинг qaytmas yo‘qotilishlari ortishi bilan tushuntiriladi.

### *Nazorat savollari :*

1. Nazariy (ideal) sikl bo‘yicha va haqiqiy (real) sikl bo‘yicha ishlovchi bug‘-kompressorli sovutish mashinalarining tuzilishida qanday asosiy farq bor ?
2. Bug‘-kompressorli sovutish mashinalarining nazariy (ideal) sikli va haqiqiy (real) sikli diagrammalarida qanday asosiy farqlar bor ?

3. Bug‘-kompressorli sovutish mashinasining ideal va haqiqiy variantdagi sxemalarini chizing va tushuntirib bering .
4. Bug‘-kompressorli sovutish mashinasining  $T - s$  diagrammasini nazariy (ideal) va haqiqiy (real) sikllar uchun chizing va tushuntirib bering .
5. Bug‘-kompressorli sovutish mashinasining  $i - \lg p$  diagrammasini nazariy (ideal) va haqiqiy (real) sikllar uchun chizing va tushuntirib bering .
6. Kompressorning «quruq yurishi» nima va u nega foydali hisoblanadi ?
7. Sovuqlik tashuvchi modda o‘ta sovitilsa, sovutish mashinasi siklining sovuqlik unumдорлиги qanday o‘zgaradi ?
8. Nega sovutish koeffitsiyentini sovutish mashinasining foydali ish koeffitsiyenti sifatida qabul qilib bo‘lmaydi ?
9.  $T - s$  va  $i - \lg p$  diagrammalar orqali haqiqiy sovutish siklini tavsiflovchi asosiy kattaliklar qanday aniqlanadi ?
10. Xalqaro amaliyotda bug‘-kompressorli sovutish mashinasining «standart» yoki «normal» rejimi sifatida qanday parametrlar qabul qilingan ?

### **III BO'LIM. CHORVACHILIK VA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI SAQLASH UCHUN KAMERALAR VA SOVUTGICHLARNI HISOBBLASH**

#### **9. Sovutish kameralarining yuzasi vasovutgichlarning hajmini hisoblash**

##### ***Tayanch iboralar:***

*Sovutiladigan inshootlar, sanoat sovutgichlarining turlari, mayda, kichik, o'rtacha, yirik, o'ta yirik sovutgichlar, kamera yuzasi, kamera hajmi, issiqlik balansi, Q<sub>1</sub>, Q<sub>2</sub>, Q<sub>3</sub>, Q<sub>4</sub>, Q<sub>5</sub> kiruvchi issiqlik oqimlari.*

**Sovutiladigan inshootlar, ya'ni sanoat sovutgichlari to'g'ri-sidagi umumiy ma'lumotlar.**

*Sovutiladigan inshootlar, ya'ni sanoat sovutgichlari deyilganda maxsus jihozlangan sanoat binolari ko'zda tutiladi. Bunda ular kompressorli sovutgich qurilmalari bilan jihozlangan bo'ladi, va bu qurilmalar bino ichida oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash yoki ishlab chiqarish uchun texnologik me'yorlar bilan talab qilinadigan haro-rat – namlik rejimi amalda bo'lishini ta'minlaydi.*

Sanoat sovutgichlarida havoning past harorati (+4 dan -30°C gacha) va yuqori nisbiy namligi (80 — 95 %) saqlab turiladi. Bunday parametrlarni yaratish va doimiy saqlab turish uchun ular derazasiz qilib yasaladi, tomi, ichki hamda tashqi to'sinlari, eshiklari kuchli is-siqlik izolyatsiyasiga ega bo'ladi, shuningdek bu binolar xonalarni sovutish uchun mo'ljallangan jihozlar va bino asosi (pol osti) dagi tuproqni muzlashdan saqlovchi qurilmalar bilan ta'minlanadi.

*Sanoat sovutgichlarining turlanishi.* Vazifasiga ko'ra bunday sovutgichlar quyidagi turlarga bo'linadi: tayyorlov, ishlab chiqarish, taqsimlovchi, bazaviy, sabzavot va mevalarni saqlash uchun, oziq-ovqat bazalari, portlar, qayta yuklash, chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, aralash turdag'i sanoat sovutgichlari.

*Tayyorlov sanoat sovutgichlari* tez buziluvchi oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlanadigan hududlarda barpo etiladi. Ular tayyor-lanadigan oziq-ovqat mahsulotlarini birlamchi sovuqlik ishlovi berish, qisqa muddatli saqlab, savdo korxonalariga yoki taqsimlovchi hamda boshqa turdag'i sanoat sovutgichlariga yuklab yuborish uchun mo'ljallangandir.

*Ishlab chiqarish sanoat sovutgichlari* oziq-ovqat korxonalari (go'sht kombinatlari, baliq kombinatlari, konserva, sut zavodlari va sh.k.) ning tarkibiy qismidir. Ular ishlab chiqarish texnologik jara-

yonlarini sovuqlik bilan ta'minlashni amalga oshiradi, shu sababli xom ashyo va tayyor mahsulotlarni sovutish, muzlatish va saqlash uchun qo'llaniladi.

*Taqsimlovchi sanoat sovutgichlari* tez buziluvchi xom ashyo va tayyor mahsulotlarning zahiraviy, mavsumiy, joriy hamda sug'urtaviy hajmlarini yaratish, shuningdek ularni uzoq saqlash uchun mo'ljallangan. Bunday zahiralar oziq-ovqat ishlab chiqarish tarmoqlarining to'xtovsiz ishlashiga va aholining yil mobaynida oziq-ovqat mahsulotlari bilan bir tekisda ta'minlanishiga imkoniyat yaratadi.

Taqsimlovchi sanoat sovutgichlari saqlaniladigan yuklarning turlariga ko'ra universal yoki maxsus turdag'i bo'lishi mumkin. Taqsimlovchi sanoat sovutgichlari tarkibiga, ayniqsa ularning sig'imi 7000 dan 20000 tonnagacha bo'lsa, muzqaymoq yoki tez muzlatiladigan oziq-ovqat mahsulotlari (o'rmon mevalari va shunga o'xhashlar), quruq muz va suv muzi, sariyog'ni o'rash – qadoqlash, yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish sexlari kirishi mumkin. Bunday sanoat sovutgichlari sovuqlik kombinatlari (xladokombinat) deb ataladi.

*Bazaviy sanoat sovutgichlari* tez buziluvchi mahsulotlarning zahiralarini (davlat zahiralarini) uzoq muddat saqlash uchun mo'ljalangan. Bunday sanoat sovutgichlari aholi yashaydigan joylardan uzoqda barpo etiladi va ishonchli tarzda himoyalangan bo'ladi.

*Sabzavot va mevalarni saqlash uchun* mo'ljallangan sanoat sovutgichlari mustaqil korxonalar bo'lishi mumkin yoki meva-sabzavot va oziq-ovqat bazalari tarkibiga kirishi mimkin. Ular qishloq joylarida joylashgan bo'ladi va tayyorlovchi korxonalar rolini bajradi, yoki mahsulotlar keng iste'mol qilinadigan joylar (shaharlar, aholi qo'rg'onchalari – posyolok) da joylashtiriladi. Oziq-ovqat bazalarining sanoat sovutgichlari kichik shaharlar savdo tarmog'i korxonalariga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Ularga oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va taqsimlovchi sanoat sovutgichlaridan kelib turadi.

*Portlarning sanoat sovutgichlaridan* suv transportida tashiladigan oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun foydalilaniladi. Ularda oziq-ovqat mahsulotlarini refrijerator suv kemalaridan temir yo'l va avtomobil transportiga qayta yuklash, shuningdek buning teskarisi – temir yo'l va avtomobil transportidan mahsulotlarni refrijeratorli suv kemalariga qayta yuklash amalga oshiriladi. Shu sababli portlarning sanoat sovutgichlari transport – ekspeditsiyaviy guruhga kiritiladi.

*Qayta yuklash sanoat sovutgichlari ham yuklarni bir turdag'i transportdan boshqa turdagisiga, masalan temir yo'l transportidan avtomobil transportiga yoki aksincha uzatishda mahsulotlarni qisqa muddatli saqlash uchun mo'ljallangandir.*

*Chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining sovutgichlari shu korxonalarda bir necha kun mobaynida sotiladigan oziq-ovqat mahsulotlari zahiralarini saqlash uchun mo'ljallangan.*

*Aralash turdag'i sanoat sovutgichlari* bir necha vazifalarni bajaradi. Masalan, yirik shaharlarda ishlab chiqarish va portlar sanoat sovutgichlari bir vaqtning o'zida taqsimlovchi sanoat sovutgichlari vazifasini bajarib borishi mumkin. Bاليqchilik portlaridagi port sanoat sovutgichlari esa baliq kombinatlarining ishlab chiqarish sanoat sovutgichlari vazifasini o'tashi mumkin.

**Sovutish kameralari va sovutgichlarning o'lchamlarini hisoblash.** Sovutish kameralarining yuzasi va sovutgichlarning hajmini hisoblash birinchi navbatda ularning yuk sig'imiga asoslanadi. Shuning uchun bunday hisoblashda yuk sig'imiga ko'rsatkich hisoblanadi. *Sanoat sovutgichlarining yuk sig'imiga ko'ra turlanishi ni ko'rib chiqamiz.* Yuk sig'imiga ko'ra sanoat sovutgichlari mayda (100 t gacha), kichik (300 t gacha), o'rtacha (500 t gacha), yirik (10000 t gacha) va o'ta yirik (10000 t dan yuqori) sovutgichlarga bo'linadi.

Sanoat sovutgichlarining yuk sig'imi (sig'imi) shartli yukning tonnalardagi miqdorida ifodalanadi. Shartli yuk deyilganida polga shtabel' ko'rinishida joylashtirilganida hajmiy massasi  $0,35 \text{ t/m}^3$  bo'ladigan nimtalar ko'rinishidagi, yoki osma yo'llarda joylashtirilganida yuklamasi osma yo'lning 1 metriga  $0,25 \text{ t}$  bo'ladigan (bundan taqsimlovchi yo'llar va strelkalar mustasno) nimtalar ko'rinishidagi go'sht qabul qilinadi. Yukning xarakteriga, uning o'ralganligi – qadoqlanganligi hamda joylashtirilish turiga bog'liq tarzda yukning hisoblangan hajmi massasi yuqorida keltirilgan qiymatlardan ortiq yoki kam bo'lishi mumkin.

Sanoat sovutgichining shartli yuk sig'imi quyidagi formula bilan topiladi  $E_x = E_{k.s} + E_{k.m} + E_{k.o},$  (9.1)

bu yerda  $E_{k.s}$  va  $E_{k.m}$  – oziq-ovqat mahsulotlari saqlanadigan barcha kameralarning shartli yuk sig'imi : mos ravishda sovutilgan va muzlatilgan yuklar uchun , tonnalarda;

$E_{k.o}$  – barcha osma yo'llar bilan jihozlangan sovutilgan go'sht saqlanadigan kameralarning shartli yuk sig'imi, tonna;

$$E_{k.s} = 0,35 V_{yu.s}; \quad E_{k.m} = 0,35 V_{yu.m}; \quad E_{k.o} = 0,25 L, \quad (9.2)$$

bunda  $V_{yu.s}$ ,  $V_{yu.m}$  – mos ravishda sovutilgan va muzlatilgan yuklar uchun saqlash kameralarining yuk hajmi,  $m^3$ ;

$L$  — osma yo'llarning yuk uchun ishlataladigan (foydali) uzunligi, m.

Shartli yuk sig'imini haqiqiy (muayyan bir yuk uchun) yuk sig'imiga aylantirish mumkin, buning uchun uni qayta hisoblash koeffitsiyentiga bo'lish lozim. Qayta hisoblash koeffitsiyenti, masalan karton qutilardagi tuxumlar uchun **1,35** ga, karton qutilardagi sariyog' uchun **0,44** ga teng olinadi.

Sanoat sovutgichining yuk sig'imini aniqlashda mahsulotlarni sovutish va muzlatish uchun mo'ljallangan kameralarning, mahsulotlarni saqlash uchun mo'ljallanmagan, lekin sovutiladigan xonalarning (ekspeditsiyalar, yig'ish kameralari, yuklash va tushirish xonalari, muzzxonalar), shuningdek sovutilmaydigan xonalarning (yordamchi xonalar, koridorlar, vestibyllar, lift shaxtalari va zinapoya kataklari) hajmi hisobga olinmaydi.

**Sovutish kamerasi hajmini va uning zaruriy maydonini aniqlash tenglamalari . Sovutgich kamerasining sovutiladigan qurilish hajmi ,  $m^3$  larda , quyidagi formuladan topiladi**

$$V_q = F H, \quad (9.3)$$

bunda  $F$  – kamera polining yuzasi ,  $m^2$  ;  $H$  – kameraning poldan shipgacha bo'lgan balandligi , m .

Kameraning yuk hajmi  $V_{yu}$  uning qurilish hajmidan kichik :

$$V_{yu} = F_{yu} H_{yu} < V_q, \quad (9.4)$$

bunda  $F_{yu}$  – yuk joylashtirilgan kamera polining yuzasi,  $m^2$  ;  $H_{yu}$  – xonaning yuk uchun balandligi, m;  $F_{yu} = F - \sum f$ ,

$\sum f$  – polning ustunlar (kolonnalar), o'tish yo'laklari va yo'laklari , sovutish jihozlari tomonidan egallangan umumi yuzasi ,  $m^2$ ;

$$H_{yu} = H - h, \quad (9.5)$$

bu yerda  $h$  – shtabel'ning ustidan shipgacha yoki balkalar-gacha, sovutish asboblari va havo kanallarigacha bo'lgan masofa ( $0,2 - 0,3$  m).

Sanoat sovutgichlarining binolari bir qavatlari va ko'p qavatli qilib quriladi , ba'zan ularda yerto'la (podval) qavati ham bo'ladi.

Bir qavatlari sovutgichlarda yuklarni qavatma-qavat vertikal' ko'chirish zarurati yo'q, shu sababli bunday hollarda binoning yuk ko'taruvchi konstruksiyalari uzunligini  $20 - 30$  m gacha orttirish

imkoni tug‘iladi. Misol sifatida ko‘p qavatlari sanoat sovutgichlarida ustunlar to‘ri  $6 \times 6$  m<sup>2</sup> qilib olinadi. Ushbu sabab, ya’ni uzun konstruksiyalar, polga beriladigan foydali yuklamani ham 2 – 3 marta orttirishga imkon beradi, chunki pollar tuproqda joylashgandir, nati-jada yuklarni katta balandlikka (10 – 20 m) taxlab joylashtirish mumkin bo‘ladi. Shu bilan birgalikda, bir qavatlari sanoat sovutgichlarining ko‘p qavatlilarga nisbatan 20 – 40% ga ko‘p miqdorda tashqi to‘sinsiz orqali kiruvchi issiqlik oqimlariga ega bo‘lishini ham aytib o‘tish lozim. Bu ularning kamchiligidir, ayniqsa tom orqali (tom hissasiga barcha tashqi to‘sinsiz yuzasining 70% igacha ulushi to‘g‘ri keladi) juda ko‘p sovuqlik yo‘qotiladi.

Ko‘p qavatlari sanoat sovutgichlarida bino ostidagi tuproqni muzlashdan himoya qilish masalasi oson hal etiladi. Ularda pol yuzasi kichik bo‘lib, shunga mos tom yuzasi ham kichik bo‘ladi. Bu esa sovutgichga kiruvchi issiqliklarning umumiy balansida tom orqali kiruvchi issiqlikning hissasi bir qavatlari sanoat sovutgichlaridagi nisbatan kichik bo‘lishini ta’minlaydi.

### **Sovutish uchun zarur sovuqlikni hisoblash tenglamasi .**

Zikr etilgan tenglama *sovutiladigan xonalarning issiqlik balansiga asoslanadi*. Sovutiladigan xonada issiqlik balansi unga kirayotgan issiqlik oqimlari  $Q_1$  va undan olib ketilayotgan issiqlik miqdori  $Q_o$  bir-biriga tenglashgan holda yuz berishini ko‘zda tutadi, ya’ni  $Q_1 = Q_o$  bo‘lishi shartidan sovutish uchun zarur sovuqlik hisoblanadi.

Bunda xonada muvozanat harorati deb ataluvchi ma’lum bir  $t_m$  harorat o‘rnatalidi.

Issiqlik balansi tenglamasini quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin , Vt – da :  $Q_1 + Q_2 + Q_3 + Q_4 + Q_5 = Q_o$  , (9.6)

bu yerda  $Q_1$  — xonaning to‘sinsiz orqali kiruvchi issiqlik, bu issiqlik kirishi to‘sining ikkala tomonidagi haroratlar farqi va quyosh radiatsiyasi tufayli paydo bo‘ladi;

$Q_2$  — yuklarning sovutilishi va muzlatilishida ulardan chiqadigan issiqlik;

$Q_3$  — xonaning ventilyatsiyasida (shamollatilishida) tashqi havo bilan kiruvchi issiqlik;

$Q_4$  — xonaning ekspluatatsiyasi bilan bog‘langan issiqlik kirishi;

$Q_5$  — o‘simlik mahsulotlaridan mavjud bo‘ladigan issiqlik chiqishi, bunday issiqlik o‘simlik oziq-ovqat mahsulotlarining nafas olishi tufayli paydo bo‘ladi.

Kiruvchi issiqliklar vaqt mobaynida o‘zgarmas bo‘lmaydi. Issiqlik balansida eng katta hissaga ega bo‘lgan kiruvchi issiqliklarni  $Q_1$  va  $Q_2$  tashkil etadi.  $Q_1$  va  $Q_3$  issiqliklar miqdori sovutish kamerasi tashqarisidagi tashqi havo haroratining o‘zgarish dinamikasini takrorlaydi, shuning uchun ularning maksimal qiymatlari yilning eng issiq davriga to‘g‘ri keladi.  $Q_2$  ning o‘zgarishlari yuklarning sanoat sovutgichiga keltirilish grafigiga bog‘liq. Agar issiqlik yuklamasi sutka mobaynida katta miqdordagi o‘zgarishlarga uchraydigan bo‘lsa, kiruvchi issiqliklarning sutka davomida o‘zgarish grafiklari yasaladi va uning asosida hisoblaniladigan vaqt aniqlanib, issiqlik hisoblashlari bajariladi.

Hisoblashlarda kompressorga tushadigan yuklama va kameradagi jihozlarga tushadigan yuklama bir-biridan ajratiladi. Kompressorning unumdorligini shunday tanlash kerakki, u xizmat ko‘rsatiladigan xonalarga issiqlik kirishlari yig‘indisining maksimumiga teng bo‘lishi lozim. Lekin bunda shuni e’tiborga olish kerakki, kompressor tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan har bir sovutish kamerasidagi maksimal yuklama har xil bo‘lishi mumkin, ya’ni vaqt bo‘yicha boshqa kameralardagi maksimal yuklama bilan ustma-ust tushmasligi mumkin.

$Q_4$  issiqlik kirishlari xonalarning ekspluatatsiyasi bilan bog‘langan bo‘lib, bu elektr yoritish, ishlab turgan elektrodvigatellar, odamlar, shuningdek eshiklarning ochilib – yopilishidan hosil bo‘luvchi yig‘indi issiqlik kirishlaridir.

O‘simglik mahsulotlaridan mavjud bo‘ladigan issiqlik kirishi  $Q_5$  mevalar va sabzavotlarning sovutilish hamda saqlash davridagi nafas olish issiqligini e’tiborga olib aniqlanadi.

Har bir alohida olingen xona uchun hisoblangan issiqlik kirishlarining yig‘indisiga ko‘ra kamera jihozlariga tushadigan yuklama ( $Q_{um}$ ), sovutish asboblarining talab etiladigan sirti yuzasi (bug‘latgichlarning issiqlik yuklamasi), har qaysi kameradagi havoni taqsimlash tizimi aniqlanaladi va tanlanadi.

### *Nazorat savollari :*

1. Sanoat sovutgichlari deyilganda nimani tushunasiz ?
2. Sanoat sovutgichlarining qanday turlari mavjud ? Ularni izohlab bering.
3. Taqsimlovchi sanoat sovutgichlari va aralash turdag'i sanoat sovutgichlari orasida qanday farqlar bor ?
4. Sanoat sovutgichining shartli yuk sig‘imi qanday aniqlanadi ?

5. Nega  $E_{k.s} = 0,35 V_{yu.s}$ ;  $E_{k.m} = 0,35 V_{yu.m}$ ,  $E_{k.o}$  esa  $E_{k.o} = 0,25 L$ , ya'ni koeffitsiyentlar nega farq qiladi?
6. Kameraning yuk hajmi  $V_{yu}$  qanday hisoblanadi va u kameraning qurilish hajmidan qanchalik kichik?
7. Bir qavatlari va ko'p qavatlari sanoat sovutgichlarining afzalliklari hamda kamchiliklari nimada?
8. Sovutiladigan xonalarning issiqlik balansi tenglamasini yozing.
9. Issiqlik balansi tenglamasining tarkibiy qismlarini sharhlab bering.
10. Issiqlik balansi tenglamasi asosida qanday parametrlar aniqlanadi?

## **10. Chorvachilik mahsulotlarini saqlash uchun sovutish uskuna va jihozlarini rejalah hamda loyihalash**

### **Tayanch iboralar:**

*Yuk sig'imi, hajmiy – rejaviy yechim, texnologik yo'rignomalar, harorat va nisbiy namlik, qurilish – izolyatsiya konstruktsiyalari, issiqlik izolyatsiyasi materiali, issiqlik izolyatsiyasining qalinligi.*

**Saqlanishi rejalahtirilgan mahsulotlarning turiga ko'ra sovutish kameralari sonini va ularning hajmini hamda yuzasini aniqlash.** U yoki bu vazifa uchun mo'ljallangan sovutish kameralaring soni (yuk sig'imi strukturasi) va hajmiy – rejaviy yechimi oziq-ovqat mahsulotlariga sovuqlik bilan ishlov berishning hamda saqlashning ilg'or texnologiyalarini joriy etish, binoda ratsional yuk oqimlarini tashkil etish, yuklash – tushirish va transport – omborxona ishlarining yuqori darajada mexanizatsiyalashuviga erishish, issiqlik kirishlarining va sovuqlik sarfining minimal bo'lishi imkoniyatini yaratmog'i lozim. Mahsulotlarning turlariga bog'liq holda sovutiladigan xonalar go'sht, moy, tuxum, yog', submahsulotlar, kolbasalar va shu kabilarni saqlash kameralariga bo'linadi. Har xil mahsulotlarni bir kamerada birgalikda saqlashga faqat o'ta zarurat tug'ilgan holdarda (masalan, sanoat sovutgichiga qabul qilingan va sovutish kameralaridan tashqarida turgan oziq-ovqat mahsulotlarining aynib qolish ehtimoli tahdid solayotgan, sovutgich maydonlari yetishmay turgan paytda, hamda sovutgich maydonlaridan to'liqroq foydalanish maqsadlarida manyovrlar qilish paytida) ruxsat beriladi. Shunda ham bir kamerada faqat bir xil harorat – namlik rejimini talab etuvchi

oziq-ovqat mahsulotlari saqlanilishi mumkin.

Qadoqlanmagan, o'ralmagan muzlatilgan har xil oziq-ovqat mahsulotlarini birgalikda saqlash uchun havosining harorati  $-15^{\circ}\text{C}$  dan yuqori bo'lmanan kameralardan foydalanish lozim. Yuqoriroq haroratlarda mahsulotlarga xos bo'lgan hidlar intensivroq tarqaladi va shuning oqibatida bir mahsulotdan boshqasiga oson o'tib qoladi. Harorati bunga nisbatan yuqoriroq bo'lgan muzlatilgan oziq-ovqat mahsulotlari birgalikda saqlashga qo'yilishidan oldin muzlatish kameralarida yana qo'shimcha muzlatiladi. Qo'shimcha muzlatishni mahsulotlar birgalikda saqlanadigan kameralarda amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Kolbasa mahsulotlari va dudlangan go'sht mahsulotlarini, barcha turdag'i pishloqlarni, (barra va muzlatilgan) mevalar va sabzavotlarni, non yopish uchun mo'ljallangan achitqilarni boshqa mahsulotlar bilan birgalikda saqlashga yo'l qo'yilmaydi.

Sovuqlik ta'sirida saqlashga oziq-ovqat mahsulotlari sovutilgan, muzlatilgan va sirti muzlatilgan holatda keladi. Bunda ularning o'rta-cha oxirgi harorati saqlash haroratiga teng bo'lishi lozim. Agar sanoat sovutgichiga keltirilgan oziq-ovqat mahsulotlarining, ularning qalin joyidagi harorati belgilangan darajadan yuqori bo'lsa, bunday mahsulotlar qo'shimcha sovutish va qo'shimcha muzlatishga qo'yiladi. Texnologik yo'riqnomalar isitilgan mahsulotlarni ham kameralaga yuklashga ruxsat beradi, lekin bunda shunday mahsulotlarning bir sutka mobaynida keltirilish miqdori yuk sig'imi 200 tonnagacha bo'lgan kameralar uchun ular sig'imining 8% i bilan, 200 tonnadan ortiq yuk sig'imli kameralar uchun esa shu kameralar sig'imining 6% i bilan cheklab qo'yilgan.

Bir xil harorat rejimli kameralardan bo'linmalar (bloklar) horizontal bo'yicha (bino qavatlarida) va vertikal bo'yicha (bino ichida) shakllantiriladi. Binoning podvalida harorati  $-3^{\circ}\text{C}$  dan past bo'lmanan kameralar joylashtiriladi, buning sababi pol ostidagi tuproqning muzlashiga yo'l qo'ymaslikdir. Ko'p qavatli sanoat sovutgichlari eni 40 m gacha, bir qavatilari esa eni 20 – 72 m qilib yasaladi. Sanoat sovutgichining uzunligi, asosan yuklash – tushirish ishlarining fronti bilan belgilanadi, ya'ni temir yo'l va avtomobil platformalarining uzunligiga bog'liq bo'ladi. Bu omillar esa o'z navbatida sanoat sovutgichi sig'imiga hamda uning yuk aylanmasiga bog'liq bo'ladi. Sig'imi 3000 tonnadan ortiq bo'lgan sanoat sovutgichlari uchun temir yo'l platformasining uzunligi kamida 120 m bo'lishi kerak, bu 5 vagonli refrijerator seksiyasidan yuk tushirish uchun yetarlidir. Go'shtni sovu-

tish uchun 3 tagacha kamera, muzlatish uchun 5 – 7 ta kamera,sovutilgan go'shtni saqlash uchun 1 – 2 ta kamera (maydoni 200 – 300 m<sup>2</sup>), muzlatilgan go'shtni saqlash uchun 3 – 4 ta kamera (maydoni 300 – 1000 m<sup>2</sup>) lardan foydalaniadi. Zarurat bo'lishiga qarab sovuqlik bilan ishlov berish va saqlash uchun universal kameralar (1 tadan 3 tagacha) ishlataladi.

**Harorat va nisbiy namlikning hisoblash qiyomatlarini qabul qilish .** Harorat va nisbiy namlikning hisoblash qiyomatlarini aniqlash uchun ularning sovutgichda saqlash rejimlarini bilish lozim.

*Sovutgichda saqlash rejimlari.* Sovutish texnologiyasida oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashning 3 ta asosiy rejimlari farq qilinadi: sovutilgan, sirti muzlatilgan va muzlatilgan mahsulotlar uchun. Saqlashning umumiy tamoyillari xossalari bo'yicha turlicha bo'lgan mahsulotlarni saqlash texnologiyalarini umumlashtirishdan iboratdir. Sovutilgan mahsulotlar havoning harorati krioskopik haroratdan 0,5 – 2°C ga yuqori, nisbiy namligi 85 – 90 %, hamda harakat tezligi 0,1 – 0,2 m/s bo'lgan rejimlarida saqlanadi. Mahsulotlarning qadoqlanganligi – o'ralganligi mavjud bo'lishi va uning ko'rinishi hamda xarakteriga bog'liq holda mahsulotlar to'liq bo'lмаган shtabellar ko'rinishida (kameraning 1 m<sup>2</sup> ga tushadigan yuklamani hisobga olgan holda) joylashtiriladi, bunda qatorlar orasida reykalar qo'yiladi, shuningdek mahsulotlar osma yo'llardagi ilgaklarga osib qo'yiladi yoki qatpoyalarda shunday joylashtiriladi, bunda havo mahsulotlar atrofida erkin harakatlana oladigan bo'lishi lozim.

Sirti muzlatilgan mahsulotlar havoning harorati krioskopik haroratdan 1 – 2°C ga past, nisbiy namligi 92 – 95%, hamda harakat tezligi 0,1 – 0,2 m/s bo'lgan rejimlarida saqlanadi. Sirti muzlatilgan go'sht, baliq va parranda go'shti sovutilgan shunday mahsulotlarga qaraganda 2 – 3 marta uzoqroq saqlanadi.

Muzlatilgan mahsulotlarni saqlash rejimlari ularning turi, qadoqlanganligi – o'ralganligi, talab etilgan saqlanish muddatiga qarab belgilanadi. Xalqaro sovuqlik institutining tavsiyalariga ko'ra muzlatilgan oziq-ovqat mahsulotlarini havoning harorati –18°C dan yuqori bo'lмаган va nisbiy namligi 100% bo'lgan rejimda saqlash lozim. Muzlatilgan mahsulotlar zich qatorlar ko'rinishida terib qo'yiladi, bundan maqsad shtabel' ichida havoning sirkulyatsiyasini yo'qtishdir. Saqlash kameralariga bir turdag'i yoki bir xil saqlash rejimli (iloji boricha saqlanish muddatlari ham bir xil bo'lgan) mahsulotlar

yuklanadi.

**Kamera to'sinlarining qurilish – izolyatsiya konstruksiylarini tanlash.** Sovutgichlarning tuzilishidagi qurilish konstruktsiyalari 2 xil bo'ladi : yuk ko'taruvchi konstruktsiyalar va to'sin – konstruktsiyalar. To'sin – konstruktsiyalarning bir turi tashqi devorlar, qoplab turuvchi konstruktsiyalar va tom to'sinlari bo'lib, ular binoni tashqi muhit ta'siridan himoya qiladi. To'sin – konstruktsiyalarning ikkinchi turi ko'p qavatli sanoat sovutgichlarining qavatlararo qoplamasi (ichki pol qoplamasi), pollar va ichki devorlar bo'lib, ular mahsulotlar va boshqa yuklarni qo'shni xonalar ta'siridan saqlab turadi. Bunda shuni e'tirof etish lozimki, ko'p qavatli sanoat sovutgichlarining to'sin – konstruktsiyalariga qavatlararo qoplamlar, pollar, ichki devorlar va tom to'sini kiradi.

Bir qavatli va ko'p qavatli sanoat sovutgichlarining yuk ko'taruvchi konstruktsiyalari har xil bo'ladi. Ko'p qavatli sanoat sovutgichlarda yuk ko'taruvchi konstruktsiyalar sifatida bino karkasi xizmat qiladi, bunda tashqi devorlar o'z-o'zini ko'tarib turuvchi bo'ladi. Karkas vertikal yig'ma temir-beton ustunlar (kolonnalar) (ularning to'ri  $6*6\text{ m}^2$ ), yig'ma kapitellar, kolonna usti balkalari va osilib turadigan plitalardan iborat. Karkas konstruktsiyalar o'z massasini, tomdagi qor massasini, shamol yuklamasini, saqlanadigan oziq-ovqat massasini, shuningdek mexanizm-uskunalar massasini qabul qiladi va bu yuklamani bino poydevori (fundament) orqali uning asosiga , ya'ni sovutgich joylashgan yerga (tuproqqa) uzatadi.

Tashqi devorlar o'zining massasidan hosil bo'ladigan yuklamani ko'tarib turadi, ya'ni ular karkasdan mustaqil bo'ladi (bog'langan emas), shuning uchun inshoot qurilishida tashqi devorlar karkasga biriktiriladi. Ular ichi to'la g'ishtdan issiqlik izolyatsiyasi qatlamini qo'shib yasaladi yoki maxsus yig'ma – devor panellari ko'rinishida bajarilgan bo'ladi.

Bir qavatli sanoat sovutgichlarda yuk ko'taruvchi konstruktsiyalar yig'ma temir-beton elementlar : ustunlar, tom balkalari va plitalardan montaj qilinadi. Ustunlar to'ri  $6*12\text{ m}^2$ , devorlar o'zini ko'tarib turuvchi bo'ladi. Sovutgichda saqlanayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining massasi va mexanizm-uskunalardan tushadigan yuklama yerda (tuproqda) joylashgan pollar tomonidan qabul qilinadi, ya'ni bu yuklama sovutgichning yuk ko'taruvchi konstruksiyasiga tushmaydi . Bu esa o'z navbatida polga tushadigan yuklamani

4000 kg/m<sup>2</sup> gacha orttirish imkonini beradi.

Oxirgi vaqtarda bir qavatlari sovutgichlar yengillashtirilgan qurilish konstruksiyalaridan yasalmoqda. Ularda ustunlar va balkalar ferma ko'rinishiga keltirilib, po'lat profillardan yasalmoqda. Ustunlar to'ri 6\*24 m<sup>2</sup>, 6\*36 m<sup>2</sup> o'lchamlarga ega. Tashqi devorlar va toming elementlari yengillashtirilgan uch qatlamlari panellardan montaj qilinmoqda. Bu panellar "sendvich" nomini olgan. Bunday hollarda katta sovutish kameralari ichki ustunlarsiz yasalishi mumkin. Bu turdag'i sovutgichlar ikki xil bo'ladi: ichki yoki tashqi karkasli. Agar karkas tashqi bo'lsa, ustunlar va ferma binoning tashqarisida qoladi, ular profillangan po'lat qoplama (yoymalma konstruksiya – nastil') bilan yopiladi. Oxirgi element – po'lat qoplama tashqi karkasdan 50 – 60 sm chetga chiqib turadi, bu devorlar bo'ylab uzluksiz o'tish yo'lkasini hosil qiladi. "Sendvich" turidagi panellar karkasga ichkaridan montaj qilinadi.

*Tashqi to'sin konstruksiyalari.* Binolarning tashqi devorlarida uch asosiy qatlamni ajratish mumkin. Birinchi qatlam yuk ko'taruvchi qatlam bo'lib, u g'ishtdan yasaladi hamda bir tomoni yoki ikki tomonidan suvoq qilinadi. Shuningdek, tashqi to'sin konstruksiyalari g'ishtdan tashqari ko'p qavatlari sanoat sovutgichlarida temir–beton paneldan, bir qavatlari sanoat sovutgichlarida esa keramzit paneldan yasaladi. Bu qatlam devorning barcha qatlamlari massasidan hosil bo'ladigan yuklamani va shamol yuklamasini qabul qiladi, issiqlik izolyatsiyasini mexanik ta'sirlardan hamda ob–havo omillaridan himoya qiladi, shuningdek bino fasadining umumiy ko'rinishini belgilaydi. G'ishtli devorlar bino karkasiga qavatlararo qoplamlar sathida yoki binoning tomi sathida po'lat ankerlar bilan qotiriladi (biriktiladi).

*Tashqi to'sin konstruksiyalarining o'rta qatlami issiqlik izolyatsiyasi* materiallaridan yasalgan konstruksiyadan iborat. Tashqi qatlam va issiqlik izolyatsiyasi qatlami orasida bug' (namlik) izolyatsiyasi bo'ladi, u issiqlik izolyatsiyasini ho'llanishdan saqlaydi.

*Uchinchi qatlam* ichki qatlam bo'lib, u suvoqlangan bo'ladi va sovutgichdagi yuklash – tushirish ishlari paytida issiqlik izolyatsiyasini yemirilishdan saqlash uchun xizmat qiladi, shuningdek bu qatlam izolyatsiyaviy materialarning oziq–ovqat mahsulotlari bilan tegishib ketmasligini ta'minlaydi.

"Sendvich" turidagi yengillashtirilgan panellardan yasalgan tashqi va ichki qatlamlar varaq ko'rinishidagi metalldan (silliq yoki

profillangan) – alyuminiy yoxud po‘latdan yasaladi. O‘rtadagi issiqlik izolyatsiyasi qatlami penoplastdan bo‘ladi. Bunda bug‘ izolyatsiyasi bo‘lmaydi, uning vazifasini panel’ yuzidagi metall varaqlar bajaradi. Panellar bino karkasiga biriktiriladi, bunda ular orasidagi yoriqlar sinchkovlik bilan germetizatsiyalanadi.

### **Issiqlik izolyatsiyasi qalinligini hisoblash .**

*Issiqlik izolyatsiyasi materiallari.* Asosiy issiqlik izolyatsiyasi konstruksiyalarining issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti 0,03 – 0,05  $Vt/(m \cdot K)$ , zichligi esa  $30 - 250 \text{ kg/m}^3$  ga teng. Bunday materiallar mayda g‘ovak ichki tuzilishga ega bo‘lib, g‘ovaklarining hajmi  $90 - 98\%$  bo‘lishi kerak, shu bilan birlgilikda ular gidrofoblik xususiyatiga ega bo‘lishi (suv tekkanida yomon ho‘llanishi), yetaricha egilishga (kamida  $150 \text{ kPa}$ ) va qisilishga ( $40 \text{ kPa}$ ) qarshi mustahlikka ega bo‘lishi kerak. Shu bilan birlgilikda issiqlik izolyatsiyasi materiallari sovuqqa chidamli, kemiruvchilar va mikroorganizmlar bilan zararlanmaydigan bo‘lishi, hidga ega bo‘lmasligi hamda zararli uchuvchan tarkibiy qismlarni ajratmasligi lozim. Ular yomon yonuvchan yoki yonsa, o‘z-o‘zidan so‘nuvchan (olov uzoqlashtirilganda yonmasligi) bo‘lishi kerak.

Ilgari bitumli bog‘lovchi birikma asosidagi mineral–momiq plitalar (mineral po‘kak), ko‘pik–beton va ko‘pik–shishali bloklar hamda plitalar, shuningdek sintetik ishlab chiqarilgan organik materiallar – penoplastlar va poroplastlar, penopolistirol ПС–1, ПС–4, ПСБ ва ПСБ–С, penopolyuretan ППУ–3Н, ППУ–3С, fenol–rezolli penoplast ФРП–1 ва ФРП–2, penopolivinilxlorid ПВХ–1 va shu kabilar qo‘llanilar edi. Ularning ichida istiqbollisi penopolyuretandir. Uning zichligi  $20 - 80 \text{ kg/m}^3$ , issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti  $0,025 - 0,04 \text{ Vt/(m \cdot K)}$ , egilishda mustahkamlik chegarasi  $70 - 190 \text{ kPa}$  ga teng.

Penopolyuretan tayyor plitalar ko‘rinishidagi izolyatsiyaviy konstruksiyalarni yaratish, shuningdek bunday konstruksiyalarni qurilish ishlari bajariladigan joyda materialning suyuq tarkibiy qismlaridan izolyatsiyalanadigan bo‘shliqqa quyib tayyorlash imkonini beradi. Oxirgi holda, masalan izolyatsiyani devorning tashqi va ichki to‘sinlari orasiga quyib yasash mumkin. Bunday izolyatsiyani “sendvich” turidagi yengillashtirilgan panellar ishlab chiqarishda ham qo‘llaydilar.

Binolarning, sovutiladigan xonalarning issiqlik izolyatsiyasi konstruksiyasi hisoblash asosida qabul qilinishi kerak, bunda issiqlik

lik uzatish koeffitsiyentlari СНиП 3.11-87 «Холодильники. Hop-my проектирования» asosida qabul qilinadi. Issiqlik uzatish koeffitsiyentlarining talab etilgan qiymatlari har xil to'sinlar uchun namlikning kamera ichidagi to'sinlar sirtida kondensatsiyalanmasligi shartidan kelib chiqqan holda belgilangan.

Issiqlik izolyatsiyasi qalinligini hisoblash uchun boshlang'ich ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

- sovutgich – korxona joylashgan iqlim zonas;
- binoning qurilish konstruksiyalari: ularning tuzilishi va qalinligi (issiqlik izolyatsiyasi konstruksiyasi bundan mustasno);
- g'isht devor konstruksiyasi, temir – beton devor konstruksiyasi.

Izolyatsiyani hisoblash izolyatsiya qatlami qalinligini hisoblashdan iboratdir. Issiqlik izolyatsiyasi qatlaming talab etilgan qalinligi (metrda) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\delta_{\text{из}} = \lambda_{\text{из}} \left[ \frac{1}{k} - \left( \frac{1}{\alpha_1} + \frac{\delta_1}{\lambda_1} + \frac{\delta_2}{\lambda_2} + \dots + \frac{\delta_n}{\lambda_n} + \frac{1}{\alpha_2} \right) \right], \text{m} \quad (10.1)$$

bu yerda  $k$  – to'sinning issiqlik uzatish koeffitsiyenti,  $Vt/(m^2 \cdot K)$ . Bu koeffitsiyentning qiymati to'sinning turiga va uning ikki tomonidagi haroratlarga bog'liq holda ma'lumotnoma jadvallardan olinadi;

$\delta_1, \delta_2, \dots, \delta_n$  – to'sin konstruksiyasi qatlamarining qalinligi, m;

$\lambda_1, \lambda_2, \dots, \lambda_n$  – to'sin konstruksiyasini tashkil etuvchi qurilish materiallarining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti,  $Vt/(m \cdot K)$ . Bularning qiymati ham ma'lumotnoma jadvallardan olinadi;

$\lambda_{\text{из}}$  – issiqlik izolyatsiyasi materialining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti,  $Vt/(m \cdot K)$ . Issiqlik izolyatsiyasi materiallarining xossalari keltirilgan maxsus jadvallaridan olinadi;

$\alpha_1, \alpha_2$  – to'sin (devor) ning tashqi va ichki tomonidan issiqlik berish koeffitsiyenti,  $Vt/(m^2 \cdot K)$ . Bu koeffitsiyentlarning qiymati ham ma'lumotnoma jadvallardan olinadi.

To'sin uchun issiqlik uzatish koeffitsiyentining ( $k$ ) me'yoriy qiymatini tanlash va qabul qilib olish uchun loyihalanayotgan korxona joylashgan iqlim zonasining o'rtacha yillik haroratini va shu geografik joy uchun tashqaridagi havoning yozgi hisoblanadigan haroratini bilish lozim. Bunday ma'lumotlar ham ma'lumotnoma jadvallaridan olinadi.

$1/\alpha$  va  $\delta/\lambda$  kattaliklar issiqlik qarshiliklari (termik qarshiliklari),

*1/k* esa umumiy issiqlik qarshiligi (termik qarshiligi) deb ataladi.

**Nazorat savollari :**

1. Texnologik talablar nuqtai-nazaridan qanday hollarda har xil mahsulotlarni bir kamerada birgalikda saqlashga ruxsat beriladi ?
2. Qanday oziq-ovqat mahsulotlarini boshqa mahsulotlar bilan birgalikda saqlashga yo'l qo'yilmaydi ?
3. Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashning sovutish texnologiyasida qanday asosiy rejimlari farq qilinadi ?
4. Sovutilgan mahsulotlarning saqlash rejimlarini aytib bering.
5. Sirti muzlatilgan mahsulotlarning saqlash rejimlarini aytib bering.
6. Muzlatilgan mahsulotlarning saqlash rejimlarini aytib bering.
7. Sovutgichlarning tuzilishidagi qurilish konstruksiyalari qanday turlarda bo'ladi ?
8. Karkasli qurilish konstruksiyalarining tuzilishi, afzallikkleri va kamchiliklarini ko'rsatib bering.
9. Bir qavatli sovutgichlarning yengillashtirilgan qurilish konstruksiyalaridan yasalishi , uning afzallikkleri va kamchiliklarini ko'rsatib bering.
10. Issiqlik izolyatsiyasi materiallarining tavsifini bering, ularga qanday talablar qo'yiladi ?
11. Issiqlik izolyatsiyasini hisoblash uchun qanday boshlang'ich ma'lumotlar kerak ?
12. Issiqlik izolyatsiyasi qatlami qalinligini hisoblash formulasini yozing va uni izohlab bering.

**11. Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun sovutish mashinasining kalorik hisoblanishi**

**Tayanch iboralar :**

*Kalorik hisoblash, kameraning to'sinlari orqali kiruvchi issiqlik, yuklardan chiquvchi issiqlik, kamera ventilyatsiyalanganida tashqi havo bilan kiruvchi issiqlik, ekspluatatsiyaviy issiqlik kirishi, to'liq kiruvchi issiqlik oqimi .*

**Kalorik hisoblashning maqsadi va vazifalari.** *Kalorik hisoblash* sovutiladigan kameralardagi harorat-namlik rejiminинг о'згаришига sabab bo'luvchi issiqlik oqib kirishlarini hisobga oladi.

Bunday hisoblash har qaysi kamera uchun alohida o'tkaziladi, bu esa o'z navbatida har qaysi kamera uchun alohidasovutish jihozlarini tanlab olish imkonini beradi. Kalorik hisoblashda har qaysi sovutiladigan kamera uchun quyidagi kiruvchi issiqlik miqdori hisobga olinadi :

**Q<sub>1</sub>** – kameraning to'sinlari orqali kiruvchi issiqlik miqdori. Bunday kiruvchi issiqlik oqimi ikki sababga ko'ra sodir bo'ladi: 1) shu kameraga nisbatan tashqi bo'lgan muhitdan o'sha muhit harorati va kamera ichidagi havo harorati orasidagi farq hisobiga kiruvchi issiqlik oqimi **Q<sup>I</sup><sub>1</sub>**; 2) quyosh radiatsiyasi tufayli kiruvchi issiqlik oqimi **Q<sup>II</sup><sub>1</sub>**.

**Q<sub>2</sub>** – yuklardan, ya'ni chorvachilik hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tara-idishlardan, ular sovutilganida (sovutqlik ishlovi berilganida) chiquvchi issiqlik miqdori. Mevalar saqlanadigan sanoat sovutgichlari uchun **Q<sub>2</sub>** o'rniga **Q<sub>5</sub>** – mevalarning nafas olishi tufayli chiquvchi issiqlik miqdori hisoblanadi.

**Q<sub>3</sub>** – sovutish kamerasi ventilyatsiyalanganida tashqi havo bilan kiruvchi issiqlik miqdori.

**Q<sub>4</sub>** – ekspluatatsiyaviy kiruvchi issiqlik miqdorlari. Ular sovutiladigan kamera eshiklari ochilganida, yoritish lampochkalari yoqilganida, kamerada odamlar bo'lganida va shunga o'xshash holarda kiruvchi issiqlik oqimlaridan iborat.

Qayd etib o'tilgan kiruvchi issiqliklar miqdori yilning fasliga, mahsulotlarning keltirilish mavsumiyligiga va boshqa sabablarga bog'liq holda o'zgarib turadi. Shuning uchun hisoblashlarda barcha kiruvchi issiqliklar miqdorlarining maksimumlari bir vaqtga to'g'ri keladi deb olamiz. Bu esa o'z navbatida sovutgich mashinasi hamda jihozlarining shunday tanlanishini ta'minlaydiki, unda kameralarga kirgan issiqliklar miqdorining eng noqulay sharoitda, ya'ni kiruvchi issiqlik oqimlari maksimum qiymatlariga ega bo'lganida, ularning olib ketilishi, ya'ni yo'qotilishi amalga oshadi.

Shunday qilib, jami kiruvchi issiqliklar miqdori quyidagicha aniqlanadi

$$Q = Q_1 + Q_2 + Q_3 + Q_4, \quad (11.1)$$

Kalorik hisoblash har qaysi sovutiladigan kamera uchun alohida bajariladi. Bu hisoblash uchun quyidagi ma'lumotlar asos bo'ladi : sovutiladigan kameralarning, ular bo'limlarining rejasи va o'chamlari;

- to'sinlarning issiqlik izolyatsiyasini hisoblash bo'limida aniq-

- langan issiqlik uzatish koeffitsiyentlari qiymati;
- tashqi havoning, sovutilmaydigan qo'shni xonalardagi havoning, tuproqning (yerning) harorati va ularning nisbiy namligi;
- keluvchi yuklarning (mahsulotlar va idishlar) harorati va miqdori (og'irligi).

### Kameraga kiruvchi issiqlik miqdorlarining turlari va ularni hisoblash.

*To'sinlar orqali kiruvchi issiqliklar miqdori*, birinchi bo'limda qayd etilganidek, quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi :

$$Q_1 = Q_1^I + Q_1^{II}, \text{ Vt} \quad (11.2)$$

bu yerda  $Q_1^I$  – to'sinning ikki tomonidagi muhitlar haroratlarining farqi tufayli sodir bo'luvchi, issiqlik uzatish yo'li bilan kiruvchi issiqlik miqdori , Vt ;

$Q_1^{II}$  – quyosh radiatsiyasi issiqligining yutilishi hisobiga sodir bo'luvchi kiruvchi issiqlik miqdori , Vt .

To'sin orqali haroratlar farqi tufayli uzatiladigan issiqliklar miqdori o'z navbatida quyidagicha aniqlanadi :

$$Q_1^I = K_{hk} \cdot F (t_m - t_h), \text{ Vt} \quad (11.3)$$

bu yerda  $K_{hk}$  – to'sinning hisoblash issiqlik uzatish koeffitsiyenti ,  $Vt/m^2 \cdot K$  . Bu koeffitsiyentning qiymati oldingi hisoblashlarda, ya'ni issiqlik izolyatsiyasini hisoblash bo'limida aniqlangan ;

$F$  – to'sinning issiqlik uzatish yuzasi ,  $m^2$  ;

$t_m$  – to'sinning tashqi tomonidagi muhit harorati ,  $^{\circ}C$  ;

$t_h$  – sovutiladigan kamera ichidagi havoning harorati ,  $^{\circ}C$  .

Agar sovutiladigan kameralarning tashqi devorlari va tom to'sinlariga qo'shimcha ravishda quyosh nurlari ham tushadigan bo'lsa, quyosh radiatsiyasi issiqligining yutilishi hisobiga sodir bo'luvchi kiruvchi issiqlik miqdorini quyidagicha hisoblaymiz :

$$Q_1^{II} = K_{haq} * S * \Delta t_q, \text{ Vt} \quad (11.4)$$

bunda  $K_{haq}$  – quyosh nurlari tushadigan to'sinning haqiqiy issiqlik uzatish koeffitsiyenti ,  $Vt / m^2 \cdot K$  ;

$S$  – quyosh nurlari tushadigan to'sinning yuzasi ,  $m^2$  ;

$\Delta t_q$  – yoz paytidagi quyosh radiatsiyasi ta'sirini xarakterlovchi qo'shimcha haroratlar farqi,  $^{\circ}C$  . Bu qo'shimcha haroratlar farqining qiymati maxsus hisoblangan bo'lib, ma'lumotnomada jadvallardan olinadi .

To'sinlar orqali kiruvchi issiqliklar miqdorining hisoblashlari natijalari (xuddi shunday boshqa kiruvchi issiqliklar miqdorlarini

hisoblash natijalari ham) quyidagi jadval ko‘rinishida rasmiyplashitiriladi .

$Q_1^I$  – ni hisoblash jadvali

| Kameralar va to‘slnlarning nomlari    | $K_{hk}$<br>$Vt / m^2 *K$ | $F, m^2$ | $t_m, ^\circ C$ | $t_h, ^\circ C$ | $Q_1^I, Vt$ |
|---------------------------------------|---------------------------|----------|-----------------|-----------------|-------------|
| Go‘sht xom ashyosini saqlash kamerasi |                           |          |                 |                 |             |
| Tashqi devor                          | .....                     | .....    | .....           | .....           | .....       |
| va hokazo                             | .....                     | .....    | .....           | .....           | .....       |
| Jami                                  |                           |          |                 |                 | .....       |
| Barcha kameralar bo‘yicha jami        |                           |          |                 |                 | .....       |

Quyosh radiatsiyasi issiqligining yutilishi hisobiga sodir bo‘lувчи, kiruvchi issiqlik miqdori  $Q_1^{II}$  faqat quyosh nurlari tushadigan tashqi to‘slnlar uchun hisoblanadi. Bunday to‘slnlarga tom to‘sini va janubiy, hamda janubi-g‘arbiy yo‘nalishga qaratilgan tashqi devorlar kiradi. (Izoh: odatda ko‘pchilik hollarda sovutish kameralari, xonalari va bo‘limlari chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishslash korxonalarini binosining shimolga yoki shimoli – sharqiy yo‘nalishga qaratilgan tomonida loyihalanadi).

*Yuklardan, ya’ni chorvachilik hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tara-idishlardan, ular sovutilganida chiquvchi issiqliklar miqdori quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi :*

$$Q_2 = \left( G_{ms} \cdot C_{ms} + G_{ti} \cdot C_{ti} \right) \cdot \left( t_{ms1} - t_{ms2} \right) \frac{1}{\tau_{sov} \cdot 3600}, Vt \quad (11.5)$$

bu yerda  $G_{ms}$ ,  $G_{ti}$  – sovutiladigan kameraga bir sutkada kelib tushuvchi oziq-ovqat mahsulotlarining va tara-idishlarning miqdori, kg/sut ;

$C_{ms}$ ,  $C_{ti}$  – mos ravishda oziq-ovqat mahsulotlarining va tara-idishlarning solishtirma issiqlik sig‘imi, J/kg\*grad ;

$t_{ms1}$ ,  $t_{ms2}$  – mos ravishda mahsulotning kameraga kelib tushidagi harorati va uning sovuqlik ishlovi berilganidan keyingi oxirgi harorati,  $^\circ C$  ;

$\tau_{sov}$  – mahsulotni  $t_{ms2}$  haroratgacha sovutilish davomiyligi, soat .

Ayrim hollarda sovutiladigan kameraga bir sutkada kelib tu-

shuvchi oziq-ovqat mahsulotlarining miqdori  $G_{ms}$  shu mahsulotlar-ning saqlanish muddatidan kelib chiqqan holda qabul qilinadi. Agar ularning saqlanish muddati 1 – 2 kun bo‘lsa,  $G_{ms}$  shu mahsulotlar-ning kameradagi maksimal miqdori G – dan 100% ; agar 3 – 4 kun saqlanadigan bo‘lsa – 50...60% ; bundan ko‘proq muddat saqlanadigan bo‘lsa – 50...40% deb qabul qilib olinadi. Bunda mahsulotlarning kameradagi maksimal miqdori G mahsulotning bir sutkalik zahira (sarfi) miqdori  $G_{zs}$  – ning saqlash davomiyligi  $\tau$  – ga ko‘paytmasi sifatida aniqlanadi .

Tara-idishlarning bir sutkada keltirilish miqdori ularning turiga bog‘liq holda aniqlanadi. Jumladan po‘lat tara uchun  $G_{ti}$  mahsulot-larning sutkabay miqdori  $G_{ms}$  – dan 20% , plastmassa tara uchun 15% , karton tara uchun 10%, polietilen o‘rash materiallari uchun 5% , shisha idishlar uchun 100% olinadi.

Agar sovutilgan oziq-ovqat mahsulotlari kameraga izotermik transportda yetkazib beriladigan bo‘lsa, mahsulotning kameraga kelib tushishidagi harorati  $t_{ms1}$  shimoliy va o‘rtalari iqlim zonalari uchun  $t_{ms1} = 6...8^{\circ}\text{C}$  , janubiy iqlim zonasiga uchun  $t_{ms1} = 10...12^{\circ}\text{C}$  olinadi . Agar mahsulot sovutilmaganda holatda keltiriladigan bo‘lsa,  $t_{ms1}$  tashqi havoning hisoblash harorati  $t_{th}$  – dan 5...7°C past olinadi . Mahsulotning sovuqlik ishlovi berilgandan keyingi oxirgi harorati  $t_{ms2}$  kameradagi havo haroratidan 1...2°C ortiq olinadi. Mahsulotning sovutilish davomiyligi  $\tau_{sov}$  ko‘pchilik hollarda 24 soat deb olinadi . Ammo chorvachilik mahsulotlari (masalan , go‘sht) kamerada dastlab maxsus sovutiladigan bo‘lgan hollar bundan mustasno. Bunday holda  $\tau_{sov}$  – ning qiymati hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi .

**Q<sub>1</sub>** – ni hisoblaganimizdagi kabi , **Q<sub>2</sub>** – ning hisoblashlari ham jadval ko‘rinishida rasmiylashtiriladi .

**Q<sub>2</sub>** – ni hisoblash jadvali (misol tariqasida)

| Mahsulotning nomi, tara – idishning turi                 | $G_{ms}$ , kg / sut | $C_{ms}$ , J / kg.grad | $G_{ti}$ , kg / sut | $C_{ti}$ , J / kg.grad | $t_{ms1}$ , °C | $t_{ms2}$ , °C | $\tau_{sov}$ , soat | $Q_2$ , Vt |
|--|---------------------|------------------------|---------------------|------------------------|----------------|----------------|---------------------|------------|
| <i>Go‘sht xom<br/>ashyosini<br/>saqlash<br/>kamerasi</i> |                     |                        |                     |                        |                |                |                     |            |

|                                       |  |  |  |  |  |  |  |
|---------------------------------------|--|--|--|--|--|--|--|
| Go'sht nimta<br>va tanalari           |  |  |  |  |  |  |  |
| Go'sht (sut)<br>mahsulotlari          |  |  |  |  |  |  |  |
| Metall (alyu-<br>miniy) idishlar      |  |  |  |  |  |  |  |
| va hokazo                             |  |  |  |  |  |  |  |
| <b>Jami</b>                           |  |  |  |  |  |  |  |
| <i>Barcha kameralar bo'yicha jami</i> |  |  |  |  |  |  |  |

Kamera ventilyatsiyalanadigan bo'lganda tashqi havo bilan kiruvchi issiqlik miqdori  $Q_3$  quyidagicha aniqlanadi :

$$Q_3 = \frac{V a \rho}{24 \cdot 3600} \cdot (i_{th} - i_{t_h}), \text{ Vt} \quad (11.6)$$

bu yerda  $V$  – ventilyatsiyalanuvchi sovutish kamerasining hajmi,  $\text{m}^3$ ;

$a$  – havo almashinuvi karraligi, sutkasiga marta hisobida ;

$\rho$  – kameradagi havoning harorati va nisbiy namligiga to'g'ri keluvchi havo zichligi ,  $\text{kg/m}^3$ ;

$i_{th}$  – tashqaridagi havoning solishtirma ental'piyasi ,  $\text{J/kg}$  ;

$i_{t_h}$  – kameradagi havoning solishtirma ental'piyasi ,  $\text{J/kg}$  .

Havo almashinuvi , ya'ni ventilyatsiya karraligi sovutiladigan kameralar uchun odatda sutkasiga 1 martadan 4 martagacha olinadi .

Havoning zichligi birinchi navbatda uning haroratiga bog'liq bo'lib , quyidagi formula bilan aniqlanadi:  $\rho = 1,293 * \frac{273}{273 + t}$ ,  $\text{kg/m}^3$  ; bu yerda  $t$  – havoning harorati bo'lib , bizning holda  $t = t_h$  ,  $^{\circ}\text{C}$  olinadi . Agar kamerada ventilyatsiya ko'zda tutilmagan bo'lsa  $Q_3 = 0$  olinadi .

*Ekspluatatsiyaviy kiruvchi issiqliklar miqdori*  $Q_4$  ko'pchilik hollarda, shu jumladan chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun mo'ljallangan sovutgichlarni, umumiyligi ovqatlanish va savdo korxonalari sovutgichlarini loyihalashdagi calorik hisoblashlarda aniq usullar bilan hisoblab topilmaydi. Bunday kiruvchi issiqlik oqimlari miqdori  $Q_1$  ga nisbatan foizlarda olinadi. Masalan, polining yuzasi  $20 \text{ m}^2$  – dan katta bo'lgan kameralar uchun  $Q_4$  ning qiymati

$Q_1$  ning qiymatidan 20 % olinadi.

Kalorik hisoblashlar natijalari quyidagi ko‘rinishdagi jadvalga kiritiladi.

| Kameralar nomlari                                    | $Q_1, Vt$  | $Q_2, Vt$   | $Q_3, Vt$   | $Q_4, Vt$   | $Q, Vt$     |
|--|------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| Go‘sht xom<br>ashyosini saqlash<br>kamerasi          | .....<br>. | .....<br>.. | .....<br>.. | .....<br>.. | .....<br>.. |
| va hokazo  | .....<br>. | .....<br>.. | .....<br>.. | .....<br>.. | .....<br>.. |
| Barcha kameralar<br>bo‘yicha jami ,<br>$\sum Q_{km}$ | .....<br>. | .....<br>.. | .....<br>.. | .....<br>.. | .....<br>.. |

To‘liq kiruvchi issiqliklar miqdorini hisoblash va sovutish uskunasini tanlash. Sovutgich mashinaning talab etilgan sovuqlik unumдорлиги sovuqliкнинг yo‘qotilishi hamda ishchi vaqt koeffitsiyentini hisobga olgan holda aniqlanadi.

$$Q_{0brutto} = \frac{\psi \sum Q_{km}}{b}, Vt \quad (11.7)$$

bu yerda  $\sum Q_{km}$  – barcha kameralarga kiruvchi jamlangan issiqlik miqdorlari,  $Vt$ . Bu kattalik sovutgich mashinaning kompressoriga tushadigan foydali yuklamadan iborat;

$\psi$  – sovuqlikning uskuna (jihoz) da yo‘qotilishini hisobga oluvchi koeffitsiyent. Masalan kameralarni bevosita sovutish qo‘llaniladigan tizimlar uchun  $\psi = 1,07$ ; namakob (sho‘r suv, rassol’ – ruscha) bilan sovutish qo‘llaniladigan tizimlar uchun  $\psi = 1,12$  deb qabul qilinadi;

$b$  – kompressorming ishchi vaqt koeffitsiyenti, 0,75 ga teng olinadi.

Sovutgich mashinani tanlash uchun sovutish agentining qaynash harorati va kondensatsiyalanish harorati, shuningdek sovutgich mashinani o‘rab turgan muhit havosining harorati aniqlanadi.

Freonli sovutgich mashinalar uchun sovutish agentining qaynash harorati kameradagi havo haroratidan  $14\dots16^{\circ}\text{C}$  past olinadi. Havo bilan sovutish kondensatorlari qo‘llaniladigan sovutgich mashinalari uchun kondensatsiyalanish harorati mashina bo‘limidagi havo haroratidan  $10\dots12^{\circ}\text{C}$  yuqori olinadi. Shunday qilib, sovutish agentining qaynash harorati  $t'_0 = t_h - (14\dots16), ^{\circ}\text{C}$  va sovutish agentining kondensatsiyalanish harorati  $t_k = t_{havo} + (10\dots12), ^{\circ}\text{C}$ .

Shundan keyin grafiklar ko'rinishidagi xarakteristikalariga asoslanib,sovutish agentining qaynash harorati, kondensatsiyalanish harorati va  $Q_{0brutto}$  qiymati bo'yicha sovutgich mashinasi, uskuna yoki jihozzi tanlab olinadi.  $Q_o = f(t_0, t_{havo})$  ko'rinishidagi grafik xarakteristikalaridan foydalanib, tanlangan sovutgich mashinasi, uskuna yoki jihozining ishchi sovuqlik unumдорлиgi  $Q'_{0ish}$  aniqlanadi. Hisoblashlar oxirida tanlangan sovutgich mashinasi, uskuna yoki jihozining dastlabki ishchi vaqt koeffitsiyenti quyidagi formula bilan aniqlanadi :

$$b' = \frac{\psi \cdot \sum Q_{km}}{Q'_{0ish}} \quad (11.8)$$

bu yerda  $\sum Q_{km}$  – kompressorga tushadigan foydali yuklamadan iborat bo'lgan va kalorik hisoblashlar natijasida aniqlangan barcha kameralarga kiruvchi jamlangan issiqlik oqimlari , Vt ;

$\psi$  – sovuqlikning uskuna (jihoz) da yo'qotilishini hisobga oluvchi koeffitsiyent ;

$Q'_{0ish}$  – tanlangan mashina ta'minlay oladigan va uning grafik xarakteristikalaridan aniqlangan ishchi sovuqlik unumдорлиги , Vt .

Sovutgich mashinalarining ishchi vaqt koeffitsiyenti b – ning qiymati 0,4 dan 0,8 gacha oraliqda bo'lishi lozim. Bu barcha hisoblashlarning to'g'riligidan dalolat beradi .

### Nazorat savollari :

1. Kalorik hisoblashning maqsadi va vazifalarini aytib bering .
2. Jami kiruvchi issiqliklar miqdori qanday formula bilan aniqlanadi ? Uni to'liq izohlab bering .
3. To'sinlar orqali kiruvchi issiqliklar nimadan iborat va uning miqdori qanday aniqlanadi ?
4. To'sin orqali haroratlar farqi tufayli uzatiladigan kiruvchi issiqlik nimadan iborat va uning miqdori qanday aniqlanadi ?
5. Quyosh radiatsiyasi issiqligining yutilishi hisobiga sodir bo'luvchi, kiruvchi issiqlik nimadan iborat va uning miqdori qanday aniqlanadi ?
6. Yuklardan , ular sovutilganida chiquvchi issiqlik miqdori nimadan iborat va u qanday aniqlanadi ?
7.  $Q_2$  – ni aniqlash formulasidagi ayrim ko'rsatkichlar qanday aniqlanadi yoki ularning qiymati qanday asosda tanlab olinadi ?
8. Kamera ventilyatsiyalanganida kiruvchi issiqlik miqdori nimadan iborat va u qanday aniqlanadi ?

9. Ekspluatatsiyaviy kiruvchi issiqliklar nimadan iborat va ularning miqdori qanday aniqlanadi ?
10. Sovutgich mashinaning talab etilgan sovuqlik unumdorligi qanday aniqlanadi?
11. Sovutgich mashinalar uchun sovutish agentining qaynash harorati va kondensatsiyalanish harorati bu hisoblashlarda qanday maqsadda kerak ? Xususan freonli mashinalar uchun bu ko'rsatkichlar qanday aniqlanadi ?
- 12 . Sovutgich mashinasi , uskuna yoki jihoz qanday tanlab olinadi ?
13. Sovutgich mashinasi , uskuna yoki jihozining dastlabki ishchi vaqt koeffitsiyenti qanday aniqlanadi ? Uning qiymati qanday kattalikda bo'lishi lozim ?

## **IV BO'LIM. CHORVACHILIK VA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI SAQLASHDA QO'LLANILAYOTGAN SOVUTISH USKUNA VA JIHOZLARINING BOSHQA TURLARI**

### **12. Kichik qayta ishlash korxonalari uchun tayyor bug' – kompressorli sovutish jihozlari va uskunalari**

#### **Tayanch iboralar:**

*Yig'ma sovutish kamerasi, konstruktiv xususiyatlar, standart o'lcham qatori, sovutish shkafi, sovutiluvchi vitrina, sovutiluvchi prilavok, maishiy (uy-ro'zg'or) sovutgichlari, issiqlik uzatish koeffitsiyenti.*

#### **Tijorat sovutgich jihozlari to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar.**

Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash kichik korxonalarida oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun statsionar sovutgichlar bilan birgalikda *tijorat sovutgich jihozlari* ham keng ko'lama qo'llaniladi. Bunday sovutgichlar sovutilgan yoki muzlatilgan ovqatlar, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor ovqatlarni saqlash, ularni sotish uchun qisqa muddatli saqlash hamda namoyish qilish uchun mo'ljallangandir .

Tijorat sovutish jihozlari quyidagilarni o'z ichiga oladi : tayyor sovutgich kameralari, sovutgich shkaflari, sovutgichli vitrinalar, prilavkalar va prilavka – vitrinalar.

Tayyor sovutgich kameralari xom ashyo va oziq-ovqat zahirasini bir necha kun saqlash uchun ishlatiladi. Sovutgich shkaflari esa odatda bir kunlik zahirani saqlash uchun ishlatiladi. Sovutgichli prilavkalar ish joyidagi mahsulotlarni sotish maydonida saqlash uchun mo'ljallangan. Sovutgichli vitrinalarning asosiy maqsadi sotilayotgan mahsulotlarni namoyish qilishdir.

Tijorat sovutgich jihozlarining ayrim turlari ikkita versiyada ishlab chiqariladi. Mo'tadil iqlimli bo'lgan hududlar uchun maksimal muhit harorati 32°C, janubiy viloyatlar uchun esa maksimal 40°C haroratda ishlashi kutiladigan jihozlar. Janubiy viloyatlar uchun jihozlar mo'tadil iqlimli mintaqalarga qaraganda yuqori sovutish quvvatiga ega bo'lgan mashinalar bilan jihozlangan va mustahkamlangan gidroizolyatsiya hamda metall qismlarning korroziyaga qarshi qoplamasini bilan yaxshi ta'minlangan versiyada bo'ladi .

Sovutgich hajmining ichidagi havo harorati jihozning turiga ,

undagi mahsulotlarning xilma-xilligi va saqlash davomiyligiga qarab belgilanadi. Sovutgichli tijorat jihozlari sovutish hajmidagi haroratga qarab quyidagilarga bo‘linadi: o‘rta haroratli – musbat haroratli, ular sovutilgan mahsulotlarni saqlash uchun mo‘ljallangan; muzlatilgan ovqatlarni saqlash uchun mo‘ljallangan past haroratli; ham sovutilgan, ham muzlatilgan mahsulotlarni saqlash uchun mo‘ljallangan birlash-tirilgan turdagи jihozlar. Sovutilgan mahsulotlar uchun mo‘ljallangan qurilmalarda ichki havo harorati quyidagicha qabul qilinadi: yig‘ma kameralarda 0 dan 2°C gacha, shkaflarda 1 dan 3°C gacha; 2 dan 4°C gacha bo‘lgan harorat – prilavkalarda va 4 dan 6°C gacha bo‘lgan harorat vitrinalarda. Past haroratli kameralar va shkaflar uchun bu ko‘rsatkich  $-18^{\circ}\text{C}$  ga, past haroratli prilavkalar va vitrinalarda esa  $-15$  dan  $-13^{\circ}\text{C}$  gacha teng deb olinadi.

Sovutgichli tijorat jihozlarida sovutish jarayonini amalga oshirish uchun asosan kompressorli sovutish mashinalari, ayrim hollarda absorbsiyaviy-difuziyaviy mashinalar ishlataladi. Ba’zi hollarda esa bu maqsadda quruq muz ishlataladi. Sovutgich shkaflari, prilavka va vitrinalarni sovutish uchun kompressor – kondensator agregatları ularning ichida o‘rnatilgan bo‘ladi yoki ularga yonma-yon o‘rnatiladi. Kameralar esa odatda alohida agregatlar yordamida sovutiladi.

Tijorat sovutgich jihozlari uchun amaldagi Texnik shartlar va GOST talablariga muvofiq agregatlarning ish vaqtini koeffitsiyenti 0,75 dan oshmasligi kerak. Bunda belgilangan ish vaqtini koeffitsiyenti qiymatida va atrof-muhit harorati 32 yoki  $40^{\circ}\text{C}$  bo‘lganida sovutiladigan hajmlarda ko‘zlangan haroratning ta‘minlanishi uchun, o‘sha amaldagi standartlar talablari bilan musbat haroratli jihozlar izolyatsiyalangan konstruktivalarining issiqlik uzatish koeffitsiyentlarining qiymati  $0,7 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot ^\circ\text{C})$  dan yuqori bo‘lmasligi va past haroratli jihozlarning izolyatsiyalangan konstruktivalarini uchun esa  $0,5 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot ^\circ\text{C})$  dan oshmasligi lozimligi belgilab berilgan. Sovutgichli tijorat jihozlarida issiqlik izolyatsiyasi sifatida asosan penoplastlar va mipora qo‘llaniladi. Kamroq hollarda bu maqsadda shisha momig‘i va ba’zi boshqa materiallar ishlataladi.

**Yig‘ma sovutish kameralari, ularning konstruktiv xususiyatlari va standart o‘lcham qatori.** Yig‘ma sovutish kameralari alohida panellardan tayyorlanadi. Hozirgi vaqtida chiqarilayotgan kamera modellarining panelлari unifikatsiyalangan. Ular boltlar va burchakli po‘lat profillar vositasida, o‘rnatiladigan joyida, yagona

sovutish qurilmasini yig‘ish bilan tayyorlanadi. Shu sababli yig‘ma sovutish kameralari deb ataladi. Agar kamerani siljitish zarur bo‘lsa, uni qismlarga ajratish va boshqa joyga qaytadan o‘rnatish mumkin .


Kameralar ichida, yon devorlarda, mahsulotlarni saqlash uchun mo‘ljallangan yog‘och panjaralari tokchalari bor qatpoyalar (stellajlar) o‘rnatilgan. Ship ostida ilgaklarga ega ilgichlar bor, ular saqlanadigan mahsulotlarni osib qo‘yish uchun mo‘ljallangandir. Polda esa idishlar (quti, bochka, savat) dagi mahsulotlarni joylashtirish uchun yog‘ochdan yasalgan panjara – tagpoya (podtovarnik) qo‘yilgan.

61–rasmda keltirilgan sxematik tasvir yig‘ma sovutish kameralarining o‘rnatiladigan joyida qanday yig‘ilishini ko‘rsatadi. 62–rasmda hozirgi vaqtida ishlab chiqarilayotgan yig‘ma sovutish kameralarining bir turi – Polair kamerasining tashqi ko‘rinishi ko‘rsatilgan . 63–rasmda esa uning ichki hajmi tasvirlangan .

Polair tipidagi yig‘ma sovutish kameralari 2 variantdagi ko‘rinishda ishlab chiqariladi. Birinchi variantdagi kameralar o‘rtा haroratli Polair kameralari bo‘lib, ularning ishchi hajmida havoning harorati  $-5^{\circ}\text{C}$  gacha darajada o‘rnatilishi mumkin. Ikkinci variantdagilari past haroratlari Polair kameralari, bularda ishchi harorat  $-25$  dan  $-5^{\circ}\text{C}$  gacha oraliqda tutib turilishi mumkin.

Shunday zamonaviy yig‘ma sovutish kameralaridan yana bir turi KXH-6,6 kamerasi (64–rasm) bo‘lib, uning tarkibiga sovutgich monobloki ALS 117 kiradi. Ushbu yig‘ma sovutish kamerasi sovutilgan va muzlatilgan mahsulotlarni saqlash uchun, shu jumladan bu mahsulotlarni sotuv joylarida saqlash uchun mo‘ljallangan. Uning texnik xarakteristikasi quyidagicha : ichki hajmi  $6,6 \text{ m}^3$ , gabarit o‘lchamlari  $1960*1960*2200$  mm, panellar qalinligi 80 mm, iste’mol qilinadigan quvvati 2 kVt, harorat rejimi  $-18...-16^{\circ}\text{C}$ , elektr kuchlanishi 220 V, massasi 350 kg. KXH – 6,6 yig‘ma sovutish kamerasi Ariada kompaniyasi tomonidan ishlab chiqariladi. (Izoh: KXH abbreviaturasi ruscha kamera xolodil’naya nizkotemperurnaya so‘zlaridan olingan).

Past haroratlari Ariada monobloki ALS 117 sovutgich qurilmasi bo‘lib , u hajmi 4 dan  $10 \text{ m}^3$  gacha bo‘lgan kameralar uchun to‘g‘ri keladi. Sovutish agenti sifatida R-404 ishlatiladi, kompressorming quvvati 1,1 kVt, havo bilan sovutiladigan kondensator, ventilyator quvvati 0,1 kVt . Bug‘latgichni avtomatik eritish tizimiga ega . Sovutish agenti R – 404 kimyoviy aralashma bo‘lib , R125 , ya’ni



61-rasm.Yig'ma sovutish kamerasing o'rnatilish joyida tayyorlanishini ko'rsatuvchi sxematik tasviri



62-rasm. Polair tipidagi yig'ma sovutish kamerasingning tashqi ko'rinishi

$\text{CHF}_2\text{CF}_3$ ; R143a , ya'ni  $\text{CH}_3\text{CF}_3$  va R134a , ya'ni  $\text{CH}_2\text{FCF}_3$  larning massa bo'yicha  $44\% + 52\% + 4\%$  aralashmasidan iborat. (Izoh: ALS abbreviaturasi inglizcha Ariada Low System so'zlaridan olingan).

Yig'ma sovutish kameralarining standart o'lcham qatori deyilganda bir tipidagi kameralarning turli ishchi hajmlarda ishlab chiqarilgan modifikatsiyalari ko'zda tutiladi. Masalan Polair tipidagi yig'ma sovutish kameralari 3 kub m dan 100 kub m gacha ishchi hajmlarda ishlab chiqariladi. Bunda barcha modellar bir xil tuzilishga ega bo'lib, ular gabarit o'lchamlari, kamera tarkibiga kiruvchi bug'-kompressorli sovutish agregatining sovuqlik unumдорligi, quvvati va boshqa texnik ko'rsatkichlari bilan bir-biridan farq qiladi. Muayyan bir turdag'i yig'ma sovutish kameralarining standart o'lcham qatori 12.1-jadvalda keltirilgan .



63-rasm. Polair tipidagi yig'ma sovutish kamerasingning ichki ko'rinishi

sovutish qurilmasini yig‘ish bilan tayyorlanadi. Shu sababli yig‘ma sovutish kameralari deb ataladi. Agar kamerani siljitish zarur bo‘lsa, uni qismlarga ajratish va boshqa joyga qaytadan o‘rnatish mumkin .


Kameralar ichida, yon devorlarda, mahsulotlarni saqlash uchun mo‘ljallangan yog‘och panjaralari tokchalari bor qatpoyalar (stellajlar) o‘rnatilgan. Ship ostida ilgaklarga ega ilgichlar bor, ular saqlana-digan mahsulotlarni osib qo‘yish uchun mo‘ljallangandir. Polda esa idishlar (quti, bochka, savat) dagi mahsulotlarni joylashtirish uchun yog‘ochdan yasalgan panjara – tagpoya (podtovarnik) qo‘yilgan.

61–rasmda keltirilgan sxematik tasvir yig‘ma sovutish kameralarining o‘rnatiladigan joyida qanday yig‘ilishini ko‘rsatadi. 62–rasmda hozirgi vaqtida ishlab chiqarilayotgan yig‘ma sovutish kameralarining bir turi – Polair kamerasining tashqi ko‘rinishi ko‘rsatilgan . 63–rasmda esa uning ichki hajmi tasvirlangan .

Polair tipidagi yig‘ma sovutish kameralari 2 variantdagi ko‘rinishda ishlab chiqariladi. Birinchi variantdagi kameralar o‘rta haroratli Polair kameralari bo‘lib, ularning ishchi hajmida havoning harorati  $-5^{\circ}\text{C}$  gacha darajada o‘rnatilishi mumkin. Ikkinci variantdagilari past haroratlari Polair kameralari, bularda ishchi harorat  $-25$  dan  $-5^{\circ}\text{C}$  gacha oraliqda tutib turilishi mumkin.

Shunday zamonaviy yig‘ma sovutish kameralaridan yana bir turi KXH-6,6 kamerasi (64–rasm) bo‘lib, uning tarkibiga sovutgich monobloki ALS 117 kiradi. Ushbu yig‘ma sovutish kamerasi sovutilgan va muzlatilgan mahsulotlarni saqlash uchun, shu jumladan bu mahsulotlarni sotuv joylarida saqlash uchun mo‘ljallangan. Uning texnik xarakteristikasi quyidagicha : ichki hajmi  $6,6 \text{ m}^3$ , gabarit o‘lchamlari  $1960*1960*2200$  mm, panellar qalinligi  $80$  mm, iste’mol qilinadigan quvvati  $2 \text{ kVt}$ , harorat rejimi  $-18...-16^{\circ}\text{C}$ , elektr kuchlanishi  $220 \text{ V}$ , massasi  $350 \text{ kg}$ . KXH –  $6,6$  yig‘ma sovutish kamerasi Ariada kompaniyasi tomonidan ishlab chiqariladi. (Izoh: KXH abbreviaturasi ruscha kamera xolodil’naya nizkotemperurnaya so‘zlaridan olingan).

Past haroratlari Ariada monobloki ALS 117 sovutgich qurilmasi bo‘lib , u hajmi  $4$  dan  $10 \text{ m}^3$  gacha bo‘lgan kameralar uchun to‘g‘ri keladi. Sovutish agenti sifatida R-404 ishlatiladi, kompressorning quvvati  $1,1 \text{ kVt}$ , havo bilan sovutiladigan kondensator, ventilyator quvvati  $0,1 \text{ kVt}$  . Bug‘latgichni avtomatik eritish tizimiga ega . Sovutish agenti R – 404 kimyoviy aralashma bo‘lib , R125 , ya’ni



61-rasm.Yig'ma sovutish kamerasining o'rnatilish joyida tayyorlanishini ko'rsatuvchi sxematik tasviri




62-rasm. Polair tipidagi yig'ma sovutish kamerasining tashqi ko'rinishi

$\text{CHF}_2\text{CF}_3$ ; R143a , ya'ni  $\text{CH}_3\text{CF}_3$  va R134a , ya'ni  $\text{CH}_2\text{FCF}_3$  larning massa bo'yicha  $44\% + 52\% + 4\%$  aralashmasidan iborat. (Izoh: ALS abbreviaturasi inglizcha Ariada Low System so'zlaridan olingan).

Yig'ma sovutish kameralarining standart o'lcham qatori deyilganda bir tipidagi kameralarning turli ishchi hajmlarda ishlab chiqarilgan modifikatsiyalari ko'zda tutiladi. Masalan Polair tipidagi yig'ma sovutish kameralari 3 kub m dan 100 kub m gacha ishchi hajmlarda ishlab chiqariladi. Bunda barcha modellar bir xil tuzilishga ega bo'lib, ular gabarit o'lchamlari, kamera tarkibiga kiruvchi bug'-kompressorli sovutish agregatiningsovutish unumdonligi, quvvati va boshqa texnik ko'rsatkichlari bilan bir-biridan farq qiladi. Muayyan bir turdag'i yig'ma sovutish kameralarining standart o'lcham qatori 12.1-jadvalda keltirilgan .



63-rasm. Polair tipidagi yig'ma sovutish kamerasining ichki ko'rinishi



64-rasm. KXH-6,6 yig'ma  
sovutish kamerasi

12.1-jadval

*Yig'ma sovutish kameralarining standart o'lcham qatori*

| Texnik ko'rsatkichlarning nomi       | KXH-2,94              | KXH-4,41              | KXH-6,61              |
|--------------------------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|
| Gabarit o'lchamlari , mm             | 1360 * 1360 *<br>2200 | 1960 * 1360 *<br>2200 | 1960 * 1960 *<br>2200 |
| Hajmi , m <sup>3</sup>               | 2,94                  | 4,41                  | 6,61                  |
| Atrof-muhit havosining harorati , °C | - 30...+ 40           | - 30...+ 40           | - 30...+ 40           |

12.1-jadval (davomi)

| KXH-7,71              | KXH-8,81              | KXH-11,02             | KXH-11,75             | KXH-1,44<br>Minicella MM                        |
|-----------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|---|
| 2260 * 1960 *<br>2200 | 2560 * 1960 *<br>2200 | 3160 * 1960 *<br>2200 | 2560 * 2560 *<br>2200 | 1000 * 1150 *<br>2615                           |
| 7,71                  | 8,81                  | 11,02                 | 11,75                 | 1,44  |
| - 30...+ 40           | - 30...+ 40           | - 30...+ 40           | - 30...+ 40           | Ishchi<br>haroratlar<br>oralig'i<br>-5...+ 5 °C |

**Sovutgich shkaflari , ularning konstruktiv xususiyatlari .** Yig'ma sovutish kameralari chorvachilik mahsulotlarini qayta ishslash sohasidagi kichik quvvatli korxonalarda bemalol xom ashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni saqlash uchun omborxonalar vazifasini bajarishi mumkin . Shu bilan birgalikda bunday mahsulotlarni oz miqdorda ishlab chiqarish tsexlari doirasida saqlash, tayyor va yarim tayyor mahsulotlarni sotuv nuqtalari – do'konlarida qisqa muddatli saqlash zarurati ham bor. Bu muammoning hal etilishi uchun tijorat sovutgich jihozlari ichida *sovutgich shkaflari* mavjud bo'lib, ular sovutgich qurilmalari safida muhim o'rinn egallaydi .


Hozirgi vaqtda sovutgich shkaflari jahoning bir necha maml-

katlarida har xil kompaniyalar tomonidan ishlab chiqariladi. Tijorat maqsadlarida ishlab chiqariladigan va bozorda keng tarqalgansovutgich shkaflaridan bir turi POLAIRsovutgich shkaflaridir. Sovutgich shkaflarining o'ziga xos xususiyatlarni aynan shu POLAIR jihozlari misolda ko'rib chiqamiz.

POLAIRsovutgich shkaflari amaldagi mavjud barchatalablar, shu jumladan davlat hamda soha talablarini va me'yorlarini e'tiborga olib yaratilgan. Ular GOST 23833-95 "Savdosovutgich jihozlari" talablariga to'liq mos keladi va barcha zaruriy sertifikatlarga ega.

Barcha POLAIRsovutgich shkaflari 4 seriyada ishlab chiqariladi: POLAIR Standard, POLAIR Grande, POLAIR Bravo va POLAIR Professionale. POLAIRsovutgich shkaflarining turlari 65-rasmdako'rsatilgan.

POLAIR Standard va POLAIR Grande bir xil xossalarga, xarakteristikalarga hamda xususiyatlarga ega. Ularning orasidagi farq korpusni yopib turuvchi materiallarda va eshiklar turida. POLAIR Standardsovutgich shkaflari polimer qoplamlami po'latdan yasalgan (65a-rasm). POLAIR Grandesovutgich shkaflari esa zanglamaydigan po'latdan yasalgan (65b-rasm). POLAIR Bravo kompaktsovutgich shkaflari model' qatori bo'lib, ular oynali eshiklar bilan jihozlangan (65d-rasm). POLAIR Professionalesovutgich shkaflari seriyasi ham oynali eshiklarga ega, lekin POLAIR Bravo seriyasidan farq qilib maxsus ichimliklar uchun ishlab chiqarilgan. Shunga mos ravishda POLAIR Professionale shkaflari ichimliklar saqlanishini e'tiborga oluvchi keng ko'lAMDAGI opsiyalar va aksessuarlarga ega.



65-rasm. POLAIRsovutgich shkaflarining ayrim turlari : a - metall eshikli , b - zanglamaydigan po'latdan yasalgan , d - oyna eshikli

POLAIRsovutgich shkaflarining bir guruhi, shu jumladan R290 (propan)sovutish agentida ishlaydigan variantda ishlab chiqariladi, bu o'z navbatida 50% gacha elektr energiyaning iste'mol qilinishini kamaytirish imkonini beradi. Xususan, aniqlanganki R134asovutish

agentida ishlovchi sovutgich shkafi bir sutkada 4,7 kVt.saat elektr energiyasini iste'mol qiladi, R290 sovutish agentida ishlovchi xuddi shunday shkaf esa bir sutkada 2,1 kVt.saat elektr energiyasini iste'mol qiladi, ya'ni iqtisod 55% ni tashkil etadi. Sovutgich shkaflari bir tavaqali va ikki tavaqali eshiklar bilan ishlab chiqariladi, ularning ishchi hajmi 80 dan 1500 litrgacha ( $1,5 \text{ m}^3$  gacha) bo'ladi.

*Sovutgich shkaflarining tuzilishi.* Sovutgich shkaflarining (66-rasm) barchasi, (juda katta hajmli modellar bundan istisno) shkafning maxsus mashina bo'limida joylashtirilgan freonli germetik agregatlar bo'lgan sovutish mashinalari bilan sovutiladi. POLAIR sovutgich shkaflarida mashina bo'limi shkafning ustki qismida joylashtiilgan.

Tuzilishiga ko'ra, ularning barchasi karkasli konstruktsiyaga ega. Shkafning sovutiladigan qismida, kamerada, karkas har tomonidan ikki qavatlari: tashqi tomonidan varaq po'latdan, ichki tomonidan alyuminiy yoki zanglamaydigan po'latdan yasalgan qoplama ega. Qoplamlar orasiga issiqlik izolyatsiyasi qo'yiladi. Mashina bo'limi izolyatsiya qilinmagan. Bu bo'lim tashqi tomonlaridan qoplama ega bo'lib, bu qoplama sovutish kamerasining tashqi qoplamasi bilan birlashib ketadi.



66 – rasm . Polair CV110-Gm Alu  
sovutgich shkafi

Sovutgich kamerasining eshiklari ham ikki qavatli qoplama ega va issiqlik izolyatsiyasi bilan ta'minlangan. Eshikning zich yopishib turishi profilli rezina qistirma va maxsus qistirgich (zatvor) yordamida ta'minlanadi. Sovutgich shkaflarining tashqi tomoni to'g'risida yuqorida ma'lumot berilgan edi.

Shkaflarning sovutish kameralarida mahsulotlarni joylashtirish uchun mo'ljallangan panjaralari metall tokchalar o'rnatiladi. Kameraning ichki

qismi cho'g'lanish yoki lyuminestsent lampalari bilan yoritiladi. Kamera eshiklari ochilganida lampalar avtomatik ravishda yonadi.

Muayyan bir kompaniya tomonidan ishlab chiqariladigan sovut-

gich shkaflarining standart o'lcham qatori to'g'risida 12.2-jadval ma'lumotlari asosida fikr yuritish mumkin.

12.2 – jadval

*POLAIR sovutgich shkaflarining standart o'lcham qatoriga misol*

| Texnik ko'rsatkichla rining nomi             | Polair CV110–Gm Alu                          | Polair ШХФ–1,4 DC  | Polair ШХФ–0,7 DC   | Polair ШХКФ–1,4 (0,7–0,7)                                    | Polair ШХФ–1,4   |
|--|--|--|---|--|--|
| Hajmi , dm <sup>3</sup>                      | 1000   | 1400   | 700   | 700 + 700  | 1400   |
| Gabarit o'l-chamlari, mm                     | 1474x695x 2028                               | 1402x945x 2028   | 697x945x 2028   | 1402x895x 2028   | 1402x895x 2028   |
| Sovutgich aggregatining joylashishi          | Yuqorida joy – lashgan                       | Yuqorida joy – lashgan                                   | Yuqorida joy – lashgan                                    | Yuqorida joy – lashgan                                       | Yuqorida joy – lashgan                                       |
| Ishchi haro-ratlar , °C                      | -5...+ 5                                     | + 1...+ 15   | + 1...+ 15  | + 1...+ 15 / + 1...+ 15                                      | + 1...+ 15   |
| Devorlarning qaliligi, mm                    | 43   | 43   | 43  | 43   | 43   |
| Sovutish agenti                              | Freon–R134A                                  | Freon–R134A  | Freon–R134A   | Freon–R134A  | Freon–R134A  |
| Jihozning ishslash tashqi muhitining tavsifi | Harorat +40°C gacha nisbiy namlik 80 % gacha | Harorat +32°C gacha nisbiy namlik 60 % gacha             | Harorat +32°C gacha nisbiy namlik 60 % gacha              | Harorat +40 °C gacha nisbiy namlik 80 % gacha                | Harorat +40 °C gacha nisbiy namlik 80 % gacha                |
| Eshiklarining va korpusining turi            | 2 tavaqali zanglamay digan po'latdan         | 2 tavaqali oynali ehsik polimer qoplamlari po'lat korpus | Eshik 1 tavaqali oynali, polimer qoplamlari po'lat korpus | 2 tavaqali polimer qoplamlari po'lat eshik va shunday korpus | 2 tavaqali polimer qoplamlari po'lat eshik va shunday korpus |

**Sovutiluvchi vitrina va prilavkalar, ularning konstruktiv xususiyatlari.** Sovutiluvchi vitrina va prilavkalar sovutilgan yoki muzlatilgan ovqatlar, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarni sotuv joyida qisqa muddatli saqlash hamda namoyish qilish uchun mo'ljallangandir. Sovutgichli vitrinalar uchta turda ishlab chiqariladi: sotuvchilar bilan savdo qilish, o'z–o'ziga xizmat ko'r-satish do'konlari uchun va kombinatsiyalangan – har ikkala savdo shakli uchun. Sovutgichli prilavkalar esa ikki turda ishlab chiqariladi: yopiq turdag'i va shaffof eshikli prilavkalar. Yopiq turdag'i

prilavkalar sotuvchining ish o'mida tez buziluvchi mahsulotlarning mavjud zahirasini saqlash uchun mo'ljallangan. Shaffof eshikli prilavkalar mahsulotlarning zahirasini saqlash, namoyish etish va sotish uchun mo'ljallangan, shu sababli ular savdo zallarida, xo-nalarida, ya'ni sotuvchi bevosita bo'lмаган joylarda qo'yiladi.


Sovutiluvchi vitrina va prilavkalarida mahsulotlarni saqlash rejimlari sovutgich shkaflaridagi rejimlardan farq qilmasligi mumkin. Bu sovutgich qurilmalari tarkibiga sovutish agregati mujassamlash-tirilgan yoki alohida montaj qilinadigan sovutish agregati bilan komplektatsiya qilinishi mumkin. Shu bilan birgalikda ular markaz-lashgan sovuqlik bilan ta'minlash tizimiga ulanishi ham mumkin.

Sovutiluvchi vitrina va prilavkalar bir necha sektsiyalardan iborat bo'lishi mumkin. Bu holda ular o'rnatilish joyida yon tomonlari bilan bir-biriga ulanadi. Tashqi tomonidan har bir sektsiya oq emal' qoplamlari po'lat varaqlar bilan yopilgan, ichki tomonidan esa alyuminiy varaqlar bilan qoplangan. Po'lat va alyuminiy varaqlar orasidagi qatlam issiqlik izoyatsiyasi vazifasini bajaruvchi penoplast bilan to'ldirilgan. Prilavkalarining chetlari silliqlangan zanglamaydigan po'lat bilan qirralangan.

Sovutiluvchi vitrina va prilavkalarining tashqi ko'rinishi 67–69 rasmlarda ko'rsatilgan.



67 – rasm . Sovutiluvchi vitrina  
Veneto VS – 1,3 Cube



68 – rasm . Sovutiluvchi prilavka  
Abat

Sovutilgan mahsulotlarni prilavka ichidan olish va unga qo'yish uning ustki ochiladigan devorchasi orqali amalga oshiriladi. Prilavka-ning ichki hajmi yoritgich bilan ta'minlangan tokcha vositasida yo-

ritiladi. Yoritgichli tokchaning gorizontal sirti bir vaqtning o‘zida mahsulotlarni qo‘yish uchun ham ishlataladi.

Sovutiluvchi vitrina-prilavka (69-rasm) bu kompleks jihoz bo‘lib, u mahsulotlar zahirasi saqlanadigan prilavkadan va prilavka ustiga o‘rnatilgan vitrinadan iborat. Vitrina mahsulotlarni namoyish qilish va sotish uchun xizmat qiladi. Zaruratiga qarab mahsulotlar prilavka ichidan vitrinaga o‘tkaziladi.

Vitrinalarning muhim xususiyati shundaki (67, 69-rasmlar), ular hamma tomonidan oynalangam bo‘ladi. Bunda xaridorga qaratilgan peshona tomonidan va yon tomonidan vitrina ikki qavatlari oynalar bilan qoplangan, sotuvchi tomonidan esa suriluvchi oynali eshikcha va ishchi stol bilan ta’minlangan. Yoritish lyuminessent lampalar vositasida amalga oshiriladi.


**Maishiy (uy-ro‘zg‘or) sovutgichlari, ularning konstruktiv xususiyatlari .** Maishiy (uy – ro‘zg‘or) sovutgichlari umumiyligi va maxsus maqsaddagi sovutgichlarga bo‘linadi. Umumiyligi maqsaddagi sovutgichlar turli tez buziluvchi oziq-ovqat mahsulotlarini, yarim tayyor mahsulotlarni hamda tayyor ovqatlarni sovutish va sovutilgan holatda saqlash uchun qo‘llaniladi. Shu bilan birgalikda umumiyligi maqsaddagi sovutgichlar ko‘p bo‘lmagan miqdordagi muzlatilgan mahsulotlarni saqlash va oziq-ovqat muzi kubiklarini tayyorlash imkonini ham beradi.



69 – rasm . Sovutiluvchi vitrina – prilavok

Maxsus maqsaddagi sovutgichlar – bu sovutgich – muzlatgichlar bo‘lib, ular uy-ro‘zg‘or sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini muzlatish va mahsulotlarni muzlatilgan holda saqlash uchun qo‘llaniladi. Tabiiyki, maxsus sovutgich – muzlatgichlar faqat

oldindan muzlatilgan mahsulotlarni saqlash uchun ham ishlatalishi mumkin. Buning uchun ular faqat saqlash rejimida ishlatalidi. Maxsus maqsaddagi sovutgichlar boshqa variantda muzlatilgan va sovutilgan oziq-ovqat mahsulotlarini alohida saqlash uchun ishlab chiqarildi. Bu holda ular ikkita kameraga ega bo‘ladi: sovutilgan mahsulotlarni saqlash kamerasi va muzlatilgan mahsulotlarni saqlash kamerasi. Bunda har qaysi kamera o‘zining eshikchasiga ega.



70 – rasm. Maishiy (uy-ro‘zg’or) sovutgichi kamerasining (A) va kompressorli sovutish qurilmasining (B) umumiy ko‘rinishi

Maishiy (uy-ro‘zg’or) sovutgichlarining konstruktiv xususiyatlari “Uy-ro‘zg’or kompressorli sovutish shkafining ekspluatatsiyaviy ko‘rsatkichlarini tajribada aniqlash” mavzusidagi amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida batafsil o‘rganib chiqiladi. Shu sababli bu yerda biz maishiy sovutgichlarning umumiy tavsifini ko‘rib chiqish bilan cheklanamiz. Maishiy sovutgichlardan bir turining ikki tomonlama : old va orqa tomonidan umumiy ko‘rinishi 70-rasmda ko‘rsatilgan.

#### *Nazorat savollari :*

1. Tijorat sovutish jihozlari qanday turlarga bo‘linadi ?
2. Sovutgichli tijorat jihozlari sovutish hajmidagi haroratga qarab qanday turlarga bo‘linadi va ularda haroratning qiymati qanday qabul qilinadi ?
3. Tijorat sovutgich jihozlariga amaldagi Texnik shartlar va GOST me’yorlariga ko‘ra qanday talablar qo‘yiladi ?
4. Yig‘ma sovutish kameralarining tuzilishi, yasalishi va ishlash prinsipini tavsiflab bering .
5. KXH – 6,6 yig‘ma sovutish kamerasi (sovutgich monobloki ALS

- 117) ning to‘liq texnik ko‘rsatkichlarini tavsiflab bering .
6. Yig‘ma sovutish kameralarining standart o‘lcham qatori deyilganida nimani tushunasiz ?
7. POLAIR sovutgich shkaflari qanday seriyalarda ishlab chiqariladi ? Ularning bir-biridan farqlari nimada ?
8. Sovutgich shkaflarining tuzilishi va ishlash prinsipini tavsiflab bering .
9. POLAIR sovutgich shkaflarining standart o‘lcham qatoridagi shkaflar bir-biridan qanday belgilariga ko‘ra farq qiladi ?
10. Sovutiluvchi vitrina va prilavkalarining tuzilishi va ishlash prinsipini tavsiflab bering .
11. Sovutiluvchi vitrina, prilavka va prilavka – vitrinalarning bir-biridan farq qiluvchi belgilarini hamda texnik ko‘rsatkichlari .

### **13. Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini tashishda sovutgichli transportlar**

#### **Tayanch iboralar:**

*Temir yo‘l transporti, avtomobil transporti, suv transporti, havo transporti, sovutgichli konteynerlar, izotermik, muzli, refrijeratorli, isitiluvchi transport vositalari, oddiy, kuchaytirilgan izolyatsiyali, A, B, C, D, E, F sinflari .*

**Sovutgichli transportning zarurligi, qisqacha tavsifi va uning turlanishi .** Sovutgichli transport vositalari uzlusiz sovutish zanjiri tarmoqlarini birlashtiruvchi element bo‘lib, ular tez buziluvchi mahsulotlarni yigib-terib olish joylaridan saqlash joylariga, saqlash kameralariga, omborxonalarga, qayta ishlash korxonalariga va iste’molchiga tashib , yetkazib berish uchun xizmat qiladi.

Sovutgichli transportning asosiy maqsadi tashilayotgan mahsulotlarning sifati saqlangan holda, ularni ko‘rsatilgan manzilga yetkazishdir.

Sovutgichli transport vositalari quyidagi turlarga bo‘linadi : a) temir yo‘l sovutgichli transporti; b) avtomobil’ sovutgichli transporti; d) sovutgichli suv transporti; e) sovutgichli havo transporti; f) sovutgichli konteynerlar. Bu transport turlari o‘z navbatida sovutlish jarayonining texnologiyasiga qarab: 1) izotermik transport

vositalari; 2) muzli transport vositalari; 3) refrijeratorli transport vositalari; 4) isitiluvchi transport vositalariga bo'linadi.

Kuzovlari issiqlik izolyatsiyali, ya'ni tashqi muhitdagi issiqlik va sovuqlik oqimlarini ichkariga kiritmaydigan yoki kirishini kamaytiradigan materiallardan yig'ilgan transport vositalari *izotermik transport* deb ataladi. Ular izolyatsiya materialining issiqlik uzatish koefitsiyentiga qarab oddiy izolyatsiyali va kuchaytirilgan izolyatsiyali izotermik transportga bo'linadi. To'sinlarining issiqlik uzatish koefitsiyenti  $0,7 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$  ga teng yoki undan kichik qiymatga ega bo'lgan transport *oddiy*, issiqlik uzatish koefitsiyenti  $0,4 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$  ga teng va undan kichik bo'lGAN esa *kuchaytirilgan* izolyatsiyali transport bo'lib hisoblanadi.

Sovutgichli qurilmalarsiz, mashinalarsiz sovutiladigan transport vositalari *muzli transport* deb ataladi. Bunday transportda sovutish muhitlari sifatida muz, muz va tuzli aralashma, quruq muz hamda siqilgan gazlar qo'llaniladi.

Muzli transportda sovutish muhitlari uchun maxsus idishlar (rezervuarlar) o'matilgan bo'lib, bunday transport vositalari sovutilayotgan kuzovning ichidagi havo haroratiga qarab 3 sinfiga bo'linadi :

1. Havo harorati  $7^\circ\text{C}$  dan yuqori bo'lmasa A sinfiga ;
2. Havo harorati  $-10^\circ\text{C}$  dan yuqori bo'lmasa B sinfiga ;
3. Havo harorati  $-20^\circ\text{C}$  dan yuqori bo'lmasa C sinfiga taalluqli bo'ladi .

Sinflarning belgilanishida muhim shart shundan iboratki, bunda tashqi muhit harorati  $+30^\circ\text{C}$  dan ortiq bo'lmashligi lozim. Muzli transportda sovutish agentining (masalan, muz, muz+tuz aralashmasi, quruq muzning va h.k.) qo'shimcha 12 soatga yetadigan miqdori olib yuriladi. Bunday transportning B va C sinfiga taalluqlilarining issiqlik uzatish koefitsiyenti ham  $0,4 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$  dan oshmasligi kerak.

*Refrijeratorli transportga* sovutish mashinalari yoki sovutish qurilmalari yordamida sovutiladigan izotermik transport vositalari kiradi. Bu turdag'i transportning kuzovlari ichidagi havoning harorati sovutish mashinalari yoki sovutish qurilmalari yordamida boshqarilib turiladi. Bunday transport vositalari quyidagi sinflarga bo'linadi : A sinfi refrijeratorlarida harorat  $+12^\circ\text{C}$  dan  $0^\circ\text{C}$  gacha; B sinfi refrijeratorlarida harorat  $+12^\circ\text{C}$  dan  $-10^\circ\text{C}$  gacha; C sinfi refrijeratorlarida harorat  $+12^\circ\text{C}$  dan  $-20^\circ\text{C}$  gacha; D sinfi refrij-

ratorlarida harorat  $+2^{\circ}\text{C}$  dan oshmaydi, E sinfi refrijeratorlarida harorat  $-10^{\circ}\text{C}$  dan oshmaydi va F sinfi refrijeratorlarida harorat  $-20^{\circ}\text{C}$  dan oshmaydi. Bu turdag'i transportning ham B, C, D, E va F sinflari uchun issiqlik uzatish koeffitsiyenti  $0,4 \text{ Vt}/(\text{m}^2\cdot\text{K})$  dan ortiq bo'lmashligi kerak.

*Isitiluvchi transport* deb kuzov ichidagi havo isitish qurilmalari yordamida isitiladigan izotermik transportga aytildi. Bu turdag'i transport kuzovi ichidagi havoning harorati isitish qurilmalari yordamida 12 soatdan oz bo'limgan vaqt mobaynida  $+12^{\circ}\text{C}$  dan past bo'limgan darajada saqlab turiladi. Isitiluvchi transport ham haroratning sozlanishiga qarab quyidagi sinflarga bo'linadi: 1. Tashqi muhitining harorati  $-10^{\circ}\text{C}$  dan past bo'limganlari A sinfiga; 2. Tashqi muhitining harorati  $-20^{\circ}\text{C}$  dan past bo'limganlari B sinfiga tegishli. B sinfiga taalluqli isitiluvchi transportning izolyatsiya to'sinlarining o'rtacha issiqlik uzatish koeffitsiyenti ham asosan  $0,4 \text{ Vt}/(\text{m}^2\cdot\text{K})$  dan oshmasligi kerak.

Sovutilgan chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini tashishda harorat  $+2^{\circ}\text{C}$  dan  $+7^{\circ}\text{C}$  gacha bo'ladi, lekin ularni tashish vaqtining davomiyligi chegaralangan bo'ladi. Masalansovutilgan sut va sut mahsulotlarini tashish 2 sutkadan oshmasligi kerak.

Sovutilgan mahsulotlarni sovutgichli transportda tashishda yuning har qanday nuqtasidagi harorat quyidagi qiymatlardan oshmasligi kerak: a) sovutilgan va konsentrangan meva-sabzavot sharbatlari uchun  $-20^{\circ}\text{C}$ ; b) baliq uchun  $-18^{\circ}\text{C}$ ; d) yog'lar uchun  $-14^{\circ}\text{C}$ ; e) uy parrandalari, yovvoyi o'rdak, melanj, submahsulotlar uchun  $-12^{\circ}\text{C}$ ; f) go'sht uchun  $-10^{\circ}\text{C}$ ; g) boshqa muzlatilgan mahsulotlar uchun  $-10^{\circ}\text{C}$ .

**Temir yo'l sovutgichli transportining tavsifi, afzallikkleri va kamchiliklari.** Hozirgi paytda tez buzuluvchi mahsulotlarning 90% dan ko'prog'i sovutgichli temir yo'l transporti bilan tashilmoqda. Bu turdag'i transport vositalari: a) muzli vagonlar, b) avtonom vagon-refrijeratorlar, d) 5 va 12 ta vagondan iborat bo'lgan seksiyali refrijeratorlar, e) 21 va 23 vagonli poyezd-refrijeratorlar va f) sut, tirik baliq tashuvchi maxsus izotermik vagonlardan iboratdir.

*Muzli vagonlar.* Muzli vagonlar sovutish qurilmasining joylashuviga qarab sovutish qurilmasi yon devorda joylashtirilgan va sovutish qurilmasi shipda joylashtirilgan vagonlarga bo'linadi.

Sovutish qurilmasi yon devorda joylashtirilgan muzli vagonlarni

«cho'ntakli» vagonlar deb ham atash mumkin. Vagonning devorla-ridagi «cho'ntaklarga» muz joylashtirilib, ular ishchi hajmdan sirkulyatsiyaviy po'lat panjaralar bilan chegaralanadi. Muzli vagonning ikkala cho'ntagiga 6,4 tonna muz sig'adi. Muz «cho'ntaklarga» vagonning tomidagi qopqoq-lyuklardan solinadi. Muzning erishidan hosil bo'lgan suv va tuzli eritmalar sifon orqali yo'lga to'kib boriladi. Bu turdag'i vagonlarning kamchiligi shundaki, yuk hajmida havo harorati bir tekisda tarqalmaydi. Bu harorat -9...-12°C chegarada bo'ladi.

Sovutish qurilmasi shipda joylashtirilgan muzli vagonlarda yuk hajmida havo harorati ancha tekis tarqaladi. Vagonlarning 6 ta bir-biriga biriktirilgan va 5,5 tonna muz sig'adigan baklardan iborat sovutish qurilmasi shiplarda joylashtirilgan bo'ladi. Bu sovutish qurilmasi yordamida tashqaridagi havoning harorati +35°C bo'lganda vagondagi yuk hajmidagi harorat -6,5°C dan oshmasligi ta'minlanadi. Vagonlarning sovutish baklariga tomdagi qopqoq-lyuklardan muz va tuzli eritmalar solinadi. Baklardan eriyotgan muz suvi va tuzli eritmalar o'tkazgich – trubalar va sifon orqali yo'lga oqib tushadi.

Vagonning yon tomonidagi sirkulyatsiyaviy to'sin (shit) lar yordamida uning ishchi hajmida havoning ko'ndalang yo'nalishda harakatlanishi ta'minlanadi. Agar mahsulotlarni tashishda isitish kerak bo'lsa, buning uchun vagonlarda pechka o'rnatilishi ko'zda tutilgan. Bu turdag'i vagonlarga muz va tuz solish uchun yo'lning har 350 – 400 km oralig'ida maxsus punktlar joylashtiriladi.

*Poyezd – refrijerator va vagon – refrijeratorlar. 23 vagonli po-yezd refrijeratorda* 20 ta sovutgichli vagon bo'lib, ular poyezdning har ikki chetidan 10 tadan joylashtirilgan. Poyezd o'rtasida 1 ta vagon – mashina bo'limi, 1 ta xizmatchilar vagoni va 1 ta dizel’-elektrostantsiyali energetik vagon joylashtirilgan. Sovutgichli vagonlarning sovutilishi kaltsiy xloridning suvli eritmasidan foydalanish hisobiga amalga oshiriladi. Poyezd refrijeratorlar har qanday tez bузiluvchi mahsulotlarni tashishga mo'ljallangan bo'lib, tashqi havoning harorati +30 dan -45°C gacha bo'lganida, ularning tarkibidagi energetik, sovutish va isitish jihozlari yordamida sovutgichli vagonlarning yuk hajmlaridagi havoning harorati -10 dan +6°C gacha darajada bo'ladi.

Sovutish vagonlari maxsus metallardan yasalib, issiqlik izolyatsiyasi mipora deb ataluvchi materialdan qilinadi. Vagonning shipiga joylashtirilgan sovituvchi qobirg'ali batareyalardagi tuzli eritma

nasos yordamida sirkulyatsiyalanadi. Vagondagi harorat avtomatik ravishda boshqarilib turiladi. Mashina bo'limi vagonida ikkita ammiakli sovutish unumidorligi 90 000 Vt bo'lgan mashina o'matilgan. Bu mashinalarning har biri vertikal 4 silindrli kompressor, havo kondensatori, qobiq trubali bug'latgich, yordamchi jihozlar, nazorat va avtomatika asboblari bilan komplektatsiyalangan.

Energetik vagonda ikkita asosiy dizel-generatorlar o'matilgan bo'lib, ularning har biri 60 kWt quvvatlari uch fazali elektr tokini beradi. Bundan tashqari vagonda yana bir yordamchi dizel-generator bor, uning quvvati 30 kWt. Poyezddagi yoqilg'i zahirasi dizel-larning 8 sutka mobaynida ishlashini ta'minlaydi.

*21 vagonli poyezd refrijeratorda* 18 ta sovutgichli vagon bo'lib, ularning o'rtasida yuqorida aytib o'tilgandek 3 ta vagon joylashtirilgan bo'ladi. Bu refrijeratorlarda tashqaridagi havo harorati +40 dan -45°C gacha bo'lganida sovutish vagonlarining ishchi hajmlarida harorat -10 dan +14°C gacha bo'lishi ta'minlanadi. Vagonning issiqlik izolyatsiyali to'sinlarining o'rtacha issiqlik o'tkazish koeffitsiyenti 0,3 dan 0,5 W/(m<sup>2</sup>·°C) gacha bo'ladi. Havoning sirkulyatsiyasini yaxshilash maqsadida ventilatorlar o'rnatilgan.

Bulardan tashqari 12 vagonli, 5 vagonli va avtonom vagonli refrijeratorlar ham bor. *12 vagonli refrijerator sektsiyasida* 10 ta sovutish vagoni va o'rtasida o'rnatilgan 1 ta vagon-mashina bo'limi va 1 ta vagonda energetik bo'lim hamda xizmatchilar xonasi joylashtirilgan bo'lib, tashqaridagi harorat +30 dan -40°C gacha bo'lganida sovutish vagonlarining yuk hajmlaridagi harorat -15 dan +12°C gacha sozlanib turiladi.

*5 vagonli refrijerator sektsiyasida* esa 4 ta sovutish vagoni va energetik bo'lim bilan xizmatchilar xonasi joylashgan 1 ta vagon bo'ladi.

12 vagonli refrijeratorli sektsiyaning mashina bo'limida 2 ta ikki bosqichli ammiakli sovutish qurilmasi joylashgan bo'lsa, 5 vagonli refrijeratorli sektsiyada esa har bir sovutish vagonida 2 tadan freonli sovutish mashinalari joylashgan. Hozirgi paytda poyezd-refrijeratorlar va 12 vagonli refrijeratorli sektsiyalar chiqarilmay qo'yilgan. Vagon-refrijerator jamlanmalari 5 vagonli refrijerator sektsiyalar va avtonom vagonli refrijeratorlar bilan to'ldirilmoqda.

Avtonom vagonli refrijeratorlar sovutilgan va muzlatilgan har qanday tez buziluvchi mahsulotlarni tashish uchun mo'ljallangan. Vagonlar maxsus metallardan yasalgan bo'lib, issiqlik izolyatsiyasi

esa piaterma deb ataluvchi materialdan qilingan. Vagon poliga rezina to'shalgan. To'sinlarning o'rtacha issiqlik o'tkazish koefitsiyenti  $0,46 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot ^\circ\text{C})$  ga teng bo'lib, vagonda ikkita freonli sovutish mashinasini o'rnatilgan.

**Sovutgichli avtomobil transportining tavsifi, afzalliklari va kamchiliklari .** Sovutgichli avtomobil transporti: a) izotermik kuzovli avtomobillar, b) muzli avtomobillar va d) refrijeratorli avtomobillarga bo'linadi.

*Izotermik kuzovlar* yengil yoki yuk tashuvchi avtomobillarning shassilariga o'rnatiladi. Ular ko'pincha kichik partiyadagi mahsulotlarni qisqa masofalarga tashishga mo'ljallangan bo'ladi. Izotermik kuzov yogoch yoki metall karkaslardan yasalib, tashqi va ichki yuzalari metall qatlamlari bilan qoplanadi. Tashqi va ichki qoplamlarning orasidagi bo'shliq issiqlik izolyatsiyasi materiali (mipora yoki penoplast) bilan to'ldiriladi. Izotermik kuzovga yukning ortilishi va tushirilishi ishlarining qulayligiga qarab, ma'lum o'lchamli eshik qilinadi. Eshik ham issiqlik izolyatsiyali bo'lib, unga maxsus qulf o'rnatilgan bo'ladi. Bunday kuzovli avtomobillar ГАЗ, ЗИЛ, Polshadagi «Nisa» va «Juk» avtomobil zavodlarida ishlab chiqariladi.

*Muzli avtomobillar* kuzovlarining sovutish qurilmalari ham muzli vagonlar singari sovutgich mashinasiz ishlaydi, ular muz-tuzli aralashmalar, quruq muz va suyuq azot bilan sovutiladi.

*Muz - tuzli* aralashma bilan sovutiladigan izotermik kuzovning yon va oldingi devorlariga aralashma bilan to'ldirilgan idishlar joylashtiriladi. Bu usulning samaradorligi past bo'lganligi uchun u ko'p qo'llanilmaydi.

Izotermik kuzovning ishchi hajmini *quruq muz* bilan sovutish samaradorligi yuqori bo'lgan usul bo'lib, bu usul mahsulot va havo haroratini ancha past saqlab turish imkonini beradi, bunda sovuqlik miqdorining oshishi esa mikroorganizmlarning rivojlanishiga, biokimyoiy jarayonlarga, mog'orlanishga to'sqinlik qiladi. Lekin quruq muz qimmat bo'lganligi sababli undan cheklangan miqdorda foydalaniлади. Bu usul asosan muzqaymoq tashishda qo'llaniladi. Bu usulda avtomobil' kuzovidagi harorat  $-25\dots-20^\circ\text{C}$  darajasida bo'ladi.

Izotermik kuzovni sovutish usulining jadalligi eng yuqori bo'lган varianti uni suyuq gaz, ya'ni *suyuq azot* bilan sovutishdir. Suyuq azot kuzovning ishchi hajmiga sepiladi, uning bug'lanishi natijasida kuzov hajmi soviydi. Bu turdag'i avtomobillarda azot saqlanadigan

maxsus rezervuarlar bo'lib, ularni kuzovga uzatish tizimi ham bo'-ladi. Azot bundan tashqari, bakteriya va mog'or zamburug'larining ko'payishiga to'sqinlik qiladi. Azot bilan sovutishning asosiy afzalligi kuzov hajmini va mahsulotni juda tez sovutishidir. Masalan: u mahsulotlarni sovutgichli mashina bilan sovutish tezligidan 25 marta katta tezlikda sovitadi.

Katta partiyadagi sovitilgan yoki muzlatilgan tez buziluvchi mahsulotlarni tashishda *avtomobil* – *refrigeratorlardan* foydalaniladi. Shaharlararo tashishda esa ko'p tonnali avtomobil – refrigeratorlar qo'llaniladi. Ular tyagach va izotermik kuzovli polupritseplardan, shuningdek avtonom sovutish va isitish mashinalaridan iborat bo'-ladi. Kuzovdagи havoning harorati +4 dan -22°C gacha sozlanib turiladi. Sovutish qurilmasi sifatida freonli sovutish mashinasi qo'llaniladi. 7, 10, 12 tonnali polupritsepli tyagachlar Chexiyada ishlab chiqariladi (ular ALKA nomi bilan mashhur).

### **Sovutgichli transport boshqa turlarining qisqacha tavsifi .**

*Sovutgichli suv transporti.* Dengizdagи refrigeratorli transport hamma turdagи mahsulotlarni tashishga mo'ljallangan bo'lib, asosan tashqi savdoda qo'llaniladi. Refrigeratorli kemalar maxsus, muayyan (konkret) mahsulotlar uchun va universal, har xil tez buziluvchi mahsulotlarni tashishga mo'ljallangan kemalarga bo'linadi. Kema sovutish xonasining to'sini izolyatsiyalari maxsus materiallardan, masalan : penopolistirollar yoki penopoliuretanlardan yasalib, ularning o'rtacha issiqlik uzatish koefitsiyenti 0,35 – 0,38  $Vt/(m^2 \cdot ^\circ C)$  chegarada bo'ladi. Sovutish xonasining harorati -20 dan +15°C gacha bo'ladi. Dengiz refrigeratorli transportlaridan tashqari daryo refrigeratorli transportlari ham keng tarqalgan. Ularning yuk ko'tarishi 150 dan 1000 tonnagacha bo'lib, sovutish xonasining harorati -12 dan +2°C gacha bo'ladi. Bularda freonli sovutish mashinalari, havo bilan sovutish va isitish tizimlaridan foydalaniladi.

*Sovutgichli havo transporti* – bu transportda yuk tashish juda qimmat bo'lganligi sababli, u keng tarqalmagan. Bunday transportning asosiy afzalligi uning harakat tezligining balandligidir. Bu transportdan uzoq saqlanishi mumkin bo'lmagan mahsulotlarni : rezavorlarni, gullarni va boshqa shunga o'xshash mahsulotlarni tashishda foydalaniladi. Ular maxsus sovutish qurilmalari bilan jihozlanmagan.

Keyingi yillarda tez buziluvchi mahsulotlarni konteynerlarda ta-

shish keng tarqalmoqda. Refrijeratorli konteynerlar avtonom sovutish mashinasi yoki markazlashtirilgan sovutish usuliga asoslangan, issiqqlik izolyatsiyali idishlar bo'lib, ular yukni yetkazishda har xil transportlar vositasida tashishga mo'ljallangan, masalan : temir yo'l, avtomobil, dengiz transporti va boshqalar vositasida. Mahsulotlar konteynerlarga yuklangandan so'ng ularni tashish, tushirish, ortish ishlari kamayadi, harorat va namlik belgilangan rejimda saqlanadi va yukni yetkazish tezlashadi. Dengizda kema-konteyner tashuvchi, temir yo'lda temir yo'l platformalari va polupritsepli avtomobillar yordamida konteynerlar tashiladi.

### *Nazorat savollari :*

1. Sovutgichli transport vositalari qanday vazifalarni bajaradi ?
2. Sovutgichli transport vositalari qanday turlarga bo'linadi ?
3. Sovutish jarayonining texnologiyasiga qarabsovutgichli transport vositalari qanday turlarga bo'linadi ?
4. Izotermik transport vositalari tushunchasini ta'riflab bering .
5. Muzli transport vositalari tushunchasini ta'riflab bering .
6. Refrijeratorli transport vositalari tushunchasini ta'riflab bering .
7. Isitiluvchi transport vositalari tushunchasini ta'riflab bering .
8. Bir turdag'i Sovutgichli transport vositarining har xil sinflarga bo'linishida asosiy farq qiluvchi ko'rsatkich nimadan iborat ?
9. Sovutilgan mahsulotlarni Sovutgichli transportda tashishda yukning har qanday nuqtasidagi haroratning qiymati qanday bo'lishi kerak ?
10. Temir yo'l Sovutgichli transportining qanday turlarini bilasiz ?
11. Sovutgichli avtomobil' transportining qanday turlarini bilasiz ?
12. Sovutgichli suv transporti to'g'risida nimalarni bilasiz ?
13. Sovutgichli havo transporti to'g'risida nimalarni bilasiz ?

## **14. Absorbsiyaviy sovutish uskuna va jihozlari**

### *Tayanch iboralar:*

*Absorbsiya, adsorbsiya, desorbsiya, absorbsiyaviy sovutish mashinasi (ASM), absorber, qaynatgich, drossel'-ventil', bug'latgich, kondensator, ammiak - suv eritmasi, absorbsiyaviy - diffuziyaviy, brom - litiyli Sovutgich mashinasi .*

## **Absorbsiya jarayoni to‘g‘risidagi umumiy tushunchalar.**

Gaz hamda bug‘ – gaz aralashmalaridagi bir yoki bir necha komponentlarning suyuqlikda tanlab yutilish jarayoni absorbsiya deb ataladi. Yutilayotgan gaz absorbтив, yutuvchi suyuqlik absorbent deyiladi. Absorbтив bilan absorbentning o‘zaro ta’siriga ko‘ra absorbsiya jarayoni ikki xil bo‘ladi : fizik absorbsiya va kimyoviy absorbsiya (xemosorbsiya). Fizik absorbsiyada yutilayotgan gaz bilan absorbent o‘zaro bir-biri bilan kimyoviy birikmaydi. Agar yutilayotgan gaz absorbent bilan o‘zaro birikib, kimyoviy birikma hosil qilsa , xemosorbsiya deyiladi.

Fizik absorbsiya ko‘pincha qaytar jarayondir, ya’ni suyuqlikka yutilgan gazni ajratib olish mumkin bo‘ladi, bu hol desorbsiya deyiladi. Absorbsiya bilan desorbsiya jarayonlarini uzlusiz olib borish natijasida yutilgan gazni toza holda ajratib olish va yutuvchi absorbentni bir necha marta qayta ishlatish imkonи tug‘iladi.

Sanoatda absorbsiya jarayoni turli maqsadlarda qo‘llaniladi :  
1) gaz aralashmalaridan qimmatbaho komponentlarni ajratib olishda;  
2) komponentlarni har xil zaharli moddalardan tozalash uchun;  
3) tayyor mahsulotlar olishda; 4) shu turdagи sovutgich mashinalarida va hokazo. Har bir konkret sharoit uchun tegishli absorbent tanlab olinadi; bunda yutilishi lozim bo‘lgan komponentning absorbentdagи eruvchanligi hisobga olinadi.

Tajriba yo‘li bilan aniqlanganki, absorbsiya jarayonida har doim issiqlikning ajralib chiqishi yuz beradi. Gazlarning suyuq holat-dagi absorbentlardagi eruvchanligi quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi:  
1) gaz va suyuq fazalarning fizikaviy va kimyoviy xossalari; 2) harorat ; 3) gazning aralashmadagi bosimi.

Sovutish mashinasining siklik jarayonida mexanik yoki issiqlik energiyasining sarfi, asosan, ishchi moddani siqishga sarflanadi. Bu jarayonni amalga oshirishda kimyoviy absorbsiya printsiplari bo‘yicha ishlovchi termokimyoviy kompressorlar ishlatilsa, absorbsiyaviy mashinalar deb ataladi.

Absorbsiyaviy sovutish mashinalari (ASM) sun‘iy sovuqlik talab etiladigan turli sohalarda qo‘llaniladi. Bu mashinalarning samaradorligi ko‘p jihatdan uni ishlatishga sarflanayotgan issiqlik miqdoriga bog‘liq. Shuning uchun absorbsiyaviy mashinalarni arzon issiqlik manbai mavjud bo‘lgan hollarda qo‘llash maqsadga muvofiq. Bu manbalar issiqlik suv, suv bug‘i, gaz tutuni, (suyuq, gaz yoki qattiq holdagi yoqilg‘i yonishidan hosil bo‘lgan) yoki kimyo-



viy reaktsiyalar issiqligi va boshqalar bo‘lishi mumkin. Agar bu mashinalar bir vaqtda sovuqlik olish va korxona tashlanmalari is-siqligi hisobiga issiqlik olish uchun ham foydalanilsa, bunday mashinaning samaradorligi sezilarli darajada ortadi.

**Uzluksiz ishlovchi absorbsiyaviy sovutish mashinasining tuzilishi va ishslash prinsipi**. Absorbsiyaviy sovutish mashinalarda oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun barcha sohalarda keng qo‘llanilib kelayotgan bug‘-kompressorli sovutgich mashinalidan farqli o‘laroq, to‘g‘ri va teskari sikllarning birgalikdagi ishlashi natijasida sun‘iy sovuqlik olinadi. Absorbsiyaviy sovutish mashinalarda sikl va jarayonlarni amalga oshirish uchun ikki va uch komponentdan iborat bo‘lgan eritmaldardan foydalaniladi. Hozirgi vaqtda absorbsiyaviy sovutish mashinalarda eritma sifatida keng ko‘lamda ammiakning suvdagi eritmasi, bromli litiy qo‘llanilmoqda. Birinchi eritmada ammiak, ikkinchi aralashmada esa suv – sovutish agenti hisoblanadi.

Absorbentlar (gazni yutuvchi suyuqlik) ga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat :


1. Unda sovutish agenti tez va to‘laroq erishi lozim .
2. Sovutish agentiga nisbatan absorbentning normal qaynash harorati iloji boricha yuqoriroq bo‘lishi lozim .

Absorbsiyaviy sovutish mashinasi quyidagicha ishlaydi (71-rasm) :  $Q_g$  generator (qaynatgichda) tashqi manbadan  $q_{gg}$  – issiqlik uzatilishi hisobiga (sovutish agenti bo‘yicha) kuchli eritma qaynaydi. Qaynash jarayoni o‘zgarmas  $p_k$  bosimda va eritma konsentratsiya-sining uzluksiz kamayishi hamda qaynash haroratining ortishi bilan amalga oshadi. Bunda hosil bo‘lgan sovutish agenti bug‘i va absorbent kondensator  $Kd$  ga o‘tadi, va bu yerda tashqi muhit haroratiga ega bo‘lgan manba yordamida  $q_{kond}$  issiqligi olib ketiladi, sovutish agenti kondensatsiyalanadi. Kondensatorda bug‘ning kondensatsiyalishi  $p_k$  bosimida o‘tadi, bu eritmaning kondensatsiya haroratiga mos keladi. Kondensatordagi suyuqlik drossel’-ventil  $Dv$  da  $p_k$  bosimdan bug‘latkichdagi  $p_o$  bosimgacha drossellanib, bug‘-latgich  $Bg$  ga keladi. Bug‘latgichdagi bosim sovutish agentining qaynash haroratiga bog‘liq bo‘lib, qaynash jarayoni sovutilayotgan muhitdan  $q_o$  issiqlik olinishi natijasida amalga oshiriladi. Hosil bo‘lgan bug‘ absorber  $Ab$  ga keladi.

Absorberda sovutish agenti , ya’ni ammiak bug‘larining absor-

bent – suvgə yutilishi jarayoni sodir bo‘ladi. Shu bilan birgalikda ammiakning kuchsiz eritmasi generatordan  $Vn$  drossel’—ventil’ orqali ham absorberga uzatiladi. Mashina generatorida  $p_k$  bosim, absorberda esa  $p_o$  bosim saqlanadi. Absorberda kuchsiz eritma bug‘ga to‘yinadi, buning natijasida uning konsentratsiyasi ortadi va konsentratsiya generatordagi boshlang‘ich qaynash jarayonidagi qiymatga yetadi. Absorbsiya jarayoni  $q_{ab}$  absorbsiya issiqligining ajralishi bilan boradi va bu issiqlik atrof-muhit haroratiga ega bo‘lgan manba orqali olib ketiladi. Absorbsiya jarayoni natijasida hosil bo‘lgan ammiakning kuchli eritmasi nasos  $N$  bilan absorber  $Ab$  dan qaynatgich—generator  $Qg$  ga haydaladi. Shunday qilib, to‘g‘ri va teskari sikllar birlashadi va uzlusiz mashinaning ishlashi amalga oshiriladi.

Absorbsiyaviy sovutish mashinalarda generator  $Qg$ , drossel’—ventil’  $Vn$ , absorber  $Ab$  va nasos  $N$  da to‘g‘ri termodinamik sikl; kondensator  $Kd$ , drossel’—ventil’  $Dv$ , bug‘latgich  $Bg'$ , absorber  $Ab$ , nasos  $N$  va generator  $Qg$  da teskari termodinamik sikl amalga oshiriladi.



71 – rasm. Absorbsiyaviy sovutgich mashinasini sxemasi



## Absorbsiyaviy sovutish mashinasining issiqlik balansi, issiqlik koeffitsiyenti va samaradorligi .

Absorbsiyaviy sovutish mashinasining issiqlik balansi tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega :

$$Q_{qg} + Q_o = Q_{kond} + Q_{abs} \quad (14.1)$$

bu yerda  $Q_{qg}$  – issiqlik tashuvchi modda tomonidan qaynatgichda suv – ammiak aralashmasiga keltirilgan issiqlik ;

$Q_o$  – bug‘latgichda sovuq issiqlik tashuvchi modda tomonidan qabul qilingan issiqlik miqdori, ya’ni qurilmaning sovutish unumdorligi ;

$Q_{kond}$  – sovuq suv tomonidan kondensatorda olib ketilayotgan issiqlik miqdori ;

$Q_{abs}$  – sovuq suv tomonidan absorberda olib ketilayotgan issiqlik miqdori .

Absorbsiyaviy sovutish mashinasining sovutish koeffitsiyenti quyidagi ifodadan topiladi :  $\varepsilon = Q_o / Q_{qg}$  . (14.2)

Absorbsiyaviy sovutish mashinasining sovutish koeffitsiyenti bug‘-kompressorli sovutish mashinasining sovutish koeffitsiyentidan kichik. Lekin bu mashinalarning nisbiy samaradorligi nafaqat sarflangan energiyaning miqdori, balki uning turiga ham bog‘liq. Absorbsiyaviy sovutish mashinasida kompressor ishlataladigan elektr energiya o‘rniga, ikkilamchi arzon energiya ishlataladi. Buning natijasida ayrim hollarda bunday mashinalarni ishlatish bug‘li-kompressorli mashinalarni ishlatishga nisbatan samaraliroq bo‘lishi mumkin. Ekologiya nuqtanazaridan ham absorbsiyaviy sovutish mashinalarini qo‘llash afzalliklarga ega, chunki bu mashinalarda sovuqlik tashuvchi modda sifatida xlorftoruglevodorodlar (har xil markadagi freonlar) ni ishlatishga zarurat yo‘q. Chunonchi xlorftoruglevodorodlar (har xil markadagi freonlar) yer atmosferasining ozonli qatlamiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birgalikda mashina moyining atrof-muhitga chiqarib tashlanishi mavjud emasligi ham absorbsiyaviy sovutish mashinalarinining ekologik afzalligidir.

Absorbsiyaviy sovutish mashinalarinining asosiy kamchiligi shundan iboratki, ular qizdiruvchi manbaning harorati 70 – 180°C (ko‘pincha 155 – 180°C) oralig‘ida bo‘lganida ishlaydi, shu sababli 70°C gacha bo‘lgan oraliqdagi haroratlardan foydalanimaydi. Boshqacha aytganda , 70°C gacha bo‘lgan haroratlar issiqligi ko‘p hollarda atmosferaga chiqarib tashlanadi , bu esa absorbsiyaviy sovutish


mashinalarining issiqlik samaradorligini pasaytiradi.

**Absorbsiyaviy – diffuziyaviy va brom – litiyli sovutish mashinalari.** Yuqorida keltirilgan sovutish mashinasining ishchi konturiga sovutish agenti va absorbentdan tashqari yengil gaz ko‘rinishidagi uchinchi muhit kiritilsa, nasos singari mexanizmga chtiyoj qolmaydi. Mana shunday o‘zgarish natijasida uzluksiz ishlochchi absorbsiyaviy – diffuziyaviy sovutish mashinasi hosil qilinadi. O‘rtacha sovuqlik unumdorligiga ega bo‘lgan bunday qurilmalar ham chorvachilik mahsulotlarini qayta ishslash kichik korxonalarining sovutish kameralari uchun qo‘llanilishi mumkin.

Absorbsiyaviy – diffuziyaviy sovutish mashinasining principial tuzilish sxemasi 72-rasmda ko‘rsatilgan. Bu qurilmada sovutish agenti sifatida ammiak  $\text{NH}_3$ , absorbent sifatida suv  $\text{H}_2\text{O}$  va diffuziyaviy muhit sifatida vodorod  $\text{H}_2$  qo‘llaniladi. 72-rasmda raqamlar bilan quyidagilar belgilangan: rim raqamlari bilan: I – generator–qaynatgich, II – deflegmator, III – kondensator, IV – bug‘latgich, V – absorber, VI – eritmaning issiqlik almashtirgichi, VII – suyuq ammiak va vodorodni sovutgich, VIII – termosifon, IX – tashqi isitgich, X – absorberning resiveri, XI – vodorodning resiveri; arab raqamlari bilan: 1 – kuchli suv–ammiak eritmasi, 2 – kuchsiz suv–ammiak eritmasi, 3 – ammiak bug‘lari, 4 – suyuq ammiak, 5 – vodorod, 6 – vodorod va ammiak bug‘lari aralashmasi.

Ushbu sovutish qurilmasining barcha apparatlarida bir xil bosim  $p = 1,44 - 1,6 \text{ Mpa}$  o‘rnataladi. Lekin to‘liq bosimning tarkibiy qismlari bo‘lgan ammiakning  $p_a$  va vodorodning  $p_v$  parsial bosimlari har qaysi apparatda turlicha bo‘ladi. Ana shu partsial bosimlarining ayirmasi  $p_a - p_v$  dan sovutish qurilmasida sovutish agenti  $\text{NH}_3$ , absorbent  $\text{H}_2\text{O}$  va diffuziyaviy muhit  $\text{H}_2$  ni harakatga keltiruvchi asosiy yurituvchi kuch sifatida foydalilanadi.

Absorbsiyaviy – diffuziyaviy sovutgich mashinasi quyidagicha ishlaydi. Kuchli suv–ammiak eritmasi absorberning resiveri X dan eritmaning issiqlik almashtirgichi VI ga keladi, unga shuningdek generator–qaynatgich I dan absorber V ga borayotgan kuchsiz eritma ham keladi. Issiqlik almashtirgichda bu ikki oqimlar bir–biriga qarama–qarshi yo‘nalishlarda harakat qilib, unda issiqlik kuchsiz eritmadan sovuq kuchli eritmaga issiqlik uzatiladi. Shuning hisobiga isitilgan kuchli eritma termosifon VIII ga keladi. Termosifon tashqi isitgich IX yordamida qizdiriladi. Tashqi isitgich xo‘jalikda mavjud



72 – rasm. Absorbsiyaviy – diffuziyaviy qurilmalı sovutgich mashinasining prinsipial tuzilish sxemasi

bo‘lgan arzon (keraksiz) energiya manbaidan qizdiriladi. Xususiy holda u, masalan quyosh energiyasi bilan qizdirilishi mumkin. Termosifon VIII da kuchli eritma qisman qaynaydi va emulsiya ko‘rinishida generator I ga keladi, bu yerda uning qaynashi davom ettiriladi. Generator ham tashqi isitgich bilan birgalikda xo‘jalikdagi arzon energiya manbai (xususan quyosh energiyasi) hisobiga qizdiriladi. Generator–qaynatgich I dan eritmaning qaynashida ajralgan ammiak bug‘lari (ularning tarkibiga ozroq absorbent – suv aralashgan bo‘ladi) deflegmator II ga keladi. Deflegmator tashqi muhit yordamida sovutiladi va shuning hisobiga unda flegmaning qisman ajralishi hamda bug‘larning sovutish agenti – ammiak bilan to‘yinishi sodir bo‘ladi.

Deflegmator II dan chiqqan sovutish agenti bug‘lari kondensator III ga keladi va kondensatsiyalanadi. Kondensat – suyuq sovutish agenti avval ammiak va vodorodni sovutgich VII ga kelib, bunda qo‘sishma ravishda sovutiladi. Buning uchun sovutgich VII issiqlik almashtirgich

tarzida yasalgan bo'lib, undan bug'latgich IV dan kelayotgan sovutish agentining sovuq bug'lari ham oqib o'tadi. Mana shuning hisobiga kondensat qo'shimcha soviydi va bug'latgich IV ga keladi. Bug'latgichda ammiak bug'lari  $\text{NH}_3$  va vodorod  $\text{H}_2$  aralashmasi umumiy  $1,4 - 1,6 \text{ Mpa}$  bosim ostida bo'ladi. Bu aralashmadagi ammiakning parsial bosimi  $0,3 - 0,4 \text{ Mpa}$  ni tashkil etadi. Ammiak parsial bosimining keskin pasayishi tufayli bug'latgichda sovutish agenti qaynaydi. Shunday qilib sovutish agentining qaynash harorati uning bug'latgichdagi parsial bosimiga mos tarzda o'rnatiladi.

Bug'latgichga sovutish kamerasidagi mahsulotlardan havo orqali issiqlik berilishi natijasida undagi suyuq ammiak bug'lanadi. Ammiak bug'lari bug'latgich IV da unga nisbatan yuqori joylashgan resiver XI dan sovutgich VII orqali kelayotgan vodorod bilan aralashadi. Ammiak bug'lari va vodorodning aralashmasi bug'latgich IV dan yana o'sha sovutgich VII orqali absorber V ga olib ketiladi. Bir vaqtning o'zida absorberga generator I dan kuchsiz eritma ham keladi va unda ammiak bug'larining kuchsiz eritmaga yutilishi sodir bo'ladi. Kuchsiz eritma o'z yo'lida eritmaning issiqlik almashtirgichi VI orqali o'tganligi sababli, u biroz sovutilgan bo'ladi. Shuning hisobiga absorber V da absorbsiya jarayonining jadalligi ortadi.

Absorbsiya jarayoni ekzotermik bo'lib, unda issiqlik ajraladi. Bu issiqlik absorberning kengaytirilgan tashqi sirtining yuzasi orqali atrof-muhitga olib ketiladi. Hosil qilingan ammiakning kuchli eritmasi absorberning resiveri X ga keladi va unda to'planadi. Bunda ajralgan vodorod esa absorberning yuqori qismidan sovutgich VII ga o'tadi va undan bug'latgich IV ga kirib boradi. Resiver X dan kuchli suv-ammiak eritmasi issiqlik almashtirgich VI ga keladi va shu bilan sikl yana qaytariladi.

Absorbsiyaviy – diffuziyaviy sovutish mashinasining afzalligi unung tuzilishining oddiyligidadir, chunki bu mashina harakatlanuvchi qismrlarga ega emas. Bu esa o'z navbatida mashina ishlashining ishonchlilagini orttiradi. Bundan tashqari generator va tashqi isitgichning xo'jalikdagi arzon energiya manbai hisobiga qizdirilishi absorbsiyaviy – diffuziyaviy mashinaning energetik nuqtai-nazardan tejamlilagini ta'minlaydi. Xususiy hollarda buning uchun deyarli teknika tushadigan quyosh energiyasidan foydalanish ham mumkin. Bunday qurilmaning kamchiligi shundaki, katta sovuqlik unumdoorligi olish vazifasi juda ko'p texnik qiyinchiliklarni hal etishni talab etadi. Shu sababli absorbsiyaviy – diffuziyaviy sovutish mashinalarining,

mavzuning oldingi qismida ko'rib o'tilgan sof absorbsiyaviy mashinalar singari, chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash kichik korxonalarida qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan suv-ammiakli absorbsiyaviy va absorbsiyaviy – diffuziyaviy sovutish mashinalari nisbatan past (-70°C gacha) bo'lgan haroratlarni olish imkonini beradi. Lekin shu bilan birga yuqoriq (+5...+10°C gacha) haroratlarni olish imkonini beruvchi absorbsiyaviy mashinalar ham mavjud. Bunday mashinalar **brom-litiyli sovutish mashinalari** bo'lib, ularning ishlash prinsipi sovutish agenti va absorbentning shunday xossalariiga asoslanganki, bu xossalalar issiqlikning olib ketilishi, sovutish va kerakli harorat rejimining saqlanishini ta'minlaydi.

Brom-litiyli absorbsiyaviy sovutish mashinalarida sovutish agenti sifatida suv qo'llaniladi, absorbent sifatida esa litiy bromid *LiBr* ning konsentrangan eritmasi ishlatiladi. Bu suyuqliklar zaharli emas, shu sababli brom-litiyli absorbsiyaviy sovutish mashinalari qo'llanilishi nuqtai-nazaridan juda ham xavfsizdir. Brom-litiyli absorbsiyaviy mashinalar "chiller" nomi bilan mashhur bo'lib, shunday mashinalarni, xususan *Thermax* kompaniyasi ishlab chiqaradi. Thermaxning absorbsiyaviy chillerlari ko'p sohalarda: havoni konditsiyalash tizimlarida ham, sanoatda sovuqlik bilan ta'minlash tizimlarida ham qo'llaniladi. Oziq-ovqat ta'minoti tizimlarida brom-litiyli absorbsiyaviy sovutish mashinalarini meva, sabzavot va ko'katlarni, shuningdek sharbatlarni sovutish hamda saqlash omborxonalarida va korxonalarida keng ko'lamda qo'llash mumkin.

### *Nazorat savollari :*

1. Qanday jarayon absorbsiya deb ataladi ?
2. Fizik absorbsiya va kimyoviy absorbsiya (xemosorbsiya) tushunchalarini ta'riflab bering.
3. Sanoatda absorbsiya jarayoni qanday maqsadlarda qo'llaniladi ?
4. Gazlarning suyuq holatdagi absorbentlarda eruvchanligi qanday omillarga bog'liq bo'ladi ?
5. Absorbsiyaviy sovutish mashinalarining ishlashi qanday prinsiplarga asoslangan ?
6. Absorbsiyaviy sovutish mashinasining sxemasini chizing va uning ishlash prinsipini aytib bering .
7. Absorbsiyaviy sovutish mashinalaridagi to'g'ri va teskari termodinamik sikllarni ta'riflab bering .

8. Absorbentlar (gazni yutuvchi suyuqlik) ga qanday talablar qo'yiladi ?
9. Absorbsiyaviy sovutish mashinasining issiqlik balansi tenglamasini yozing va uni ta'riflab bering.
10. Absorbsiyaviy sovutish mashinasining sovutish koefitsiyenti qanday aniqlanadi ?
11. Absorbsiyaviy sovutish mashinasining kamchiliklarini tushuntirib bering .
12. Absorbsiyaviy – diffuziyaviy sovutish mashinasining sxemasini chizing va uning ishlash prinsipini aytib bering .
13. Absorbsiyaviy – diffuziyaviy mashinaning o'ziga xos xususiyatlari nimada va unda harakatga keltiruvchi asosiy yurituvchi kuch nima-dan iborat ?
14. Brom-litiyli absorbsiyaviy sovutish mashinalarini qisqacha tav-siflab bering .
15. Barcha turdag'i absorbsiyaviy sovutish mashinalarining bug'-kompressorli sovutish mashinalari oldidagi afzalliklari nimada ?
16. Har xil turdag'i absorbsiyaviy sovutish mashinalarini oziq-ovqat ta'minoti tizimlarida qanday sohalarda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi ?

## **15. Alternativ sovutish tizimlari va sovuqlik tashuvchi moddalar**

### **Tayanch iboralar :**

*Sovutish agenti, suv, havo, dietil efiri, ammiak, metil spirti, karbonat angidrid, oltingugurt angidridi, freon guruhi moddalar, ekologik talablar, Montreal' bayonomasi, ozon qatlami, muz bilan sovutish , tuzli muz bilan sovutish , muzliklar .*

**Sovutish agentlari : suv, havo va kompressoqli mashina uchun – dietil efiri, ammiak, metil spirti, karbonat angidrid  $\text{CO}_2$  va oltingugurt angidridi  $\text{SO}_2$ , ularning ayrim xossalari .**

Sovutish mashinalarining ishchi moddalar – sovutish agenti, sovutish konturining har xil qismida o'z holatini o'zgartiradi. Birinchilardan bo'lib 1755 yilda sovutish agenti sifatida suv ishlatilgan. U Villyam Gulen (William Gullen) yaratgan laboratoriya uskunalarida manfiy kaloriya olish uchun xizmat qilgan. Keyinchalik amerikalik Yakov Perkins (Jacob Perkins) dietil efirida ishlaydigan

kompression mashinani yaratdi. 1844 yilda Jon Gorri (John Gorrie) havoning siqilishi va kengayishi bilan ishlaydigan mashinani o'ylab topdi. 1859 yilda fransuz olimi Ferdinand Garri (Ferdinand Garre) ammiakda ishlaydigan absorption sovutish mashinasini barpo qildi. To'rt yil o'tib Charliz (Sharles) metil spirtining efiri bilan ishlaydigan kompressorni ishga tushirdi. XIX asrning oxirigacha yana ikki yangi sovutish agenti: karbonat angidrid gazi ( $\text{CO}_2$ ) va oltingugurt angidridi ( $\text{SO}_2$ ) ishlatildi.

Sovutish agentlari bo'lgan moddalarning ayrim xossalari xususida. Suv (vodorod oksidi) — R-718,  $\text{H}_2\text{O}$  — vodorod (11,19%) va kislorod (88,81%) dan iborat eng sodda kimyoviy birikmadir. Suv rangsiz, hidsiz suyuqlik (qalin qatlama zangori rangli). Molekulyar massasi 18,0160. Suv — nihoyatda barqaror birikma. Uning molekulalari  $1000^\circ\text{C}$  dan yuqori haroratda nihoyatda oz darajada vodorod va kislorodga ajraladi (termik dissotsiatsiya). Toza suvning solishtirma issiqlik sig'imi barcha suyuq va qattiq moddalarnikidan katta (4,19  $\text{kJ/kg.grad}$ ) ; demak, 1 g suvni isitish uchun boshqa moddalarni isitishga sarflanadigan issiqlikka nisbatan ko'proq issiqlik talab qilinadi. Bu suvning issiqlik sig'imi anomaliyasi deb ataladi. Shu sababli suv oddiy sharoitlarda oziq—ovqat mahsulotlarini sovutish uchun keng qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birgalikda suv boshqa xossalarga ham ega: sirt tarangligi yuqori, qovushqoqligi kichik, *suyuqlanish va qaynash harorati yuqori*, suyuq holatdagi zichligi qattiq holatidagidan katta. Ya'ni  $4^\circ\text{C}$  dan yuqori haroratda ham, undan past haroratda ham suvning zichligi  $1000 \text{ kg/m}^3$  dan past bo'ladi (zichlik anomaliyasi). Suvning qayd etib o'tilgan bu xossalari uni sovutgich mashinalarida sovuqlik tashuvchi modda sifatida qo'llashga imkon bermaydi .

*Uglerod dioksidi* ( $\text{CO}_2$ ) yoki *karbonat angidrid* — yuqori solishtirma hajmiy unumidorlikka ega, bu o'z navbatida kompressor silindrlarining ixcham bo'l shiga olib keladi. R-744 deb belgilanuvchi karbonat angidrid, suv kabi tabiiy modda bo'lib, sovutgichlar sanoati uchun muhim bo'lgan afzalliklarga ega. Qayd etilgan yuqori sovuqlik unumidorligidan tashqari karbonat angidrid zaharli emas, ishlatishda xavfsiz, sovutish jihozlari ishlab chiqarishda qo'llaniladigan turli materiallarga nisbatan inert, arzon va uning miqdori cheklangan emas. Bundan tashqari yopiq konturlarda ishlatilganida butun jahonning isitilishi nuqtai—nazaridan ("issiqxona effekti") juda ham kichik potensialga ega. Lekin u ishchi haroratlar nuqtai-

nazaridan muhim kamchiliklarga ham ega. Bular uning juda past kritik haroratga va yuqori kondensatsiyalanish harorati hamda bosimiga ega ekanligidir. Bu kamchiliklar o‘z navbatida CO<sub>2</sub> bilan ishlovlchi sovutish jihozining konstruksiyasiga maxsus (yuqori mustahkamlik) talablarini qo‘yadiki, pirovard oqibatda hozirgi vaqtida karbonat angidridning ishlatilish sohasi chegaralangan bo‘lib qolmoqda. Bu xususiyatlarni “quruq muz” ni sovutish jarayoni uchun qo‘llash , tashish va saqlashda ham e’tiborga olish lozim.

*Xlorli metil* (CH<sub>3</sub>Cl) R-40 va *oltingugurt angidridi* (SO<sub>2</sub>), R-764 ning asosiy kamchiliklari past bug‘lanish bosimi (atmosfera bosimidan) hamda zaharlilikidir. Bundan tashqari oltingugurt angidridi korrozion faollikka ham ega. Xlorli metil esa havodan og‘ir gazsimon moddadir. Mana shunday kamchiliklari tufayli R-40 va R-764 hozircha sovutish agentlari sifatida keng qo‘llanilmay kelmoqda .

*Ammiak* (NH<sub>3</sub> – belgilanishi R-717), normal sharoitda xarakterli o‘tkir hidga ega bo‘lgan (nashatir spirtining hidi) rangsiz gaz bo‘lib, havodan qariyb 2 marta yengil, zaharlidir. Ammiakning suvda eruvchanligi juda ham yuqori, xususan bir hajm suvda 0°C haroratda 1200 hajm, 20°C haroratda esa 700 hajm NH<sub>3</sub> eriydi. Shu sababli ammiakli sovutish mashinasida ishchi konturga ozgina suvning kirib qolishi mashinaning ishlashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi. Freonlar undan farqli o‘laroq suvda deyarli erimaydi. Ammiakning afzalliliklariga bundan tashqari, uning past qaynash harorati -70°C da kichik solishtirma hajmga ega ekanligi, katta bug‘lanish issiqligi, moyda yomon erishi va sh.k.lar kiradi. Ammiak absorbsiyaviy sovutish qurilmalarida 1859 yildan beri va kompressorli sovutish mashinalarida 1876 yildan beri qo‘llaniladi. Ammiakning kamchiliklari uning zaharliligi, yonuvchanligi va havodagi konsentratsiyasi 16 – 26,8% bo‘lganida portlovchanlik xavfining mavjudligidan iboratdir.

*Dietil efiri* yuqori qaynash haroratiga ega bo‘lgan organik erituvchidan iborat. Kimyoviy formulasi C<sub>8</sub>H<sub>18</sub>O<sub>3</sub> bo‘lib, molekulyar massasi 162 ga teng. Dietil efiri shaffof rangsiz qovushqoq suyuqlikdan iborat, zichligi 25°C haroratda 0,91 g/sm<sup>3</sup> ni tashkil etadi. Qaynash haroratining (186 – 188°C) yuqori ekanligi va qotish haroratining (-44,3°C) yetarlicha past emasligi tufayli, uni sovutish qurilmalarida qo‘llash ishchi konturda vakuumga yaqin bo‘lgan juda past bosimni yaratishni talab etadi. 1834 yilda Djeykob Parkins ishlab chiqqan kompressorli sovutish mashinasida sovutish agenti sifatida dietil efiri

qo'llanilganida, bu mashina ishchi konturida vakuum yaratilgan bo'lgan. Bu esa o'z navbatida sovutish mashinasi konstruksiyasining mustahkamliligiga juda yuqori talablarni qo'yadi. Bundan tashqari dietil efiri oson alangalanuvchidir, uning reaksiyon muhit ekanligi esa har qanday metallarni ishlatish imkonini bermaydi.

Ishlab chiqarish sharoitlarida sovutish qurilmalari boshqa bir qancha qurilmalarga xizmat ko'rsatishi mumkin va bu qurilmalar oraliq sovuqlik tashuvchilar orqali sovutiladi. Oraliq sovuqlik tashuvchilar sifatida *past haroratda muzlaydigan eritmalar* – natriy xlorid, kalsiy xlorid yoki magniy xlorid tuzlarining suvdagi eritmalar qo'llaniladi. Sovutish eritmalarini nasos yordamida sovutish mashinasining bug'latgichi va qurilmalar orasida aylanma harakat (sirkulyatsiya) qiladi. Bug'latgichda eritma soviydi va qurilmalarda issiqlikni o'ziga olib isiydi. Eritma va uning konsentratsiyasini tanlash talab qilinayotgan sovutish haroratiga bog'liq. Bu harorat eritmaning muzlash harorati – kriogidrat nuqta haroratidan yuqori bo'lishi kerak.

### **Sovuqlik tashuvchi moddalarga qo'yiladigan texnik talablar va bu talablarga maksimal mos keluvchi ammiak hamda freonlar.**

"Chorvachilik mahsulotlarini saqlashda sovutish uskuna va jihozlari" o'quv qo'llanmasining oldingi mavzulari asosidagi tahlillar shuni ko'rsatadi, sovutish koefitsiyentining kattaligi sovuqlik tashuvchi moddaning xususiyatlariga bog'liq emas. Lekin, sovutish mashinasining o'lchamlari, konstruksiyaviy materialning turi, ishchi bosimlar sovuqlik tashuvchining xususiyatlariga bog'liq. Shuning uchun sovuqlik tashuvchi moddalarga quyidagi talablar qo'yiladi :

- 1) kondensatorda sovuqlik tashuvchi bug'larini tabiiy sovituvchi moddalar (suv, havo) bilan suyultirishga imkon bo'lishi uchun, sovuqlik tashuvchi yuqori kritik haroratga ega bo'lishi kerak;
- 2) yuqori bug'lanish issiqligiga ega bo'lishi kerak. Bu sovutish unumtdorligi yuqori bo'lishi, hamda sovuqlik tashuvchi sarfining kamayishiga olib keladi;
- 3) kichik solishtirma hajmga ega bo'lishi kerak. Bu o'z navbatida sovutish mashinasining o'lchamlarini kamaytiradi;
- 4) bug'lanish (so'rish) bosimi atmosfera bosimidan ozgina yuqoriroq bo'lgani ma'qul. Chunki sovuqlik tashuvchining yo'qotilishini to'xtatish havo so'rilishini to'xtatishdan osonroq. Sistemaga so'rilgan havo bug'latgich, kondensatorda issiqlik almashinuv jar-

yonini yomonlashtiradi, suv bug'lari kirgani sababli rostlovchi ventilda muzlab qolish xavfi hamda komyoviy faol birikmalarining hosil bo'lishiga sabab bo'ladi;

5) Suyuqlanish (kondensatsiyalanish) bosimi juda yuqori bo'lmasligi kerak. Aks holda qurilma konstruksiyasi murakkablashadi va narxi ortib ketadi.

Undan tashqari, sovuqlik tashuvchi komyoviy aggressiv bo'lmasligi va inson organizmiga zararli ta'sir ko'rsatmasligi kerak; olovg'a hamda portlashga xavfsiz, olinishi (tayyorlanishi) oson va arzon bo'lishi kerak.

Qo'yilgan talablarning ikkinchisi faqat porshenli kompressor-larga tegishli bo'ladi. Turbokompressor qurilmalari uchun sovuqlik tashuvchilar kichik bug'lanish issiqligiga ega bo'lishi kerak. Chunki turbokompressorlar ko'p miqdordagi sovuqlik tashuvchini siqish uchun mo'ljallangan.

Hozirgi paytda yuqoridagi talablarning ko'pchiligidagi muvofiq keluvchi sovuqlik tashuvchilar – bu ammiak va freonlardir. Juda kam hollarda sovuqlik tashuvchi sifatida uglerod ikki oksidi, oltengugurt angidridi va xlorli metil ishlataladi. Propan, etan va etilen moddalari  $-70^{\circ}\text{C}$  dan past haroratlarni olish uchun ishlataladi.

Ammiak ( $\text{NH}_3$ ) ning sovutish agenti sifatidagi xususiyatlari yuqoridagi qismda va o'quv qo'llanmasining 2–mavzusida batafsil ko'rib chiqilgan edi. Bu yerda shuni ta'kidlab o'tamizki, uning afzalliliklari quyidagilardan iborat: yuqori bug' hosil bo'lishi issiqligi, bug'latgichdagi uncha katta bo'lмаган (atmosferadan) ortiqcha bosim va yuqori bo'lмаган kondensatsiya bosimi. Shuning uchun ammiakning samaradorligi keng qo'llanilayotgan freonlardan, jumladan R-22 dan past emas, ba'zi hollarda hatto yuqori. Shu bilan birga  $\text{NH}_3$  ning muhim kamchiligi baland adiabatik ko'rsatkichi bo'lib, bu hol ammiakli sovutish qurilmalarida freonlardan baland bo'lgan haydash harorati va bosimini taqozo etadi. Bunga qo'shimcha ravishda ammiak yonuvchan, zaharli, havo bilan aralashib portlovchi aralashma hosil qilishi mumkin va namlik bo'lganida mis hamda uning qotishmalarini yemirilishi (korroziya) mumkin. Mana shularni e'tiborga olsak, ammiak sovutish agenti sifatida yanada kengroq qo'llanilishi uchun sovutish qurilmalarining ishchi sikllarida va konstruktiv tuzilishida ilmiy–tadqiqotlar asosida muhim o'zgarishlar amalga oshirilishi lozim. Chunonchi, bizning fikrimizcha shunday o'zgarishlar chorvachilik mahsulotlarini saqlash va qayta ishslash uchun



mo‘ljallangan sovutish texnikasini yaratish hamda takomillashtirishning kelajakdagi asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Freonlarning ham sovutish agenti sifatidagi xususiyatlari o‘quv qo‘llanmasining 2-mavzusida batafsil ko‘rib chiqilgan edi. Qayd etib o‘tish joizki, freonlar (R-12 va R-22) metanning ftoxlor birikmalaridan iborat. Freonlar (umumiy ko‘rinishda  $C_xH_yCl_zBr_u$  deb yozish mumkin) yuqori bo‘lмаган suyuqlanish va bug‘lanish bosimiga ega, inson uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri zararsiz, yong‘in va portlashga xavfsiz, konstruksiyaviy materiallarni yemirmaydi. Freonlarning kamchiliklari esa sovuqlik tashuvchining yo‘qotilishiga (bug‘lanib yo‘qotilishiga) sabab bo‘luvchi juda kichik qovushqoqligi va moylar bilan yaxshi aralashishidan iborat. Lekin bunda freonlarning yo‘qotilishi sababli yer atmosferasining ozon qatlamiga zarar yetkazishi hozirgi zamonda ularning eng muhim va o‘ta ta‘sirchan kamchiligi bo‘lib qolmoqda.

### **Hozirgi paytda sovutish agentlariga qo‘yilayotgan ekologik talablar , Montreal bayonnomasi (protokoli) .**

Hozirgi paytda sovutish agentlariga mavzuning oldingi qismida keltirib o‘tilgan talablar bilan bir qatorda qo‘shimcha ravishda quyidagi talablar qo‘yilmoqda :

- atrof – muhitga zarar yetkazmaslik ;
- zaharsizligi , yong‘in va portlashga xavfsizligi ;
- atrof – muhit bosimi ostida past qaynash haroratiga ega bo‘lishi ;
- yuqori bo‘lмаган kondensatsiya bosimi ;
- gaz holatidagi yuqori bo‘lмаган solishtirma hajmi ;
- moylar yonib ketishining oldini olish uchun kompressormning siqish yakunidagi haroratining yuqori bo‘lmasligi ;
- suyuq holatda solishtirma issiqlik sig‘imining past ko‘rsatkichli bo‘lishi ;
- arzon bo‘lishi .

*Montreal bayonnomasi (protokoli)* imzolanganligiga qadar sovutish agenti xususiyatlarining parametrlari kam miqdorda edi. Shundan keyin birinchi o‘ringa chiqqan, atrof–muhitga ta’sirini hisobga oluvchi xususiyatlari qo‘shildi, shuningdek zeotrop va azeotrop aralashmalar va transkritik jarayonlar qo‘shildi.

*Yerning ozon qatlami haqida umumiy tushunchalar.* Ozon – kislorodning odatdagisi ikkita atomi o‘rniga uchta atomdan tashkil topgan

molekula ( $O_3$ ) hisoblanadi. Qo'shimcha atom havodagi kislorodni shunday holatga olib keladiki, uning insonlar tomonidan yutiladigan oz miqdordagi dozasi ham zaharli va o'limga olib kelishi mumkin. Ozon molekulalari tabiiy atmosfera jarayonlari hisobiga hosil bo'ladi va parchalanadi. Ozon barqaror gaz hisoblanmaydi va uning yemirilishiغا olib keladigan, tarkibida azot, vodorod va xlor bo'lgan tabiiy komponentlarga ta'sirchan hisoblanadi. Ozon yer yuzasi (troposfera) da fotokimiyoviy zaharli gaz – "smog" (ifloslangan tutun) va ishqoriy yomg'irni keltirib chiqaruvchi ifloslantiruvchi modda sifatida namoyon bo'ladi. Lekin stratosferaning xavfsiz bo'lgan balandligi – Yerdan 10 dan 50 km gacha yuqorida, bu havorang o'tkir hidli gaz inson hayoti uchun kislorod kabi juda muhimdir.

Ozon nisbatan zaif, lekin hayratlanarli samara beruvchi himoya qatlamini hosil qiladi. Bu qatlam shu qadar yoyilganki, agar 40 km qalinlikdagi stratosferada uni yig'ib siqilsa, u yer aylanasi bo'yab tuqli poshnasidan qalin bo'lmagan qatlamni hosil qiladi (taxminan 3 mm). Ozonning konsentratsiyasi balandlik bo'yab o'zgarib turadi, lekin uning ulushi o'rabi turgan atmosferaning 100000 dan 1 qismidan oshmaydi. Biroq ushbu fil'tr quyoshning barcha zaharli bo'lgan ul'trabinafsha nurlarini o'zida juda yaxshi ushlab qoladi. Katta miqdordagi zararli bo'lgan ul'trabinafsha UV-B nurlanishning har qanday miqdordagi ortishi bizni o'rabi turgan atrof-muhitga va yerdagi hayotga potensial xavf tug'diradi.

Ozon qatlamini yemiruvchi "zararli" moddalar qatoriga galogenuglerodlar, ayniqsa xlorftoruglerodlar, ya'ni freonlar ham kiradi. Xlorftoruglerod-12 (freon-12) ning ozon qatlamiga ta'siri, karbonat angidridi  $CO_2$  ning 16000 molekulasingning ta'siri bilan bir xilda ekan. Bu raqamning qanchalik katta ekanligini tasavvur etish uchun aytilib o'tish joizki, xususan metan  $CH_4$  molekulasingning ta'sir samaradorligi  $CO_2$  ning ta'siridan 21 marta ko'proq, lekin bunda uning yashash muddati ham kamroqdir.

Ozon qatlamini himoya qilish bo'yicha ko'rileyotgan choralar yetarli emasligi tufayli 1987 yilda ozon qatlamini yemiruvchi moddalarni ishlatishni kamaytirish va to'xtatish bo'yicha Montreal bayonomasi qabul qilindi. Bayonnoma ozonni yemiruvchi moddalar ro'yxati, ozon qatlamini yemiruvchi moddalarni ishlatishni va ishlab chiqarishni kamaytirish choralari ko'rsatib o'tilgan. Bayonnoma 1987 yil 1 yanvardan kuchga kirdi.

1997 yildagi 9-yig'ilishda Kioto (Yaponiya) da Tomonlar Mon-

real bayonnomasiga tuzatishlar kiritishdi va unga ko‘ra rivojlanayotgan davlatlarda qo‘srimcha chora–tadbirlarni ko‘rish va rivojlangan davlatlarda ozonni yemiruvchi moddalarni ishlatishni to‘xtatish mud–datini tezlashtirish kabi vazifalar qo‘yildi. Bu tuzatish ozon yemiruvchi moddalarni va tarkibida ular mavjud bo‘lgan mahsulotlarni import / eksport tizimlarini va ularni ishlab chiqarishning nazoratini ko‘zda tutgan .

Hozirgi kunda Montreal bayonnomasiga 197 ta davlat a’zo bo‘lib, bu davlatlar ozonni yemiruvchi moddalarni ishlatishni va ishlab chiqarishni bosqichma–bosqich kamaytirish shartlarini qabul qilgan. Hozirgi paytgacha Montreal bayonnomasiga jami 4 ta tuzatish va 5 ta qo‘srimcha kiritildi. Bu tuzatishlarda qo‘srimcha XFU lar (jumladan freonlar) ro‘yxatiga, xususan, tetraxlormetan, metilxloroform kiritildi va ularni nazorat choralar belgilanib qo‘yildi. Shu bilan birga, qabul qilingan qo‘srimchalar ro‘yxatidagi va mavjud moddalarni bekor qiliш, shuningdek Montreal bayonnomasiga a’zo rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlardagi ko‘rilayotgan chora–tadbirlarni amalga oshirishning jadal grafigi qabul qilindi. Ayrim rivojlangan mamlakatlarda, xususan Rossiya Federatsiyasida ozon qatlamini yemiruvchi moddalarni ishlab chiqarish 2000 yil 20 dekabrdan boshlab to‘xtatilgan.

Shunday qilib, Montreal bayonnomasi iqtisodiyotning barcha sohalarida, shu jumladan sovutgich mashinalari va uskunalarini ishlab chiqish hamda qo‘llash sohalarida freonlardan foydalanishni kamaytirish, keyinchalik bora–bora esa freonlardan foydalanishni butunlay to‘xtatishni nazarda tutadi.

### **Muz va tuzli muz vositasida sovutish .**

*Muz bilan sovutish*. Sovutishning eng oddiy va eng mashhur usuli – bu suvning muzi bilan sovutishdir. Shu maqsadda, odatda, past haroratda olingan tabiiy muz, shuningdek sovutish mashinalari yordamida ishlab chiqarilgan suv muzi ishlatiladi.

Tabiiy muz tarixda juda uzoq vaqt ishlatilgan, bir necha asrlar davomida u sun’iy sovuqlikning yagona manbai bo‘lgan. Muzning sovutish vositasi sifatidagi ahamiyati hozirgi vaqtida, ayniqsa, tabiiy qishki sovuq tufayli muz ko‘p miqdorda olinishi mumkin bo‘lgan joylarda yo‘qolgani yo‘q. Muz bilan sovutish qurilmalarining afzalliklari quyidagilardan iborat : dizaynning soddaligi , arzonligi va energiya xarajatlarining yo‘qligi .

Oddiy atmosfera bosimidagi suv muzi quyidagi asosiy fizik xususiyatlarga ega : erish harorati  $0^{\circ}\text{C}$  ;

termoyadroviy issiqlik  $335 \text{ kJ / kg}$  ( $80 \text{ kkal / kg}$ ) ;

issiqlik quvvati  $2,1 \text{ kJ / (kg} \cdot {^{\circ}\text{C}})$  [ $0,5 \text{ kkal / (kg} \cdot {^{\circ}\text{C}})$ ] ;

issiqlik o'tkazuvchanligi (o'rtacha)  $2,2 \text{ Vt / (m}^{\ast}{^{\circ}\text{C}})$  [ $2 \text{ kkal / (m} \cdot \text{soat} \cdot {^{\circ}\text{C}})$ ] ;

monolit massivining zichligi (bo'shliqlarsiz)  $917 \text{ kg / m}^3$  .

Muzning erish harorati  $0^{\circ}\text{C}$  bo'lganda, sovutish qurilmalarida havo harorati odatda taxminan  $6^{\circ}\text{C}$  darajasida saqlanadi. Past harorat tez-tez talab qilinmaydi, masalan, tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlarini sovutish va qisqa muddatli saqlash, bir qator texnologik jarayonlar, pivo, suv, sharbatlar va boshqa ichimliklarni sovutish jarayonlari uchun. Muz bilan sovutish qurilmalarining bir necha turlari mayjud . Ularning asosiyлари muzliklardir .

*Muzliklarning turlari va tuzilishi.* Muzliklar – butun mavsum davomida muz zahirasi bo'lgan, oziq-ovqat mahsulotlarini sovutish va qisqa muddatli saqlash uchun mo'ljallangan statsionar qurilmalardan iborat .

Muzlikda mahsulotlarni sovuqda saqlash xonalari, muzni saqlash xonalari va yordamchi xonalari mavjud. Muzni saqlash xonalari sovutish kamerasiga nisbatan turlicha joylashtirilgan. Shuning uchun muzliklar pastki , yuqori va lateral muzlar bilan ajralib turadi.

*Pastki muzli muzliklar* – eng ibtidoiy va nomukammal sovutish moslamalaridan iborat , shuning uchun muzlikning bu turi mantiq-sizdir .


*Yuqori muzli muzliklarda* yaxshi havo aylanishi va erigan suvning drenajlanishi ta'minlanadi. Sovuq havo oziq-ovqat xonasiga tushadi va u yerdan yuqoriga yo'nalgan issiq havoni siqib chiqaradi. Issiq havo esa o'z navbatida yuqoriga ko'tarilib, u yerda muz bilan sovutiladi. Muzning erishidan hosil bo'lgan suv drenaj trubkasi orqali oqib ketadi.

Bu turdag'i muzliklar juda ko'p muhim kamchiliklarga ega. Ularning asosiyлари quyidagilardir : muzxonani muz bilan to'ldirishning noqulayligi; muzning barcha massasini ko'tarib tura oladigan mustahkam qoplamlari qurilmaga bo'lgan ehtiyoj; havodagi namlikning shiftda kondensatsiyalanishi mumkinligi, keyinchalik esa bu suv tomchilarini mahsulotlar sirtiga tushadi.

Ishlatishda texnik jihatdan eng ilg'or va qulay – bu muzlari yon tomonda joylashtirilgan muzliklardir. Bunday muzlik (73–

rasm) – yer yuzasida yasaladigan qurilmadan iborat. Oziq-ovqat mahsulotlari uchun kamera muz saqlanadigan bo'linma yonida joylashgan bo'ladi va undan havo aylanishini ta'minlash uchun pastida hamda tepasida teshiklari bo'lган izolyatsiyalangan devor bilan ajratilgan qilib yasaladi. Eriyotgan muzdan tushadigan suv yerda yasalgan qiyaliklar va drenaj trubachasi orqali chiqariladi. Bunda drenaj trubachasi oxirida gidravlik muhr bilan jihozlangan, shuning oqibatida iliq tashqi havoning muzliklarga kirishi bartaraf etiladi.

Sovutish kamerasida balandlik bo'ylab havoning zichligi farq qiladi, shu sababli unda tabiiy havo aylanishi amalga oshadi. Muz yuzasi bilan tegishib sovigan havo muz omborining pastiga tushadi, u yerdan devorning pastki teshiklari orqalisovutish kamerasiga kirdi. Kamerada havo mahsulotlarni sovutib, o'zi isiydi va shiftga ko'tariladi, bu yerdan esa sovutish kamerasi va muz omborini ajratib turuvchi devordagi teshiklarning yuqori qatoridan muzxonaga o'tadi. Muz omborida havo qayta soviydi va shu tarzda sovutish jarayoni qayta takrorlanadi. Bu holda, iliq va sovuq havo o'rtasidagi harorat farqi taxminan  $5^{\circ}\text{C}$  ni, bo'linmaning pastki teshiklarida havoning harakat tezligi o'rtacha  $0,15 \text{ m/s}$ -ni tashkil etadi.



73 – rasm. Muzlari yon tomonda joylashtirilgan muzlik - sovutgich :  
A - muz joylashtiriladigan bo'lim; B - tambur; D - mahsulotlar uchun sovutish kamerasi; 1 - kameralaga sovutilgan havo kirishi uchun qo'yilgan teshiklar; 2 - isigan havoning qaytishi uchun qo'yilgan teshiklar; 3 - muzning erishidan hosil bo'lgan surʼning olib ketilishi; 4 - muz uchun gildirakli transportyor ; 5 - muz yuklanadigan eshik .

Muzlik normal ishlayotganda , havoning nisbatan yaxshi aylanishi tufayli kameradagi harorat mavsum davomida deyarli o'zgarmaydi (o'rtacha 6°C atrofida), bu ko'pchilik mahsulotlarni qisqa muddatli saqlash uchun yetarli. Shu bilan birgalikda muzlari yon tomonda joylashtirilgan muzliklarda saqlashning sanitariya sharoitlari ham yaxshi .


Bu turdag'i muzliklarning asosiy kamchiliklari – qurilishga sarflanadigan boshlang'ich xarajatlarning nisbatan yuqori ekanligi va qurilish hamda izolyatsiya materiallarining ko'p sarflanishidir. Bu holat muzni saqlash xonasining o'lchamlari mahsulotlarni sovutish kameralari o'lchamidan ancha katta ekanligi bilan izohlanadi.

#### *Nazorat savollari :*

1. Sovutish mashinalarining ishchi moddalari nima va ular qanday xususiyatlari ko'ra tavsiflanadi ?
2. Suvning sovutish agenti sifatidagi xossalari tavsiflab bering .
3. Uglerod dioksidining sovutish agenti sifatidagi xossalari tavsiflang .
4. Xlorli metil va dietil efiri qanday xossalari bilan boshqa sovutish agentlaridan ajralib turadi ?
5. Ammiakning sovutish agenti sifatidagi xossalari tavsiflab bering.
6. Oraliq sovuqlik tashuvchilar tushunchasini yoritib bering .
7. Sovuqlik tashuvchilarga qanday talablar qo'yiladi ?
8. Ammiakning afzalliklari va kamchiliklarini tavsiflab bering .
9. Freon guruhi moddalarining afzalliklari va kamchiliklarini tavsiflang .
10. Hozirgi paytda sovutish agentlariga qanday qo'shimcha talablar qo'yilmoqda ?
11. Montreal bayonnomasi (protokoli) ning mohiyati va maqsadi nimada ?
12. Muz bilan va tuzli muz bilan sovutishning mohiyati hamda ahamiyatini tushuntirib bering .
13. Muzliklar qanday turlarga bo'linadi ?
14. Muzlari yon tomonda joylashtirilgan muzliklarning tuzilishi va ishslash prinsipini tushuntirib bering .

rasm) – yer yuzasida yasaladigan qurilmadan iborat. Oziq-ovqat mahsulotlari uchun kamera muz saqlanadigan bo'linma yonida joylashgan bo'ladi va undan havo aylanishini ta'minlash uchun pastida hamda tepasida teshiklari bo'lgan izolyatsiyalangan devor bilan ajratilgan qilib yasaladi. Eriyotgan muzdan tushadigan suv yerda yasalgan qiyaliklar va drenaj trubachasi orqali chiqariladi. Bunda drenaj trubachasi oxirida gidravlik muhr bilan jihozlangan, shuning oqibatida iliq tashqi havoning muzliklarga kirishi bartaraf etiladi.

Sovutish kamerasida balandlik bo'ylab havoning zichligi farq qiladi, shu sababli unda tabiiy havo aylanishi amalga oshadi. Muz yuzasi bilan tegishib sovigan havo muz omborining pastiga tushadi, u yerdan devorning pastki teshiklari orqali sovutish kamerasiga kirdi. Kamerada havo mahsulotlarni sovutib, o'zi isiydi va shiftga ko'tariladi, bu yerdan esa sovutish kamerasi va muz omborini ajratib turuvchi devordagi teshiklarning yuqori qatoridan muzxonaga o'tadi. Muz omborida havo qayta soviydi va shu tarzda sovutish jarayoni qayta takrorlanadi. Bu holda, iliq va sovuq havo o'rtasidagi harorat farqi taxminan  $5^{\circ}\text{C}$  ni, bo'linmaning pastki teshiklarda havoning harakat tezligi o'rtacha  $0,15 \text{ m/s}$ -ni tashkil etadi.



73 – rasm. Muzlari yon tomonda joylashtirilgan muzlik - sovutgich :  
A - muz joylashtiriladigan bo'lim; B - tambur; D - mahsulotlar uchun sovutish kamerasi; 1 - kameraga sovutilgan havo kirishi uchun qoyilgan teshiklar; 2 - isigan havoning qaytishi uchun qoyilgan teshiklar; 3 - muzning erishidan hosil bolgan sunning olib ketilishi; 4 - muz uchun gildirakli transportyor ; 5 - muz yuklanadigan eshik .

Muzlik normal ishlayotganda , havoning nisbatan yaxshi aylani-  
hi tusayli kameradagi harorat mavsum davomida deyarli o'zgarmaydi  
(o'rtacha 6°C atrofida), bu ko'pchilik mahsulotlarni qisqa muddatli  
saqlash uchun yetarli. Shu bilan birgalikda muzlari yon tomonda  
joylashtirilgan muzliklarda saqlashning sanitariya sharoitlari ham  
yuxshi .

Bu turdag'i muzliklarning asosiy kamchiliklari – qurilishga  
sur'lanadigan boshlang'ich xarajatlarning nisbatan yuqori ekanligi va  
qurilish hamda izolyatsiya materiallarining ko'p sarflanishidir. Bu  
holat muzni saqlash xonasining o'lchamlari mahsulotlarni sovutish  
kameralari o'lchamidan ancha katta ekanligi bilan izohlanadi.

#### *Nazorat savollari :*

1. Sovutish mashinalarining ishchi moddalari nima va ular qanday xususiyatlariiga ko'ra tavsiflanadi ?
2. Suvning sovutish agenti sifatidagi xossalari tavsiflab bering .
3. Uglerod dioksidining sovutish agenti sifatidagi xossalari tavsiflang .
4. Xlorli metil va dietil efiri qanday xossalari bilan boshqa sovutish agentlaridan ajralib turadi ?
5. Ammiakning sovutish agenti sifatidagi xossalari tavsiflab bering.
6. Oraliq sovuqlik tashuvchilar tushunchasini yoritib bering .
7. Sovuqlik tashuvchilarga qanday talablar qo'yiladi ?
8. Ammiakning afzalliklari va kamchiliklarini tavsiflab bering .
9. Freon guruhi moddalarining afzalliklari va kamchiliklarini tavsiflang .
10. Hozirgi paytda sovutish agentlariga qanday qo'shimcha talablar qo'yilmoqda ?
11. Montreal bayonnomasi (protokoli) ning mohiyati va maqsadi nimada ?
12. Muz bilan va tuzli muz bilan sovutishning mohiyati hamda ulhamiyatini tushuntirib bering .
13. Muzliklar qanday turlarga bo'linadi ?
14. Muzlari yon tomonda joylashtirilgan muzliklarning tuzilishi va ishlash prinsipini tushuntirib bering .

## **V BO'LIM. CHORVACHILIK VA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI SAQLASH VA SOVUQLIK BILAN ISHLOV BERISH TEKNOLOGIYASI ASOSLARI**

### **16. Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini sovuqlik bilan ishlov berishning an'anaviy texnologiyalari va yangi istiqbolli yo'nalishlari**

#### **Tayanch iboralar:**

*An'anaviy texnologiya, sovutish, muzlatish, evtektik massa, evtektik harorat, evtektik konsentratsiya, go'sht va go'sht mahsulotlari, baliq va baliq mahsulotlari, fizik-kimyoviy ta'sirlar, ul'trabinafsha nurlar, ionlashtiruvchi nurlanish, ozon, karbonat angidrid, antibiotik.*

#### **Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini sovuqlik bilan ishlov berishning an'anaviy texnologiyalari : sovutish va muzlatish .**

Ishlab chiqilgan usullarni tatbiq etish uchun texnik vositalarni yaratish, tanlangan jarayonning borishi uchun qo'llanilayotgan texnik vositalarni qo'llash mumkinligini tahlil qilish va baho berish lozim.

Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun maxsus sharoit talab qilinadi. Shunday maxsus sharoitni sun'iy sovuqlik vositasida yaratish sovutish texnikasining mohiyati hisoblanadi. Sovuqlik ta'sirida oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarida sodir bo'ladigan hodisalar ustida izlanishlar, sovutish jarayonlarining optimal rejimlaridagi texnikasi va texnologiyasi rivojlanishi natijasida ko'pgina ilmiy izlanishlar o'tkazilmoqda. Buning natijasida oziq-ovqat, chorvachilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash rejimlari hamda uslublari joriy qilinmoqda. Bu izlanishlar asosida esa oziq-ovqat sanoatida sovutish texnologiyasi tarmogi kelib chiqdi. Oziq-ovqat mahsulotlarining uzoq vaqt saqlashda buzilishining oldini olish maqsadida maxsus qayta ishlash jarayonlariga, xususan sovuqlik bilan konservalash usuli kiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sovutish texnikasi va texnologiyasi rivojlanib borgan sari oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash hajmi hamda muddati uzaydi. Aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzliksiz ta'minlash imkonini yaratildi.

Mahsulotlar har xil faktorlarning ta'siri ostida buzilishi mumkin. Masalan: havo kislороди va quyosh nuri ta'sirida, havo tarkibiliнing past va yuqori darajadagi namligi natijasida, mahsulotning

qurishi va namlanishi natijasida. Lekin mahsulotlarning buzilishiga asosiy sabab – bu mikrobiologik va biokimyoiy faktorlarning o‘zgarishidir. Mikroorganizmlar va to‘qima fermentlari oqsillarning parchalanishiga, yog‘larning gidrolizlanishiga, uglevodlarning chuqr o‘zgarishiga va boshqa o‘zgarishlarga yordam beradi. Shuning uchun chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashning asosiy vazifasi ularning tarkibidagi mikroorganizmlarning va to‘qima fermentlarining ta’sirini chegaralash yoki butunlay yo‘q qilishdir.

Chorvachilik mahsulotlariga ishlov berish (konservalash) ning quyidagi usullari mavjud : quritish, so‘ldirish (vyaleniye), tuzlash (soleniye, kvasheniye), dudlash, maxsus antiseptik moddalar qo‘llash va shakarning yuqori konsentratsiyasi, pasterizatsiyalash, sterilizatsiyalash va boshqalar. Bu usullarning hammasi (konservalash) mahsulotlarning sifatiga ta’sir qilib, ularning tashqi ko‘rinishini, rangini, ta’mini o‘zgartiradi va ba’zi hollarda sifatini pasaytiradi, ba’zida esa vitaminlarni parchalaydi.

Hozirgi davrda oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini umuman o‘zgartirmasdan ularni uzoq vaqt saqlash usullari yo‘q, lekin unda bo‘ladigan o‘zgarish jarayonlarini sekinlashtiradigan usullar va muayyan miqdordagi ishchonchli moddalar mavjud.

Tez buzuluvchi oziq-ovqat mahsulotlarini konservalash usullarining eng foydalilaridan biri, ularni sovuqlik bilan ishlov berishdir. Bu usulni qo‘llaganimizda, mahsulotlarning boshlang‘ich holati juda kam o‘zgarishini kuzatamiz. Boshqa usullarga qaraganda uning shunday afzalligi bor.

Oziq-ovqat mahsulotlarini sovuqlik bilan ishlov berish (konservalash) usuli quyidagiga asoslangan : haroratning pasayishi natijasida mikroorganizmlarning hayot faoliyati sekinlashadi, to‘qima fermentlarining aktivligi pasayadi, natijada esa mahsulotlarda boradigan reaksiyalar sekinlashadi. Masalan, go‘shtning avtolizi, mevalarning nafas olishi hamda pishib o‘tib ketishi va sh.k., mikroorganizmlarning hayot faoliyati oqibatida boradigan reaksiyalar ham sekinlashadi.

Oziq-ovqat va chorvachilik mahsulotlarini harorat va sovuqlik bilan ishlov berishning xarakteriga qarab quyidagilarga bo‘lish mumkin : sovutilgan, unda mahsulot markazidagi harorat  $0^{\circ}\text{C}$  dan  $+4^{\circ}\text{C}$  gacha; muzlatilgan, bunda harorat  $-6^{\circ}\text{C}$  dan past bo‘ladi; defrostilangan, ya’ni to‘liq eritilgan, bunda harorat muzlash boshlangan nuqtadan baland bo‘ladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini sovutishda asosiy faktor past harorat bo‘ladi, muzlatishda esa bundan tashqari mahsulot tarkibidagi suvning qattiq (muz) holatga o‘tishi, bunda to‘qimaning suvsizlanishi ham ishtirok etadi. Mahsulotlarning muzlatilgan holatga o‘tishida suvning bir qismi muzlamaydi va bu suv mikroorganizmlarning hayot faoliyatiga yordam beradi, shuning uchun ham ma‘lum muddatdan keyin ularning buzilishi yana kuzatiladi.

Mikroorganizmlarning hayot faoliyati turlicha bo‘ladi. Masalan: ba’zi bir mikroorganizmlar sovuq muhitda yashaydi, ba’zilari esa o‘ladi. Sovuqlikka chidamlilari achitqichlar va zamburuglardir. Bakteriyalar esa sovuqqa chidamsiz bo‘lib, ular muhitni muzlatganimda juda tez o‘ladi, lekin ularning to‘liq o‘limi kam hollarda uchraydi. Bakteriyalarning o‘limi ular yashab turgan muhitning qattiq holatgacha muzlashi bilan darhol ro‘yobga chiqadi. Agarda muhit faqat sovutilgan va suyuq holatda bo‘lsa, bakteriyalar sekin o‘la boshlaydi.

Mahsulotlar turli muhitlarda sovutiladi: havoda, sovuq suvda yoki tuzli eritmada, eriyotgan muzda yoki qorda.

Ko‘pincha sovituvchi muhit havo hisoblanadi. Lekin, havoda sovutish, suyuq muhitda sovutishdan sekinroq o‘tadi. Bundan tashqari havoda sovutishda havoning namligi past bo‘lsa, mahsulot yuzasidan namlik bug‘lanadi va natijada mahsulot vazni kamayadi. Shunga qaramasdan barcha mahsulotlarni sovutishda havo bilan sovutish keng tarqalgan va unversal hisoblanadi. Havo hidsiz va havo tarkibidagi kislorodning mahsulotlar tarkibidagi yog‘larga oksidlantiruvchi ta’sirini hisobga olmaganda, ko‘pchilik mahsulotlarga u kimyoviy ta’sir ko‘rsatmaydi.

Havoda sovutishni tezlashtirish maqsadida turli usullar qo‘llaniladi. Birinchi navbatda havo tezligini oshiradilar va havo bilan sovutilayotgan mahsulot o‘rtasidagi harorat farqini oshiradilar.

Oziq-ovqat va chorvachilik mahsulotlari haroratini krioskopik nuqtagacha va undan ham past darajagacha pasaytirish natijasida mahsulot tarkibidagi suvning muzga aylanish jarayoni muzlatish jarayoni deb ataladi.

Mahsulotlarni muzlatishdan maqsad ularning foydali xususiyatlarini va sifatini saqlashdir. Mahsulotlarni muzlatish jarayoni natijasida ularda boradigan fizikaviy, biokimyoviy va mikrobiologik o‘zgarishlar minimal darajagacha tushadi. Bu esa mahsulot tarkibidagi suvning asosiy qismining muzga aylanishi tufayli sodir bo‘ladi. Mah-

sulot to‘qimasidagi suyuqlik haroratining pasayishi, undagi mikroorganizmlarning hayot faoliyatini ancha susaytiradi.

Haroratning pasayishi mahsulotlar tarkibida boradigan kimyoviy reaksiyalarni ham sekinlashtiradi, ammo ulardan ba‘zilari past saqlash haroratlarda ham to‘xtamaydi. Shunday qilib, muzlatish jarayonining asosiy belgilardan biri – bu to‘qima tarkibidagi suvning muzga aylanishi bo‘lib, u esa o‘z navbatida mahsulotning normal holatini o‘zgartiradi.

Ma’lumki, toza suv  $0^{\circ}\text{C}$  haroratda muzlaydi. Oziq–ovqat va chorvachilik mahsulotlarining to‘qima suyuqliklari esa toza suvdan farqlidir. Ularning tarkibida erigan tuzlar, shakar va kislotalar bo‘ladi. Shuning uchun bu suyuqliklarning muzlash harorati toza suvnikiga nisbatan past bo‘ladi. Eritmadan qattiq fazaning ajralib chiqish harorati muzlash nuqtasi deyiladi.

To‘qima suyuqligi tarkibida erigan moddalar miqdori qancha ko‘p bo‘lsa, uning muzlashi shuncha past haroratda bo‘ladi. Masalan: tarkibida shirinlik miqdori yuqori bo‘lgan ba’zi uzumlarning muzlash nuqtasi  $-5^{\circ}\text{C}$  gacha yetadi. Mahsulot tarkibidagi moddalar hammasining qotishi natijasida hosil bo‘lgan massa *evtektik massa* deyiladi, bundagi harorat esa *evtektik harorat*, eritmalarining bunday konsentratsiyasi *evtektik konsentratsiya* deyiladi. Mahsulotlarning evtektik harorati eng past harorat bo‘lib hisoblanadi. Lekin barcha moddalar uchun bu harorat bir xil emas, masalan: osh tuzi uchun  $-21^{\circ}\text{C}$ , kalsiy xlorid uchun esa  $-55^{\circ}\text{C}$ . Oziq–ovqat mahsulotlari to‘qima suyuqliklarining evtektik harorati  $-60^{\circ}\text{C}$  atrofida bo‘ladi. Mahsulot tarkibidagi muzga aylangan suv *muzlatilgan suv* deb ataladi. Uning miqdori to‘g‘risida muayyan haroratdagi muzga aylangan suvning mahsulotdagi barcha suyuqlik miqdoriga bo‘lgan nisbati asosida fikr yuritiladi.

### **Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarini sovutish va saqlash texnologiyasi asoslari .**

Go‘sht va go‘sht mahsulotlari, parranda go‘shti, tuxum, yog‘ va sut mahsulotlari, mevalar, sabzavotlar, rezavor mevalar, qandolat mahsulotlari , pazandalik mahsulotlari va sh.k. havoda sovutiladi.

Mahsulotlar tuzli eritmada sovitilganda ular eritma ichiga solinadi. Ko‘pincha sovutishdan oldin mahsulotni namlik o‘tkazmaydigan qobiqlar bilan o‘raydilar. Bunday sovutish kontaktli usul deb ataladi . Suyuq muhitlarda sovutish , havoda sovutishga nisbatan tezroq boradi . Chunki suyuq muhitda issiqlik uzatish koeffitsiyenti ortadi ,

lekin bunda texnologik jarayon murakkablashadi.

Amaliyotda suyuq muhitda sovutish cheklangan. Keyingi yillarda parranda go'shtlarini sovutish uchun sovuq (muzli) suv ishlatilmayapti. Eriyotgan muz suvi baliq, ba'zi sabzavot va ko'katlarni sovutishda ishlatilmoqda.

*Go'sht va submahsulotlarni sovutish.* Tana va nimta (yarim tana) ko'rinishidagi go'shtlar kameralarda osma yo'llarda osib sovutiladi.

Bu kameralar sun'iy sovutish va havoni aylantiruvchi qurilmalar bilan jihozlanadi. Qoramol go'shti tana, nimta yoki chorak tana ko'rinishida, qo'y va cho'chqa go'shtlari tana yoki nimta ko'rinishida sovutiladi. Osma yo'llarning ilgaklariga mol va cho'chqa tanalari har biri alohida osib qo'yiladi.

Qo'y tanasi maxsus ramkalarda bir yoki ikki qavatli qilib osib qo'yiladi. Har bir qavatga 10 ta qo'y tanasi joylashtiriladi.

Har bir osma yo'lga iloji boricha bir xil kategoriyadagi va o'r-tacha bir xil vazndagi mol tanalari joylashtiriladi. Katta mol tana-larini kameraning shamol harakati intensivroq va eng sovuq zonaligiga (joylariga) osib qo'yadilar.

Osma yo'lning har bir metrida 2 – 3 ta mol yarim tanasi, 4 ta cho'chqa yarim tanasi yoki qo'y tanasi osilgan ramalar joylashtiriladi. Osma yo'lning har bir metriga 200 kg mol, 250 kg qo'y va cho'chqa go'shti og'irligi to'g'ri keladi.

Go'sht qanchalik tez sovutilsa, vaznining kamayishi shuncha oz bo'ladi. Masalan, mol go'shti 24 soat davomida sovutilsa, vazni 1,08% kamayadi, 48 soat sovutilganda 1,30% va 72 soat sovutil-ganda 1,40% kamayishi aniqlangan.

Tez sovutishning afzalligi yana shundaki, bunda go'shtning sanitariya holati yaxshi saqlanadi, chunki tez sovutish natijasida mikroorganizmlarning ko'payishi to'xtatiladi; yangi so'yilgan go'shtning rangi va uning yog'inining oq rangi saqlanadi; sovutish muddati kamayadi.

Go'sht tanalari go'shtga birlamchi ishlov berish sexlari bilan bog'langan konveyerlarda sovutiladi.

Sovutish jarayonini tezlashtirish maqsadida sovutish boshlanishi harorat  $-5^{\circ}\text{C}$  va undan ham past darajaga tushirilishi bilan birga kameradagi havo harakati tezligi oshiriladi. Bu usul bosqichma-bosqich sovutish usuli bo'lib, bunda sovutish boshlanishida jarayon tezlashtiriladi, keyin esa sovutish harorati va havoning ha-

rakat tezligi kamaytiriladi. Natijada, tana va yarim tananing butun hajmida go'shtning harorati bir xil bo'ladi.

Hozirgi vaqtida yangi so'yilgan mol go'shtini maxsus jihozlangan kamera yoki tunnellarda bir bosqichli yoki ikki bosqichli usulda sovutish jarayoni qo'llanilmoqda. Bir bosqichli sovutish usulida go'sht sovutish kameralarida 4°C gacha sovutiladi. Ikki bosqichli usulda sovutish kameralarida go'sht ichki qavatlarida  $10 \div 20^{\circ}\text{C}$  gacha va yuzasida  $-1^{\circ}\text{C}$  gacha sovutiladi. Ikkinchisi bosqichda sovutish kameralarida go'sht  $-1$  dan  $-5^{\circ}\text{C}$  gacha sovutiladi. Natijada yarim tana go'shtlarning butun hajmida harorat  $4^{\circ}\text{C}$  gacha bo'ladi.

Go'sht 4 – 7 saat davomida o'ta tez usul bilan sovutilganda, go'shtning qurishi natijasida vazn yo'qotilishi 40 – 50% ga kamayadi, ishlab chiqarish maydonlari 2 – 3 marta kamayadi, texnologik ko'rsatkichlari yaxshilanadi. Sovutish jarayonini go'shtni birlamchi ishlov berish kameralari bilan bog'langan konveyerlarda o'tkazish mumkin. O'ta tez sovutishning asosiy sharti, sovituvchi havoni rational tarqatish hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun sovuq havo oqimi yuqorida vertikal ravishda yo'naltirilishi kerak.

Osma yo'llarga osilgan go'sht nimtalari maxsus metall havo o'tkazgich trubalarga o'matilgan soplo (tuynuk) dan yuqorida pastga qarab yo'naltiriladi. Havo oqimi soplidan chiqib, atrofdagi havoni so'rishi natijasida kamera hajmida yoyiladi. Havo oqimi katta tezlik bilan nimtaning biqin qismini va biroz sekinlashib, keyin kurak qismi (lopatka) va oldingi oyoq qismini sovitadi.

Havo uzatgich qurilmasi osma yo'l tepasida yoki o'rtasida joylashgan havo o'tkazish trubalaridan va unga o'matilgan soplo hamda ventilyatoridan iborat. Havo batareyalar yoki havo sovutgichlar yordamida sovutiladi. Kameralardagi havo ventilyator yordamida so'rilib va havo o'tkazgichlar soplosi orqali yuqorida pastga go'sht nimtalariiga yo'naltiriladi. Ba'zi hollarda havo bilan sovutishda havo sovutgichlar, havo o'tkazgichlar va ularning soplosi hamda ventilyatorlar ostida qovurg'ali yoki tekis yuza shaklidagi sovituvchi zmeyeviklar o'matilishi mumkin. Bunda sovuq havo kameradan ventilyator yordamida sovituvchi zmeyeviklarga va undan go'sht nimtalariiga yo'naltiriladi.

Soviqlik bilan ishlov berish uchun keltirilgan *submahsulotlar*, mollarning turi va submahsulotlarning xiliga qarab alohida protivenlarga joylashtiriladi.

Protivenlar osma etajerkalarga yoki g'ildirakli telejkalarga joy-

lashtirilib, osma yo'llar bilan yoki ko'p yarusli (qavatli) statsionar stellajlar bilan jihozlangansovutish xonalariga keltiriladi. Submahsulotlar ichki qavatida  $4^{\circ}\text{C}$  bo'lguncha sovutiladi. Sovutish kamerasining harorati  $+2 \div -1^{\circ}\text{C}$  darajasida, nisbiy namligi – 90% kattalikda saqlanadi. Sovutilgan submahsulotlar sotuvga, qayta ishlov berishga yoki muzlatishga yuboriladi.

*Go'sht va go'sht mahsulotlarini saqlash.* Harorati  $0 \dots +4^{\circ}\text{C}$  bo'lgan sovutilgan go'sht havoning harakat tezligi  $0,2 \div 0,3$  m/sek bo'lgan, ya'ni havo sirkulyatsiyasi tabiiy bo'lgan sovutish kameralarida osilgan holatda saqlanadi. Saqlash muddati  $0 \dots -1,5^{\circ}\text{C}$  da 7 – 12 kun,  $-1 \dots -2^{\circ}\text{C}$  haroratda esa sovutilgan go'sht 15 – 17 kun saqlanadi. Sovutilgan go'sht saqlanganda unda yetilish jarayoni davom etadi. Bunda, ya'ni yetilish davrida go'shtda kompleks fermentativ va biokimyoiy jarayonlar sodir bo'lib, natijada go'shtning muskul to'qimalari yumshayli, ta'mi va hidi yaxshilanadi. Go'shtning qotishi davrida  $pH$  muhiti  $4,8 \div 5,0$  dan  $5,7 \div 5,8$  gacha ko'tariladi. Go'shtning yetilishi jarayoni havo haroratiga bog'liq.  $0^{\circ}\text{C}$  haroratda go'sht 8 – 10 sutkada,  $10^{\circ}\text{C}$  da – 5 sutkada va  $17^{\circ}\text{C}$  da – 3 sutkada yetiladi.

Noqulay sharoitda saqlanganda go'shtda mikrobiologik o'zgarishlar sodir bo'lib, ular go'sht tarkibidagi birikmalarning parchalanshiga sababchi bo'ladi va erkin ammiak hamda oltingugurt vodorodi  $\text{H}_2\text{S}$  hosil bo'ladi. Saqlash paytida yog' to'qimalarida ham o'zgarishlar sodir bo'lib, kislotalilik soni oshadi.

*Submahsulotlar* sovutilgan holatda 2 kun saqlanishi mumkin, uzoq muddat saqlash uchun ular muzlatiladi.

**Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini muzlatish texnologiyasi asoslari.** Muzlatishda go'sht, parranda, baliq va tuxum tarkibidagi suvning to'rtdan uch qismining qotish harorati  $-4^{\circ}\text{C}$  dan boshlanadi. Sabzavotlar va kartoshkada esa suv miqdoring yarmi qota boshlaydi. Haroratning yanada pasaya borishi natijasida muzlashi kerak bo'lgan suv miqdori tezda kamayadi.

Mahsulotlarni muzlatishda fazaviy o'zgarishlar sodir bo'lishi natijasida ularning issiqlik fizikasi xususiyatlari ham o'zgaradi, chunki suv va muzning xususiyatlari bir-biridan farq qiladi. Mahsulotlar tarkibidagi quruq moddalarning muzlash jarayonidagi o'zgarishlari sezilarsiz darajada bo'lganligi uchun uni o'zgarmas deb hisoblash mumkin. Shuning uchun mahsulotlarning issiqlik fizikasi xususi-

yatlari o'zgarishiga asosiy va yagona sabab, ularning tarkibidagi suvning muzga aylanishidir.

Muzlatish jarayonida mahsulotlarning solishtirma issiqlik siğ'imi, issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti, harorat o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti va zichligi o'zgaradi. Mahsulotlarning solishtirma issiqlik sig'imi muzlatish jarayonida kamayadi, chunki muzning solishtirma issiqlik sig'imi suvnikiga qaraganda 2 marta kamdir. Shu bilan bir vaqtida mahsulotlarning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti esa ortadi. Bu muzning issiqlik o'tkazuvchanligi suvnikiga nisbatan 4 marta kattaligi bilan tushuntiriladi.

Mahsulotlarning harorat o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti ham oshadi, bu hol muzning suvgaga nisbatan harorat o'tkazuvchanligi 8 marta kattaligi bilan tushuntiriladi. Mahsulotlar zichligining kamayishi sabab ham suvning muzga aylanishi bilan kengayishidir. O'rta hisobda mahsulotlarning zichligi muzlash jarayonida 5 – 6 % ga kamayishi mumkin.

Mahsulotlarni muzlatish jarayonida sarflangan sovuqlik deyilganda uch bosqichda, ya'ni : 1) mahsulotlarni boshlang'ich haroratidan krioskopik haroratgacha; 2) muz hosil bo'lishiga va 3) haroratning shundan keyingi pasayishiga sarflangan sovuqlik miqdorlari yig'indisi ko'zda tutiladi.

Mahsulotlarning geometrik shakli va boshqa shartlar bir xil bo'lganida, ularning muzlash davomiyligi quyidagicha o'zgaradi: plastina shaklidagi mahsulotning muzlash davomiyligiga qaraganda silindr shaklidagi mahsulotning muzlashi 2 marta, shar shaklidagi mahsulotniki esa 3 marta qisqaradi.

Muzlatish jarayonining asosiy ko'rsatkichlaridan biri uning tezligidir. Mahsulotlarni muzlatish jarayonida, ularning sanitariyagigiiena holatini, jarayonning chuqurlashuvini, muz kristallari miqdorini, bu kristallarning to'qimalarda bir xilda tarqalishini muzlatish jarayonining tezligi belgilaydi. Muzlatish jarayonini mexanizatsiyalashtirish, rejimlarni boshqarishni avtomatlashtirish va jarayonning iqtisodiy ko'rsatkichlari ham muzlatish jarayonining tezligiga bog'liq. Muzlatish jarayonining tezligi sm/soat birligida o'chanadi. Mahsulotlarni muzlatish uchun asosan sovituvchi muhitning harorati  $-20^{\circ}\text{C}$  dan  $-40^{\circ}\text{C}$  gacha, juda kam hollarda esa  $-50^{\circ}\text{C}$  haroratli muhitlardan foydalilaniladi. Muzlatish intensivligi mahsulot qalinligini kamaytirish hisobiga oshiriladi. Mahsulot qalinligining eng kichik qiymati 5 – 6 sm bo'ladi. Qalinligi 10 – 12 sm bo'lgan mahsulotlarni muzla-

tishda, muzlatish davomiyligini kamaytirishga issiqlik berish koefitsiyenti juda yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Mahsulot qalinligi qancha katta bo'lsa, issiqlik berish koeffitsiyentining jarayon davomiyligiga ta'siri shunchalik kamayadi. Masalan: qalinligi 15 – 20 sm bo'lgan mahsulotni muzlatishda issiqlik berish koeffitsiyentini 70 – 90  $\text{Vt}/(\text{m}^2 \cdot ^\circ\text{C})$  dan yuqori darajaga ko'tarsak ham, bu muzlatish jarayoniga sezilmas darajada ta'sir qiladi.

Har xil mahsulotlarning muzlatish tezligi 0,1 dan 100 sm/soat gacha oraliqda o'zgarishi mumkin. Sekin muzlatish jarayoni 0,1 sm/soat tezlik bilan omborxona ichida uyib qo'yilgan mahsulotlarni intensiv havo harakati bilan muzlatish uchun; tezlashtirilgan muzlatish 0,5 – 3 sm/soat tezlikda qadoqlangan mahsulotlarni havoli va plitali muzlatish jihozlarida muzlatishda; tez muzlatish 3 – 10 sm/soat tezlikda osilgan holatdagi katta o'lchamli ba'zi bir mahsulotlarni muzlatishda; juda tez muzlatish 10 – 100 sm/soat tezlikda kriogen suyukliklarga (suyuq azot, suyuq freon) botirish yoki mahsulot ustidan ularni sepish usuli bilan muzlatishda qo'llaniladi.

O'simliklardan olingen oziq-ovqat mahsulotlarining histologik tuzilishini bir-biri bilan bogliq hujayrali va hujayrasiz birikmalar holida tasavvur qilishimiz mumkin. Chorva mollari go'shti, parrandalar, baliqlar esa tolali tuzilishga ega. Ularda hujayralar ingichka tolali muskul to'qimalarini hosil qiladi, bular esa biriktiruvchi to'qimalar orqali kattaroq tolalarni, keyingilar o'z navbatida birikib, bo'g'imlarini hosil qiladi. Oziq-ovqat mahsulotlaridagi to'qimalar suyuqligi hujayralar orasidagi bo'shliqda, tolalar orasida va bo'g'imlar orasida hamda hujayralar ichida bo'ladi. Bu suyuqlik joylashgan qatlamiga qarab konsentrangan bo'ladi. Shuning uchun mahsulotni muzlatishda birinchi kristallar mahsulot tarkibidagi eng past konsentratsiyali suyuqlikda hosil bo'ladi. Bu hodisa tolalar va bo'g'imlar orasida juda qiyin sodir bo'ladi. Shu sababli go'sht va baliq, hamda ulardan olingen mahsulotlar pastroq muzlash harorati bilan ajralib turadi. Meva va sabzavotlarda esa hujayralar orasidagi bo'shliqda muz kristallari nisbatan oson hosil bo'ladi. Meva va sabzavotlardagi suv, mahsulotning ichki qatlamlarida bo'ladi. Meva va sabzavot tarkibidagi suvning katta qismi erkin holatda, 20% ga yaqin qismi esa birikma holatida bo'ladi. Erkin suv, birikma holadagi suvga nisbatan tez muzlaydi.

**Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlariga sovuqlik bilan ishlov berishda foydalaniladigan hozirgi zamon fizik-kimyoviy ta'sirlar; bu ta'sirlarni qo'llashning afzalliklari hamda muammolari .**

Hozirgi vaqtida oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini umuman o'zgartirmasdan ularni uzoq vaqt saqlash usullari mavjud emas, lekin ularda bo'ladigan o'zgarish jarayonlarini sekinlashtiradigan muayyan ishonchli usullar mavjud.

Mahsulotlarga ishlov berishning hozirgi zamon qo'shimcha vositalariga ionlashtiruvchi va ultrabinafsha nurlar bilan ishlov berish, maxsus idishlar va o'rash (niqoblovchi) materiallari, ozon, karbonat angidrid, aktibiotiklar hamda antioksidlovchilardan foydalanish va boshqalar kiradi. Bu vositalarning barchasi mahsulotlarni saqlashda sovuqlik bilan birga ishlataladi.

*Ultrabinafsha nurlar.* Ultrabinafsha nurlar (UBN) ta'sirida mahsulotlarni saqlash bu nurlarning bakteritsidligi, ya'ni mikroblarni o'ldirish xususiyatiga asoslangan. UBN bu xossaga 313 dan 200 mmk (millimikron) gacha to'lqin uzunligida ega bo'ladi. Mikroorganizmlarning o'lishi ko'proq darajada 254 dan 265 mmk gacha bo'lgan to'lqin uzunligida sodir bo'ladi. UBN ta'sirida ham yuqorida aytganimizdek mahsulotlarning buzilishida ishtirok etuvchi mikroorganizmlarning hayot faoliyati butunlay yoki qisman to'xtaydi. UBN bilan nurlantirish davomiyligi kerakli samaraga erishilgunicha har xil bo'ladi. Nurlantirish davomiyligi asosan mahsulotlardagi mikrofloraga va bu mikrofloraning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan (tashqi) muhitga bog'liq bo'ladi.

Mikroorganizmlar turlicha bo'lganligi sababli, ular nurlanishning ham har xil to'lqinida o'ladi. Masalan: bakteriyalarni o'ldirish uchun zamburug'larga nisbatan ancha kam miqdordagi nurlar energiyasi kerak bo'ladi. Nurlantirish davomiyligi bundan tashqari mahsulotlarning zararlanish darajasiga, miqdoriga bog'liq. Agar mahsulotda mikroorganizmlar urug'larining soni qancha ko'p bo'lsa, bu holda shuncha katta nurlantirish energiyasi kerak bo'ladi.

Nurlantirishni davriy va uzlusiz olib borish mumkin. Bunda UBN ning bir xil miqdordagi energiyasidan foydalanilganda, jarayon oxirida davriy va uzlusiz ta'sirning natijasi bir xil bo'ladi. Bu hol esa UBN ning mikroorganizmlar, bakteriyalarga ta'sirining kumulyativlidigidir, ya'ni mikroorganizmlarning o'lishi boshlangandan keyin ta'sir etish davriy bo'lsa, undagi tanaffusda o'lish jarayoni davom

etadi va keyingi nurlanishni berguncha davom etadi, natijada davriy va uzlusiz ta'sir bir xil bo'ladi.

Mahsulotlarni saqlashda UBN sovuqlik bilan birga ta'sir ettilganda juda yaxshi samara beradi. Bunda past harorat ta'sirida mikroorganizmlarning rivojlanishi qiyin va o'lishi osonlashgan bo'ladi. Tajribalar va izlanishlar natijasida UBN ning foydali ta'siri haroratning past musbat qiymatlarida yuqori bo'lishi aniqlangan. Manfiy haroratda, ayniqsa  $-5^{\circ}\text{C}$  dan past bo'lgan haroratdagi muhitda nurlantirish samarasi juda kam bo'ladi. Shuning uchun UBN bilan nurlantirish haroratning manfiy qiymatlarida maqsadga muvofiq emas.

Ko'p mahsulotlarda UBN ta'sirida bakteriostatik xossalar paydo bo'ladi va ma'lum bir vaqtgacha mikroorganizmlarga qarshi antisептик ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'ladi. Nurlantirilgan mahsulotga tushgan mikroorganizmlar kuchsiz rivojlanadi va sekin o'sadi, natijada o'ladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, nurlantirish natijasida bakteriostatik xossaga ega bo'lgan mahsulotlarning saqlanish muddati ancha ortadi.

UBN ni olish uchun maxsus bakteritsid lampalardan foydalaniladi. Bular o'zi qiziydigan katodli, past bosimli gaz razryadli lampalar bo'lib, ular UBN ni o'tkazuvchi oynadan yasalgan.

UBN tez buzuluvchi mahsulotlarning saqlanish muddatini uzaytirishda ularga bevosita ta'sir qilibgina qolmay, balki mahsulotlarga ishlov berish, dezinfektsiyalab, muhit havosini zararsizlantirishda, texnologik jarayonda ishlatiladigan suvni zararsizlantirishda, jihozlarni (idishlarni), ishchilarning maxsus kiyimlarini, hamda sovitish kameralarining devorlari va shiplarini zararsizlantirib ham mahsulotlarning saqlanish muddatini oshirishga yordam beradi.

*Ionlantiruvchi nurlanishlar.* Ionlantiruvchi nurlanish qishloq xo'jaligida oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun ishlov berishning yangi va eng mukammal usullaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu turdagи nurlanish natijasida mikroorganizmlarning o'lish jarayoni hozircha to'liq o'rganilmagan. Tirik to'qimalarning parchalanishini esa zaryadlangan zarrachalarning ta'siri deb qaraladi. Bundan tashqari, nurlanish natijasida hosil bo'lgan kuchli bakteritsid ta'sirli ionlashtirilgan muhit, mikroorganizmlarga ta'sir qiladi.

Ionlantiruvchi nurlanish natijasida fermentativ jarayonlar sekinlashadi yoki batamom to'xtaydi. Lekin fermentlar bu usulga mikroorganizmlarga qaraganda ancha barqarordir. Fermentlarning

parchalanishi yoki faolligini yo'qotishi uchun mikroorganizmlarga ta'sir ettilganidagi nisbatan bir necha marta katta dozadagi nurlantirish kerak bo'ladi.

Izotoplар radioaktivligining o'lchov birligi Kyuri yoki Kilo-kyuri bo'lib, nurlanish miqdori esa – Ferlarda o'lchanadi. 1 Fer – bu rentgenning fizik ekvivalenti yoki 1 g material yutgan nurlanish energiyasi miqdoriga teng bo'lgan fizik kattalik bo'lib, u 83 ergga tengdir.

Nurlanish energiyasi miqdorini tanlashda nurlantirilgan mahsulotlarda boradigan intensiv jarayonlar ta'sirida bo'ladigan o'zgarishlarni hisobga olish kerak. Masalan : go'shtda qora rang, o'ziga xos hid va ta'm, baliqda esa yoqimsiz ta'm paydo bo'ladi. Bunda ayniqsa yoglarda ko'p salbiy o'zgarish ro'y beradi.

Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini kichik ionlanti-ruvchi dozalarda (masalan,  $10^5$  Ferga yaqin) ishlov berish – radiopasterizatsiya deyiladi. Radiopasterizasiya jarayoni sovutish yoki muzlatish jarayonlari bilan birga qo'llanilganda juda yaxshi natijalar beradi.

*Karbonat angidrid CO<sub>2</sub>*. Chorvachilik mahsulotlarini saqlashda karbonat angidridni sovuqlik bilan birga qo'llanilganda yaxshi natijalar bergani uchun undan ko'pincha qo'shimcha vosita sifatida foydalilaniladi. CO<sub>2</sub> havoning har xil konsentratsiyali aralashmalarida gaz holida ishlatiladi. Havoning harorati va CO<sub>2</sub> ning konsentratsiyasini to'g'ri sozlash natijasida mahsulotlarning saqlash muddati 1,5 ÷ 2 marta oshirilishi mumkin. Karbonat angidrid mikroorganizmlarning, asosan mog'or zamburuglari (плесневые грибы) va bakteriyalarlarning hayot faoliyatini to'xtatadi.

Yog'larda CO<sub>2</sub> ning yuqori eruvchanlik xossasi tufayli muhit tarkibidagi kislrorod miqdori kamayadi va bu bilan oksidlanish jarayoni sekinlashadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, CO<sub>2</sub> ning oz miqdordagi konsentratsiyalarida ham yog'larning oksidlanish jarayoni sezilarli darajada sekinlashadi. Saqlash xonalardagi CO<sub>2</sub> miqdoring ortishi mahsulotlarning nafas olishiga ham bog'liq. Buning natijasida xonalardagi kislrorod miqdori kamayadi va mahsulotlarning nafas olishi qiyinlashadi. Mahsulotlarning buzilishida sodir bo'ladigan jarayonlar, kimyoviy tarkibining o'zgarishi va saqlanishi ularning nafas olishiga bog'liq. Mahsulotlarning nafas olishiga to's-qinlik qilishi natijasida CO<sub>2</sub> ularning saqlanish muddatini orttiradi.

Mahsulotlarni saqlashda karbonat angidriddan quyidagicha foy-

dalaniladi. Mahsulotlar maxsus omborxonalar, konteynerlar yoki idishlarga joylanadi va ularga maxsus ballonlarda saqlanadigan karbonat angidrid gazi yoki qattiq holatdagi CO<sub>2</sub> – “quruq muz” solinadi. Qattiq holatdagi CO<sub>2</sub> saqlash davrida gazga aylanadi. Stationar omborxonalar germetik qilib quriladi. Konteyner va idishlar ham germetik, gaz o’tmaydigan qilib tayyorlanadi. Konteyner va idishlar har xil materiallardan: metall, yog’och, plastmassa, karton va shu kabilardan yasaladi. Ular germetik bo’lishi uchun gaz o’tkazmaydigan plynokalar bilan yoki maxsus tarkib bilan qoplanadi. Mahsulotlarni temir yo’llarda tashish uchun izotermik konteynerlardan foydalaniladi.

Karbonat angidridli muhitdan oddiy muhitga chiqarilganda mahsulotlardan CO<sub>2</sub> gazi ajraladi, ya’ni desorbsiya hodisasi yuz beradi.

*Ozon*. Ma’lumki ozon molekulasi uchta kislrorod atomidan iborat bo’ladi. Bularidan biri osonlik bilan ajralib chiqib, kuchli oksidlash qobiliyatiga ega bo’ladi. Ozonning bu xususiyatidan turli texnik maqsadlarga foydalaniladi, shu jumladan sovutish kameralarida oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashda ham bakteriostatik effekt hosil qilishda ishlataladi. Bu yo’nalishdagi ko’p izlanishlar va tajribalar shuni ko’rsatadiki, ko’pgina hollarda ozondan foydalanish sovutish kameralaridagi yomon hidrlarning zararsizlanishi va yo’qolishi uchun yaxshi natija beradi. Ozonning ma’lum konsentratsiyalaridan foydalanilganda mahsulotdagi va u saqlanayotgan xonalar havosidagi bakteriyalar hamda zamburuglarning rivojlanishi kamayadi va yo’qoladi.

Tajribada ozondan asosan mahsulotlarni saqlash kameralarini tayyorlash maqsadida foydalaniladi. Kamera avval ayrim kimyoviy moddalar yordamida dezinfektsiyalanadi, keyin esa ozon yordamida har xil hidlar yo’qotiladi. Dezinfektsiyalashning asosiy choralaridan biri ozon bilan ishlov berishdir. Bu holda uning konsentratsiyasini oshirish kerak. Bo’sh kameralarni dezinfektsiyalashdagina ozondan foydalaniladi. Bo’sh kameralarni ozonlashda havo harorati 0°C, nisbiy namligi 90% va ozonning konsentratsiyasi 20 – 25 mg/m<sup>3</sup> bo’lishi kerak. Bu sharoitda mikroorganizmlardan to’liq tozalash uchun 3 sutka kerak bo’ladi. Agar ozonning konsentratsiyasi 40 mg/m<sup>3</sup> ga yetkazilsa, havoni tozalash vaqt 2 sutka gacha kamayadi.

Ozonning konsentratsiyasi havoda 2 mg/m<sup>3</sup> dan oshsa, u

odam organizmi uchun zararlidir. Shu sababli ozon bilan ishlov beriladigan joylarda odam bo'lmasligi kerak, yoki ozondan himoya-lovchi niqob bo'lishi shart. Demak 2 mg/m<sup>3</sup> dan ortiq bo'lgan konsentratsiyali kameralarga niqobsiz kirmaslik lozim. Ozonni ishlatish maqsadida maxsus ozonatorlar olinadi. Ozonatorda uchqun (iskra) bermaydigan tinch elektr zaryadi hosil qiluvchi yuqori kuchlanish ta'sirida havo kislorodidan ozon olinadi. Sovutish tajribalarida va unda ozondan foydalanishda ikki xil ozonator qo'llaniladi : statsionar va harakatlanuvchi ozonatorlar.

*Antibiotiklar*. Hozirgi paytda yuzlab har xil antibiotiklar mavjud. Tibbiyotda antibiotiklardan keng va samarali foydalaniлади. Ulardan ba'zi birlarini oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ko'plab ishlanishlar natijasida antibiotiklarni qo'llash, masalan biomitsindan foydalanish baliq, go'sht, parrandalar va boshqa tez buzuluvchi mahsulotlarning saqlanish muddatini oshirishda yaxshi natijalar berishi aniqlangan.

Antibiotiklarning ozgina miqdorini qo'llash bakteriyalarning rivojlanishini to'xtatadi, shu sababli konservalashda ular sovuqlik bilan birga qo'llaniladi. Bu sharoitda, ya'ni antibiotiklar sovuqlik bilan birga qo'llanilganida mahsulotlarning saqlanish muddatini uzaytirishi mumkin, lekin qo'llanilayotgan antibiotiklar miqdorini kamaytirish talab etiladi. Chunki antibiotiklarning qimmat ekanligi va mahsulotlarning mikrobliz buzilishi sababli, ularni qo'llash santiariya-gigiyena nuqtai nazaridan chegaralab qo'yilgan. Buning sabablaridan biri ko'pchilik antibiotiklarning yuqori haroratga barqarorligidir. Shuning uchun ular mahsulot tarkibida bo'lib, harorat ta'sirida parchalanmaydi, ammo tarkibida antibiotik bo'lган mahsulotlarni uzlusiz iste'mol qilish inson sog'lig'iga zarar yetkazishi mumkin. Masalan, oshqozonning buzilishi va avitaminoz hamda boshqa kasalliklarga olib kelishi mumkin.

### *Nazorat savollari :*

1. Oziq-ovqat mahsulotlarini sovutish texnologiyasining asosiy jarayonlari.
2. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va oziqaviy qiymatining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi asosiy jarayonlar .
3. Oziq-ovqat mahsulotlarini sovutish usullari va muhitlari. Sovutish jarayonining davomiyligi va unga ta'sir qiluvchi omillar .
4. Oziq-ovqat mahsulotlarini sovutish usullari va muhitlari . Muz-

- latish jarayonining davomiyligi va unga ta'sir qiluvchi omillar .
5. Sovutilgan va muzlatilgan oziq-ovqat mahsulotlarini statsionar sovutgichlar va savdo sovutgichlarida saqlash sharoitlari va usullari .
  6. Oziq-ovqat mahsulotlarining tez buzilishiga olib keluvchi faktorlarni tavsiflab bering .
  7. Konservalashning qanday usullarini bilasiz ?
  8. Evtektik massa, evtektik harorat, evtektik konsentratsiya tu-shunchalarini yoritib bering .
  9. Eng universal sovutish usuli qanday usul ?
  10. Go'sht, parranda, tuxum, baliq va sut mahsulotlarini sovutish qanday rejimlarda amalga oshiriladi ?
  11. To'la muzlash haroratning qanday qiymatlarida amalga oshadi ?
  12. Mahsulotlarga ishlov berishning hozirgi zamon qo'shimcha vositalari deyilganida nimalarni tushunasiz ?
  13. Ultrabinafsha nurlar ta'sirida mahsulotlarni sovuqlik bilan ishlov berish va saqlashning o'ziga xos xususitatlari .
  14. Ionlantiruvchi nurlanish bilan ishlov berish usulining mohiyati .
  15. Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashda karbonat angidridni so-vuqlik bilan birga qo'llashning o'ziga xos xususitatlari .
  16. Mahsulotlarni ozon ta'sirida ishlov berish va sovuqlik bilan saqlashning mohiyati .

### **17. Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashda innovatsion texnologiyalarni qo'llash**

*Tayanch iboralar : iste'molchilar, sovutish, muzlatish, saralash, qadoqlash , rekonstruksiya , modernizatsiya , sovutgichli omborlar .*

Respublikamiz bozorlarida mevalar ko'paygan sari, uni nobud qilmasdan, sifatini pasaytirmsadan, iste'molchilarga yetkazib berish hozirgi kunda ham dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu masala mevalarni o'z vaqtida sifatli terib olishni, saralash, qadoqlash va innovatsion texnologiyalarni qo'llab, sifatli saqlash hamda iste'molchilarga yetkazish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ma'lumotlarga ko'ra rivojlanayotgan mamlakatlarda yesitshtirilayotgan hosilning 25 dan 40 % gacha qismi nobud bo'lishi aynan shu jarayonlarning to'g'ri tashkil etilmaganligidan deb hisoblanmoqda.


Mevalarni iste'molchilarga sifatli holda yetkazib berishning asosiy omili bo'lgan saqlash va saqlash bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarda innovatsion texnologiyalarni qo'llash muhim o'rinni tutadi. Respublikamizda bugungi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining iqtisodiyotimizdagi o'rni juda katta bo'lib, hozirgi kunda u yalpi ichki mahsulotning to'rtadan bir qismini ishlab chiqarmoqda. Qishloq xo'jalik mahsulotlari valyuta tushumkorligining 55 foizidan ortiqrog'ini ta'minlaydigan muhim eksport manbalaridan biri hisoblanadi.

Bu borada respublikamizda hukumat darajasida bir qator ishlar olib borilmoxda, jumladan davlatimiz rahbarining kelgusi 5 yil muddat ichida qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqr qayta ishlash, yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy texnologiyalar asosida jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, innovatsion texnologiyalar asosidagi sovutgichli omborlarni qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishni o'z ichiga olgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2011 yil 7 apreldagi 105 sonli qarori va 2017 yil 7 fevraldagi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Prezident farmonlari Respublikamizda innovatsion texnologiyalar qo'llangan zamonaviy turdag'i sovuqxonalarni tashkil etish va qo'llanilayotgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar ichki va tashqi bozorlarni bir maromda ta'minlashini amalga oshiradi.


Innovatsion texnologiyalar asosida qurilgan sovutgichli meva va sabzavot omborlari qurilishi, meva va sabzavotlarni yil mobaynida talabgorlarga taklif qilinishi bilan bir qatorda, mavsumdan tashqari sotish orqali tadbirkorlarga daromad ham keltiradi.

Matnda sovutgichli omborlar haqida va ularda saqlanadigan respublikamizda ommaviy yetishtiriladigan mevalarni sifatli saqlash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Meva yoki sabzavotlarning uzish uchun yetilishi davri (yoki "bozorbop" yetilishi) deyilganida hosilning "fiziologik" pishishiga 3 – 10 kun qolgan holati hisoblanadi. Hosil shakl va hajmi bo'yicha iste'mol qilish uchun yetilgan bo'lsada, u hali to'liq pishib yetilmagan, o'zi qattiq va shakar miqdori nisbatan past bo'ladi. Ayrim mahsulotlarda, bozorpob pishish fiziologik pishishi davri bilan mos kelishi mumkin.




17.1 – chizma. Sovuqxona turlari




17.2 – chizma. Sovuqxonaning umumiy ko'rinishi

### Issiqlikning olinishi



17.3 – chizma. Sovutish agregatlarining ishlash jarayonlari



17.4 – chizma. Meva va sabzavotlarning pishish davri



### 17.5 – chizma. Meva va sabzavotlarning pishish davridagi xususiyatlari

Quyidagi jadvalda mahsulotlarning etilen ajratib chiqarishi va etilenga nisbatan ularning ta'sirchanlik darajasi keltirilgan.

17.1 – jadval

Ayrim mahsulotlarning etilen va hid chiqarish darajasi, hamda etilen va hidga ta'sirchanligi darajasi

| t/r | Mahsulot turi | Etilen chiqarish darajasi | Etilenga ta'sirchanligi | Hid chiqarish darajasi | Hidga ta'sirchanligi |
|-----|---------------|---------------------------|-------------------------|------------------------|----------------------|
| 1   | Gilos         | Past                      | Past                    | Past                   | Yuqori               |
| 2   | O'rik         | Yuqori                    | Yuqori                  | Past                   | Past                 |
| 3   | Shaftoli      | Yuqori                    | Yuqori                  | Yuqori                 | Past                 |
| 4   | Olma          | Yuqori                    | Yuqori                  | Yuqori                 | Yuqori               |

Uzilgandan so'ng, yetilish, rivojlanish davom etib pishadigan xususiyatlarga ega bo'lgan mevalarni – klimakteriy mevalar va faqat daraxt (o'simlik) shoxida rivojlanib pishadigan mevalarni – no-klimakteriy mevalar deb ataladi. Bizdagi mahsulotlar 2 guruhga ajraladi :

17.2 – jadval

| Klimakteriy va no-klimakteriy mahsulotlar |                |
|---|----------------|
| Klimakteriy                               | No-klimakteriy |
| O'rik                                     | Gilos          |
| Shaftoli                                  | Uzum           |

|   |  |
|---|--|
| Olma  |  |
| Xurmo   |  |
| Manba:FAO Agricultural Services Bulletin 151:Manual for the preparation and sale of fruits and vegetables : From field to market , 2004 |  |

## GILOS

**(Gilos haqida boshqa manbalarda yetarlicha ma'lumot berilganligi bois, bu yerda faqat uning xaridorgir ko'rsatkichlari haqida ma'lumot berilgan.)**

Gilos dunyoning 60 dan ortiq issiq iqlimli o'lkalarida yetishtiriladigan mevali daraxtdir. 2011 yilda dunyoda 2,24 mln. tonna gilos yetishtirilgan. Turkiya, AQSH va Eron, shuningdek, MDH davlatlaridan Rossiya Federatsiyasi hamda Ukraina gilos yetishtiridigan davlatlar qatoriga kiradilar. 2011 yil natijalariga ko'ra O'zbekiston gilos yetishtirish bo'yicha dunyoda 7-o'rinni egallagan (jadval-17.3).

17.3 – jadval

| Davlat      | Ishlab chiqarish hajmi (ming tonna, %) | Davlat | Hosildorligi (tonna/gektar) | 17.3 – jadval |
|-------------|--|--------|-----------------------------|---------------|
|             |  |        |                             | 2011          |
| Turkiya     | 438,550                                | 19,6   | Sloveniya                   | 34,15         |
| AQSH        | 303,363                                | 13,5   | Shveysariya                 | 24,84         |
| Eron        | 241,117                                | 10,8   | Ruminiya                    | 11,94         |
| Italiya     | 112,775                                | 5,0    | Turkiya                     | 9,69          |
| Ispaniya    | 101,729                                | 4,5    | O'zbekiston                 | 9,43          |
| Avstriya    | 92,520                                 | 4,1    | AQSH                        | 8,84          |
| O'zbekiston | 82,000                                 | 3,7    | Eron                        | 8,40          |
| Ruminiya    | 81,842                                 | 3,7    | Xorvatiya                   | 8,19          |
| Rossiya     | 76,000                                 | 3,4    | Falastin                    | 6,95          |
| Ukraina     | 72,800                                 | 3,2    | Armaniston                  | 6,94          |
| Suriya      | 62,195                                 | 2,8    | Germaniya                   | 6,94          |
| Chili       | 61,088                                 | 2,7    | Kanada                      | 6,74          |
| Fransiya    | 48,082                                 | 2,1    | Belgiya                     | 6,56          |
| Gretsiya    | 44,200                                 | 2,0    | Meksika                     | 6,65          |
| Qozog'iston | 10,000                                 | 0,4    | Belorussiya                 | 5,83          |
| Moldaviya   | 8,485                                  | 0,4    | Ukraina                     | 5,82          |
| Armaniston  | 7,532                                  | 0,3    | Qoizog'iston                | 5,59          |
| Ozarbayjon  | 6,347                                  | 0,3    | Rossiya                     | 4,75          |

|              |           |      |            |      |
|--------------|-----------|------|------------|------|
| Qirg'iziston | 6,000     | 0,3  | Gruziya    | 3,86 |
| Boshqalar    | 383,866   | 17,1 | Ozarbayjon | 3,84 |
| Jami         | 2.240,491 | 100  |            |      |

Ya'ni bu mamlakatlarning ob-havosi, iqlim sharoiti, yetishtirilayotgan hoslning hajmi mahsulotining narxini belgilashda katta ahamiyatga ega.

Gilos tez buziladigan mahsulotlar guruhiга kirib, u uzilgandan keyin tez orada xaridorgir xususiyatlarini yo'qotishni boshlaydi. Shu tufayli gilos saqlash uchun juda nozik mahsulot hisoblanadi.

O'zbekistonda yetishtiriladigan navlarning umumiy tavsifi va mahsulot sifatini belgilab beruvchi **tashqi omillar** quyidagicha (jadval-17.4).

17.4 – jadval

| Navi                        | Diametri, mm   |             |         | Massasi, gr.   |             | Dana gi % | Bandi (plodo-nojka) % |
|-----------------------------|----------------|-------------|---------|----------------|-------------|-----------|-----------------------|
|                             | ...dan ..gacha | O'rta-chcha | kami-da | ...dan ..gacha | O'rta-chcha |           |                       |
| Qora Napoleon (o'rtapishar) | 17 – 29        | 23,1        | 7       | 4,5 – 5,8      | 4,8         | 6,6       | 1,8                   |
| Bahor (ertapishar)          | 17 – 31        | 24,1        | 7       | 4,5 – 6,8      | 5,8         | 6,6       | 1,8                   |
| (kechki-pisharlari)         | 17 – 31        | 24,1        | 7       | 4,5 – 6,8      | 5,8         | 6,6       | 1,8                   |

Gilos sifatini belgilab beruvchi **ichki omillar** quyidagicha (jadval-17.5).

17.5 – jadval

| Navi                         | Quruq modda-si, % | Qand miqdo-ri, % | Umumiy kislotalik darajasi | Pektin modda-lari | P-aktiv modda-lar, mg % | Askorbin kislotoshi, mg % |
|------------------------------|-------------------|------------------|----------------------------|-------------------|-------------------------|---------------------------|
| Qora Napoleon ( o'rtapishar) | 16,0              | 10,84            | 0,62                       | -                 | -                       | 22                        |
| Bahorgi (ertapishar)         | 19,1              | 13,8             | 0,33                       | -                 | -                       | 15                        |
| (kechki-pisharlari)          | 15,7              | 16               | 0,61                       | -                 | -                       | -                         |

Serquyosh O'zbekistonda yetishtirilayotgan giloslar shifo– baxsh shiraga boyligi va ularda qand miqdori yuqori bo'lganligi sababli, yetishtirilayotgan boshqa turdosh mevalardan ancha farq qiladi va bu bilan birga bozorda o'ziga xos o'rinni egallaydi. Gilos– ning sifatini belgilab beruvchi omillarning eng asosiysiga uning bandi kiradi (saralangan turlarda u uzun bo'ladi). Gilosni bozorga olib chiqqanda uning bandi rangi ko'k, mevasi esa to'q qora yoki to'q qizil , pushti rangda , sersuvlik darajasi yuqori bo'lishi lozim.

Gilosning asosiy pishish davri may – iyun oylariga to'g'ri keladi. Bu davrda soyadagi ertalabki o'rtacha harorat +12,20°C, kun davomida esa +20,25°C haroratni tashkil etadi. Uzilgan mahsulotning o'rtacha harorati 24°C ni tashkil etadi. Hosilni yig'ish va yuklab, jo'natish uchun sarflanadigan vaqt va harorat nisbati e'tiborga olinib, unga sun'iy ravishda mikroiqlim yaratiladi.

Gilosning etilen moddasini ajratishi va unga nisbatan ta'sirchanlik darajasi past bo'lsa ham, lekin hidga ta'sirchanligi yuqori bo'ladi.

O'zbekistonda yetishtiriladigan "Qora Napoleon" gilos navi sovuqqa chidamliligi bilan ajralib turadi. Ammo gilos uzoq muddatli saqlash xususiyatiga ega emas, uni faqat qisqa muddat saqlash mumkin xolos. Gilos "bozorbop" pishgan davrida bandi bilan uzib olinadi. Uni terminal (vaqtincha bir joyda yetarlicha hajmda yig'ib, saralab va sovitib chiqarib yuborish) usuli asosida 10 kun, ayrim holatlarda 2 – 3 haftagacha saqlab turish mumkin.

## O'RIK

**(O'rik haqida boshqa manbalarda yetarlicha ma'lumot berilgani bois, bu yerda o'rikning faqat xaridorgir ko'rsatkichlari haqida ma'lumot berilgan).**

O'rik issiq iqlimli mintaqalarda o'sadigan mevali daraxt bo'lib , 60 dan ortiq davlatlarda yetishtiriladi.

2011 yilda dunyoda 3,83 mln. tonna o'rik yetishtirilgan. Turkiya, O'zbekiston va Italiya, shuningdek qo'shni davlatlar orasida Ukraina hamda Rossiya Federatsiyasi asosiy o'rik yetishtiruvchilar hisoblanadi. O'rik yetishtirish bo'yicha 2011 yil natijalariga ko'ra O'zbekiston dunyoda 3 – o'rinni egallaydi, MDH davlatlari orasida esa 1 – o'rinni egallaydi (jadval–17.6). Mamlakatimizda 2011 yil natijasiga ko'ra, o'rik yetishtirilishi 2005 yilga nisbatan 2 barobar oshgan (jadval – 17.6).

O'rik yetishtiriladigan davlatlardagi ob-havo mahsulot narkini belgilashda muhim ahamiyatga ega. O'rta Osiyoda yetishtirilayotgan o'rik mevasi hajmi jihatidan kichik bo'lsa ham (O'zbekiston bundan mustasno), tarkibida qand miqdori ko'pligi bilan ajralib turadi.

O'rik gilos kabi uzilganidan so'ng tez yetilib, tez ayniydigan mahsulotlar guruhiiga kiradi. Mevalarni uzungandan so'ng, iloji boricha ularni o'z vaqtida sovutish maqsadga muvosiq bo'ladi. Uzilgan hosilning yetilishi, rivojlanishi va tez aynishi jarayonini nisbatan past haroratli iqlimda sekinlashtirish mumkin. O'zbekistonda yetishtiriladigan o'rik navlarining umumiy tavsifi yoki tashqi omillari quyidagicha (17.7 – jadval) :

17.6 – jadval

| Davlat       | Ishlab chiqarish hajmi<br>(ming tonna, %) | Davlat | Hosildorligi<br>(tonna<br>gektariga) |       |
|--------------|---|--------|--------------------------------------|-------|
|              |   | 2011   |                                      |       |
| Turkiya      | 676,138                                   | 17,6   | Sloveniya                            | 18,57 |
| Eron         | 452,988                                   | 11,8   | Misr                                 | 15,47 |
| O'zbekiston  | 356,000                                   | 9,3    | Turkmaniston                         | 15,34 |
| Italiya      | 263,132                                   | 6,9    | Gretsiya                             | 13,80 |
| Jazoir       | 205,000                                   | 5,3    | Italiya                              | 13,43 |
| Pokiston     | 189,420                                   | 4,9    | Ruminiya                             | 13,24 |
| Fransiya     | 154,980                                   | 4,0    | Ukraina                              | 12,89 |
| Marokko      | 132,523                                   | 3,5    | AQSH                                 | 12,31 |
| Ukraina      | 119,900                                   | 3,1    | Shveysariya                          | 12,24 |
| Yaponiya     | 106,900                                   | 2,8    | Turkiya                              | 11,33 |
| Misr         | 96,643                                    | 2,5    | Fransiya                             | 11,15 |
| Xitoy        | 88,010                                    | 2,3    | Marokko                              | 10,45 |
| Ispaniya     | 86,889                                    | 2,3    | O'zbekiston                          | 9,75  |
| Gretsiya     | 82,800                                    | 2,2    | Eron                                 | 9,03  |
| Rossiya      | 60,000                                    | 1,6    | Ozarbayjon                           | 7,35  |
| Armaniston   | 49,357                                    | 1,3    | Yaponiya                             | 6,44  |
| Turkmaniston | 36,091                                    | 0,9    | Jazoir                               | 6,41  |
| Tojikiston   | 25,000                                    | 0,7    | Pokiston                             | 6,39  |
| Ozarbayjon   | 18,680                                    | 0,49   | Armaniston                           | 6,38  |
| Qirg'iziston | 18,200                                    | 0,47   | Xitoy                                | 3,67  |
| Boshqalar    | 615,824                                   | 16,06  | Ispaniya                             | 4,64  |
| Jami         | 3.834,475                                 | 100    |                                      |       |

## O'rik sifatini belgilab beruvchi tashqi omillar

|   | Navi                           | Diametri, mm    |            |
|---|--------------------------------|-----------------|------------|
|   |                                | ...dan-...gacha | Kamida, mm |
| 1 | Subxoni (kech pishar)          | 23 – 31         | 17         |
| 2 | Shalax (erta pishar)           | 17 – 25         | 17         |
| 3 | Isfarak (o'rtal pishar)        | 23 – 31         | 17         |
| 4 | Yubileyniy Navoi (kech pishar) | 38 – 46         | 17         |
| 5 | Guliston (kech pishar)         | 40 – 46         | 17         |

Mahsulot sifatini belgilab beruvchi ichki omillar quydagicha :

## O'rik sifatini belgilab beruvchi ichki omillar

| T / r | Navi                    | Quruq mod-dasi, % | Qand miqdori | Umumiy kislotalik darajasi | Pektin modda-lar | P-aktiv modda-lar, mg % | Askor -bin kislo-tasi, mg % |
|-------|-------------------------|-------------------|--------------|----------------------------|------------------|-------------------------|-----------------------------|
| 1     | Subxoni (kech pishar)   | 27,1              | 16,97        | 0,64                       |                  |                         |                             |
| 2     | Shalax (erta pishar)    | 13,7              | 09,8         | 0,70                       | 0,54             | 50                      |                             |
| 3     | Isfarak (o'rtal pishar) | 26,6              | 15,48        | 0,90                       | 0,96             |                         |                             |

Mahsulotning sersuvlik miqdori va o'ta shirali, "bozorbop" pishgan paytida uzilganda rangi och sariq, pishganda to'q sariq rangda bo'ladi. Xaridorgir mahsulotlarda, dog'lar bo'lmasligi, mavjud qizil dog'lar esa umumiy miqdorining 5 foizidan oshmasligi kerak .

Pishish davri iyun oyining boshidan iyul oyining oxirigacha davom etadi. Mavsum boshida harorat soyada o'rtacha +25...+30°C va mavsum oxirida +30...+40°C ni tashkil etadi. Terimni ertalabdan, harorat soyada +20...+25 °C ga yetganda boshlash ma'qul. Mahsulotni yuklash va saqlash jarayonida, sun'iy mikroiqlim yaratilishida yuqorida qayd etilgan haroratlarni inobatga olish lozim. Saqlash paytida mahsulotning o'zidan etilen moddasi ajralishi va etilenga ta'sirchanligini inobatga olish, hamda bu omilni nazarda tutish kerak . O'rikning hid chiqarishi va hidga ta'sirchanlik darajasi past.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, yuqorida qayd etilgan o'rik navlaridan "shalax" navi o'z xususiyatlarini nisbatan uzoq saqlay oladi va uning mevasini pishganda uzib olib, eksport qilish mumkin. Bu davrda uzilgan mevani sun'iysovutish uning yetilishini sekinlash-tiriladi. Ichki bozorga kelsak, pishgan o'rik saharda uzilib, bozorga yetkazilsa va shu kuniyoq iste'mol qilinsa yaxshi bo'ladi. Chunki,sovutish kerakli natija bermasligi sababli meva o'z xususiyatlarini yo'qotishi mumkin. Umuman olganda o'rikning boshqa navlari ham uzoq saqlanish xususiyatiga ega emas. Hozirgi kunda ko'pi bilan terminal usuli asosida o'rik mevalarini 10 kungacha saqlab turish mumkin.

### OLMA

**(Olma haqida boshqa manbalarda yetarlicha ma'lumot berilganligi bois, bu yerda uning faqat xaridorgir ko'rsatkichlari haqida ma'lumot berilgan.)**

Olma issiqsevar mevalar qatoriga kiradi va iliq iqlim sharoitidagi 93 mamlakatda, MDH hududida asosan O'rta Osiyo, Kavkaz, Moldaviya, Rossiyada (Qrimda) yetishtiriladi. Bu meva, jumladan O'zbekiston va Tojikistonda ham ko'plab yetishtiriladi.

17.9 – jadval

| Davlat      | Ishlab chiqarish hajmi<br>(ming tonna, %) | Davlat | Hosildorligi<br>(tonna /<br>gektar) |       |
|-------------|---|--------|-------------------------------------|-------|
|             |   |        | 2011                                |       |
| Xitoy       | 35 987,221                                | 47,6 % | Avstriya                            | 90,36 |
| AQSH        | 4 235,576                                 | 5,6 %  | Yangi Zelandiya                     | 48,67 |
| Hindiston   | 2 874,141                                 | 3,8%   | Fransiya                            | 44,40 |
| Turkiya     | 2 647,235                                 | 3,5%   | Italiya                             | 42,41 |
| Polsha      | 2 495,964                                 | 3,3%   | Isroil                              | 40,83 |
| Italiya     | 2 420,329                                 | 3,2%   | Braziliya                           | 35,17 |
| Fransiya    | 1 890,882                                 | 2,5%   | Chili                               | 33,37 |
| Eron        | 1 663,976                                 | 2,2%   | AQSH                                | 31,94 |
| Braziliya   | 1 361,435                                 | 1,8%   | Germaniya                           | 28,42 |
| Rossiya     | 1 210,164                                 | 1,6 %  | Argentina                           | 26,32 |
| Chili       | 1 172,347                                 | 1,5%   | Turkiya                             | 18,82 |
| Argentina   | 1 096,711                                 | 1,5%   | Xitoy                               | 17,54 |
| Ukraina     | 983,259                                   | 1,3%   | Eron                                | 12,38 |
| Germaniya   | 907,623                                   | 1,2 %  | Turkmaniston                        | 11,30 |
| O'zbekiston | 756,352                                   | 1,0 %  | O'zbekiston                         | 11,13 |

|              |            |         |              |      |
|--------------|------------|---------|--------------|------|
| Avstriya     | 529,446    | 0,7 %   | Ukraina      | 9,07 |
| Ozarbayjon   | 226,905    | 0,3 %   | Ozarbayjon   | 8,88 |
| Tojikiston   | 189,088    | 0,2 %   | Armaniston   | 8,66 |
| Qirg'iziston | 151,270    | 0,2 %   | Rossiya      | 6,38 |
| Qozog'iston  | 113,452    | 0,2%    | Qirg'iziston | 5,76 |
| Boshqalar    | 12 706,727 | 16,80 % |              |      |
| Jami         | 75 635,283 | 100 %   |              |      |

O'zbekistonda olmaning ko'plab navlari yetishtiriladi. Ushbu qo'llanma doirasida biz kuzgi va qishki mavsumda saqlanadigan "Antonovka", "Simirenko", "Nafis", "Besh Yulduz" kabi olma navlarini ko'rib chiqamiz. Ko'rsatilgan navlar yuqori daromadliligi bilan ajralib turadi va eksportbop hisoblanadi. Ichki bozorda ham bu navlar o'z o'mmini topgan.

Ushbu olma navlari ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga daraxt shoxida yetiladigan yoki sifat ko'rsatkichlari shoxda shakllanadigan olma navlari kiradi, ikkinchi guruhga esa uzilgandan keyin yetiladigan olma navlari kiradi. O'zbekistonda yetishtiriladigan olma navlarining umumiy tasnifi quyidagilardan iborat .

17.10 – jadval

| Olma sifatini belgilab beruvchi tashqi omillar : |  |                   |            |
|--|--|-------------------|------------|
| t/r  | Navi   | Diametri, mm      |            |
|  |  | ...dan – ...gacha | Kamida, mm |
| 1  | Simirenko ( Kech pishar)                         | 50 – 67           | 50         |
| 2  | Nafis (O'rta pishar)                             | 50 – 67           | 50         |
| 3  | Red Delishes (Besh Yulduz )<br>(Kech pisharlari) | 50 – 67           | 50         |

Olma mahsulotining xaridorgir sifatini belgilab beruvchi ichki omillar quyidagicha .

17.11 – jadval

| Navi                       | Quruq modda – lari , % | Qand miqdori | Umumiy kislotalik darajasi | Pektin modda – lari | P – aktiv modda – lar, mg % | Askorbin kislotasi, mg % |
|----------------------------|------------------------|--------------|----------------------------|---------------------|-----------------------------|--------------------------|
| Simirenko<br>(kech pishar) | 4,0                    | 9,65         | 0,48                       | 0,90                |                             | 13,5                     |



|   |     |      |      |  |  |  |
|---|-----|------|------|--|--|--|
| Nafis (o'rtta pishar)                     | 4,1 | 9,37 | 0,61 |  |  |  |
| Red delishes (Besh Yulduz ) (kech pishar) | 5,0 | 2    | 1    |  |  |  |

Olmalarni ham shoxidan uzayotganda bandi bilan uzish kerak. Uzoq vaqt saqlanishi ayni mevalarga bog'liq bo'ladi. Antonovka va Simirenko navli olmalarning sersuvlik darajasi yuqori va ta'mi juda shirinligi bilan ajralib turadi, rangi uzilganda och-sariq yoki yashil, to'liq pishganda to'q sariq bo'ladi. Saqlanadigan olmalarning qizil dog'lari bo'lmasligi kerak va umumiy hajmining 5 foizidan oshmasligi kerak.

Nafis va Red delishes mahalliy olma navlari uzilayotganda yarim yashil va qizil tusda bo'ladi. Saqlanishi o'rta muddatli, deyarli yangi yilgacha saqlanadi. Olmaning bu navlari kam suvli bo'lganligi uchun "Antonovka" va "Simirenko" olmalariga qaraganda pastroq narxda sotiladi.

Tanlab olingan olma navlarining pishish davri kechki bo'lib, avgust oyining oxiridan oktabr oyigacha cho'ziladi. Shu davrda mavsum boshida o'rtacha harorat soyada 15 – 25°C ni tashkil etganda uzish amalga oshiriladi. Shunda mahsulot sovuqxonaga keltirilganda uning harorati o'rtacha +25°C ni tashkil etadi. Mahsulotni saqlash va uning keyingi yuklab jo'natalishida hamda sun'iy mikroiqlim yaratilishida yuqorida ko'rsatilgan haroratlarni inobatga olish lozim.

Olma uzoq muddat davomida saqlanish xususiyatiga ega. Uni kech kuz va qish davrida 90 – 100 kungacha saqlab turish mumkin. Amaliyotda mahsulotlarni may oyigacha saqlab sotilishiga guvoh bo'lish mumkin.

Olma tashqi ko'rinishi bejirim bo'lsada, o'zidan ko'p miqdorda etilen ajratishi va unga nisbatan ta'sirchanligi, hid chiqarish va unga ta'sirchanlik darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, Xitoy va Erondon kelayotgan olma mahsulotlari bilan to'laqonli raqqobatlashish uchun yuqorida ko'rsatilgan meva navlarini o'sish, ulg'ayish davrlarida to'g'ri parvarishlash kerak .

## XURMO

**(Xurmo haqida boshqa manbalarda yetarlicha ma'lumotlar berilganligi bois, bu yerda uning faqat xaridorgir ko'rsatkichlari haqida ma'lumot berilgan.)**

Xurmo issiqsevar mevali daraxt bo'lib, Xitoy, Italiya, Yaponiya, Ozarbayjon, Isroil, O'rta Osiyo davlatlarida yetishtiriladi. BMT ning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ning ma'lumotiga ko'ra 2011 yilda eng ko'p xurmo yetishtirilgan davlat Xitoy bo'lgan, O'zbekiston esa 7 o'rinni egallagan.

17.12 – jadval

| Davlat          | Ishlab chiqarish hajmi,<br>(ming tonna, %) | Davlat | Hosildorligi (tonna<br>gektariga) |       |
|-----------------|--|--------|-----------------------------------|-------|
| 2011            |  |        | 2011                              |       |
| Xitoy           | 3 259,334                                  | 76,0   | Italiya                           | 9,55  |
| Koreya          | 390,820                                    | 9,1    | Braziliya                         | 18,52 |
| Yaponiya        | 207,500                                    | 4,8    | Ozarbayjon                        | 18,47 |
| Braziliya       | 154,625                                    | 3,6    | Yangi Zelandiya                   | 16,73 |
| Ozarbayjon      | 146,084                                    | 3,4    | Sloveniya                         | 16,26 |
| Italiya         | 50,236                                     | 1,2    | Koreya                            | 12,47 |
| O'zbekiston     | 41,000                                     | 1,0    | Meksika                           | 12,39 |
| Isroil          | 29,271                                     | 0,7    | O'zbekiston                       | 11,08 |
| Yangi Zelandiya | 2,526                                      | 0,1    | Yaponiya                          | 9,39  |
| Eron            | 2,123                                      | 0,05   | Isroil                            | 9,05  |
| Sloveniya       | 813  | 0,02   | Eron                              | 8,17  |
| Nepal           | 757  | 0,01   | Avstraliya                        | 7,38  |
| Avstraliya      | 642  | 0,01   | Nepal                             | 5,57  |
| Meksika         | 223  | 0,01   | Xitoy                             | 4,47  |
| Jami            | 4 285,954                                  | 100    |                                   |       |

Mazkur davlatlardagi iqlim ob-havosi mahsulot narxining belgilanishiga ta'sir qiladi. MDH davlatlarining orasida ilk mavsumiy mahsulotlar O'zbekiston va Tojikistonda pisha boshlaydi.

Dunyoda xurmoning 200 dan ortiq navlari bor. Xurmo uzilganda qattiq bo'lsada, uzilgandan so'ng tez yetilib, yumshay bosh-

laydi. Buning oldini olish uchun sovuqxonalarda saqlash lozim bo'lgan mahsulotlardan hisoblanadi.

Xurmo o'zining tarkibidagi shiralik miqdori bilan ajralib turadi. Shartli ravishda xurmoni daraxt shoxida yetishtiriladigan va uzilganidan so'ng yetiladigan turlariga ham bo'lish mumkin. Qo'llanmada quyida keltirilgan xurmo navlari bo'yicha kuz va qishki mavsumda saqlash qoidalari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu navlar daromadiligi bilan ajralib turadi va eksportbop hisoblanadi. Ichki bozorda ham iste'molchilar orasida ushbu navlar o'z o'rmini topgan.

#### **Xurmo navlarini belgilab beruvchi tashqi omillar :**

17.13 – jadval

| Navi  | Diametri, mm      |            |
|---|-------------------|------------|
|   | ...dan – ...gacha | Kamida, mm |
| Zendji – Meru ("shokolad")<br>(kech pishar) | 50 – 70           | 50         |
| Xiakume ("Limon" kech pishar )              | 50 – 70           | 50         |

#### **Mahsulot sifatini belgilab beruvchi ichki omillar :**

17.14 – jadval

| Navi   | Quruq modda-lari , % | Qand miqdo ri | Umumiylar kislotalik darajasi | Pektin modda lar | P-aktiv modda – lar, mg % | Askorbin kislotasi, mg % |
|--|----------------------|---------------|-------------------------------|------------------|---------------------------|--------------------------|
| Zendji – Meru<br>(shokolad)<br>(kech pishar) | 14,3                 | 6,64          | 0,21                          | 0,22             | 23                        | 10,7                     |
| Xiakume<br>(Limon)<br>(kech pishar)          | 14,5                 | 9,84          | 0,12                          |                  |                           |                          |

Xurmo sifatini belgilab beruvchi omillardan biri uning meva bandi hisoblanadi. Xurmoning bandi bo'lishi uni uzoq saqlashga yordam beradi va mahsulotning holati haqida ma'lumot beradi. Xurmoning Zendji-Meru ("shokolad" ) (kech pishar) va Xiakume ("Limon") (kech pishar) navlarining sersuvlik darajasi yuqori va o'ta shirinligi, "bozorbop" pishgan davrida uzilganda rangi olovrang (oranjeviy), to'liq pishganda esa to'q sariq rangda bo'lishi bilan tavsiflanadi. Saqlanadigan mevaning dog'lari bo'l-

masligi lozim. Saqlash davrida xurmoning rangi yanada to‘qroq bo‘ladi , agar mahsulot noto‘g‘ri saqlansa , meva yumshaydi.

Xurmoning saqlanish muddati o‘rta hisoblanadi. Mahsulot yangi mavsumgacha sotilib, to‘la iste‘mol qilib bo‘linadi. Mahsulot bozorga chiqqanda rangi to‘q sariq bo‘ladi.

Xurmoning pishish davri kechki bo‘lib, sentabr oyidan noyabr oyigacha cho‘ziladi . Xurmoning terimi davrida mavsum boshida harorat soyada +20 ...+25°C bo‘ladi.

### Sovuqxonani tayyorlash

Mikroiqlim yaratilganda mahsulotlar havoning yuqori namligida saqlanishi sababli sovuqxonani doimiy ravishda profilaktika maqsadida tozalab va sterillab turish lozim. Yuqori namlik zararli mikroorganizmlarning (zamburug‘larning) rivojlanishi uchun qulay muhit hisoblanadi. Bir mahsulotda paydo bo‘lgan kasallik boshqa mahsulotlarga ham o‘tib, saqlanayotgan butun hosilni nobud qilishi katta iqtisodiy zarar keltirishi mumkinligini doim esda tutish lozim.

Xona toza bo‘lishi va doimiy ravishda shamollatib turilishi lozim. Har bir mahsulot o‘zgartirilganda xonalar yuvilib, dezinfeksiya qilinishi shart. Bunda eng samarali va qulay ishlov berish – xonaning eng uzoq qismlaridan boshlab, orqa devorlardan eshik tomonga qarab yuviladi, so‘ngra uskuna va oxirida pol yuvilib, uskuna yoqilgan va eshiklar ochiq holda qurutiladi.

Qadoqlarni mavsumga tayyorlashda ham ularni sterillash kerak.

Sovuqxonaning sovutish agregatlari doim ishlatalib, ta‘mirlab turiladi, shu bilan agregatning mavsumga tayyorligi tekshirib turiladi, bu esa ayni mavsum paytida agregatning buzilib qolishini oldini oladi.

Sovuqxona eshiklari oldiga doimiy ravishda polietilendan (PVX) yasalgan plastik pardalarni o‘rnatish qat’iy tavsiya etiladi. Plastik pardalarning mavjudligi energiya tejalib, xonaga turli xil hasharotlar va issiq havoning kirishiga to‘sqinlik qiladi. Ayrim tatqiqodlarga ko‘ra, plastik osma pardalarning o‘rnatilishi eshikni ochib mahsulotni olib kirish, chiqish vaqtidagi sovuqlikning yo‘qotilishini 80% ga kamaytiradi. Bu esa sovutish uchun ketadigan xarajatlarni kamaytirish demakdir. Eshiklarga plastik pardalar osilmagan bo‘lsa, sovuq havo xonani bir zumda tark etib, o‘mini issiq havoga bo‘shatadi. PVX pardalar eni 15 – 20 sm tasmalar shaklida kesilib, har bir tasma yonidagisini 33 – 50% darajada qoplaydigan qilib , uzunasiga osib qo‘yiladi.

Har bir mahsulot o‘zining xususiyatiga ko‘ra aniq harorat va namlik darajasini talab qiladi va saqlash muddatining chegarasiga ega. Shuning uchun mevaning xususiyatlarini e’tiborga olib, uni qisqa yoki uzoq muddat saqlash uchun tayyorlanadi. Bir haftadan kam bo‘lgan qisqa muddatli saqlashdan tashqari boshqa hollarda, turli meva va sabzavotlarni birgalikda saqlash tavsiya etilmaydi.

Saqlash davrining davomiyligidan tashqari, saqlashda doimiy ravishda nazorat qilib boriladigan omillar mavjud. Ularga harorat, namlik va havoning harakat tezligi kiradi.

Haroratning ta’siri. Mahsulotning nafas olishi va yetilishi, rivojlanishini sekinlashtirish uchun havoning harorati pasaytiriladi va mahsulot past haroratda saqlanadi. Har bir mahsulot uchun belgilangan optimal (mos) harorat mavjud.

Namlikning ta’siri. Barcha turdag'i mahsulotlarimiz tarkibida ko‘p miqdorda suv mavjud bo‘lganligi uchun, xonaga namlik darajasini to‘g‘ri tutib turish talab etiladi. Agar xonada namlik daroji past bo‘lsa, mahsulot suvsizlana boshlaydi va uning shakli o‘zgarib, vazni va sersuvlik miqdori kamayib, u o‘zining sifat xususiyatlarini yo‘qota boshlaydi.

Havo oqimi tezligining ta’siri. Mahsulotni sovutib olib, uni saqlashda yetarlicha sovuq havo va namlik mavjud bo‘lishi uchun, mahsulotni xonada imkon qadar havo aylanishiga xalaqt bermaydigan qilib joylashtirish lozim.

### **Oldindan (dastlabki) sovutish jarayoni**

Mahsulotni sovuqxonaga saqlash uchun joylashtirishdan oldin uning haroratini tez pasaytirish tavsiya etiladi. Buning uchun mahsulotlar terib, qadoqlangandan so‘ng, uni dastlabki 8 soat ichida maxsus moslamadan foydalanib sovutiladi.

Dastlabki sovutish juda muhim jarayon bo‘lsa ham, afsuski bizning mamlakatimizda bu amaliyot keng qo‘llanilmaydi. Dastlabki sovutish mahsulotning xususiyatlarini saqlab qolish davrini 7 – 14 kunga uzaytiradi.

Dastlabki sovutishdan asosiy maqsad, mahsulotni terib olib, sovuqxonaga joylashtirishdan oldin, uning tabiiy holatdag'i haroratini qisqa vaqt ichida pasaytirishdan iborat. Dastlabki tez sovutish texnologiyalari turlicha bo‘lib, ulardan biri sovuq havoni jadal aylantirishdir. Oldindan sovutilgan va daladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri keltirilib, sovutilmay joylashtirilgan mahsulotlarning talab darajasidagi haroratga keltirilishiga ketadigan vaqtning farqi 4 – 10

martagacha bo‘lishi mumkin. Gilosning terim paytidagi harorati +26°C bo‘lsa, uni saqlash uchun talab qilinadigan harorat 0...+4 °C ni tashkil etadi. Agar 500 kg gilosni daladan uzib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sovuqxonaga joylashtirilsa, uning harorati 0...+4°C gacha shartli ravishda pasayishiga 48 soat vaqt sarflanadi. Dastlabki sovutish jarayoni qo‘llanilganida esa gilos haroratini 12 soat ichida +4...+6°C ga tushirib, keyin uni sovuqxonaga joylashtirish mumkin.

Sovuq havomi jadal aylantirish hisobiga dastlabki sovutish qurilmasining ishlash prinsipi quyidagicha: mahsulot havoning aylanishiga to‘sqinlik qilmaydigan qadoqlarda qurilmaga joylash-tiriladi. Qurilma o‘ta kuchli parraklar bilan jihozlangan bo‘lib, u mahsulotdan chiqayotgan issiqlikni sovuq havo ta’sirida juda tez olib ketadi va mahsulot haroratini kerakli darajaga tushurib beradi. Bunda mahsulotdan chiqayotgan issiqlikni yutgan havo oqimi, ichida bug‘latgichga ega bolgan havo sovutgichi orqali o‘tib sovu-tiladi va shundan keyin sovuq havo yo‘naltiruvchi tunnel orqali o‘tib, sovuqxonaga qaytariladi. Shu tariqa sovuq havo yo‘naltiruvchi tunnel orqali mahsulotga qaytib, issiqlikni o‘ziga olib aylanaveradi, bu jarayon mahsulot yetarli darajagacha soviguniga qadar davom etadi.

Dastlabki sovutish jarayonidan foydalanishning 5 afzalligini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Dastlabki sovutish jarayonining muhim afzalliklari :

1. Mahsulotning harorati tez tushirilishi evaziga uning nafas olish tezligi pasaytiriladi.
2. Mahsulot namligi, vazni ko‘p miqdorda yo‘qotilishining oldi olinadi.
3. Mikroorganizmlarning rivojlanishi sekinlashtiriladi.
4. Mahsulotlar sirtida suv kondensati paydo bo‘lishining oldi olinadi.
5. Uskunalarining muntazam va barqaror ishlashiga erishiladi.

Yuqorida zikr etilganlarga asoslanib, mahsulotlarni saqlashdan oldingi – dastlabki sovutishni qo‘llash qat’iy ravishda tavsiya etiladi.

### **Mahsulotning sovuqxonada joylashtirilishi**

Qadoqlangan mahsulot sovutilgach, uning sovuqxonaga joylash-tirilishi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki to‘g‘ri joylashtirilgan mahsulot ishlov berilayotgan sovuqxona bo‘ylab bir maromda taqsimlanib, kompressor, kondensator va bug‘latgichning ratsional ishlashida yengillik yaratadi. Uskunalar tanaffus bilan, bir meyorda,

haddan yuqori bosimsiz ishlashi sababli elektr energiyasining sarfi kamayadi.

Mahsulotlar tagpoyalar (poddonlar, 80 x 100 sm, 100 mm balandlikda) ustiga joylashtirilib, sovuqxonanig devorlaridan 15 sm masofa va poddonlar oralig'ida 10 sm joy qoldiriladi. Changlatgich tagidan 10 sm joy qoldiriladi va havo oqimi ro'paradagi devorga uriladi, tagpoyalar osti va oralig'idan o'tib, so'ng qaytadi, va shu tarzda havo aylanishi yo'lga qo'yiladi. Qadoqlar har 150 sm balandlikda bir biriga qotiriladi. Bu yashiklardagi mahsulotlarning ag'darilib ketishini oldini oladi. Mahsulotlarni joylashtirishda bug'-latgichga bemalol o'tish va qaytish va favqulotda zarur ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun imkoniyat yaratilishi zarurligini nazarda tutish lozim bo'ladi.

*Gilos, shaftoli va o'rikni saqlash va nazorat qilish ko'rsatkichlari :*

17.15 – jadval

| Oldindan sovutish |        | Sovutish    |                  | Saqlash            |                  | Mahsulot sifati |                   | Namlik, % | Vazn yo'qotilishi, % |         |   |
|-------------------|--------|-------------|------------------|--------------------|------------------|-----------------|-------------------|-----------|----------------------|---------|---|
| boshlang'ich      | Oxirgi | Harorat, °C | davomiylik, soat | Oxirgi harorat, °C | Davomiylik, soat | Harorat, °C     | davomiylik, sutka | standart  | nostandard           | Achishi |   |
| Gilos             |        |             |                  |                    |                  |                 |                   |           |                      |         |   |
| 6                 | -6     | 12          |                  |                    | -4               | 14              | 4                 | 3         | 3                    | 0 - 94  | 2 |
| Shaftoli          |        |             |                  |                    |                  |                 |                   |           |                      |         |   |
| 6                 | -10    | 3           |                  |                    | -4               | 80              | 0                 | 7         | 3                    | 0 - 95  | 3 |

Ikkinchi guruhga, ya'ni saqlash muddati katta, ichki va eksport bozoriga moslashgan mahsulotlar – olma, nok, xurmo va uzum kiradi. Mazkur mevalarning asosiy pishish davri kech yoz va kuz davriga to'g'ri keladi. Bu davrda o'rtacha harorat soyada +20...+30°C, terim davrida ertalab +15...+20°C ni tashkil etadi. Mahsulotlarning saqlash harorati 0...+4°C bo'lishi tavsiya etiladi. Demak, optimal saqlash va o'rta tashqi harorat orasidagi tafovut 10°C ni tashkil etadi. Mahsulotning saqlanish va sotuvga chiqarilish davri odatda sovuq mavsumga to'g'ri kelganligi sababli, shu davrda unga faqat yorug'lik omili ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ixtisoslashgan

transport vosisasida sovutgichli do'konga olib borish shart emas. Mahsulot bozorlarda bemalol sotiladi.

*Olma , uzum va o'rikni saqlash va nazorat qilish ko'rsatkichlari :*

*17.16 – jadval*

| Oldindan sovutish |                   | Sovutish           |                   | Saqlash      |                    | Mahsulot sifati |            |         | Namlik , % | Vazn yo'qotilishi , % |   |
|-------------------|-------------------|--------------------|-------------------|--------------|--------------------|-----------------|------------|---------|------------|-----------------------|---|
| Harorat, °C       | davomiylik , soat | Oxirgi harorat, °C | Davomiylik , soat | Harorat , °C | davomiylik , sutka | standart        | nostandard | Achishi |            |                       |   |
| <i>Olma</i>       |                   |                    |                   |              |                    |                 |            |         |            |                       |   |
| 6                 | -10               | 1,3                |                   |              | -4                 | 80              | 4          | 3       | 3          | 94                    | 8 |
| <i>Uzum</i>       |                   |                    |                   |              |                    |                 |            |         |            |                       |   |
| 6                 | -6                | 2                  |                   |              | -4                 | 2<br>hafta      | 4          | 3       | 3          | 0-94                  | 2 |
| <i>O'rik</i>      |                   |                    |                   |              |                    |                 |            |         |            |                       |   |
| 6                 | -6                | 2                  |                   |              | -4                 | 2<br>hafta      | 4          | 3       | 3          | 0-94                  | 2 |

Daladan mahsulotlarni sovuqxonaga vaqtincha yig'im-terim idishlarida (10 – 20 kg) olib kelinadi. Ular saralanib, qayta qadoqlarga joylanadi va oldindan (dastlabki) sovutgichlarga joylanadi. Mahsulotlar bir necha qatorda, qadoq ichiga to'shalgan mahsus qog'oz yoki dokaga, bir donalab qo'lida terib chiqiladi. Mahsulot vaqtincha qadoqda saqlanadi. Bu qadoqlardan keyinchalik sotuvga mo'ljallangan karton qutilarga olinadi. Sotuv qutilarini tanlash va qadoqlashda qutilarni tanlash hamda tayyorlashda qadoqlar bejirim va kichik, hamda sig'imi 10 kg dan oshmaydigan bo'lishi kerak. Shu yo'l bilan mahsulotga kamroq bosim tushib, uning shikastlanishining oldi olinadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, olma va uzum uzoq muddat saqlanishga moslashgan bo'lsa ham , ularning sotilishini aniq vaqtga rejalashtirib , xaridorni oldindan topib qo'yilsa yaxshi natija olinadi .

Xurmoni qadoqlaganda bir qator terib qo'yish lozim. Agarda ikki qavat terilsa, bиринчи va иккинчи qatorlar orasida ikki qavat

qog'oz joylashtirish lozim. Bunda birinchi qog'ozdan birinchi qatorda joylashtirilgan xurmoning bandi va bargini chiqarib qo'yish, va shundan so'ng yana bir qator qog'oz qo'yish maqsadga muvofigdir.

### *An'anaviy sovuqxona*

17.17 – jadval

|   |  |
|---|--|
| O'lchamlari, m                          | 4,5 x 6 x 3  |
| Loyihalashtirilgan sig'imi, tonna       | 15   |
| Loyihalashtirilgan harorat darajasi, °C | -1 ... 0   |
| <b>Izolyatsiya materiali</b>            |  |
| Shiftda                                 | Poliuretanli sendvich panel , qalinligi 10 sm  |
| Devorlarda                              | Poliuretanli sendvich panel , qalinligi 10 sm  |
| Yer (pol) da                            | Poliuretanli sendvich panel , qalinligi 10 sm  |
| <b>Sovutish tizimi :</b>                |  |
| Kompressor – kondensator agregati       | Bitzer.2DCY-40S, porshenli 19 HP, yarim ochiq;<br>Sovituvchi agent: R-404a<br>Nominal quvvati: 4,5 kVt<br>Kondensator : Kaideli FNHM-0.22A, havo bilan sovutish , havoni aylantirish quvvati 1800 m <sup>3</sup> / soat;<br>Kondensatsiya harorati : +40 °C<br>Sovuqlik unumdorligi – 10 kVt<br>Moy: Sintetik moy;<br>Kuchlanish 380 V |
| Bug'latgich                             | LU-VE F27HC107-4<br>Havo oqimi: 2700 m <sup>3</sup> / soat<br>Sovutish maydoni 21,9 m <sup>2</sup><br>Ventilyator diametri 275 mm, soni 3<br>Plastinalararo masofa 4,5 mm<br>Havo oqimining harorati +10...-25°C   |
| Boshqaruv bloki                         | Mikroprosessor, kuchlanish monitori, himoya tizimi, havoni haroratini belgilangan darajada sozlab turish tizimi  |
| Elektron past haroratlari termodatchik  | Eliwell ID 974 harorat diapazoni -20 ... +15 °C  |

### **Namlikni yaratish tizimi:**

|                        |  |
|------------------------|--|
| Namlik beruvchi uskuna | Avtomatlashtirilgan , namlik darajasi 0 – 98 % RH; Quvvati 40 – 80 m <sup>3</sup> / soat |
| Namlik o'lchagich      | AZ 8716, namlik ko'rsatkichi : 0 – 100 % RH; O'lchov aniqligi : +/- 2,5 % RH             |

*Tajribaviy sovuqxona*

17.18 – jadval

|   |   |
|---|---|
| O‘lchamlari, m                          | 4,5 x 6 x 3   |
| Loyihalashtirilgan sig‘imi, tonna       | 15  |
| Loyihalashtirilgan harorat darajasi, °C | +3  |
| Izolyatsiya materiali                   |   |
| Shiftda                                 | Sendvich panel – poliuretan , qalinligi 10 sm   |
| Devorlarda                              | Sendvich panel – poliuretan , qalinligi 10 sm   |
| Yer (pol) da                            | Poliuretan , qalinligi 10 sm , ustki qatlami beton , qalinligi 10 sm                      |
| Sovutish tizimi                         |   |
| Maishiy konditsioner (BK turdag'i)      | General climate GCW – 09HRN1  |
| Termoregulyator                         | Cool bot  |
| Termodatchik                            | Eliwell ID 974 , harorat diapazoni – 20°C dan +15°C gacha                                 |
| Namlik o‘lchagich                       | AZ 8716 , namlik ko‘rsatkichi : 0 – 100 % RH ; O‘lchov aniqligi : + / – 2,5 % RH          |
| Namlik beruvchi uskuna                  | Avtomatlashtirilgan , namlik darajasi 0 – 98 % RH ; Quvvati 40 – 80 m <sup>3</sup> / soat |


*Ayrim mahsulotlarning saqlash harorati , namlik darajasi va taxminiy saqlash muddati*

17.19 – jadval

| Mahsulot                           | Harorat , °C | Nisbiy namlik , % | Taxminiy saqlash muddati |
|------------------------------------|--------------|-------------------|--------------------------|
| Ananas                             | 7 – 13       | 85 – 90           | 2 – 4 hafta              |
| Anjir                              | -0,5 – 0     | 85 – 90           | 7 – 10 kun               |
| Anor                               | 5            | 90 – 95           | 2 – 3 oy                 |
| Apelsin (Amerika)                  | 3 – 9        | 85 – 90           | 3 – 8 hafta              |
| Apelsin , go‘shti qizil (korolyok) | 4 – 7        | 90 – 95           | 3 – 8 hafta              |
| Apelsin , Yaffa                    | 8 – 10       | 85 – 90           | 8 – 12 hafta             |
| Baqlajon , Yaponiya                | 8 – 12       | 90 – 95           | 1 hafta                  |
| Baqlajon                           | 12           | 90 – 95           | 1 hafta                  |
| Banan , yashil                     | 13 – 14      | 90 – 95           | 1 – 4 hafta              |
| Bodring , urug‘siz                 | 10 – 13      | 85 – 90           | 10 – 14 kun              |
| Bodring                            | 10 – 13      | 95                | 10 – 14 kun              |
| Brokkoli                           | 0            | 95 – 100          | 10 – 14 kun              |
| Brokkoli Xitoy                     | 0            | 95 – 100          | 10 – 14 kun              |
| Brussel karami                     | 0            | 95 – 100          | 3 – 5 hafta              |
| Gilos                              | -1...-0,5    | 90 – 95           | 2 – 3 hafta              |
| Greypfrut                          | 14 – 15      | 85 – 90           | 6 – 8 hafta              |

- Hozirgi kunda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlashda sovutgichli omborlardan keng foydalaniilmoxda. Sovutgichli omborlarni qo‘llash orqali aholini yilning barcha fasllarida, xohlagan vaqtarda Respublikamizda va xorijda yetishtirila— yotgan meva va sabzavotlar bilan ta’minlash imkoniyati yaratiladi.
- Sovutgichli omborlarda meva va sabzavotlar barra holida va qayta ishlangan tayyor mahsulotlar sifatida juda sifatli saqlanadi.
- Sovutgichli omborlarda saqlangan qishoq xo‘jalik mahsulotlari tarkibining o‘zgarmasligi, ulardagagi inson organizmi uchun kerakli bo‘lgan qimmatli komponentlarning sifatli saqlanishini ta’minlaydi.
- Sovutgichli omborlarda saqlangan barra mahsulotlardan iste’mol qilinishi odamlar sog‘ligining birmuncha yaxshilani-shiga olib keladi.

### Zamonaviy sovutgichli ombor



### Omborning ichki ko‘rinishi



## Takliflar

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash, chunonchi barra meva va sabzavotlarni saqlash juda katta iqtisodiy foyda berishi imkoniyatlari mavjudligini e'tiborga olib, ushbu maqsadda Respublikamizdagi har bir viloyat yoki tumanlarda emas, balki barcha fermer xo'jaliklarida sovutgich qurilmalari bilan jihozlangan statsionar omborlarning barpo etilishi tavsiya qilinadi.

## 18. Sovutib saqlashda qo'llaniladigan standartlar

17.20 – jadval

|                       |      |  |
|-----------------------|------|--|
| O'zDSt ISO 1973:2011  | C 39 | Piyoz. Sovuq sharoitda saqlash bo'yicha yo'riqnomा (ISO 1973:1991, IDT)                                      |
| O'zDSt ISO 2165:2011  | C 39 | Kartoshka. Saqlash bo'yicha yo'riqnomा (ISO 2165:1981, IDT)  |
| O'zDSt ISO 2166:2011  | C 39 | Sabzi. Saqlash bo'yicha yo'riqnomা (ISO 2166:1981, IDT)  |
| O'zDSt ISO 2168:2011  | C 39 | Uzum. Saqlash bo'yicha yo'riqnomা (ISO 2168:1974, IDT)   |
| O'zDSt ISO 2169:2011  | C 39 | Meva va sabzavotlar. Saqlash bo'yicha fizikaviy talablari ta'rif va o'lchov birliklari. (ISO 2169:1981, IDT) |
| O'zDSt ISO 2826:2010  | C 39 | O'rik. Sovuq sharoitda saqlash bo'yicha yo'riqnomা.  |
| O'zDSt ISO 3631: 2011 | C 39 | Situs mevalari. Sovuq sharoitda saqlash bo'yicha yo'riqnomा (ISO 3631:1978, IDT)                             |
| O'zDSt ISO 3659:2011  | C 39 | Meva va sabzavotlar. Sovuq havoda saqlashdan so'ng yetilish yo'riqnomा (ISO 3659:1977, IDT)                  |
| O'zDSt ISO 5525:2011  | C 39 | Pomidor. Sovuq havoda saqlash va transportirovka qilish.   |
| O'zDSt ISO 6659:2011  | C 39 | Shirin qalampir. Sovuq havoda saqlash va sovutilgan holda transportirovka qilish bo'yicha yo'riqnomা.        |
| O'zDSt ISO 6662:2011  | C 39 | G'aynali. Sovuq havoda saqlash bo'yicha yo'riqnomा (ISO 6662:1983, IDT)                                      |
| O'zDSt ISO 7560:2011  | C 39 | Bodring. Sovuq havoda saqlash va transportirovka qilish (ISO 7560:1005, IDT)                                 |

## **Go'sht , baliq , sut mahsulotlarini saqlash , tashish , sotish tartibi tasdiqlandi**

Jamiyat – 10 May 2019.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan Hayvonotga mansub mahsulot va xomashyolarni ishlab chiqarish, saqlash va sotish bo'yicha veterinariya-sanitariya norma va qoidalari tasdiqlandi. Bu haqda Adliya vazirligi Matbuot xizmatida xabar berilgandi.

Hujjatga muvofiq, go'sht va go'sht mahsulotlarini tashish uchun mo'ljallangan transportlar poli, idishlari silliq va mahsulot xususiyatlarga hamda sog'liqqa ta'sir qilmaydigan materiallardan tayyorlangan bo'lishi , tozalash va dezinfeksiya qilish uchun qulay bo'lishi kerak.

Sutning harorati qayta ishlash joyigacha tashish paytida va qayta ishlash boshlanishigacha 8°C bo'lishi kerak.

Sut sisternalari har safar sutdan bo'shatilganidan so'ng yuvilishi va dezinfeksiyalanishi lozim.

Baliq ishlab chiqarish ob'yektlarida suv o'tkazmaydigan, tozalash, dezinfeksiya qilish, suv oqib chiqishi uchun qulay pol qoplamalari , suv oqib chiqishini ta'minlovchi qurilmalar bo'lishi shart.

Baliqchilik mahsulotlari toza Sovutilgan suvda kema bortida uch kundan ortiq bo'lmagan muddatda saqlanadi.


Quyidagi holatlarda go'sht mahsulotlarini sotishga ruxsat berilmaydi :

- so'yilishi ixtisoslashtirilgan va mini so'yish korxonalarida amalga oshirilmagan bo'lsa ;
- belgilanmagan transport vositalarida yetkazib berilgan bo'lsa ;
- veterinariya hujjatlari bo'lmasa ;
- ixtisoslashtirilgan so'yish korxonasining F-200 shakldagi ma'lumotnomasi bo'lmasa ;
- veterinariya-sanitariya ekspertizasining xulosasi bo'lmasa ;
- oyoqlari va bosh qismi jun bilan birga bo'lsa, parrandalarning patlari yulinmagan bo'lsa ;
- xona yoki ko'cha haroratida ilgakka osilgan yoki yerga (ochiq rasta ustiga) ochiq holda qo'yilgan bo'lsa ;
- veterinariya-sanitariya jihatidan xavfsizligi kafolatlangan go'shtlarning yagona elektron bazasiga kiritilmagan bo'lsa .


## ILOVALAR :

1 – ilova


Freon-134a ning termodinamik ko'rsatkichlari orasidagi bog'lanish



*Freon-12 ning termodinamik ko'rsatkichlari orasidagi bog'lanish va sovutgich mashinasi haqiqiy ishchi tsiklining diagrammasi*



Nam havoning I – D (solishtirma ental’piya – namlik miqdori)  
diagrammasi



## GLOSSARY

| <i>O'zbekcha</i>        | <i>По русски</i>                | <i>In English</i>               | <i>Atama ma'nosi</i>  |
|-------------------------|---------------------------------|---------------------------------|---|
| <b>Sovutish</b>         | <b>Охлаждение</b>               | <b>Cooling</b>                  | Jism yoki mahsulotning haroratini pasaytirish   |
| <b>Tabiiy sovutish</b>  | <b>Естественное охлаждение</b>  | <b>Natural cooling</b>          | Sovutilayotgan jism va uni o'rabi turgan tashqi havo yoki suv orasidagi issiqlik almashinuviga tufayli jism haroratinining pasayishi          |
| <b>Sun'iy sovutish</b>  | <b>Искусственное охлаждение</b> | <b>Artificial refrigeration</b> | Sovutish agenti deb ataluvchi oraliq muhitga jismdan ajralayotgan issiqliknинг yutilishi, keyin esa bu issiqliknинг tashqi muhitga uzatilishi |
| <b>Konservalash</b>     | <b>Консервирование</b>          | <b>Canning</b>                  | Oziq-ovqat mahsulotlarini ularning sifati buzilmagan holda uzoq muddat saqlash uchun maxsus ishlov berish                                     |
| <b>Saqlash</b>          | <b>Хранение</b>                 | <b>Storage</b>                  | Mahsulotlarning minimal yo'qotishlar bilan miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari saqlanishini ta'minlash  |
| <b>Bosim</b>            | <b>Давление</b>                 | <b>Pressure</b>                 | Yuza birligiga tik ta'sir etuvchi kuch  |
| <b>Absolyut bosim</b>   | <b>Абсолютное давление</b>      | <b>Absolute pressure</b>        | Absolyut, ya'ni to'la vakuumdan yuqori bo'lgan bosim. Manometrik va barometrik bosimlar yig'indisi  |
| <b>Absolyut harorat</b> | <b>Абсолютная</b>               | <b>Absolute temperature</b>     | Issiqlik energiyasi yo'q bo'ladigan termodinamik nol' "-273,15°C"   |

|  |   |   |   |
|--|---|---|---|
|  | <b>температура</b>                          |   | haroratdan yuqori bo'lgan harorat, Kelvin da (K) o'lchanadi   |
| <b>To'yinish harorati</b>                  | <b>Температура насыщения</b>                | <b>Saturation temperature</b>                 | Suyuq fazaning ma'lum bir bosimga to'g'ri keluvchi harorati. Moddaning suyuq va bug' komponentlarining termodynamik muvozanat holatidagi harorati |
| <b>Kompressor</b>                          | <b>Компрессор</b>                           | <b>Compressor</b>                             | Gaz holatidagi moddalarini, xususan, sovutish agentlarini so'rish, siqish va haydash uchun mo'ljallangan mexanik mashina                          |
| <b>Bug' – kompressorli sovutish tizimi</b> | <b>Парокомпрессионная ходильная система</b> | <b>Vapor compression refrigeration system</b> | Bug' holatidagi sovutish agenti kompressor yordamida bug'latgichdan so'rildigan, siqiladigan, so'ng kondensatorga uzatiladigan tizim              |
| <b>Sovutish unumdorligi</b>                | <b>Холодо–производительность</b>            | <b>Cooling capacity</b>                       | Sovutish tizimining unumdorligi, vaqt birligi ichida sovutilayotgan jismdan olib ketilayotgan issiqlik miqdori                                    |
| <b>Issiqlik almashtirgich</b>              | <b>Теплообменник</b>                        | <b>Heat exchanger</b>                         | Harorati yuqoriroq suyuqlik (gaz) dan harorati pastroq boshqa suyuqlik (gaz) ga issiqliknini o'tkazish uchun mo'ljallangan apparat                |
| <b>Kondensator</b>                         | <b>Конденсатор</b>                          | <b>Capacitor</b>                              | Sovutish agenti issiqligini atrof-muhitga berishi natijasida uning bug' holatidan suyuq   |

|                                      |  |  |  |
|--------------------------------------|--|--|--|
|                                      |  |  | holatga o'tishi jarayon-nini ta'minlovchi issiqlik almashinish apparati  |
| <b>Bug'latgich</b>                   | <b>Испари-тель</b>                         | <b>Evapora-tor</b>                       | Sovutilayotgan muhitdan suyuq sovutish agenti tomonidan issiqlikning olib ketilishini ta'minlovchi issiqlik alma-shinish apparati  |
| <b>Absorbsiya</b>                    | <b>Абсорбция</b>                           | <b>Absorp-tion</b>                       | Gaz va suyuqlikning to'qnashishi natijasida gaz aralashmasidan bir yoki bir nechta komponenntning suyuqlikka yutilishi   |
| <b>Absorbsiyaviy sovutish tizimi</b> | <b>Абсорбци-онная холо-дильная система</b> | <b>Absorp-tion refri-geration system</b> | Sovutish agentini siqish jarayoni termik amalga oshiriladigan tizim. Bug'lanayotgan sovutish agentining absorbsiyaviy suyuqlik bilan yutilishi va sovutish agenti hajmining kamayishi orqali amalga oshiriladi |
| <b>Energiya</b>                      | <b>Энергия</b>                             | <b>Energy</b>                            | Qandaydir bir jarayon yoki ishni amalga oshira olish qobiliyati  |
| <b>Ichki energiya</b>                | <b>Внутрен-няя энергия</b>                 | <b>Internal energy</b>                   | Moddani tashkil etgan zarrachalarning kinetik va potensial energiya-larining yig'indisi  |
| <b>Issiqlik</b>                      | <b>Теплота</b>                             | <b>Heat</b>                              | Aniq bir haroratli jism-dan undan harorati pastroq boshqa jismga o'tish qobiliyatini tav-siflaydigan energiyaning asosiy formasi. His qilinadigan va yashirin  |

|                                 |                                |                             |  |
|---------------------------------|--------------------------------|-----------------------------|--|
|                                 |                                |                             | issiqlik turlari sifatida namoyon bo‘ladi  |
| <b>Yashirin issiqlik</b>        | <b>Скрытая теплота</b>         | <b>Latent heat</b>          | O‘zgarmas harorat va bosimda moddaning aggregat holati o‘zgarishi tufayli uzatilgan yoki yutilgan issiqlik energiyasi  |
| <b>His qilinadigan issiqlik</b> | <b>Чувствуемая теплота</b>     | <b>Felt warmth</b>          | Harorat o‘zgarishi bilan bog‘liq va inson tomonidan qabul qilinadigan issiqlik energiyasi  |
| <b>Kondensatsiya issiqligi</b>  | <b>Теплота конденсации</b>     | <b>Heat of condensation</b> | Kondensatsiya jarayonida sovutish agenti tomonidan beriladigan issiqlik energiyasi   |
| <b>Konveksiya</b>               | <b>Конвекция</b>               | <b>Convection</b>           | Isitilgan gaz, bug‘ va suyuqliklarning harakati tufayli issiqlik berish jarayoni   |
| <b>Entalpiya</b>                | <b>Энталпия</b>                | <b>Enthalpy</b>             | Bosim va hajmnning ko‘paytmasi bilan ichki energiyaning yig‘indisi. Uning o‘zgarishi sovutish uskunasidan o‘tayotgan suyuq ishchi modda yo‘qotgan yoki qabul qilgan energiyani o‘lchaydi |
| <b>Absolyut namlik</b>          | <b>Абсолютная влажность</b>    | <b>Absolute humidity</b>    | Birlik hajmga ega bo‘lgan bug‘-havo aralashmasidagi suv bug‘ining og‘irligi  |
| <b>Nisbiy namlik</b>            | <b>Относительная влажность</b> | <b>Relative humidity</b>    | Havodagi suv bug‘i parsial bosimining shu haroratdagi to‘yingan suv bug‘ining parsial bosimiga nisbati. Bu   |

|                      |                         |                         |  |
|----------------------|-------------------------|-------------------------|--|
|                      |                         |                         | nisbat atmosfera bosimiga bog'liq emas   |
| Holat o'zgarishi     | Изменение состояния     | State change            | Bir agregat holatdan boshqasiga o'tish jarayoni  |
| Kritik nuqta         | Критическая точка       | Critical point          | Suyuqlik va bug' bir xil xususiyatga ega bo'lgan holat   |
| Kritik bosim         | Критическое давление    | Critical pressure       | Moddaning kritik nuqtadagi bosimi  |
| Kritik harorat       | Критическая температура | Critical temperature    | Moddaning kritik nuqtadagi harorati  |
| O'ta qizish harorati | Температура перегрева   | Overheating temperature | Biror bir bosimdagi bug' harorati bilan shu bosimga to'g'ri keldigan to'yingan bug' haroratlari orasidagi farq |
| Erish harorati       | Температура плавления   | Melting temperature     | Berilgan bosimda qattiq moddaning suyuq holatga o'tish harorati  |
| Faza                 | Фаза                    | Phase                   | Moddaning fizik holatini belgilaydi; qattiq, suyuq yoki gaz fazasi   |
| Quruqlilik darajasi  | Степень сухости         | Dryness degree          | Suyuqlik va bug' aralashmasidagi bug'ning massa bo'yicha ulushi  |
| To'yingan bug'       | Насыщенный пар          | Saturated steam         | Bug'ning berilgan harorat va bosimda suyuq fazasi bilan muvozanatda bo'lishi                                   |
| O'ta sovutish        | Переохлаждение          | Hypo-thermia            | Suyuqlikni kondensatsiya va to'yinsh haroratidan past haroratgacha sovutish jarayoni                           |

|  |  |   |   |
|--|--|---|---|
| <b>Sublimatsiya</b>                            | <b>Сублима-<br/>ция</b>                                    | <b>Sublima-<br/>tion</b>  | Qattiq holatdan bug‘<br>holatiga o‘tish jarayoni  |
| <b>O‘ta qizigan<br/>bug‘</b>                   | <b>Перегреты-<br/>й пар</b>                                | <b>Super-<br/>heated<br/>steam</b>                                | Ma’lum bosimda<br>to‘yinish haroratidan<br>yuqori haroratga ega<br>bo‘lgan bug‘   |
| <b>Termorost-<br/>lovchi ventil’<br/>(TRV)</b> | <b>Терморе-<br/>гулирую-<br/>щий<br/>вентиль<br/>(TPB)</b> | <b>Thermo-<br/>static<br/>expan-<br/>sion<br/>valve<br/>(TEV)</b> | Yuqori bosimdagi<br>sovutish agentini past<br>bosimga o‘tkazuvchi,<br>sarfni rostlovchi so-<br>vutish mashinasining<br>drossellovchi elementi |
| <b>Sovutish<br/>koeffitsiyenti</b>             | <b>Холодиль-<br/>ный коэф-<br/>фициент</b>                 | <b>Coeffi-<br/>cient of<br/>perfor-<br/>mance</b>                 | Sarflangan birlik<br>quvvatga to‘g‘ri kelgan<br>sovutish unumdorligi  |

## Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz . Toshkent , "O'zbekiston" NMIU , 2017 .
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz . "O'zbekiston" NMIU , 2017 .
3. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevral , PF-4947-son Farmoni . Toshkent , 2017 .
4. Nurmaxammedov X.S. Sovutish texnikasi / Ma'ruzalar matnlari . – Toshkent , 2005 .
5. Azizov D. Sovutish texnikasi va sovutish tizimlariga xizmat ko'rsatish asoslari / O'quv qo'llanmasi . – Toshkent , 2017 .
6. Vasiyev M.G. , Dadayev Q.O. , Isaboyev I.B. , Sapayeva Z. Sh. , G'ulomova Z.J. Oziq-ovqat texnologiyasi asoslari / Darslik . – Toshkent , "Voris-nashriyot" , 2012 .
7. Normaxmatov R. , Pardayev G.Ya. , Ismoilov Sh.I. Oziq-ovqat mahsulotlari ekspertizasi ob'yektlari / Darslik . – Toshkent , "Tafakkur" , 2019 .
8. Fatxullayev A. , Ismoilov T.A. , Raximjonov M.A. Go'sht – sut biokimyosi / Darslik . – Toshkent , "Cho'lpon" , 2014 .
9. Большаков С. А. Холодильная техника и технология продуктов питания / Учебник для студ. высш. учеб. заведений . — Москва , "Издательский центр "Академия" , 2003 .
10. Бараненко А.В. , Куцакова В.Е. , Борзенко Е.И. , Фролов С.В. Примеры и задачи по холодильной технологии пищевых продуктов / Часть 3. Термофизические основы . – Москва , "КолосС" , 2004 .
11. Мещеряков Ф.Е. Основы холодильной техники и холодильной технологии / Учебник для высш. учеб. заведений . — Москва , "Пищевая промышленность" , 1975 .
12. Шалапугина Э.П. , Шалапугина Н.В. Технология молока и молочных продуктов / Учебное пособие . – Москва , "Альтек" , 2013 .

## M U N D A R I J A

|  |           |
|--|-----------|
| So‘z boshi .....   | 5         |
| Kirish. Mahsulotlarga sovuqlik bilan ishlov berish<br>texnologiyasining ahamiyati va paydo bo‘lishining<br>tarixiy asoslari .....                                | 6         |
| <b>I bo‘lim. Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarini<br/>sovutish hamda ularga sovuqlik bilan ishlov berish uskuna va<br/>jihozlarining nazariy asoslari .</b> | <b>9</b>  |
| <b>1. Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarini sovutish<br/>uskuna va jihozlari hamda sovuqlik bilan ishlov berish<br/>texnologiyasi fan sifatida .....</b>     | <b>9</b>  |
| Chorvachilik mahsulotlarini saqlashda sovutish uskuna va<br>jihozlari fanining maqsadi hamda vazifalari .....  | 9         |
| Sovuqlik bilan ishlov berish uskunalar, jihozlari va texnologiya-<br>sining yaqin kelajakkagi umumiy rivojlanish yo‘nalishlari .....                             | 10        |
| Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarini saqlash hamda<br>konservlashning umumiy prinsiplari .....  | 11        |
| <b>2. Sovutish va mahsulotlarga sovuqlik bilan ishlov<br/>berish uskuna va jihozlarining nazariy asoslari .....</b>  | <b>21</b> |
| Sovutish (sovuqlik olish) usullari , ularning fizik mohiyati va<br>turlanishi .....  | 21        |
| Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarini tabiiy sovutish<br>usullarining qo‘llanilishi .....  | 24        |
| Batareyali sovutishda jihozlarning turlari va ularni joylashtirish ..  | 27        |
| Hozirgi zamonda mahsulotlarni sun’iy sovutishda keng<br>qo‘llanilayotgan sovutish mashinalarining ishchi va<br>termodynamik jarayonlari .....                    | 29        |
| Izotermik , izobarik va adiabatik jarayonlar .....   | 33        |
| Havo sovutgichli sovutishda jihozlarni joylashtirish .....   | 34        |
| Sovuqlik tashuvchilar , ularning xususiyatlari va qo‘llanilish<br>sohasi .....   | 35        |
| Sovutish qurilmalarining ishchi jismi: ammiak, freonlar,<br>karbonat angidrid , sulfat angidrid va boshqalar to‘g‘risida .....                                   | 37        |
| Sovuqlik tashuvchilarga qo‘yiladigan talablar .....  | 40        |
| Sovutish uskuna , jihozlari va texnologiyasida keng ko‘lamda<br>ishlatiladigan terminlar .....   | 41        |

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz . Toshkent , “O‘zbekiston” NMIU , 2017 .
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz . “O‘zbekiston” NMIU , 2017 .
3. Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevral , PF-4947-son Farmoni . Toshkent , 2017 .
4. Nurmaxammedov X.S. Sovutish texnikasi / Ma’ruzalar matnlari . – Toshkent , 2005 .
5. Azizov D. Sovutish texnikasi va sovutish tizimlariga xizmat ko‘rsatish asoslari / O‘quv qo‘llanmasi . – Toshkent , 2017 .
6. Vasiyev M.G. , Dadayev Q.O. , Isaboyev I.B. , Sapayeva Z. Sh. , G‘ulomova Z.J. Oziq–ovqat texnologiyasi asoslari / Darslik . – Toshkent , “Voris–nashriyot” , 2012 .
7. Normaxmatov R. , Pardayev G.Ya. , Ismoilov Sh.I. Oziq–ovqat mahsulotlari ekspertizasi ob‘yektlari / Darslik . – Toshkent , “Tafakkur” , 2019 .
8. Fatxullayev A. , Ismoilov T.A. , Raximjonov M.A. Go‘sht – sut biokimyosi / Darslik . – Toshkent , “Cho‘lpon” , 2014 .
9. Большаков С. А. Холодильная техника и технология продуктов питания / Учебник для студ. высш. учеб. заведений . — Москва , “Издательский центр “Академия” , 2003 .
10. Бараненко А.В. , Куцакова В.Е. , Борзенко Е.И. , Фролов С.В. Примеры и задачи по холодильной технологии пищевых продуктов / Часть 3. Термофизические основы . – Москва , “КолосС” , 2004 .
11. Мещеряков Ф.Е. Основы холодильной техники и холодильной технологии / Учебник для высш. учеб. заведений . — Москва , “Пищевая промышленность” , 1975 .
12. Шалапугина Э.П. , Шалапугина Н.В. Технология молока и молочных продуктов / Учебное пособие . – Москва , “Альтек” , 2013 .

## M U N D A R I J A

|  |          |
|--|----------|
| So‘z boshi .....   | 5        |
| Kirish. Mahsulotlarga sovuqlik bilan ishlov berish texnologiyasining ahamiyati va paydo bo‘lishining tarixiy asoslari .....                                    | 6        |
| <b>I bo‘lim. Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarini sovutish hamda ularga sovuqlik bilan ishlov berish uskuna va jihozlarining nazariy asoslari .</b> ..... | <b>9</b> |
| 1. Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarini sovutish uskuna va jihozlari hamda sovuqlik bilan ishlov berish texnologiyasi fan sifatida .....                  | 9        |
| Chorvachilik mahsulotlarini saqlashda sovutish uskuna va jihozlari fanining maqsadi hamda vazifalari .....   | 9        |
| Sovuqlik bilan ishlov berish uskunalar, jihozlari va texnologiyasining yaqin kelajakdagi umumiy rivojlanish yo‘nalishlari .....                                | 10       |
| Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarini saqlash hamda konservlashning umumiy prinsiplari .....   | 11       |
| 2. Sovutish va mahsulotlarga sovuqlik bilan ishlov berish uskuna va jihozlarining nazariy asoslari .....   | 21       |
| Sovutish (sovuqlik olish) usullari , ularning fizik mohiyati va turlanishi .....   | 21       |
| Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarini tabiiy sovutish usullarining qo‘llanilishi .....   | 24       |
| Batareyali sovutishda jihozlarning turlari va ularni joylashtirish ..  | 27       |
| Hozirgi zamonda mahsulotlarni sun’iy sovutishda keng qo‘llanilayotgan sovutish mashinalarining ishchi va termodinamik jarayonlari .....                        | 29       |
| Izotermik , izobarik va adiabatik jarayonlar .....   | 33       |
| Havo sovutgichli sovutishda jihozlarni joylashtirish .....   | 34       |
| Sovuqlik tashuvchilar , ularning xususiyatlari va qo‘llanilish sohasi .....  | 35       |
| Sovutish qurilmalarining ishchi jismi: ammiak, freonlar, karbonat angidrid , sulfat angidrid va boshqalar to‘g‘risida .....                                    | 37       |
| Sovuqlik tashuvchilarga qo‘yiladigan talablar .....  | 40       |
| Sovutish uskuna , jihozlari va texnologiyasida keng ko‘lamda ishlataladigan terminlar .....  | 41       |

|   |    |
|---|----|
| <b>3. Sovuqlik bilan ishlov berishning haroratga bog'liqligi</b>  | 46 |
| Chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarining haroratga hamda sovuqlik bilan ishlov berishning xarakteriga qarab turlanishi ..... | 46 |
| Krioskopik harorat va kritik harorat , krioskopik nuqta va kritik nuqta tushunchalari .....                                     | 50 |
| Sovutish va muzlatish to'g'risidagi asosiy tushunchalar .....   | 56 |
| <b>4. Sovutish qurilmalarining ishchi sikllari va ularning tahlili</b>  | 58 |
| Sovutish qurilmalarining turlari va tuzilishi .....   | 58 |
| Havoli sovutish qurilmasining ishchi sikli va uning p – v hamda T – S diagrammalari asosidagi tahlili .....                     | 59 |
| Bug‘-kompressorli sovutish qurilmalari nazariy ishchi siklining negizi. Karnoning teskari (sovutish) sikli .....                | 61 |
| Sovutish mashinalarining sovutish koefitsiyenti va sovuqlik unumдорligi .....   | 65 |
| Bug‘-kompressorli sovutish qurilmasining haqiqiy ishchi sikllari , ularning T – S diagrammada ko‘rinishi .....                  | 68 |
| Bug‘-kompressorli sovutish mashinasining ishchi siklini T – s diagrammada yasash .....  | 72 |
| Absorbtisiyalni va bug‘-ejektorli sovutish qurilmalari , ularning ishchi sikllari .....   | 76 |
| <b>II bo‘lim. Bug‘-kompressorli sovutish mashinalarida asosiy jarayonlar va qurilmalar hamda ularni hisoblash asoslari</b>      | 80 |
| <b>5. Sovutish mashinalarida gazlarni siqish jarayonlari va qurilmalari</b>   | 80 |
| Gazlarni siqish jarayonlari , izotermik va adiabatik siqish .....   | 80 |
| Gazlarni kompressorda siqish jarayonlarida bajarilgan solishtirma ishning miqdorini aniqlash .....                              | 81 |
| Sovutgichlar kompressorlarining asosiy turlari va ularning klassifikatsiyasi .....  | 82 |
| Porshenli kompressorlar: tuzilishi, ishslash prinsipi va asosiy modifikatsiyalari .....   | 83 |
| Rotatsion kompressorlar: tuzilishi, ishslash prinsipi va asosiy modifikatsiyalari .....   | 86 |
| Spiral’ va vintli kompressorlar : tuzilishi , ishslash prinsipi .....   | 87 |
| <b>6.Sovutish mashinalarida issiqlik almashinuv jarayonlari va qurilmalari</b>  | 91 |

|   |            |
|---|------------|
| Issiqlik almashinuv jarayonlari va qurilmalari to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlar .....   | 92         |
| Issiqlik almashinuv qurilmalarining vazifasi va konstruktiv xususiyatlariiga ko‘ra turlanishi .....                               | 95         |
| Issiqlik almashtirgichlar , bug‘latgichlar , sovutgichlar va kondensatorlar .....   | 95         |
| Kondensatorlar , vazifasi va turlari .....  | 95         |
| Bug‘latgichlar , vazifasi va turlari .....  | 100        |
| Bug‘latgichlarning maxsus quvurlari .....   | 103        |
| <b>7. Sovutish mashinalarida yordamchi jarayonlar va qurilmalar .....</b>   | <b>105</b> |
| Drossel’ – rostlash qurilmalarining vazifasi va xususiyatlari , termorostlovchi ventil (TRV) , uning o‘rnatilishi .....           | 105        |
| Resiver , uning vazifasi va o‘rnatilish joyi .....  | 109        |
| Filtrlar , vazifasi va turlari , ularning o‘rnatilish joylari .....   | 110        |
| <b>8. Bug‘ – kompressorli sovutish mashinasini hisoblash asoslari .....</b>   | <b>111</b> |
| Bug‘-kompressorli sovutish mashinasining nazariy sikli , teskari Karno sikli .....  | 111        |
| Bug‘-kompressorli sovutish mashinasining haqiqiy sikli , uning T – s va p – v diagrammalari .....                                 | 113        |
| Sistemadagi jarayonlarni hisoblash tenglamalari , siklning foydali ish koeffitsiyenti .....                                       | 115        |
| <b>III bo‘lim. Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarini saqlash uchun kameralar va sovutgichlarni hisoblash .....</b>            | <b>118</b> |
| <b>9. Sovutish kameralarining yuzasi va sovutgichlarning hajmini hisoblash .....</b>  | <b>118</b> |
| Sovutiladigan inshootlar , ya’ni sanoat sovutgichlari to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlar .....                                      | 118        |
| Sovutish kameralari va sovutgichlarning o‘lchamlarini hisoblash .....   | 120        |
| Sovutish kamerasi hajmini va uning zaruriy maydonini aniqlash tenglamalari .....  | 121        |
| Sovutish uchun zarur sovuqlikni hisoblash tenglamasi .....  | 122        |
| <b>10. Chorvachilik mahsulotlarini saqlash uchun sovutish uskuna va jihozlarini rejalah hamda loyihalash .....</b>                | <b>124</b> |
| Saqlanishi rejalahtirilgan mahsulotlarning turiga ko‘ra sovutish kameralari sonini va ularning hajmini hamda yuzasini aniqlash .. | 124        |
| Harorat va nisbiy namlikning hisoblash qiymatlarini qabul qilish ....   | 126        |

|  |            |
|--|------------|
| Kamera to'sinlarining qurilish – izolyatsiya konstruktsiyalarini tanlash .....   | 127        |
| Issiqlik izolyatsiyasi qalinligini hisoblash .....   | 129        |
| <b>11. Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarini saqlash uchun sovutish mashinasining kalorik hisoblanishi .....</b>                         | <b>131</b> |
| Kalorik hisoblashning maqsadi va vazifalari .....  | 131        |
| Kameraga kiruvchi issiqlik miqdorlarining turlari va ularni hisoblash .....  | 133        |
| To'liq kiruvchi issiqliklar miqdorini hisoblash va sovutish uskunasini tanlash .....   | 137        |
| <b>IV bo'lim. Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarini saqlashda qo'llanilayotgan sovutish uskuna va jihozlarining boshqa turlari .....</b> | <b>140</b> |
| <b>12. Kichik qayta ishslash korxonalarini uchun tayyor bug‘ – kompressorli sovutish jihozlari va uskunalarini .....</b>                     | <b>140</b> |
| Tijorat sovutgich jihozlari to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar ....  | 140        |
| Yig'ma sovutish kameralari , ularning konstruktiv xususiyatlari va standart o'lcham qatori .....   | 141        |
| Sovutgich shkaflari , ularning konstruktiv xususiyatlari .....   | 144        |
| Sovutiluvchi vitrina va prilavkalar , ularning konstruktiv xususiyatlari .....   | 147        |
| Maishiy (uy-ro'zg'or) sovutgichlari , ularning konstruktiv xususiyatlari .....   | 149        |
| <b>13. Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarini tashishda sovutgichli transportlar .....</b>  | <b>151</b> |
| Sovutgichli transportning zarurligi , qisqacha tavsifi va uning turlanishi .....   | 151        |
| Temir yo'l sovutgichli transportining tavsifi , afzalliklari va kamchiliklari .....  | 153        |
| Sovutgichli avtomobil transportining tavsifi , afzalliklari va kamchiliklari .....   | 156        |
| Sovutgichli transport boshqa turlarining qisqacha tavsifi .....  | 157        |
| <b>14. Absorbsiyaviy sovutish uskuna va jihozlari .....</b>  | <b>158</b> |
| Absorbsiya jarayoni to'g'risidagi umumiy tushunchalar .....  | 159        |
| Uzluksiz ishlovchi absorbsiyaviy sovutish mashinasining tuzilishi va ishslash prinsipi .....   | 160        |
| Absorbsiyaviy sovutish mashinasining issiqlik balansi , issiqlik koeffitsiyenti va samaradorligi .....                                       | 162        |
| Absorbsiyaviy–diffuziyaviy va brom–litiyli sovutish mashinalari ...  | 163        |

|  |            |
|--|------------|
| <b>15. Alternativ sovutish tizimlari va sovuqlik tashuvchi moddalar .....</b>  | <b>167</b> |
| Sovutish agentlari : suv , havo va kompressopli mashina uchun – dietil efiri , ammiak , metil spirti , karbonat angidrid CO <sub>2</sub> va oltingugurt angidridi SO <sub>2</sub> , ularning ayrim xossalari ..... | 167        |
| Sovuqlik tashuvchi moddalarga qo'yiladigan texnik talablar va bu talablarga maksimal mos keluvchi ammiak hamda freonlar ...  | 170        |
| Hozirgi paytda sovutish agentlariga qo'yilayotgan ekologik talablar , Montreal' bayonnomasi (protokoli) .....  | 172        |
| Muz va tuzli muz vositasida sovutish .....   | 174        |
| <b>V bo'lim. Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarini saqlash va sovuqlik bilan ishlov berish texnologiyasi asoslari ....</b>   | <b>178</b> |
| <b>16. Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarini sovuqlik bilan ishlov berishning an'anaviy texnologiyalari va yangi istiqbolli yo'nalishlari .....</b>  | <b>178</b> |
| Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarini sovuqlik bilan ishlov berishning an'anaviy texnologiyalari : sovutish va muzlatish .....   | 178        |
| Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarini sovutish va saqlash texnologiyasi asoslari .....   | 181        |
| Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlarini muzlatish texnologiyasi asoslari .....   | 184        |
| Chorvachilik va oziq–ovqat mahsulotlariga sovuqlik bilan ishlov berishda foydalaniladigan hozirgi zamон fizik–kimyoviy ta'sirlar; bu ta'sirlarni qo'llashning afzallikkleri hamda muammolari .....                 | 187        |
| <b>17. Oziq–ovqat mahsulotlarini saqlashda innovatsion texnologiyalarni qo'llash .....</b>   | <b>192</b> |
| Sovuqxonani tayyorlash .....   | 207        |
| Oldindan (dastlabki) sovutish jarayoni .....   | 208        |
| Mahsulotning sovuqxonada joylashtirilishi .....  | 209        |
| <b>18. Sovutib saqlashda qo'llaniladigan standartlar .....</b>   | <b>215</b> |
| Go'sht , baliq , sut mahsulotlarini saqlash , tashish , sotish tartibi tasdiqlandi .....   | 216        |
| <b>ILOVALAR .....</b>  | <b>217</b> |
| <b>Glossariy .....</b>   | <b>220</b> |
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .....</b>  | <b>226</b> |
| <b>Mundarija .....</b>   | <b>227</b> |

## О ГЛАВЛЕНИЕ

|   |            |
|---|------------|
| Предисловие .....   | 5          |
| Введение. Значение холодильной обработки пищевых продуктов и исторические основы ее возникновения .....   | 6          |
| <b>Раздел I. Теоретические основы холодильной техники для хранения и обработки продукции животноводства и пищевых продуктов .....</b>             | <b>9</b>   |
| 1. Холодильная техника и технология холодильной обработки для хранения и переработки продукции животноводства и пищевых продуктов как наука ..... | 9          |
| 2. Теоретические основы холодильной техники для хранения и обработки пищевых продуктов .....  | 21         |
| 3. Влияние температуры на холодильную обработку ....  | 46         |
| 4. Рабочие циклы холодильных установок и их анализ .  | 58         |
| <b>Раздел II. Основные процессы и составные элементы парокомпрессионных холодильных машин и основы их расчета .....</b>                           | <b>80</b>  |
| 5. Процессы и устройства для сжатия газов в холодильных машинах .....   | 80         |
| 6. Теплообменные процессы и устройства в холодильных машинах .....  | 91         |
| 7. Вспомогательные процессы и устройства в холодильных машинах .....  | 105        |
| 8. Основы расчета парокомпрессионной холодильной машины .....   | 111        |
| <b>Раздел III. Расчет камер и холодильных машин для хранения продукции животноводства и пищевых продуктов .....</b>                               | <b>118</b> |
| 9. Расчет площади и объема холодильных камер и холодильников .....  | 118        |
| 10. Планировка и проектирование холодильной машины и оборудования для хранения продукции животноводства ..  | 124        |
| 11. Калорический расчет холодильной машины для хранения продукции животноводства и пищевых продуктов .....  | 131        |

|   |     |
|---|-----|
| <b>Раздел IV. Другие виды холодильной техники , применяемой для хранения продукции животноводства и пищевых продуктов .....</b>               | 140 |
| <b>12. Готовые парокомпрессионные холодильные оборудование и установки для малых перерабатывающих предприятий .....</b>                       | 140 |
| <b>13. Холодильный транспорт для перевозки продукции животноводства и пищевых продуктов .....</b>   | 151 |
| <b>14. Абсорбционная холодильная техника .....</b>  | 158 |
| <b>15. Альтернативные холодильные системы и хладоносители .....</b>   | 167 |
| <b>Раздел V. Основы технологии холодильного хранения и обработки продукции животноводства и пищевых продуктов .....</b>                       | 178 |
| <b>16. Традиционные технологии и новые перспективные направления холодильной обработки продукции животноводства и пищевых продуктов .....</b> | 178 |
| <b>17. Применение инновационных технологий при хранении пищевых продуктов .....</b>   | 192 |
| Подготовка охлаждаемого помещения .....   | 207 |
| Процесс предварительного охлаждения .....   | 208 |
| Размещение продукции в охлаждаемом помещении .....  | 209 |
| <b>18. Стандарты , применяемые в холодильном хранении .....</b>   | 215 |
| Утвержден порядок хранения, перевозки и реализации мясных, рыбных и молочных продуктов .....  | 216 |
| <b>ПРИЛОЖЕНИЯ .....</b>   | 217 |
| Глоссарий .....   | 220 |
| Список использованной литературы .....  | 226 |
| Оглавление .....  | 227 |

## CONTENTS

|   |            |
|---|------------|
| Preface .....   | 5          |
| Introduction. The importance of refrigerating food processing and the historical basis of its origin .....                                  | 6          |
| <b>Section I. Theoretical foundations of refrigeration equipment for storage and processing of livestock and food products .....</b>        | <b>9</b>   |
| <b>1. Refrigeration and refrigeration processing technology for storage and processing of livestock and food products as a science.....</b> | <b>9</b>   |
| <b>2. Theoretical foundations of refrigeration technology for food storage and processing .....</b>   | <b>21</b>  |
| <b>3. The effect of temperature on refrigeration treatment ...</b>  | <b>46</b>  |
| <b>4. Operating cycles of refrigeration units and their analysis .....</b>  | <b>58</b>  |
| <b>Section II. The main processes and components of steam compression refrigerating machines and the basics of their calculation .....</b>  | <b>80</b>  |
| <b>5. Processes and devices for compressing gases in refrigerating machines .....</b>   | <b>80</b>  |
| <b>6. Heat exchange processes and devices in refrigerating machines .....</b>   | <b>91</b>  |
| <b>7. Auxiliary processes and devices in refrigerating machines .....</b>   | <b>105</b> |
| <b>8. Fundamentals of calculation of steam compression refrigerating machine .....</b>  | <b>111</b> |
| <b>Section III. Calculation of chambers and refrigerating machines for storage of livestock and food products .....</b>                     | <b>118</b> |
| <b>9. Calculation of the area and volume of refrigerating chambers and refrigerators .....</b>  | <b>118</b> |
| <b>10. Planning and design of a refrigerating machine and equipment for storage of livestock products .....</b>                             | <b>124</b> |
| <b>11. Calorific calculation of a refrigerating machine for storing livestock products and food products .....</b>                          | <b>131</b> |
| <b>Section IV. Other types of refrigeration equipment used for storage of livestock products and food products .....</b>                    | <b>140</b> |
| <b>12. Ready-made steam compression refrigeration equipment and installations for small processing enterprises ...</b>                      | <b>140</b> |

|  |            |
|--|------------|
| <b>13. Refrigerating transport for transportation of livestock products and food products .....</b>                          | <b>151</b> |
| <b>14. Absorption refrigeration equipment .....</b>  | <b>158</b> |
| <b>15. Alternative refrigeration systems and refrigerants ...</b>  | <b>167</b> |
| <b>Section V. Fundamentals of technology of refrigerating storage and processing of livestock and food products .....</b>    | <b>178</b> |
| <b>16. Traditional technologies and new promising areas of refrigeration processing of livestock and food products .....</b> | <b>178</b> |
| <b>17. Application of innovative technologies in food storage .....</b>  | <b>192</b> |
| Preparation of the cooled room .....   | 207        |
| Pre-cooling process .....  | 208        |
| Placement of products in a cooled room .....   | 209        |
| <b>18. Standards applied in cold storage .....</b>   | <b>215</b> |
| The procedure for storage , transportation and sale of meat , fish and dairy products has been approved .....                | 216        |
| <b>APPLICATIONS .....</b>  | <b>217</b> |
| <b>Glossaries .....</b>  | <b>220</b> |
| <b>References .....</b>  | <b>226</b> |
| <b>Contents .....</b>  | <b>227</b> |

**U.T.Safarov, A.H.Yusupov**

**CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI SAQLASHDA  
SOVUTISH USKUNA VA JIHOZLARI**

**O'QUV QO'LLANMA**

**Toshkent, "Fan ziyosi" nashriyoti, 2023, 236 bet**

**"Fan ziyosi" nashriyoti MCHJ**

**Litsenziya № 3918, 18.02.2021.  
Manzil: Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30**

**Nashriyot direktori  
Muharrir  
Texnik muharrir**

**I.Xalilov  
N.Toqiqulova  
L.Fayziev**

Bosishga ruxsat etildi 29 dekabr 2023 yil.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/16.  
Times New Roman garniturası.  
Shartli hisob tabog'i – 14,7. Nashriyot hisob tabog'i – 15,0  
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 12/48

**ISBN: 978-9910-743-6-5-8**

**«Sogdiana ideal print» MCHJda chop etildi.  
Samarqand sh., Tong k.,55**

